

BUKHARA
HAMD PRINT



Lazizbek Xaitov

Falsafa

Lazizbek Xaitov



Falsafa

O'quv qo'llanma

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Lazizbek Xaitov

Falsafa

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

BUXORO-2023
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

UO'K 1(075.8)

X 18

Xaitov, Lazizbek.

Falsafa [Matn] : o‘quv qo‘llanma / L. Xaitov . - Buxoro: “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti, 2023. - 396 b.

KBK 87.3ya73

TAQRIZCHILAR:

Namozov B.B.

Buxoro davlat universiteti

Falsafa fanlari doktori (DSc), professor.

Turdiyev B.S

- Buxoro davlat universiteti Falsafa

fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

E.X.Zoirov

- Buxoro muhandislik texnologiya

instituti Falsafa fanlari nomzodi, dotsent.,

O‘quv qo‘llanmada Falsafa fanining mohiyati va nazariy asoslari, o‘ziga xos asosiy tushunchalari, uning qonuniyatları, o‘qitish vositalari va ularning qo‘llanishi, falsafaning umumnazariy masalalari, uning mantiq, etika va estetikaga doir yo‘nalishlari bo‘yicha umumiylar shuningdek falsafa fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda bayon qilingan. Mazkur o‘quv qo‘llanma bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari va falsafa faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27 martdagи №- 68 sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-9530-3-1

Annotatsiya: Mazkur o‘quv qo‘llanmada Falsafa fanining mohiyati va nazariy asoslari, o‘ziga xos asosiy tushunchalari, uning qonuniyatlari, o‘qitish vositalari va ularning qo‘llanishi, falsafaning umumnazariy masalalari, uning mantiq, etika va estetikaga doir yo‘nalishlari bo‘yicha umumiylar shuningdek falsafa fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda bayon qilingan. Mazkur o‘quv qo‘llanma bakalavriat ta`lim yo‘nalishi talabalari va falsafa faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Аннотация: Данное учебное пособие описывает сущность и теоретические основы Философии, ее специфические и фундаментальные концепции, ее законы, средства обучения и их применение, общие методанные и информацию по универсальным вопросам философии, ее сферам логики, этики и эстетики, а также применение инновационных технологий при преподавании философии. Это учебное пособие предназначено для студентов, обучающихся по программе бакалавриата, а также для тех, кто интересуется философией.

Resume: In the following manual the essence and theoretical foundations of Philosophy, its specific and fundamental concepts, its laws, teaching tools and their application, general metadata and information on the universal issues of philosophy, its spheres of logic, ethics and aesthetics, as well as the application of innovative technologies while teaching the philosophy are described. This tutorial is intended for undergraduate students majoring in bachelor’s degree and those interested in philosophy

KIRISH

Insoniyat yaratgan ma’naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to‘plangan hikmatlar xazinasi, atoqli faylasuflar merosi, ularning asarlari muhim o‘rin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari o‘z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu intilishlarini falsafiy ta’limotlarida ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g‘oyalarni o‘rtaga tashlaganlar.

Falsafa fani insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri sifatida shakllangan bo‘lib, unda falsafiy mulohaza yuritish, fikrlash, olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo‘qlik kabi ko‘plab muammolar haqida bahs yuritadigan fandir. Olam va odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o‘zgarishlar, inson ongida sog‘lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirish, o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Olam haqidagi bilimlarning tobora rivojlanib borishi insoniyat tafakkurining yuksalishiga va taraqqiyotiga olib keladi. Shuning uchun falsafa fanini chuqurroq o‘rganish talabalar ongi va qalbiga falsafiy g‘oyalarni singdirish bugungi globallashuv davrida muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallahiga yo‘l qo‘ymaymiz”. Buning uchun nafaqat mas’ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha oila, mahalla va ta’lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur. Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir.

Sharq donishmandlari, “Zakovat bor joyda ulug‘lik bo‘ladi, Bilim bor joyda buyuklik bo‘ladi”. deb ta’kidlagan edilar. Bu fikrlar zamirida chuqur falsafiy g‘oyalar mujassam bo‘lganligini anglashimiz lozim. Zero, mamlakat taraqqiyoti ko‘p jihatdan ilmli, keng falsafiy dunyoqarashga ega bo‘lgan yoshlarimizni tarbiyasiga bog‘liq.


1-MAVZU FALSAFANING FAN VA DUNYOQARASHGA DOIR MOHIYATI

Reja:

1. “Falsafa” atamasining kelib chiqishi, mazmun mohiyati
2. Falsafanining predmeti, tuzilishi, funksiyalari.
3. Dunyoqarash tushunchasi va uning tarixiy shakllari.

Tayanch tushunchalar: falsafa, faylasuf, falsafiy muammolar, falsafaning milliyligi, dunyoqarash, dunyoqarashning vazifalari, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash mif, falsafada milliylik, falsafada umuminsoniylik.

“Falsafa” tushunchasi yunoncha *phileo* – *sevaman* va *sophia* – *donolik* so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, mazkur atamaning dastlabki ma’nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin.



“sevaman” va “donolik” so‘zidan olingan

Shu ma’noda, falsafa barcha fanlar rivojlanishiga asos bo‘ladigan va ulardan oziqlanadigan, ayni paytda ularning rivojlanish yo‘llarini belgilab beradigan umuminsoniy va universal ilm sohasidir. U qadim zamonlardayoq “barcha ilmlarning otasi” deb ta’riflangan. Uning hayotiyligi xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog‘liq mos ekani, jamiyat manfaatlari va ezgu intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog‘liq.

Falsafa so‘zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an’analar orqali) avloddan avlodga o‘tuvchi bilim va inson o‘z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo‘li bilan olishi mumkin bo‘lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.



Yevropa madaniyatiga esa, u buyuk yunon faylasufi Aflatun asarlari orqali kirib kelgan.

Sharqda “Ikkinchi Arastu”, “Muallimi soniy”, “Ikkinchi muallim” deya e’tirof etilgan buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873-950)

falsafa so‘zini “**Hikmatni qadrlash**” deb talqin etgan.

Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida “donishmandlikni sevish” degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e’zozlash ma’nosida ishlataligancha.

Hayot qonuniyatlarini yaxshi biladigan, umrning o’tkinchi ekani, abadiyat insonga emas, olamga xosligini yaxshi anglab yetgan, o’zi va o’zgalar qadrini to‘g’ri tushunadigan kishi hech qachon “Men - donishmandman” deya ochiq e’tirof etmaydi. Yunon donishmandi Pifagordan siz donishmandmisiz deganlarida “Yo‘q men donishmand emasman, men bor - yo‘g‘i donishmandlikni seuvuchchi oddiy faylasufman”- deb javob bergen ekan. Ayniqsa, Sharq xalqlari hayotida bu hol yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ammo, Forobiy ta’kidlaganidek, hikmatni qadrlash, olam va odam hamda hayotning qadriga yetish - boshqa gap. Shu ma’noda, bizda qadim zamonlarda faylasuf deganda, ko‘pdan – ko‘p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muallim sifatida shuxrat qozongan alloma va mutafakkir kishilar tushunilgan.

Falsafa, avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U bir tomondan, insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan, ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllardan uzil-kesil ajralish jarayoni natijasidir. Bu ikki jihat bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Chunki behuda xayolparastlik, havoyi va afsonaviy fikrlash tarzidan xalos bo‘lish ilmiy bilimlarni egallahash orqali ro‘y beradi. Eng muhimmi, falsafa kundalik turmushda uchrab turadigan eskilik asoratlari, bid’at va cheklanishlarga muxolif bo‘lgan hurfikrlikdir. Falsafa aynan ana shunday yangi dunyoqarashning shakllanishi uchun asos bo‘ldi.

“**Falsafa**” atamasi “filosofiya”ning Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Odatda u tushuncha sifatida tor va keng ma’nolarda qo‘llanadi. Xususan, keng ma’noda uni antik - qadimiy falsafada “donishmandlikni sevish” deb tushunilganini

aytib o‘tdik. Ayrim faylasuflar va falsafiy oqimlar, chunonchi, ingliz faylasufi T. Gobbs (1588—1679) uni “fikrlash orqali bilishga erishish”, nemis faylasufi Gegel “umuman predmetlarga fikriy yondashish”, Lyudvig Feyerbax “bor narsani bilish”, pragmatizm ta’limoti namoyandalari esa, “foydali narsalarni bilish jarayoni” deya talqin etgan.

Bu fanning oldiga qo‘yilgan vazifalarga va uning hayotdagi o‘rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo‘lgan munosabat ham o‘zgarib borgan. Bu munosabatlar dastlabki fanlar paydo bo‘lib va ularning ba’zilari falsafadan ajralib, alohida mustaqil fan sohasiga aylana boshlagan davrlardayoq shakllana boshlagan.

Qadimgi Yunoniston va Rim davridan buyon o‘tgan ikki ming yildan ziyodroq vaqt mobaynida “Falsafa endi yo‘q bo‘ldi, uni o‘rganishning hech bir zarurati qolmadi” qabilidagi gaplar ko‘p bo‘lgan. Lekin zamonlar o‘tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiyoj sezgan va u insonning ma’naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Bu jihatdan quyidagi rivoyat juda ibratlidir. Miloddan oldingi birinchi asrda yashab o‘tgan buyuk faylasuf Lukrestiyning shogirdlaridan biri unga qarab, “ustoz, fanning boshqa sohalariga oid ilmlar juda ko‘payib ketdi. Endi falsafani o‘rganishning hojati bormikan?” debdi. Shunda ulug‘ faylasuf, “Falsafani Suqrot, Aflatun, Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan. Lekin endilikda insoniyatning ana shunday buyuk mutafakkirlari yaratgan bu fanni o‘rganmaslik har qaysi nodonning ham qo‘lidan keladigan ish bo‘lib qoldi”, degan ekan.

Falsafa kishilarga olam to‘g‘risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o‘rganadi. Masalan, biologiya o‘simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, o‘zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o‘rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo‘nalishdagi jarayonlarning ba’zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi. Binobarin, biolog har qanday rivojlanish jarayoni bilan emas, balki faqat jonli tanadagi rivojlanish jarayoni bilan qiziqadi. Umuman, rivojlanish jarayonining o‘zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu taxlitda qo‘yilishi ilmiy

muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi. Ya’ni, shu tariqa muayyan mavzu oddiy ilm sohasidagi yo‘nalishdan falsafiy muammo tusini oladi.

Endi Faylasuf kim, degan savolga javob beraylik Filosof so‘zini, yuqorida aytganimizdek ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qo‘llagan. Bu tushunchaning ma’nosini u Olimpiya o‘yinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergen: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya’ni o‘zi va o‘zligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh savdo-sotiq qilish, boyligini ko‘paytirish uchun, uchinchisi esa, o‘yindan ma’naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko‘ra, faylasuflar edi.

Lev Tolstoy donishmand kishilarning uch xislatini alohida ta’kidab, shunday yozgan: “Ular, avvalo, boshqalarga bergen maslahatlariga o‘zлari amal qiladilar; ikkinchidan, hech qachon haqiqatga qarshi bormaydilar; uchinchidan, atrofidagi kishilarning nuqsonlariga sabr-toqat bilan chidaydilar”.

Xuddi shuningdek, Sharqda ham Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziyy, Beruniy va Ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o‘z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to‘plangan bilim va tajribalarni o‘rganishgan.

Falsafaning predmeti. “Falsafa nimani o‘rganadi?”, degan savolni berishimiz mumkin. *Falsafaning predmeti - insonda bilishga qiziqish uyg‘otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan kishining o‘ziga ma’lum bilimlar va tajriba,, muayyan e’tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug‘diradigan har qanday ob’yektiv va sub’yektiv borliqdir.* Boshqacha aytganda, *inson o‘z qiziqishi ob’yekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsa falsafaning predmetidir.*

Falsafa fanining muammolari, o‘z xususiyatlariga ko‘ra, azaliy yoki o‘tkinchi bo‘lishi mumkin. Azaliy muammolar insoniyat paydo bo‘lgan davrdayoq vujudga kelgan bo‘lib, toki odamzod mavjud ekan, yashayveradi. Chunki insoniyat

taraqqiyotining har bir bosqichida ushbu muammolar yangidan kun tartibiga quyilaveradi. Ularni o‘rganish jarayonida ilm-fan taraqqiy etibboradi.

Olam va odam munosabatlari, dunyoning mavjudligi, borliqning voqeligi, undagi o‘zaro aloqadorlik va taraqqiy etish, insoniyat hayotidagiadolat va haqiqat, yaxshilik va yomonlik, urush va tinchlik, umrning mazmuni, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog‘liq ko‘pdan-ko‘p masalalar falsafa va falsafiy bilim sohalarining azaliymuammolari sirasiga kiradi.

Falsafada olamning asosida nima yotadi, uni voqe etib turgan narsaning mohiyati nimadan iborat, degan masalalar nihoyatda uzoq tarixga ega. Qadimgi Yunoniston va Rimda bu masala “Substanstiya” tushunchasi va uning mazmunini qanday tushunilishiga qarab o‘ziga xos ifodalangan. Substanstiya deganda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to‘g‘risidagi fikr tushunilgan. Yunoniston faylasufi va matematigi Pifagor hamma narsa sonlardan tashkil topgan degan bo‘lsa, Aflatun substanstiya - g‘oyalardir degan, Demokrit esa, olamning asosida atomlar (atom tushunchasi o‘sha davrda bo‘linmas zarracha ma’nosida ishlatilgan) yotadi deb tushuntirgan.

Bu masalalarni qay tarzda hal qilinishiga qarab farqlanadigan falsafiy oqim va yo‘nalishlar ham yo‘q emas. Masalan, olamning asosida nima yotadi, uning mohiyati nimadan iborat degan masalada monizm, dualizm, plyuralizm, materializm va idealizm kabi qator falsafiy qarashlar shakllangan.

Monizm (yunoncha - monos, ya’ni yakka ma’nosini anglatadi) - olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta’lim beradigan falsafiy ta’limotdir.

Dualizm (lotin tilida dua, ya’ni ikki degan ma’noni ifodalaydi) - olamning asosida ikkita asos, ya’ni modda va materiya bilan birga ruh va g‘oya, ya’ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

Plyuralizm (lotin tilida plyural, ya’ni ko‘plik degan ma’noni anglatadi) - olamning asosida ko‘p narsa va ideyalar yotadi deb e’tirof etadigan ta’limotdir.

Materializm - olamning asosida materiya, ya’ni moddiy narsalar yotishini e’tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta’limot.

Idealizm - olamning asosida ruh yoki g'oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan bog'liq masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalar bilan falsafaning *gnoseologiya* (gnosis - bilish, logos - ta'limot) degan sohasi shug'ullanadi. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflarni - *gnostiklar*; olamni bilish mumkin emas, bilimlarimiz to'g'ri va aniq, haqiqat darajasiga ko'tarila olmaydi deyuvchilarni esa - *agnostiklar* (yunoncha - bilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatadi) deb yuritiladi.

Olamdagi o'zgarish, rivojlanishi, umumiy aloqadorlik va taraqqiyotning qaytarzda amalga oshishi, qanday sodir bo'lishi kabi masalalar ham falsafaning azaliy muammolari qatoriga kiradi. Falsafada ana shu mavzularga munosabat va ular bilan borliq muammolarni hal qilishga qarab farqlanadigan bir necha ta'limot, qarash, usul va metodlar bor. Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, dogmatika kabilalar shular jumlasidandir. Keyingi yillarda sinergetika ham falsafiy metod va ta'limot sifatida talqin etilmoqda. Falsafiy metodlar olam qonuniyatlarini tushunishga yordam beradi va bu usullardan faylasuflar o'z tadqiqotlarini amalga oshirish yoki izlanishlarining natijalarini izohlashda foydalanadilar.

Dunyoqarash tushunchasi. Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash - insonning tevarak atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. **Dunyoqarash** - olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual; dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish

mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiyligi va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Dunyoqarashning tarixiylik tamoyili. Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. Shuma'noda, har qanday dunyoqarash ijtimoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyat, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Dunyoqarashning tarixiyligi yana shundaki, u ma'lum dialektik jarayonda takomillashib boradi. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi. Ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida dunyoqarash nihoyatda oddiy bo'lgan. Agar shunday bo'limganida, har qanday jism o'z hajmiga teng suyuqlik miqdorini siqib chiqarish xossasiga ega ekanini kashf etgan qadimgi zamonning buyuk olimi Arximed "Evrika!", ya'ni "Topdim!", deya qichqirmagan bo'lar edi.

Dunyoqarash jamiyat rivojiga mos ravishda asta-sekin takomillashib borgan. Taraqqiyotning keyingi davrlarida fan sohasida qilingan kashfiyotlar inson dunyoqarashi naqadar chuqurlashib, uning bilimlar doirasi kengayib ketganini ko'rsatadi. Bunda vorislik an'anasi yaqqol ko'zga tashlanadi: har bir davrning dunyoqarashi, g'oyasi o'tmishda yaratilgan ma'naviy qadriyatlarning eng yaxshilarini, ilg'or va ijobiyalarini o'zida saqlab qoladi. Shu asosda yangi tamoyillarga ega bo'lgan dunyoqarash ham takomillashib boradi. Oddiy bug'mashinasidan kosmik raketalargacha bo'lgai fan-texnika taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Falsafiy dunyoqarash. Bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqeaga va hodisalarga, o'zgalarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi ko'pdan-ko'p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushinishi, qadrlashida namoyon bo'ladi.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiyada shakllanadi hamda rivojlanadi. Fanda

ijtimoiy borliqning barcha jihatlari aks etadi. Dunyoqarashning shakllanishida his-tuyg‘u, aql-idrok va tafakkur ham muhim o‘rin tutishi tabiiy. Uning shakllanishi kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bog‘liq bo‘lib, inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va hokazolar aks etadi. Muayyan davr dunyoqarashida zamon ruhi, ijtimoiy kuchlarning kayfiyati, intilishi ham o‘z ifodasini topadi. Masalan, bugungi O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash zarurati istiqlol dunyoqarashini shakllantirishga ulkan ta’sir ko‘rsatmoqda.

Falsafiy dunyoqarash murakkab tuzilishga ega. U muayyan bilimlar, kelajakka qaratilgan g‘oya va maqsadlar, tabiiy va ijtimoiy fan yutuqlari, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch, e’tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Bularning ichida e’tiqod muhim ahamiyat kasb etadi. U dunyoqarashning mazmunini tashkil etadigan asoslardan biridir. E’tiqod insonning o‘z qarashlari va g‘oyalari to‘g‘riligiga, orzu-umidlarining asosli ekaniga, faoliyati va hatti-harakatining umumiy maqsadlarga va talablarga mosligiga bo‘lgan chuqr ishonchidan paydo bo‘ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilashda, ularni boshqaradi, shaxsni omilkorlikka, samarali faoliyatga undaydi.

Inson aqli unga xos hissiyot va tasavvurlar asosida ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi va takomillashtiradi. Har bir kishiga xos hissiyot va fikr, bilim va e’tiqod, intilish va kayfiyat, orzu- umid va qadriyatlar dunyoqarash tarkibida yaxlitlashadi va olamni bir butun holda aks ettiradi. Birbutun, yaxlit dunyoqarashing shakllanishi bolalikdan boshlanib, inson hayotining oxirigacha davom etadi. Bu holat individual dunyoqarashning asosiy tamoyillaridan birini ifodalaydi.

Inson ongli ijtimoiy mavjudot bo‘lgani bois, uning dunyoqarashi muayyan ehtiyoj va manfaatlarga asoslanadi. Demak, har qanday dunyoqarash muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki tabaqaning o‘z ehtiyoj, manfaatlaridan kelib chiqqan holda borliqqa munosabatini ifodalovchi g‘oyalar, nazariyalar, bilimlar majmuasi, ruhiy holat va e’tiqod mujassami hamda ularning namoyon bo‘lishidir,

Falsafiy dunyoqarash, mohiyat-mazmuniga ko‘ra, ma’naviy faoliyat bo‘lgani bois, u borliqqa bo‘lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo‘nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarining jamiyatdagi axloqiy munosabatlari - axloqiy dunyoqarashlarida, huquqiy munosabatlari - huquqiy, siyosiy munosabatlari - siyosiy, diniy munosabatlari - diniy, ekologik munosabatlari - ekologik dunyoqarash shakillarida o‘z ifodasini topgan. Buni tizim tarzida izohlaydigan bo‘lsak, quyidagicha ko‘rinish kasb etadi: axloqiy, siyosiy, diniy, ekologik, huquqiy, estetik.

Bu tizimni tashkil qilgan nisbatan mustaqil dunyoqarash shakllari o‘zaro bog‘liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi.

“Dunyoqarash” tushunchasi o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g‘urur, tarixiy xotira, ma’naviy barkamollik kabi tuyg‘u va tushunchalar bilan uzviy bog’liq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo‘lagiga aylanadi.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo‘lib, jamiyat rivojlanishining ma’naviy mezoni sifatida namoyon bo‘lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarining tabiatga, o‘zlarining ijtimoiy hayotiga bo‘lgan munosabati turli rivoyatva afsonalarda o‘z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan. Yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmunidan dalolat beradi. Xususan, o‘zbek xalqi sivilizastiyasi jarayonida yaratilgan rivoyat, afsona va boshqa janrlardagi og‘zaki ijod namunalari millatimiz tarixida qanday ma’naviy qiyofaga ega bo‘lganini hanuz ko‘rsatib turadi. Ular bugungi kundajahon ahlini hayratga solmoqda. Masalan, qadimiy merosimiz namunasi - “Avesto”da yaxshilik ramzi - Axuramazda va yomonlik timsoli - Axriman o‘rtasidagi kurash tarixi misolida oxir- oqibatda ezgulik baribir g‘alaba qozonadi, ya’ni yorug‘lik zulmat ustidan g‘alaba qiladi, degan g‘oya asosiy o‘rinni egallaydi va hayotbaxsh g‘oyalari ilgari suriladi.

Mifologik dunyoqarash qadimgi zamon kishilarining o‘zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va haqiqat uchun

kurash g‘oyalarining ifodasi bo‘lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbat, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

Dunyoqarashning mifologik mohiyati bugunga fan-texnika taraqqiyoti, insonning aqliy salohiyati bag‘oyat yuksalib ketgan davrda juda jo‘n va ibtidoiy bo‘lib ko‘rinadi. Ammo afsona va rivoyatlar o‘zining kuchli jozibasi, insonparvarlik g‘oyalari bilan hozirgi kunda ham kishilarni ezgu fazilatlar ruhida tarbiyalashning ta’sirchan va samarali omili bo‘lib qolmoqda.

Diniy qarashlar. Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo‘lgan e’tiqodi bilan bog‘liq bo‘lib, vujudga kelishigako‘ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega.

Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e’tirof etish bilan bog’liq bo‘lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratlarga e’tiqod qo‘yish bilan bog‘liq. Shuning uchun ham bu dunyoqarash shaklini inson qalbidagi quydag‘i holatlar belgilaydi:

- *emostional-ruhiy holatlar;*
- *iymon-e’tiqod;*
- *iymon-e’tiqodning hatti-harakatlarda ifoda etilishi.*

Bular ayni paytda diniy dunyoqarashning asosiy tamoyillarini ham tashkil qiladi.

Hozirgi davrda fan, texnika, dunyoviy ilmlarning kuchayib ketishi bilan “Diniy dunyoqarash, tafakkurning, insonni o‘rab turgan dunyoga, o‘zi kabi odamlarga munosbatning yagona usuli bo‘lmaganligini ham ta’kidlash zarurdir. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo‘lgan holda rivojlanib kelgan”.

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o‘rganadi. *Teologiya* - olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o‘lim muammosi kabi masalalarini ilohiyot, diniy e’tiqod tushunchalari bilan bog‘lab tahlil qilish hamda o‘ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir qancha asosiy vazifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan bog‘liq reguliyativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman,

dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati benihoyat ulkan va u tobora ortib bormoqda.

Falsafiy dunyoqarashning asosiy yo‘nalishlari. Dunyoqarash tizimi va unga xos nisbatan mustaqil yo‘nalishlarning har birini falsafiy mulohazaning oydinlashgan (konkretlashgan) shakli sifatida qarash mumkin. Falsafiy dunyoqarash, sodda qilib aytadigan bo‘lsak, insonning olam, odam va borliqqa munosabatini ifodalovchi bilimlar tizimidir. Unga inson borlig‘ining mohiyati nuqtai nazaridan yondashiladigan bo‘lsa, moddiy yoki ma’naviy jihatlari nechog‘lik mutlaqlashtirilishiga qarab, uning tarkibida materialistik va idealistik dunyoqarash yo‘nalishlari mavjudligini ko‘ramiz.

Falsafiy dunyoqarash borliq haqidagi ilmiy qarashlar tizimining o‘z-o‘zicha shakllangan (mexanik) yig‘indisi emas, balki ularning umumiy qonuniyatlar asosidagi tizimidir.

Falsafiy dunyoqarash ilmiyidir, chunki u narsa va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli obyektiv olamdagи narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks etgiradi.

Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili jamiyatning o‘tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar matiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur etadi.

Falsafiy dunyoqarashning universalligi boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya’ni har qanday dunyoqarash shakli o‘ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

Falsafiy dunyoqarash maqsadga muvofiq bo‘lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o‘z dunyoqarashida aks ettiradi.

Falsafiy dunyoqarashning g‘oyaviylik tamoyili, uning asosida muayyan

g‘oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o‘zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik o‘zlikni anglash, millatimiz kelajagani belgilaydigan istiqlol g‘oyasiga tayanishi bilan harakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g‘oyani e’tiqodga aylantirish va uning amalga oshishiuchun xizmat qiladi.

Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri *nazariya va amaliyot birligidir*. Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo‘l kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilishi jarayonida uning usul va vositalari muhim axamiyatga ega.

Falsafiy dunyoqarashning vazifalari (funksiyalari). Falsafiy dunyoqarashning zikr etilgan tamoyillari, uning vazifalarini belgilab beradi. Ya’ni, bu vazifalar jamiyatning umumbashariy ruhdagi maqsad-muddaolaridan, manfaatlaridan kelib chiqadi hamda boshqa dunyoqarash shakllari uchun uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoqarash, avvalo insoniy munosabatlar ifodasidir. Shu nuqtai nazardan, u insonning borliqqa munosabatida, dastlab uning bahosi tarzida ko‘zga tashlanadi.

Bu - falsafiy dunyoqarashning *baholash* vazifasini anglatada. Ya’ni, inson, o‘z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqib, narsa-hodisalarni: yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratadi.

Inson narsa-hodisalarga baho berar ekan, buning zamirida uning ijtimoiy hayoti, ya’ni ongli munosabatlari yotadi. Bunda inson yoki jamiyat munosabatlari dunyoqarashning o‘zi tayanadigan omillarga (ideallariga) moslantiriladi. Orzu-havaslarga erishishning usullari, vositalari, amaliyyo‘nalishlari belgilanadi.

Dunyoqarash inson faoliyatini axloqiy me’yor, diniy qadriyat, huquqiy hujjat va siyosiy mehanizmlar kabi usul-vositalar orqali *boshqarish* vazifasini ham ado etadi. Bunda falsafiy dunyoqarashning o‘zicha nisbatan mustaqil bo‘lgan har bir yo‘nalishi o‘ziga xos boshqarish usuliga ega bo‘ladi. Masalan, insonni ezgulikka yo‘naltirish uchun axloq uning aql-zakovatiga; din - iymon-e’tiqodiga; huquq -

qonunlarga, jazo idoralariga; siyosat-davlat funkstiyalariga tayanadi va o‘ziga xos ta’sir yo‘nalishlariga ega bo‘ladi.

Falsafiy dunyoqarashning inson faoliyatini ***nazorat qilish*** vazifasi ham bor. Bunda dunyoqarashning jamoatchilik fikri tarzidan ko‘rinishi nazarda tutiladi. Masalan, o‘zbek xalqining tarixiy rivojlaniish va ma’naviy hayot tarzida mahalla ijtimoiy nazoratning muhim instituti tarzida faoliyat ko‘rsatgan.

Masalan, tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, muayyan davrlarda falsafiy dunyoqarash inson tub manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lganligini, millat kelajagini belgilaydigan ozodlik g‘oyasi atrofida kishilarni birlashgirganini ko‘ramiz. Bu hol mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurash davrida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ushbu g‘oya (ozodlik falsafasi) dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida millatning turli tabaqalarini, e’tiqodi, iqtisodiy ahvoli va siyosiy mavqeidan qat’i nazar, birlashtirgan va umumiy kurashga safarbar qilgan.

Binobarin, falsafiy dunyoqarashning ***tarbiyaviy*** vazifasini yuqorida zikr etilgan boshqa vazifalarning asosi sifatida qarash kerak. Bu - kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bag‘rikenglik, murosa, qanday ziddiyatlarni madaniy yo‘l bilan hal qilish, keljak va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. “Falsafa” tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunasiz ?
2. Falsafaning bahs mavzusi nima ?
3. Dunyoqarash nima ?
4. Falsafiy dunyoqarashning g‘oyaviy ildizlari nimalarda namoyon bo‘ladi ?
5. Dinning dunyoqarash tizimidagi o‘rni va ahamiyati qanday ?
6. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari nimalardan iborat ?
7. Aflatunning g‘oyalar dunyosi haqidagi ta’limotining mohiyati nimadan iborat?
8. Arastu haqida nimalarni bilasiz ?

Mavzu bo‘yicha taqdimotlar



Yunoncha
phileo – sevaman va
sophia – donolik
so’zlaridan kelib chiqqan bo’lib
mazkur atamaning dastlabki
ma’nosini
Donolikka muhabbat
deb talqin qilish mumkin

Falsafiy bilimning muhim tarkibiy qismlari



ontologiya –
mavjudlik, borliq
haqidagi bilim



Ijtimoiy falsafa-
jamiyat haqidagi
ta’limot



aksiologiya –
qadriyatlar haqidagi
ta’limot



gnoseologiya
– bilish nazariyasi



etika – axloq haqidagi
ta’limot



*Falsafiy
antrapalogiya* –
Inson haqidagi
ta’limot

Mustaqil falsafiy fanlar



Etika

*Ma’naviyat va Axloq
haqidagi ta’limot*



Mantiq

*Inzoning bilishiň anadga
oskirish shakllari va
qonulcasi va uzdlarini
o’rganadiganfan*



Estetika

*Go’zallik qonunlariga
muvofiq ijodning
mohiyati va shakllari
haqidagi fan*

Falsafaning yangi sohalari



Falsafaning asosiy masalalari





Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
1.”Falsafa tushunchasining mohiyatini siz qanday tushunsiz? 2. Dunyoqarash nima? 3. Dinning dunyoqarash tizimidagi o‘rni va ahamiyati qanday? 4. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari nimalardan iborat?			


- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi
- muammoning mazmunining tushunish muhim bosqich hisoblanadi (1-ustun)
- Voqeliklarning sabab va omillari bilan (2-ustun) to‘ldiriladi
 - Muammoning yechimi to‘liq izohlanishi kerak (3-ustun).
 - Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (4-ustun)

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Venn diagrammasi*” interfaol usuli orqali tushuntirish.

Mavzu mashg‘uloti uchun topshiriqlar:

1. Falsafiy dunyoqarashning g‘oyaviy ildizlari nimalarda namoyon bo‘ladi
2. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz “Venn diagrammasi” orqali boshqaruvning totalitar va yangi usullarining umumiyligini qiyosiy tahlil qilinadi. Masalaning o‘zaro bog‘liqligini xulosalash uchun quyidagi tushunchalar tanlandi:

1)* mifologik 2)* diniy 3)* falsafiy



Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “*Venn diagrammasi*” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “*Venn diagrammasi*” interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo‘lib, masala mohiyati unga yaqin bo‘lgan tushuncha va ma’lumotlar orqali o‘zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilganidan so‘ng, ularni bog‘lovchi hususiyatlarni A)* va B)* qatorga to‘ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

TESTLAR

1. Falsafa atamasini birinchi bo‘lib qaysi faylasuf o‘z asarida qo‘llagan?

- A) Aristotel
- B) Pifagor
- C) Suqrot
- D) Platon

2. Falsafa metodlari qaysilar?

- A. Dialektika, metafizika, sofistika, eklektika
- B. Tarixiy, ob`ektiv, sub`ektiv
- C. Doimiy, vaqtinchalik, mavsumiy
- D. Analiz, induksiya, deduksiya

3. Falsafada olamni bilib bo‘lmaydi deb talqin qiluvchi ta’limot?

- A. Agnostisizm
- B. Gnostiklar
- C. Rasionalistlar
- D. Nominalistlar

4. Falsafada olamni bilish mumkin deb talqin qiluvchi ta’limot?

- A. Gnostiklar
- B. Ratsionalistlar
- C. Agnostisizm
- D. Nominalistlar

5. Falsafa predmetining mohiyati nimadan iborat?

- A. Insonning olamga munosabati, uning olamda tutgan o‘rni va roli haqida, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlari haqida bilimlar tizimini hosil qilish
- B. Tabiatning barcha qonunlarini o‘rganish
- C. Asosan, jamiyat hayoti va taraqqiyot qonunlarini o‘rganish
- D. Tabiiy ilmiy bilimlarni tartibga solish

2-MAVZU: BORLIQ FALSAFASI (ONTOLOGIYA)

Reja:

1. Ontologiya borliq haqidagi ta`limot.
2. Falsafiy qonunlar
3. Borliqning mavjudlik shakllari: harakat, fazo, vaqt.
4. XX asrda ekologik tanglik. Ekologiyaning kelib chiqishi

Tayanch tushunchalar: borliq, ontologiya, substansiya. olam, odam, monizm, dualizm, idealizm, materializm, yo‘qlik, materiya, harakat, fazo, vaqt.

Ontologiya tushunchasi. O‘quv kurslarida asosiy falsafiy muammolarni o‘rganish odatda ontologiyadan boshlanadi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo‘lib, unda borliq va yo‘qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o‘rganiladi, shuningdek mavjudlik sifatiga ega bo‘lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. “**Ontologiya**” atamasi falsafada faqat XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha o‘zaklarga ega bo‘lib (*ontos – borliq, logos – so‘z, ta’limot*), borliq haqidagi ta’limot degan ma’noni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida o‘rin egallaydi. Ikki yarim ming yillik faol falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida ontologiyadan tashqari falsafaning muhim falsafiy mazmun kasb etadigan gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq kabi tarkibiy qismlari paydo bo‘ldi. Lekin ularning barchasi zamirida ontologiya yotadi. O‘z navbatida ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o‘z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko‘p jihatdan belgilaydi.

“Borliq” kategoriyasi” Aksariyat falsafiy tizimlarning kategoriyalar apparatini tashkil etadigan ko‘p sonli falsafiy kategoriyalar orasida “borliq” kategoriyasi doimo markaziy o‘rinni egallaydi. Chunki u har qanday predmet, hodisa, voqeа va shu kabilarning eng muhim xususiyatini, aniqroq aytganda, ularning mavjud bo‘lish, bevosita yoki bilvosita namoyon bo‘lish, o‘zaro ta’sirga kirishish qobiliyatini aks ettiradi.

Bu inson o‘zligini va o‘zini qurshagan borliqni anglashga ilk urinishlaridayoq duch keladigan har qanday obyektning, borliq har qanday qismining umumiy xossasidir.

Inson aqlli jonzot sifatida shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridayoq o‘z dunyoqarashining negizini tashkil etadigan muhim savollarga javob topish zaruriyati bilan to‘qnash keladi:

1. “Men kimman?”
2. “Meni qurshagan borliqning mohiyati nimada?”
3. “Borliq qanday va qayerdan paydo bo‘lgan?”
4. “Dunyoni nima yoki kim harakatlantiradi?”
5. “Dunyoning rivojlanishida biron-bir maqsad, maqsadga muvofiqlik, mo‘ljal bormi?”

Inson bunday savollarga javob berishga kirishar ekan, uning ongi avvalo o‘zi nima bilan bevosita ish ko‘rayotganini qayd etadi. Buni aniq anglamasdan, u o‘zining dunyo haqidagi mulohazalarini aniq-ravshan narsalarni qayd etishdan boshlaydi. Shu tariqa inson va uning ongi o‘zini qurshagan barcha narsalar avvalo mavjud bo‘lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Shunday qilib, borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo‘lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi hisoblanadi. Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoy qilingan markazidan o‘rin oldi. Mifologyaning bosh vazifasi – “borliqni kim yaratgani” haqida gapirib berishni falsafa “borliqning nimaligi, u qayerdan paydo bo‘lgani va qayerga yo‘qolishi”ni oqilona tushuntirish bilan almashtirgani tasodifiy emas. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to‘qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi “borliq” nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy ma’no yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. Mazkur dastur bo‘yicha ta’lim oluvchilar tarixiy-falsafiy kurs bilan tanish bo‘lishlari lozimligini hisobga olib, bu yerda faqat falsafiy tafakkur tarixiga qisqacha to‘xtalamiz va mazkur muammoni anglab yetish jarayonidagi muhim bosqichlarinigina qayd etamiz.

Borliq tushunchasi. Faylasuflar qadim zamonlardan buyon “**borliq**” va “**yo‘qlik**” haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vujudga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko‘plab asarlar yozishgan. Xo‘sh, **borliq nima?** Bu savol bir qarashda juda oddiy ko‘ringani bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni birday qanoatlantiradigan javob topilgani yo‘q. Bu holat borliqqa turlicha nuqtai nazarlardan qarashlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog‘lab tushuntirishadi. Ularning nuqtai nazarlaricha, borliq - obyektiv realliknigina qamrab oluvchi tushunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o‘y-xayollarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar obyektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.

Falsafaning borliq haqidagi ta’limotni izohlaydigan qismi — **ontologiya** deb ataladi. (Bu tushunchani falsafada birinchi bor X. Volf qo‘llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o‘rganadi.

Yo‘qlik hech nima demakdir. Hamma narsani hech narsaga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham **yo‘qlikdir**. Bu ma’noda yo‘qlik cheksizlik, nihoyasizlik va mangulik bilan birdir. Yo‘qlik chekingan joyda borliq paydo bo‘ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasasi ham yo‘qlikdir. Borliq yo‘qlikdan yo‘qlikkacha bo‘lgan mavjudlikdir. Yo‘qlikni hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Fanda yo‘qlik nima, degan savolga javob yo‘q.

Siz bilan biz yashayotgan shu dunyo o‘zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi, butun go‘zalligi bilan yagona olamni tashkil etadi. **Olam** tushunchasi, eng avvalo, olam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Agar odam bo‘lmaganida edi, bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo‘lmash edi. Demak, olam odam bilan mazmundordir. Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan

birgalikda namoyon bo‘ladi. Hech narsasi yo‘q olam yo‘qlikdir. U mavhum tushuncha, ya’ni abstrakstiyadir.

Olam asosida yotuvchi to‘rt unsurni: *havoni, suvni, tuproqni va olovni* muqaddaslashtirish singari g‘oyalalar vujudga keldi hamda, olam to‘g‘risidagi sodda kosmologik qarashlar paydo bo‘lgan.Odamning tirikchiliginin ta’minlovchi narsalarni odam uchun, uning yashashi uchun xudo tomonidan yaratilgan ne’matlar deb bildi.Bunday qarashdan olam odam uchun yaratilgan, degan ma’no kelib chiqadi. Aslida qanday? Bu falsafiy muammodir. Odam hayvonlardek tabiatdagi bor narsalardan oziqlanish bilangina chegaralanib qolmasdan, ularni o‘ziga moslashtirishga, sovuq bo‘lsa - isitishga, xom bo‘lsa – pishirishga, issiq bo‘lsa – sovutishga intiladi.Olamni odam o‘ziga, o‘z ehtiyojlariga moslashtirishga intilib kelgan.Shu tarzda odam ham, olam ham takomillashib, yer yuzi o‘ta “xonakilashtirilgan” olamga aylangan. Odamzod va hayvonot olami, o‘simlik va hasharotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy, ma’naviy olam va shu singari boshqa ko‘plab tushunchalar bor. Ular dunyoda mavjud bo‘lgan narsa va hodisalar nomi bilan ataladi.

Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni birlashtiruvchi shunday bir umumlashtiruvchi tushuncha ham borki, u obyektiv olamning mazmunini ifoda etadi. Bunday tasavvurlar butun fan tarixi mobaynida rivojlanib kelgan. Bu umumlashtiruvchi tushuncha, narsalarning asosida nima yotadi, degan nuqtai nazardan kelib chiqib, substansiya (lotincha, substantia – nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat, degan ma’noni beradi) deb ataldi.

Substanstiya – muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma – xil ko‘rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo‘luvchi mohiyatdir. Shuningdek, olamning asosida ham moddiy jism yoki materiya, ham g‘oya yoki ruh yotadi deb hisoblovchi faylasuflar **dualistlar** (dualizm lotincha, dualis – ikkilangan degan tushunchani anglatadi) deb hisoblanadi. Olamning asosida substansiylar yotadi, deb hisoblovchilarni esa **plyuralizm** (lotincha pluralis ko‘philik so‘zidan olingan) tarafдорлари deb atashadi.

Olamni anglash to‘g‘risida turlicha, hatto bir – biriga qarama – qarshi qarashlar mavjud. Bunday qarashlar odamlarning olamga o‘z o‘lchovlari bilan qarashlari oqibatida paydo bo‘ladi. Birov uchun olam yaxshi va yomon, oppoq va qora ranglardan tashkil topgan, boshqa ranglarning bo‘lishini u tasavvuriga ham sig‘dira olmasligi mumkin. Ular oq bilan qora oralig‘ida oqimtirroq yoki qoraroq ranglar ham bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qilishadi.

Olam tushunchasi keng qamrovli va keng yo‘nalishli tushuncha bo‘lib,ma’lum ma’noda voqelikka tizimli, ya’ni sistemali yondashishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan olam tushunchasi nisbiy mohiyatga ega. Ba’zi kishilar olam deganda, barcha narsalarni qamrab oluvchi universal sistemani tushunadi. Bu ma’noda olam kosmologik koinot tushunchasiga mos keladi.

Diniy – kosmologik qarashlarda olam ilohiy qudrat kuchi bilan yaratilgan, deb talqin etiladi. Bu olamning vaqtda boshlanishi mavjudligiga,ya’ni uning chekli ekanligiga ishoradir. Islom dinidagi kosmologik qarashlarda o‘n sakkiz ming olam haqida gapiriladi va mazkur qarash bo‘yicha biz yashayotgan moddiy olamdan tashqari, undan mustaqil bo‘lgan ko‘plab boshqa olamlar ham mavjuddir,deyiladi.

Hozirgi zamон kosmologiyasida ham fanga asoslangan bir qancha konseptstiyalarda olam o‘tkinchi,tabiiy ravishda paydo bo‘lgan, degan g‘oya ilgari suriladi. Angliyalik olim Stiven Loking “Olam vujudga kelmasdan ilgari nima bo‘lgan?” degan savolning mantiqsizligini, vaqtning faqatgina kelajakka yo‘nalgan oqimini ifodalovchi modeli vositasida asoslashga harakat qilgan.Uning fikricha, bu shimoliy qutb nuqtasidan turib qaraganda, hamma nuqtalar faqat janubga olib boradigan holatni eslatadi.Bu olamning boshlang‘ich holatidir.Vaqtning kelajakka olib boruvchi yo‘nalishigina mavjud bo‘lgan holati olamning boshlanishidir.Bunda faqat kelajak mavjud.

Olam haqidagi diniy tasavvurlar uning kelajagi,yaratilishi yoki o‘tmishiga oid murakkab masalalarni, asosan, ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin etadi. Dinda olamni “bu dunyo” – o‘tkinchi olam va “narigi dunyo” – abadiy olamga ajratib tushuntirishadi. Bu dunyodagi mashaqqatlari evaziga odam narigi dunyoda rohat – farog‘atga tuyassar bo‘ladi, degan g‘oyaga asoslaniladi.

Fan olam to‘g‘risida o‘ziga xos fikr yuritadi. Unda olamga oid murakkab masalalarni amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga uriniladi. Mavjud ilmiy mantiq doirasidan chetga chiquvchi hodisalar esa izohlanmaydi. Ayrim ajoyibot hodisalarining fan tadqiqot obyektiga kiritilmaganining sababi ana shunda. Falsafadagi olam tushunchasi kosmologiyadagi, dindagi va boshqa bilim sohalaridagi olam tushunchalariga nisbatan boyroq, sermazmunroq va kengroqdir.

Olamning namoyon bo‘lish shakllari xilma-xildir. Faqat moddiy jismlarnigina o‘ziga qamrab oluvchi olamni moddiy olam deyishadi. Ayrim kishilar uni jismoniy, ya’ni fizik olam deb atashadi. Odamning ma’naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamni ma’naviy olam deyishadi. Aynan shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo‘lgan olam aktual olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo‘lish imkoniyati bor va bo‘lishi mumkin bo‘lgan olam potenstial olam deyiladi.

Olamning mavjudligi shubhasiz bo‘lgan va barcha e’tirof etadigan qismi real olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan olam virtual olam deyiladi (virtual so‘zi lotinchavirtualis – ehtimoldagi degan ma’noni beradi). Aniq ma’lum bo‘lgan olam konkret olam deyiladi, hayoldagi , tasavvurdagi olam abstrakt olam deyiladi. Odamning kundalik hayotidagi hammaga ma’lum bo‘lgan, tan olingan hayoti real olamga mansub bo‘lsa, uning xayoliy rejalar virtual olamga, uning o‘zi va atrofdagilar konkret olamga, kelajakka yo‘naltirilgan orzu-umidlar abstrakt olamga mansubdir. Odam o‘z rejalarini real olamga asoslanib tuzsa, potenstial olamning konkret reallikka aylanish ehtimolligi oshadi.

Odamlar jamiyatdagi o‘zaro munosabatlari, faoliyatları, o‘y – xayolları, maqsad va maslakları bilan birgalikda ijtimoiy olamni tashkil etishadi. Individual olam, ayni paytda tashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks ettiradi, o‘zida ifodalaydi.

Borliq haqidagi konseptsiyalar. Tarixdan ma’lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g‘oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog‘ida vujudga kelgan zardushtiylik ta’limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alangalanib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkiletadi, deb hisoblangan. Chunki bu

g‘oya bo‘yicha, har qanday o‘zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik baxsh etadi.

Qadimgi yunon faylasufi **Suqrot borliqni** bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkina bor bo‘ladi, insonning bilimi qancha keng bo‘lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi.

Qadimgi dunyoning atomist olimi **Demokrit borliq** atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo‘lmagan narsa yo‘qlikdir.

Islom ta’limotida esa borliq bu ilohiy voqelikdir. Ya’ni u Olloh yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta’limotlari bo‘lgan.

Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta’limotni har taraflama rivojlantirganlar. Masalan, **Forobiy** fikricha, ilk borliq azaliy Ollohning o‘zidir. **Beruniy** fikricha, borliq shunday umumiyligliki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir. Yevropada o‘tgan olimlar **David Yum** va **Jorj Berkli** borliqni sezgilarimiz majmuasi deb talqin etishgan.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo‘lib o‘ziga butun mavjudlikni, uning o‘tmishi, hozirva kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo‘qlik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabiyotlarda borliqni obyektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o‘ziga obyektiv va subyektiv reallikni, mavjud bo‘lgan va mavjud bo‘ladigan olamlarni, moddiylik va ma’naviylikni, o‘tmish va keljakni, o‘limni va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

Borliq va mavjudlik. Atrofimizdagи odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g‘oyalar, o‘y- xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo‘lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta’rifiga faqat obyektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog‘liq bo‘lmagan jismoniy mohiyatga ega bo‘lgan

narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potenstial, abstrakt, ma’naviy shakllari bu ta’rifdan tashqarida qoladi.

Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstrakstiya bo‘lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o‘ziga qamrab oluvchi o‘ta keng tushunchadir. U o‘ziga nafaqat obyektiv reallikni, balki subyektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik -borliqning hozirgi paytda namoyon bo‘lib turgan qismi bo‘lib, o‘tgan va mavjud bo‘ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo‘lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o‘ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An’anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko‘rsatiladi. Ularga: ***tabiat borlig‘i, jamiyat borlig‘i, ong borlig‘i*** kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig‘i va jamiyat borlig‘ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. Tabiat borlig‘i odatda tabiatdagi narsalar (*jismalar*), jarayonlar, holatlar borlig‘i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo‘linadi: azaliy tabiat borlig‘i (yoki tabiiy tabiat borlig‘i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo‘lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig‘i (“ikkinci tabiat” borlig‘i, ya’ni madaniyat). Ikkinci tabiat borlig‘i esa, o‘z navbatida, quyidagi ko‘rinishlarda uchraydi:

- ***inson borlig‘i*** (insonning narsalar olamidagi borlig‘i va odamning o‘ziga xos bo‘lgan insoniy borlig‘i);
- ***ma’naviy borliq*** (individuallashgan va obyektivlashgan ma’naviy borliq);
- ***sostial borliq*** (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig‘i va jamiyat borlig‘i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

Borliqning atributlari. Muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari bo‘ladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir. “harakat, fazo, vaqt, in’ikos, ong va boshqalar”. Borliq

o‘zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Endi borliqning atributlari, ya’ni ajralmas tub xususiyatlari haqida to‘xtabo‘taylik.

Harakat. Borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o‘zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi. Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling, qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo‘lmaganida edi, yorug‘lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo‘lar edi, ya’ni biz uni ko‘rmagan bo‘lar edik. Shuningdek, bu jismning yaxlitligini saqlab turgan molekulalar, atomlar, elementar zarrachalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar ham bo‘lmashdi. Natijada bu jismning strukturaviy birligiga putur yetgan bo‘lar edi. Tevarak-atrofimizdagи predmetlar va hodisalar harakat tufayli o‘zining muayyan tartibini va birligini saqlab turadi, shu tufayli, o‘sish, ulg‘ayish, ravnaq topish, rivojlanish mavjuddir.

Harakat, bir tomonidan, moddiy jismlar o‘rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o‘rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomonidan esa, ulardagи o‘zgarishlar sifatida sodir bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan ham falsafaning harakat bu umuman har qanday o‘zgarishdir, deyilgan ta’rifi juda o‘rinlidir. Harakatning manbai haqida gap ketganda, ana shu o‘zgarishlarning asosida yotuvchi o‘zaro ta’sirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi. Demak, har qanday harakatning manbai shu sistemadagi ichki o‘zaro ta’sirlar ekan, har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklari ta’minlaydi.

Harakatning turlari haqidagi mulohaza, asosan, o‘zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. O‘zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o‘zgarishlargacha takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagи barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtai nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o‘zgarishning xilma-xil ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular bir-biridan sifatiy farq qiladi.

Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik o‘zgarishlar bilan ijtimoiy o‘zgarishlarni aslo taqqoslab bo‘lmaydi. To‘g‘ri, bu o‘zgarishlar uchun umumiyl bo‘lgan fazoviy

siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u yoki bu ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Lekin hamma o‘zgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo‘lmaydi. Masalan, yerning Quyosh atrofidagi, Oyning yer atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko‘rinishi deyishimiz mumkin. Lekin yer bag‘rida ro‘y berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, yer sirtidagi biosferaning yashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo‘lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo‘lsa, u bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar ham shu qadar murakkab bo‘ladi. Materianing tashkiliy struktura darjasи qanchalik yuqori darajada bo‘lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi. O‘zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. ***Rivojlanish*** bu - *muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo‘nalishga ega bo‘lgan, miqdoriy va sifatiy o‘zgarishidir.*

Ijtimoiy harakat bizga ma’lum bo‘lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo‘lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarning faoliyati, o‘zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartibharakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo‘lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o‘ta murakkabdir.

Borliqning asosiy yashash shakllariga ***fazo*** va ***vaqt*** kiradi. ***Fazo*** narsalarning ko‘lamini, hajmini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzlusizligini ifodalasa, ***vaqt*** hodisalarining ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi. Ma’lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko‘lamga, hajmga ega. ***Fazo*** — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt fazoning muayyan nuqtasida ro‘y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko‘p hollarda, forsiy til ta’sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma’nosida, vaqt esa hodisalar bo‘lib o‘tadigan muddat ma’nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtini tushunish bo‘yicha substansial va relyastion yondashishlar mavjud. Substansial konstepstiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo‘shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o‘ziga narsalarni sig‘diruvchi substansiya. Hech narsasi yo‘q, ya’ni narsalar solinmagan fazo ham bo‘lishi mumkin, deyiladi. Relyastion konstepstiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o‘lchamga ega, deyishadi.

Fazo va vaqtning xususiyatlari. Fazo va vaqt borliq miqdoriy va sifatiy jihatlarni ifodalashiga qarab, metrik va topologik xususiyatlarga ega. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o‘lchanadigan, ko‘zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko‘lam, bir jinslilik, izotroplik (anizotroplik) kabi xususiyatlar kiradi. Fazo (vaqt) ning metrik o‘zgarishlari borliq strukturasini jiddiy o‘zgartira olmaydi, topologik o‘zgarishlar esa borliqning sifatiy o‘zgarishiga sababchi bo‘ladi. Masalan, bir bog‘langan sistemaning ko‘p bog‘langan sistemaga o‘tishi fazo topologiyasini tubdan o‘zgartiradi, ya’ni fazoning ikki nuqtasini tutashtiruvchi turlicha yo‘llar paydo bo‘ladi. Bunday fazoda katta idishning ichiga kichik idishni sig‘dirish mumkin bo‘ladi. O‘lcham darjasini ko‘p bo‘lgan sistema o‘lchov darjasini kam bo‘lgan sistemaga nisbatan ko‘rinmas va murakkab bo‘ladi. Shuningdek, fazo va vaqtning metrik xususiyatlarini kuchli o‘zgarishi topologik xususiyatlarining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fazoning egrilik darjasini kuchli o‘zgarsa, bir bog‘langan fazo ko‘p bog‘langan fazoga aylanishi mumkin.

Ijtimoiy ekologiya. Ekologik falokatlar tarixi. Ijtimoiy ekologiya ilmiy va falsafiy bilimlar sohasi sifatida yaqindagina – XX asr 60-yillarining oxiridan 80-yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda vujudga kelgan. Ammo bu hol ekologik muammolar faqat eng yangi davr hodisasi degan ma’noni anglatmaydi. Hech shubhasiz, ular o‘tmishda ham mavjud bo‘lgan, lekin biosfera rivojlanishining ilk bosqichlari haqida etarli darajada to‘la axborot yo‘qligi ular xususida asosan gipoteza tarzida so‘z yuritish imkonini beradi.

Bunday farazlar qatoriga, masalan, ekologik falokat natijasida dinozavrlarning qirilib ketishi haqidagi gipoteza kiradi. Yer kurrasining ayrim

mintaqalarida topilayotgan va tabiatи jumboq bo‘lib qolayotgan mayda shisha sharchalarni o‘rgangan olimlar ularni meteoritning qotib qolgan moddasi bo‘lsa kerak, deb taxmin qilmoqdalar. Bundan taxminan 65 million yil muqaddam Yer kattaligi diametrda bir necha kilometrga etadigan ulkan meteorit bilan to‘qnashgan degan xulosaga kelinmoqda. Mazkur to‘qnashuv natijasida kuchli yong‘inlar boshlanib, ulardan chiqqan tutun Yerni qalin parda bilan o‘rab olgan va bu qattiq sovuq tushishi va o‘sha davrda yashagan dinozavrlar qirilib ketishiga olib kelgan.

Qadimgi manbalar amalda mavjud bo‘lgan sivilizatsiyalar halokati zamirida ham sof ekologik omillar yotishini ko‘rsatadi. Xususan, Shumer sivilizatsiyasi mil. av. III ming yillik oxirida Quyosh faolligi o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan qattiq qurg‘oqchilikdan halok bo‘lgan. Bir paytlar gullab yashnagan Dajla va Frot vohalarining sahroga aylanishi sug‘oriladigan yerlarda dehqonchilik noto‘g‘ri olib borilishi oqibatida tuproqning nurashi va sho‘rlanishi natijasi deb hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida Orol dengizining qurishi ham Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan paxta maydonlarini sug‘orish maqsadida tejamsiz foydalanish oqibatidir.

XIX asrda 1812 yilda fransuz olimi J.Kyuve (1769-1832) geologik qatlamlarda kuzatiladigan hayvonlar va o‘simliklar qoldiqlarining tabiatini tushuntirishga harakat qilib, falokatlar nazariyasini ilgari surdi. *Falokatlar nazariyasi dunyoda vaqtı-vaqtı bilan takrorlanib turadigan tog‘ jinslarining qo‘qqisidan siljishlari er yuzasining relefini o‘zgartiradi va barcha tirik narsalarni halokatga duchor etadi, degan farazga asoslanadi.* Ammo bu g‘oya keyinchalik keng miqyosda o‘z izdoshlarini topmadi, chunki sayyoramiz, uning tarixi va tuzilishiga doir ilmiy bilimlarning faol rivojlanishi boshqa gipotezalarga boy material berdi va falokatlar nazariyasini XIX asrning oxirlaridayoq uning avvalgi jozibadorligidan mahrum etdi. Bunga ilmiy bilimlarning butunlay yangi sohasi – ekologiyaning paydo bo‘lishi ma’lum darajada zamin hozirladi.

Ekologiyaning kelib chiqishi. “*Ekologiya*” atamasi etimologik jihatdan yunoncha oikos – uy, boshpana va logos – ta’limot so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, keng ma’noda yashash muhitiga ega bo‘lgan jonli organizm (yoki jonli organizmlar,

mavjudotlar) tashkil etgan har qanday tashkilot, sistemani anglatadi. Bu atamani nemis biolog E.Gekkel 1869 yilda biologiyaning vazifasi jonli organizmlarning atrof muhit bilan o‘zaro aloqasini o‘rganishdan iborat bo‘lgan bo‘limlaridan birini belgilash uchun ilmiy muomalaga kiritgan. Ekoliya masalalari uzoq vaqt mobaynida faqat tabiiy fanlar, avvalo bioliya doirasida o‘rganildi. So‘ngra, jamiyatning tabiat bilan munosabatlarida iqtisodiy, ijtimoiy va hatto siyosiy jihatlar aniqlanishiga qarab, ekoliya ijtimoiy fanlarning ham predmetiga aylandi. Ilk ijtimoiy va falsafiy tadqiqotlarning o‘ziyoq jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqasi muammolari – bu avvalo jamiyatning, uning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining, shakllangan qadriyatlar tizimi hamda atrof muhit va insonning undagi o‘rni haqidagi tasavvurlarning muammolari ekanligini tasdiqladi.

Bugungi kunda “**ijtimoiy ekoliya**” deb nomlangan ilmiy tadqiqotlar sohasi vujudga keldi, “ekoliya” atamasi esa bioliya fanlari doirasidan ancha chetga chiqib, juda tez va keng tarqaldi. XX asr 70-yillarining o‘rtalarida ijtimoiy ekoliyaning to‘rt asosiy qonuni ta’riflandi:

- *hamma narsa hamma narsa bilan bog‘langan;*
- *hamma narsa qayoqqadir yo‘qolishi kerak;*
- *tabiat yaxshiroq biladi;*
- *tekinga hech narsa bo‘lmaydi*¹.

Bu qonunlar inson atrof muhit bilan uzviy o‘zaro bog‘liq ekanligini mustahkamladi va uning tabiatga o‘zboshimchalik bilan va oxirini o‘ylamasdan aralashuvini taqipladi.

Ekologik muammolar keskinlashuviga qarab ular yanada faolroq o‘rganila boshlandi. Ijtimoiy ekoliyadan tashqari, ilmiy bilimning boshqa, butunlay yangi sohalari, chunonchi: inson ekoliyasi, global ekoliya, shahar ekoliyasi yuzaga keldi. Ayrim kishilar va jamiyatning atrof muhit bilan o‘zaro aloqasi jabhasida ekologik muammolar ko‘p jihatdan falsafiy ma’no kasb etdi, chunki u inson borlig‘ining fundamental asoslariga daxldordir, Yerdagi hayotning betakrorligi va

¹ Қаранг: Коммонер Б. Замыкающийся круг. – СП(б).: 1999.- С.36

uning biologik rang-barangligini saqlash zarurligi haqidagi masalani yangidan qo‘ydi.

Ekologik muammoning falsafiy ma’nosi. Ayrim fanlar doirasidan chetga chiqish va muammoga nisbatan kengroq, falsafiy yondashish biosferada hamma narsa betakror tarzda o‘zaro bog‘liq va tabiiy tartibga solinadigan muvozanat holatida ekanligini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, biosferaning o‘zi ham sayyoramizning tabiiy qismi hisoblanadi. U Yer yuzasida yanada murakkabroq tuzilma – biogeosferani tashkil etadi. Insonning umumiy faoliyati Yerdagi geologik jarayonlar bilan teng darajaga etganidan beri biogeosferada jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar sayyoramiz o‘zining ilk qiyofasini yo‘qotishiga olib keldi va inson borlig‘i negizlariga putur etkazdi. Shu tariqa u azaliy falsafiy muammo – hayotning mazmuni muammosiga keskinroq tus berdi va ekologik muammolarni hozirgi zamon falsafasining muhim bo‘limiga aylantirdi.

Bunday ekologik muammolarni falsafiy anglab etish o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Zero, falsafa tabiat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida yuzaga keluvchi ayrim muammolarni hal qilmaydi va ularni bartaraf etish yuzasidan muayyan tavsiyalar bermaydi. Bu maxsus fanlarning vazifasidir. Falsafaning roli esa – muayyan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, yuz berayotgan jarayonlar dinamikasi va tendensiyalarini aniqlash, tabiiy o‘zaro aloqalar, tarixiy bog‘liqliklarni aniqlash falsafiy xulosalar chiqarishdan iborat, unda muhim tushunchalar aniqlanadi, asosiy tamoyillar belgilanadi, bu nafaqat bilish maqsadlari, ekologik ta’lim ishiga xizmat qiladi, balki tabiatni muhofaza qilish borasida muayyan vazifalarni hal qiluvchi ayrim fanlar uchun metodologik tayanch hisoblanadi.

Insoniyat jiddiy ekologik tangliklar xavfi bilan to‘qnash kelgach, odamlar xulq-atvorining axloqiy tomoni ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi va endilikda «jamiyat-tabiat» tizimida muammolar keskinlashuvidan oldingiga qaraganda o‘zgacha ma’noga ega, zero, inson o‘z faoliyatida asosiy e’tiborni biosferaga qaratishi lozim. Yuzaga kelgan vaziyatda bu odamlarning yangicha axloqqa asoslangan tegishli xulq-atvorini taqozo etuvchi obyektiv zaruriyatdir. Mazkur

axloq insoniyat bu sohada erishgan eng sara yutuqlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki hozirgi hayotning eng muhim muammolarini ham hisobga olishi lozim.

Xususan, qadimgi rivoyatlarda keltirilgan, umumiy axloqiy qoida sifatida Kant tomonidan ta’riflangan (“Shunday ish ko‘rginki, xohish-irodang maksimasi ayni vaqtida umumiy qonunchilik tamoyili kuchiga ham ega bo‘lsin”) axloqiy imperativ endilikda tabiatga nisbatan ham tatbiq etilib, umumiy ekologik imperativga aylanishi lozim. Ekologiyaga tatbiqan bu talabning ma’nosи shundan iboratki, ish ko‘rayotgan har bir subyekt (u xoh ayrim inson, xoh jamiyat yoki butun insoniyat bo‘lsin) o‘zining tabiatga bevosita yoki bilvosita daxldor bo‘lgan barcha niyatlari, ishlari va xatti-harakatlarida o‘zini shunday tutishi lozimki, bu xulq-atvor me’yori umumiy ekologik qonunga aylana olsin.

Ijtimoiy hayotga ham, inson mavjudligining tabiiy sharoitlariga ham tegishli bo‘lgan bu axloqiy qonunga o‘z holicha rioya qilish ekologiyaning barcha muammolarini bartaraf etishni uzil-kesil kafolatlovchi birdan-bir va shak-shubhasiz talab hisoblanmaydi. Ammo har bir inson va butun jahon hamjamiyati tomonidan odamlarning tabiat bilan munosabatlarida asos qilib olingan taqdirda, u muqarrar tarzda turli mamlakatlar va xalqlarni shunday bir holatga keltiradiki, ular o‘zining tabiatni o‘zgartiruvchi siyosatini mazkur qonunga muvofiq qayta tuzishga majbur bo‘ladi, shu tariqa jahon hamjamiyatiga yanada faolroq birlashish yo‘lidagi ekologik g‘ov-to‘siqlarni bartaraf etadi. Aks holda nafaqat noosferaga erishish, balki umuminsoniy muammolarni hal qilish ham mumkin emas.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari:

1. Olam nima unda insonning o‘rni qanday ?
2. Borliq va yo‘qlik tsuhunchalari to‘g’risida ma’lumot bering ?
3. Mavjudlik va reallik nima ?
4. Borliqning mavjudlik shakli nimalardan iborat?
5. Subyektiv va obyekttiv borliq, ularning farqi?
6. Borliq va materianing mavjudligida harakat, fazo va vaqt kategoriyalarining nimaahamiyati bor?

7. Borliq, substantsiya va materiya tushunchalarining mohiyati nimadan iborat?
8. Harakat nima uchun materianing mavjudlik shakli deyiladi?
9. Ekalogiyaning kelib chiqishi ?
10. Ijtimoiy ekalogiya ?

Maruza mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**T - chizma**” interfaol usulidan foydalaniladi.

+	-
+	-
+	-
+	-
+	-

Mavzu mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Ongga bog'liq bo'limgan holda mavjudlik: +ijobiy, -salbiy
2. Ongga nisbatan birlamchilik. +ijobiy, -salbiy
3. Borliq va yo'qlik: +ijobiy, -salbiy

Mavzu mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

“**T – sxema**” o'tkazish bosqichlarini qo'yidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “**T – sxema**” interfaol usuli haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim
- Mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlar yaxshi o'zlashtirilishi kerak
- “**T – sxema**” interfaol usuli masala mohiyatini to'liq tushunib olishga asoslangan bo'lib, bunda mavzu oid bo'lgan tushuncha, ma'lumot, tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+, salbiy – xususiyatlari ochib beriladi

Maruza mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**Insert**” interfaol usulidan foydalaniladi.

INSERT JADVALI			
A	M	-	?

“**Insert**” metodini o‘tkazish bosqichlarini quyidagicha olib boriladi:

Ularga mavzuni qisqacha bayoni tushirilgan tarqatma materiallarni beradi:

Topshiriqlar:

1. Real va konkret va virtual borliqning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering?.
2. Mavjudlik va reallik tushunchalarini tushuntiring
3. Harakat va uning asosiy shakllarini tushuntiring
4. Hayot nima va uning mazmuni nimadan iboratligini izohlang

Mavzu bo‘yicha test savollari

- 1.Dunyo bo‘linmas bo‘lakchalar (atomlar)dan tashkil topgan, degan ta’limotni ilgari surgan Yunon,faylasufi kim?
- a. Demokrit
 - b. Fales
 - c. Geraklit
 - d. Anaksimen
- 2.Qaysi alloma “Sharq Arastusi” – “Muallim us-soniy” degan yuksak nomga sazovor bo‘lgan?
- a. Abu Nasr Forobiy
 - b. Abu Rayhon Beruniy
 - c. Ibn Sino
 - d. Ali Qushchi
- 3.“Ontologiya” atamasi qaysi so‘zdan olingan?
- a. Yunoncha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot.
 - b. Lotincha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot.
 - c. Arabcha «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot
 - d. Hindcha . «ontos» - borliq, «logos» - so‘z, ta’limot
- 4.“Substansiya” - bu nima?
- a. Dunyoni tushunish zamirida yotuvchi, nisbatan barqaror va mustaqil holda mavjud mohiyat.
 - b. Mutlaq «Men» ning erkin, sof faoliyati.
 - c. Obyektiv rivojlanuvchi g‘oya.
 - d. Obyektiv rivojlanuvchi sof faoliyati.
- 5.Borliqning asosiy kategoriyasi nima?
- a. «borliq» va «yo‘qlik»
 - b. «sifat» va «miqdor»
 - c. «makon» va «zamon»
 - d. «harakat» va «rivojlanish»

6.Falsafada borliq va yo‘qlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqa qanday?

- a. Dialektik
- b. Ziddiyatli
- c. CHambarchas
- d. Dinamik

7.«... – falsafiy kategoriya sifatida dunyoni, uning butun rang – barangligi va turli – tuman namoyon bo‘lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi», bu nima?

- a. Borliq
- b. Yo‘qlik
- c. Bilish
- d. Sezgi.

3-MAVZU. RIVOJLANISH FALSAFASI

Reja:

- 1 Rivojlanish kontseptsiyasi
2. Falsafiy qonunlar. Kategoriya tushunchasi va uning turlari.
3. Metodlarning tasnifi: fan va falsafa metodlari.

Tayanch tushunchalar: Rivojlanish, harakat, qonun, ayniyat qonuni, tafovud qonuni, qarama-qarshilik birligi qonuni, inkorni-inkor qonuni, kategoriya, yakkalik, xususiylik, umumiylilik, sistema, struktura, element, mazmun va shakl, mohiyat va hodisa, imkoniyat-voqelik, bahona va shart, sabab va oqibat, metod, metodika, metodologiya, dialektika, metafizika, sofistika, eklektika, sinergetika.

Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o‘zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib turishi, rivojlanishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘zaro ta’sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o‘rtasida turli bahs, munozara, tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Chunki ular to‘g‘risida aniq bilimga ega bo‘lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to‘g‘risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo‘lish qiyin.

Atrofimizdagи jamiki narsa-hodisalar, ya’ni eng mayda zarrachalardan tortib to yer, Quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o‘zgarish va rivojlanishdadir. Ular o‘rtasida abadiy o‘zaro bog‘liqlik, o‘zaro ta’sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o‘z-o‘zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o‘zgarish ham yuz bermaydi.

Bog‘lanishlarning turlari. Biz narsa va hodisalarning harakati, o‘zgarishi va rivojlanishiga ular o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorlik, ta’sir va aks ta’sir asos bo‘ladi, deymiz. Albatta, olamdagi har qanday bog‘lanish ham rivojlanishga sabab bo‘lavermaydi. Chunki bu bog‘lanishlarning ko‘lami, mohiyati, ta’sir kuchi va doirasi turlicha. Bog‘lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo‘lmagan va hokazo bog‘lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog‘liq, o‘zaro aloqadorlikda va ta’sirda bo‘lмаган birorta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o‘zaro bog‘lanish va ta’sir natijasida narsa-hodisalarda o‘zgarish sodir bo‘ladi. Lekin, barcha o‘zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo‘lishi turli darajada bo‘lganligi sababli, o‘zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, yangi tug‘ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o‘zgarishini, ya’ni ulg‘ayishini yoki bo‘lmasa, tabiatdagi qish faslidan bahor fasliga o‘tishdagi o‘zgarishlarni oddiy ko‘z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, yer qa’ridagi ichki jarayonlarni ma’lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana shu sababdan ham odamlar zilzilalar, vulqonlar otlishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g‘aflatda qolib kelmoqdalar. Ya’ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug‘lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro‘y bergen o‘zgarishlarni ko‘z ko‘radi, qulqoq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo‘ladi. Ulardagi o‘zaro bog‘liqlikni ham oson ko‘rish, ilg‘ash mumkin. Ana shunday oson ko‘rish va ilg‘ash mumkin bo‘lgan, ochiq-oydin ro‘y beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan “zohiriylig” tushunchasi, mohiyatini ilg‘ash qiyin bo‘lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar va o‘zgarishlarga nisbatan “botiniylik” tushunchasi qo‘llaniladi. O‘rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e’tibor berilgan.

Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriylig o‘zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o‘z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o‘rganganimizda ana shunday holni idrok etganimiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagи narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo‘lib turishini isbotlaydi.

Xo‘sh, qonun o‘zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday

ahamiyatga ega Qonunni bilmasdan, o‘rganmasdan turib yashash mumkinmi? Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo‘lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h. k. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish tamoyillarining uchinchisi ham qonun to‘g‘risida bo‘lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta’milanishi ta’kidlanadi. Yuqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo‘lgan xossa, xususiyatlar bormi? Qancha ko‘p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo‘ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin o‘tmishda iqtisodiyotning o‘ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil syezd, plenum, konferenstiya qarorlari asosida eksperimentlar o‘tkazib, barcha uchun farovon hayot -kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo‘lishganini vabunday siyosat qanday oqibatlarga olib kelgani barchaga ma’lum.

Endi shunday savol: **Nima uchun inson qonunni bilishi kerak?** Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo‘lqop va h. k.) sotib olishadi, o‘tin yoki ko‘mir g‘amlab qo‘yishadi va h. k. Yoki yana bir, jo‘nroq bo‘lsa-da, misol: sizga birov uyning 5-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo‘lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I. Nyuton kashf qilgan “Butun olam tortishish qonuni” ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o‘z jismingizdan zichligi kamligiga e’tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo‘lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkendir. Erkinlik nima? erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya’ni obyektiv tarzda amalga oshish, o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lishdir. Erkinlik esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: “Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xalos qilmaydi”. Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o‘zingizning faoliyattingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo‘lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniyemasligini yaxshi bilasiz,

qonunga xilof qadamlar qo‘ymaysiz.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga quyidagicha ta’rif berish mumkin:
Qonun - *olamdagи narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog‘lanishlari, o‘zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo‘lishidir.* Endi qonunning belgilariga to‘xtalamiz:

- qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog‘lanishlardan faqat muhimlarini, ya’ni shunday bog‘lanishlarni ifodalaydiki, bular olamning mavjudligi, o‘zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo‘ladi;
- qonun zaruriy bog‘lanishlarni ifodalaydi, ya’ni tasodifiy bog‘lanishlar, goh paydo bo‘lib, goh yo‘qolib ketadigan bog‘lanishlarga asoslanmaydi.
- qonun narsa va hodisalarning umumiy bog‘lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog‘lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya’ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog‘lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2022 yili qishdan keyin bahor kelib, 2023 yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni - fasllar o‘zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati - u obyektiv xarakterga ega, ya’ni u insonga ham, insoniyatga ham bog‘liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o‘zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo‘q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog‘lanishlar, munosabatlar obyektiv xususiyatga ega.

Olamdagи har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-birini istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o‘zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo‘lishi ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik,adolat va jaholatva h. k. Qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo‘lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo‘lolmaydi.

Ayniyat tushunchasi narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshash tomonlarni

ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bturgan 2 barg ham bir-biridan farq qiluvchi ba’zi jihatlarga ega. Hech bo‘lmaganda, bir xil bo‘lgan narsaning o‘zi yo‘q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon bir-biridan makondagi o‘rni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o‘xhash bo‘lgan Hasan va Husanlarda ham juda ko‘p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda fe’l-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo‘lishi, ya’ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, **tafovut** narsa - hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Qarama-qarshilik deb esa, narsa, voqealarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o‘zaro munosabatiga aytildi.

Qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi munosabatni **ziddiyat** degan tushuncha ifodalaydi. Ko‘phollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me’yoriy o‘zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma’noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo‘lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

Olamning mavjudligi - miqdor va sifat voqeligi tarzida ham namoyon bo‘ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo‘limgan miqdoriy o‘zgarishlar asta- sekin to‘plana borib, taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida me’yorni buzadi va sakrash yo‘li bilan tub sifat o‘zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o‘z sifati bilan ajralib turadi. **Sifat-** narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo‘lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo‘lsa, uni shundayligicha ko‘rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarini bog‘liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini,

bir-biriga o‘xshashligi yoki o‘xshamasligini ifodalaydi. U keng ma’noda narsalarning turli-tuman xossalari yig‘indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma’nodagi tushunchalar emas. Sifatning o‘zgarishi, muqarrar sur’atda, xossaning o‘zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o‘zgarishi har doim sifatning o‘zgarishiga ta’sir etavermaydi, ayrim xossalarning sifatiga ta’sir etmasdan yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiyligini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. **Miqdor** predmetning hajmi, o‘lchovi, og‘irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o‘z solishtirma og‘irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo‘lgan, ya’ni sifati bo‘lib miqdori, miqdori bo‘lib aksincha, sifati bo‘lmagan narsaning o‘zi yo‘q.

Miqdor va sifatning birligi, o‘zaro bog‘liqligi me’yor tushunchasida ifodalanadi.

Me’yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo‘lmagan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o‘zgarishlari xosdir. Miqdor o‘zgarishlari bilan sifat o‘zgarishlari o‘rtasida qat’iy qonuniyat mavjud bo‘lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o‘zgarishlar sifat o‘zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlarigao‘tishi sodir bo‘ladi. Olamdagi barcha o‘zgarishlar asta-sekin sodir bo‘ladigan miqdor o‘zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o‘zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta’sir etmaydi. Miqdoriy o‘zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo‘qolib, yangi sifat yuzaga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o‘zgarishlari tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishi bilan birga sifat o‘zgarishlari miqdor o‘zgarishlariga ham o‘tadi.

Miqdor o‘zgarishlari bilan sifat o‘zgarishlari o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lishiga qaramay, ular ayrim o‘ziga xos xusussiyatlarga ham ega. Chunonchi:

- birinchidan, miqdor o‘zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o‘zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o‘zgarishlariga o‘tish faqat ma’lum bir davrda boshlanadi;
- ikkinchidan, miqdor o‘zgarishlari ma’lum vaqtgacha narsalarga muhim ta’sir ko‘rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo‘qotmaydi, keyin esa bug‘ga aylanadi, sifatini o‘zgartiradi. Demak, sifat o‘zgarishlari hodisalarni tubdan o‘zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;
- uchinchidan, miqdor o‘zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko‘p hollarda sezilmasdan o‘tadi. Sifat o‘zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to‘satdan sodir bo‘ladi;
- to‘rtinchidan, sifat o‘zgarishlari miqdor o‘zgarishlariga qaraganda tub o‘zgarish bo‘lib hisoblanadi.

Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan sifat o‘zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo‘lib, taraqqiyotning uzluksiz ko‘rinishiga qaraganda ancha tez o‘tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo‘lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to‘satdan bo‘ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko‘payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o‘z xarakteriga ko‘ra tabiat va jamiyatda xilma-xil bo‘lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o‘ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo‘q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o‘rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo‘lish mumkin: birinchisi - portlash yo‘li bilan bo‘ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadrijiy yo‘lbilan bo‘ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va

hodisalarning yangi sifatga o‘tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo‘qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to‘planishi natijasida yangi sifat paydo bo‘ladi.

Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

- birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan obyektiv va qonuniy jarayondir;
- ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o‘zgarishlaridan tub sifat o‘zgarishlariga o‘tishidir;
- uchinchidan, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo‘ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;
- to‘rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog‘liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o‘tish turli shakllarda sodir bo‘ladi. Har bir narsa, hodisa o‘zining aniq inkorqilish usuliga, o‘z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o‘zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro bir-biriga o‘tishi orqali sodir bo‘ladigan jarayonlardan iborat. Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo‘lib turadi. Bundagi eskinining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O‘zgarish va rivojlanish jarayonida **o‘z-o‘zini inkor etish tamoyili** nihoyatda muhim. Bunda **vorislik** - eskinining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi **inkorni inkor qonunining mohiyatini bildiradi**.

Mazkur qonunga muvofiq obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonida eskinining yangi tomonidan inkor qilinishi ro‘y beradi. Biroq, aksariyat hollarda, eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar

saqlanib qoladi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda “yo‘q”, so‘zi bilan qo‘shilib ketadi, inkor qilmoq – “yo‘q” demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to‘g‘ridan-to‘g‘ri “yo‘q” degani emas, ya’ni narsani mavjud emas, deb e’lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo‘qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo‘lmasdan, balki eskining bag‘rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihat mavjud: birinchisi, eskining o‘rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo‘lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog‘liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta’limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagи narsa va hodisalarning doimiy ravishda o‘zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzlusiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko‘ra, har bir mavjud bo‘lgan narsa va hodisa o‘zigacha bo‘lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o‘zi ham sharoitning o‘zgarishi, vaqtning o‘tishi bilan inkor etilishga mahkumdir. Demak, har bir narsa va hodisaning o‘zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko‘proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi - avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyanhalqasida, ya’ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba’zi belgilari takrorlanadi. Masalan, don o‘simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o‘simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to‘g‘ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo‘ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang‘ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo‘lmasdan, balki yuqori

bosqichda sodir bo‘lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo‘ladi. Bu spiralning har bir yangi o‘rami oldingi o‘ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o‘rtasidagi bog‘lanishni butkul rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg‘or bo‘lmasin, u yo‘q joydan paydo bo‘lmaydi, balki eskining qobig‘ida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun ham ko‘p hollarda eskidan yangiga o‘tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o‘rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Har qanday fanning o‘ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo‘ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og‘irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda ko‘p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan bog‘langan. Masalan, fizikada Nyuton, Faradey, Avagadro va hokazo. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin. Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriylar tizimi ham bor. Ularni o‘rganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur. An’anaviy tavsiflarga ko‘ra, “Qonun” falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o‘zaro bog‘lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini ko‘rib o‘tdik. Endi kategoriyalarning mohiyati va mazmuni bilan qisqa tanishaylik.

Kategoriya o‘zi nima? Bu so‘z qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib: “izohlash”, “tushuntirish”, “ko‘rsatish”, degan ma’nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xilliqqadimgi davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo‘lib, Arastu ta’riflab bergan. U o‘zining “Kategoriylar” degan asarida ularni obyektiv voqelikning umumlashgan in’kosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi

kategoriyalar mavjud: “mohiyat” (substansiya), “miqdor”, “sifat”, “munosabat”, “o‘rin”, “vaqt”, “holat”, “mavqe”, “harakat”, “azob-uqubat”. Bu turkumlashtirish, o‘z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Keyinchalik Arastu “Metafizika” asarida “mohiyat”, “holat” va “munosabat” kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o‘rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e’tirof qilinadi. Ma’lumki, ungacha Yunonistonda ko‘proq politika va ritorika (notiqlik san’ati) fanlari sistemalashgan, ya’ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o‘sha davrda qo‘sinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ammo o‘sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri Suqrotni ham ana shunday, hali go‘yoki shakllanmagan fan bilan shug‘ullangani va yoshlarni bu ilm yo‘liga boshlab, ularning noto‘g‘ri tarbiyasiga sabab bo‘lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning buyuk shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo‘lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta’riflagan va falsafani fan darajasiga ko‘targan. O‘sha davrdan boshlab falsafa o‘z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo‘lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va Abu Ali ibn Sinolar ham katta ahamiyat bergenlar.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan,

I. **Kant** qarashlarida kategoriyalar “*sifat*” (reallik, inkor, chegaralash), “*miqdor*” (birlik, ko‘plik, yaxlitlik), “*munosabat*” (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o‘zaro ta’sir), “*modallik*” (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novoqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o‘laroq, **Chegel** esa mantiqiy kategoriyalarini: “*borliq*” (sifat, miqdor, me’yor), “*mohiyat*” (asos, hodisa, mavjudlik), “*tushuncha*” (ob’yektiv, subyektiv, absolyut g‘oya) tarzida

izohlagan.

Alohalistik, xususiylik, umumiylilik. Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylilik - olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo‘layotgan narsa - hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarning mushtaraklashgan holda namoyon bo‘lishidir. Alohalistik va umumiylilik o‘rtasidagi bog‘lanish, aloqadorlik va munosabat “xususiylik” kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo‘lib hisoblanadi. Ikkinchidan, “*alohalistik*”, “*xususiylik*”, “*umumiylilik*” narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo‘lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo‘lish shaklidir.

Narsa va hodisalarda alohalistiklarning konkret xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, bir tomon dan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinci tomon dan esa, umumiylikning konkretligi alohalistiklar sistemasi tarzida namoyon bo‘ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to‘laqonli bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o‘ziga xos bo‘lgan yo‘nalishlarini vujudga keltirgan. Ya’ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiyl madaniyat tarkibida “iqtisodiy madaniyat”, “huquqiy madaniyat”, “siyosiy madaniyat”, “ekologik madaniyat” va boshqa nisbatan mustaqil yo‘nalishlarga asos bo‘lgan. Bu madaniyat yo‘nalishlari nisbatan mustaqil bo‘lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish tendenstiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo‘lib, umumiyl taraqqiyot darajasiga mos keladi.

Falsafaning bu kategoriyasi bilan “*butun*”, “*qism*” “*struktura*”, “*sistema*”, “*element*”, kategoriyalari o‘rtasida uzviy bog‘liqlik va muayyan farqlar mavjud. Ya’ni “*alohalistik*”, “*xususiylik*”, “*umumiylilik*” narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog‘lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo‘lsa, “*butun*”, “*qism*”, “*struktura*”, “*sistema*”,

“element”, kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog‘lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. Shu nuqtai nazardan, butunni - umumiylit, qismni yoki elementni - alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek, muayyan o‘xshashlik bo‘lishiga qaramasdan, sistemanı umumiylit tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiylıklarning majmui ham bo‘lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarни tarkibiy jihatdan “butun”, “qism”, element”larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo‘lib, uning samaradorligini ta’minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko‘ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

Sistema, struktura, element falsafaning muhim kategoriyalaridan hisoblanadi. *Sistema* - grekcha so‘z bo‘lib, *mantiqiy ma’nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma’nolarni anglatadi*.

Sistema - kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi. Xususan, bu elementlarning funkstional faoliyatini, ahamiyatiga ko‘ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. Ya’ni, insonning obyektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatları samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema - narsa va hodisalarning bog‘lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa hodisalar bog‘lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta’minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma’noni anglatib), sistemanı tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg‘un bog‘lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi

mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollarini belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko‘rinishlari, DNK yoki RNK larning o‘zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan holda, moddiy olamning obyektiv realligi tarzida mavjud bo‘lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiga ega bo‘lgan sistemalardir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni “ichki struktura” va “tashqi struktura” ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o‘zaro bog‘lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta’minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko‘rinishlari tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo‘lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko‘zga tashlanadi. Ya’ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O‘z navbatida, sistemani to‘laligicha bilish, uning stukturaviy tuzilishidagi har bir elementning funkstional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Falsafa fanidagi an’anaviy tarzda yozilgan darsliklar, o‘quv qo‘lanmalaridan farqli o‘laroq, bu kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa juft kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. Chunki, “mohiyat va hodisa”, “mazmun va shakl”, “sabab» va oqibat” “zaruriyat va tasodif”, “imkoniyat va voqelik” kategoriyalarining mazmuni, yuqorida ko‘rsatilgan “alohidalik”, “xususiylik” “umumiylilik”, “butun”, “qism”, “struktura”, “element”, kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. Lekin, buning uchun har bir kategoriyaning mazmunini alohidatalil qilish zarur.

“Mohiyat va hodisa” kategoriyasini olib ko‘raylik. **Mohiyat**-o‘zida

alohidalik, maxsuslik, umumiylilikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. **Hodisa** esa, ularning bog‘lanishi, aloqadorlik va munosabatlarining namoyon bo‘lishidir. Mohiyatni alohidalik, maxsuslik, umumiylilik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashtirib o‘rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, sub’ekt nazarida ahamiyatiga va funkstiyasiga ko‘ra, asosiy va asosiy bo‘lmagan, nisbatan barqaror yoki o‘zgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida o‘rnini almashtirib turishlarini e’tiborga olish zarur.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham o‘zgarib turadi. Mohiyatdagi har qanday juz’iy o‘zgarish ham, uning muqarrar o‘zgargan hodisasida ifodalananadi. Masalan, suvning elektr tokini o‘tkazish xususiyati, uning temperaturasiga bog‘liqligi aniqlangan. Agar biz suvning temperaturasini ma’lum darajada ko‘tarsak, uning elektr tokini o‘tkazish xususiyatini o‘lchaydigan asboblar bu o‘zgarishlarni qayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokini o‘tkazuvchanlik xususiyati yo‘qolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bog‘lanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa o‘z xususiyatlariga ko‘ra sistema, struktura va elementlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda aniq tamoyillarga asoslanish lozim.

Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. **Mazmun** - narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog‘lanishi bo‘lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa - sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o‘rtasidagi bog‘lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an’anaviy xarakterga ega. Ya’ni, mazmunning o‘zgarishi

shaklning o‘zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo‘lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy bog‘lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo‘lish mumkin bo‘lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo‘lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juz’iy o‘zgarish ham bir-biridagi o‘zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo‘lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi. Ya’ni, suv bug‘ holatida chanqoqni qondirmaydi, o‘simliklarni sug‘orish uchun yaramaydi. Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog‘lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, strukturaviy bog‘lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko‘ra, shaklni mazmunga nisbatan “ikkilamchi” deyish noo‘rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo‘lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga insonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e’tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning obyektiv xarakteriga putur yetkaza olmasa ham, ularni baholashdagi subyektiv, muqobil qarashlarda o‘z ifodasini topadi.

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko‘ra, ularning mazmuni va shakli o‘zgarib turadi. O‘z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o‘rtasidagi strukturaviy bog‘lanish konkret mazmunga ega bo‘lib, unga mos mazmunlarda o‘z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o‘rtasidagi aloqadorlik, bog‘lanish, munosabatning xarakteri muayyan sababga asoslanadi. Ya’ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo‘lishi, muayyan sabab oqibatidir. Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, sabab - biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo‘lib hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo‘lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bo‘lmagan, muhim va muhim bo‘lmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga ko‘ra, sababni bir vaqtning o‘zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog‘lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birlashtirishda, ularning istiqbollarini ham belgilab beradi. Hegel tili bilan aytganda, sabab-mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- uning obyektiv xarakteri narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo‘lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;
- sababning konkretligi narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta’minlaydi;
- sabab umumiy xarakterga ega bo‘lib, hech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo‘lmaydi;
- sabab zaruriy bo‘lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi;
- sababning uzlusizligi, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog‘lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog‘liqligini xarakterlaydi.

Zaruriyat va tasodif. Obyektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif

kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. **Zaruriyat** - narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. **Tasodif** esa - zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir. Shu nuqtai nazardan, zaruriyatni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. Shuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatdan kelib chiqadi hamda obyektiv sabablar tizimiga asoslanadi. Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi tarixiy obyektiv zaruriyatdir, uning "o'zbek modeli" asosida amalga oshirilishi zaruriyatning konkret namoyon bo'lishidir. Bunda tasodif "subyektivlashtirilgan" jarayon sifatida ko'zga tashlansa ham, obyektiv hodisadir. Chunki, O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, bozor munosabatlariga o'tishning xarakterini belgilab beradi. Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning obyektiv qonuniyatlaridan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruriyatlarning tasodiflar tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinish turibdiki, zaruriyat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Zaruriyat va tasodif, kategoriyasiga boshqa kategoriylar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan sub'ekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtai nazaridan yondashiladigan bo'lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi. Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, obyektiv qonuniy xarakteri inkor etilmoqda. Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hech qanday imperianing abadiy bo'lmashagini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruriyatni ko'ribturibmiz.

Metod (yunon. metods — usul) keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi. Metodologiya metodlar yigindisi va faoliyat turi haqidagi ta'limotdir.

Metod muammosi doimo falsafiy va ilmiy olamning diqqat markazida bo'lgan. Ayniqsa, hozirgi davrda metodologiyadan turli yo'nalish va oqimlar, jumladan, fan, falsafa, fenomenologiya, strukturalizm va poststrukturalizm, postpozitivizm va shu kabilarda keng ko'lama foydalanilmoqda. Ijtimoiy metodologiya hozirgi zamon germenevtikasida mavzularni tahlil qilish nazariyasi va falsafiy konsepsiyalarni o'rganishda qo'llanilmoqsa.

Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo'lib, subyektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan etishishga yordam beradi.

Har qanday metod ma'lum nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqr mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O'z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilimning chuqlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgaradi.

Fan metodlarining guruhlarga bo'linishi bir nechta asoslarga ega. Bilish jarayonida uning roli va o'rni nuqtai nazaridan: formal, empirik, nazariy, tadqiqot, izohlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari ham mavjud.

Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsada, ularga asoslanadi. Usullarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo'llash o'rganilayotgan hodisa tabiat va qo'yilgan vazifalar bilan xarakterlanadi. Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog'liq.

Metodlar umumiylig darajasi va amal qilish doirasiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi:

1. Falsafa metodlari.

Dialektika (*yunon. dialektika — bahs, suhbat*) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiyl tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta’limotdir. U grek tilida bahs va suhbatlashish san’ati, degan ma’noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo‘li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdag narsa va hodisalar doimo o‘zgarishda, o‘zaro aloqadorlik va bog‘liklikda, taraqqiyot va rivojlanishda, deb tushuniladir. Umuman olganda, dialektik metodga ko‘ra, agar obyektiv olamda doimiy rivojlanish, paydo bo‘lish va yo‘qolish, hodisalarning o‘zaro bir-biriga o‘tishi bo‘lar ekan, unda tushuncha, kategoriya va tafakkurning mavjud shakllari, harakatchan, o‘zaro bog‘liqlikda, ziddiyatlar birligida bo‘lib, rivojlanuvchi real haqiqatni to‘g‘ri aks ettirishi kerak. Shuning uchun dialektikaning asosiy tamoyili tarixiylik bo‘lib, u predmetning doimiy rivojlanishda, o‘zgarishda va harakatdaligini ifodalaydi.

Bizni o‘rab turgan olam yagona bir butunlik, aniq tizim bo‘lib, bir-biri bilan uzviy bog‘liq predmetlar xilma-xilligi yagonalikda, bir-biri bilan o‘zaro ta’sir va o‘zaro uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shunga mos ravishda dialektikaning yana bir tamoyiliga ko‘ra, har qanday narsani faqat undagi ichki va tashqi tomonlar mujassamligini tadqiq qilgandagina, to‘g‘ri tushunish mumkin.

“**Metafizika**” (*yunon.— fizikadan keyin*) - dialektika kabi universal metoddir. Bu so‘z ilmiy muomalaga er. av. I asrda Aristotelning shogirdi, uning she’rlari sharhovchisi Rodoskiy tomonidan kiritildi.

Ko‘p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan metafizika olamdag narsa va hodisalarni o‘rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o‘zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko‘proq qaratadigan usuldir. Bu usul qo‘llanganida olamning namoyon bo‘lish shakllari hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning alohida qismi yoki holatiga asosiy e’tibor beriladi. Voqeа, hodisa va jarayonlarni doimiy o‘zgarish holatida o‘rganish nihoyatda qiyin

bo‘lganligidan, nafaqat faylasuflar, balki barcha fan mutaxassislari uning nisbatan tinch va o‘zgarmay turgan holatini o‘rganadilar, tadqiq etadilar.

Alovida ta’kidlash lozimki, metafizik usulning hayotda, ilmiy izlanishlar va falsafiy tadqiqotlarda ham o‘z o‘rni bor. Bizda haligacha metafizikaning tushunchalari, kategoriyalari, tamoyillari va ilmiy mohiyati izohlangan yoxud tadqiq etilgan asarlar, tadqiqotlar yo‘q. Qolaversa, uni dialektika bilan butunlay qarshi qilib qo‘yish va bu farqni mutlaq ziddiyat darajasiga ko‘tarish ham maqsadga muvofiq emas.

Sofistika. Sofistika falsafiy metodlar jumlasidan bo‘lib, qadimgi Yunonistonda mil. av. V va IV asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy hayotda xususiy bir yo‘nalish sifatida paydo bo‘lgan. Sofistika namoyandaları *Pratagor, Gorgiy, Gippiy, Antifont* va boshqalardir.

Bu metoddan semantik va mantiqiy qonunlarda istalgan narsani isbotlash uchun foydalilanadi. Ko‘pgina darslik va qo‘llanmalarda bu ibora yunon tilidagi “sopism” so‘zi asosida, ya’ni ataylab xilma-xil ma’noga ega bo‘lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, ko‘chma ma’nomazmunga erishish usuli, deb ta’kidlanadi. Bu usul qullanilganda fikrning mazmuni ko‘chma ma’noda bayon qilinadi, ya’ni “Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit “, deganga o‘xhash holat nazarda tutiladi.

Sofizm - qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali mulohaza bo‘lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. Masalan: “Aristotelning yozishicha, bir afinalik ayol o‘g‘liga, jamoa ishlariga aralashma, chunki agar to‘g‘ri gapirsang, seni odamlar; yolg‘on so‘zlasang - Xudolar yomon ko‘radi” - degan ekan. Sofizmga ko‘ra afinalik ayolga shunday rad javobi berish mumkin: sen jamoa ishlarida ishtirot qilishing kerak, chunki to‘g‘ri so‘zli bo‘lsan va buning uchun seni Xudolar ham, odamlar ham yaxshi ko‘radi. Sofistikaga faqat salbiy munosabatda bo‘lish noo‘rindir. Shu ma’noda, sofistika insoniyat tafakkurining umumiy taraqqiyotida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega.

Eklektika – *hech qanday bilim faoliyati bilan bog‘lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib yolg‘on aks ettiradi.* U narsa va hodisalarining

ikkinchi darajali belgi xususiyatlarini bo‘rttirib ko‘rsatish orqali noto‘g‘ri bilim hosil qiladi.

Metodologik usul sifatida eklektika hozirgi davrda ham reklama va tashviqotda, ommaviy kommunikatsiya tizimida qo‘llanilib, inson psixikasidagi an’analar, ko‘nikmalar, intilishlarni bo‘rttiradi. Bunday usulning bema’niligini Suqrot va Aristoteldan boshlab, hozirgi davr mutafakkirlarigacha tanqid qiladilar. Ammo bu undan foydalanilmaslikni anglatmaydi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Sinergetika. Hozirgi zamon fanida sinergetika metodi keng qo‘llanilmoqda. Sinergetika so‘zi yunoncha (“sinergena”) bo‘lib, kelishuv, hamkorlik, o‘zaro ta’sir kabi ma’nolarni anglatadi.

Sinergetika - olamning o‘z-o‘zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o‘zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog‘lanishlar asosida mavjudligini e’tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta’limotni dialektika asosida shakllangan va uni to‘ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o‘laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo‘q emas.

Umumilmiy yondashuvlar va tadqiqot metodlari ular falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o‘rtasida o‘ziga xos “oraliq metodologiya” bo‘lib xizmat qiladi. Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko‘pincha “axborot”, “model”, “tuzilma”, “funksiya”, “tizim”, “element”, “oqilonalik”, “ehtimollik” singari tushunchalar kiritiladi.

Xususiy ilmiy metodlar–materiya harakatining asosiy shakliga mos bo‘lgan muayyan fanda qo‘llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui. Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir.

Fan metodlari–ma’lum fan tarmog‘iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo‘llaniladigan usullar tizimi. Har bir

fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir.

Fanlararo tadqiqot metodlari-asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui. Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Metodologiyaga faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganish xos. Tamoyil, qoida va ko'rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o'zlashtirishning o'ziga xos vositalarini ajratish fan rivojlanishining "postnoklassik", deb nomlangan hozirgi bosqichida ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi zamon metodologiyasi. "Kumatoi", "case studies" tushunchalari an'anaviy metodologik tushunchalar ruhida tarbiyalangan odamga erish tuyulishi mumkin. Ammo, aynan ular metodologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichining o'ziga xos xususiyati ilmiy muomalaga mutlaqo yangi tushunchalarni kiritish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Kumatoiarning o'ziga xos xususiyati shundaki, u zamon va makonda mahalliylashishga befarq bo'libgina qolmay, substrat-o'zini tashkil etuvchi materialga ham qattiq bog'lanmagan. U tizimli xususiyatlarga ega emas. Binobarin, mazkur xususiyatlar uning tarkibiy qismlariga mavjud yoki mavjud emasligiga, ayniqsa, ularning rivojlanish yo'nalishi yoxud xulq-atvor tarziga bog'liq. Kumatoi moddiy tarzda mustahkamlangan ma'lum bir xususiyat yoki bunday xususiyatlar to'plami bilan aniq identifikasiya qilish mumkin emas. Butun ijtimoiy hayot suzuvchi obyektlar-kumatoiylar bilan to'lib-toshgan.

"Case studies" tipiga mansub, ya'ni vaziyatli tadqiqotlar o'tkazish hozirgi zamon metodologiyasidagi muhim yangilikdir. Mazkur tadqiqotlarni o'tkazishda fanlararo tadqiqotlar o'tkazish metodologiyasiga tayaniladi, ammo individual sub'ektlarni, mahalliy gruppaviy dunyoqarashlar va vaziyatlarni o'rganish nazarda tutiladi. Vaziyatli tadqiqotlarning ustunligi shundaki, ularda bilim tizimining

mazmuni shartlarning pirovard to‘plami, hayotiy vaziyatlarning muayyan va alohida shakllari nuqtai nazaridan olib beriladi.

Takrorlash uchun savollar

1. O‘zaro aloqadorlik va rivojlanish tushunchasini izohlang.
2. Kategoriya nima?
3. Sinergetika va dialektikanig farqi?
4. Kategoriya va ularning tasnifi?
5. Inkorni-inkor qonuni nima?

Ma’ruza mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Aqliy hujum*” interfaol usulidan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1.Qonun nima?
- 2.Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor? ...
3. Miqdor va sifat nima ?
- 4.Me’yorchi ?
5. Inkor nima ?
- 6.Falsafiy kategoriylar tizimi va ularning mazmuni...?
- 7.Hozirgi davrda taraqqiyot qanday namoyon bo‘lmoxda...?


Mavzu mashg‘uloti topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- “Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalaridan muhimi-tezlik bilan masala mohiyatini olib berishdan iborat.
 - Berilgan topshiriqlarni aynan manba bilan mosligi inobatga olinishi lozim.
 - Har bir topshiriqni bajarish uchun kam vaqt va sifatli natija muhim hisoblanadi
- Xulosa chiqarish uchun yig‘ilgan ma’lumotlar umumlashtiriladi va tizimga solinadi.

Ma’ruza mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri -“**Klaster**” interfaol usulidan foydalaniladi. Bunda asosan tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi.

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):

1.Qonun 2.Miqdor 3.Sifat 4.Kategoriya 5.Inkor 6.Me’yor 7.Ayniyat va ziddiyat



Mavzu bo‘yicha test savollari

1. Bir sifatdan ikkinchi sifatga o‘tish mexanizmi bu...

- A. Dialektik sakrash.
- B. Inqilob.
- C. Evolyusiya.
- D. Progress.

2.O‘tish harakatlariga ko‘ra sakrash qanday bo‘ladi.

- A. Integral va differensial.
- B. Evolyutsion va Revolyutsion.
- C. Kerakli va keraksiz.
- D. Yaxshi va yomon.

3.Element va strukturaning dialektik birligi nimani tashkil qiladi.

- A. Me`yor.
- B. Qarama – Qarshiliklarning birligi.
- C. Sistema.
- D. Birlik

4.Bir voqealikni keltirib chiqaruvchi hodisalar majmui nima deyiladi.

- A. Baxona.
- B. Stimul.
- C. Oqibat.
- D. Sabab.

5.Rivojlanish mexanizmi masalasi qaysi qonunda ochiladi?

- A. Qarama – Qarshiliklar birligi va kurashi.
- B. Inkorni – inkor.
- C. Sifat va miqdor o‘zgarishlarning bir – biriga o‘tishi.
- D. Determinizm printsipi.

6.Olamni doimo harakatda va rivojlanishda deb targ‘ib qiluvchi ta`limot.

- A. Ekalogik oqim.
- B. Metafizika.
- C. Dialektika.
- D. Sofistika.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. 53b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017 484 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. 28 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma’naviyat, 2015, 176 b.
5. Karimov I.A. Asarlar tuplami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston, 1996-2016.

6. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012.
9. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
10. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013 ,

720 b

11. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
12. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.T.: Noshir, 2017

4-MAVZU: BILISH NAZARIYASI

Reja:

- 1.Bilish va uning turlari.
2. Haqiqatning asosiy shakllari va kontseptsiyalar. Amaliyotning predmeti va maqsadi.
3. Falsafa tarixida haqiqatga munosabat.

Tayanch tushunchalar:bilish, hissiy bilish, aqliy bilish, mantiqiy bilish, tafakkur, haqiqat,nisbiy haqiqat, mutloq haqiqat, metod, metodologiya.

Bilish va bilim. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatları, xususiyatlarını o‘rganish falsafa tarixida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Inson o‘z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o‘z-o‘zini o‘zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolarini bilan shug‘ullanuvchi maxsus sohasi - gnoseologiya vujudga keldi.

Inson bilishi nihoyatda ko‘p qirrali, murakkkab va ziddiyatli jarayondir. **Gnoseologiya** asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug‘ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo‘yadi. Xususan, XVII asr o‘rtalarida Yevropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o‘rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug‘llandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g‘oyani olg‘a surdilar.

Bilish nima? Bilish insonning tabiat, jamiyat va o‘zi to‘g‘risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma’naviy faoliyat turidir. Inson o‘zini qurshab turgan atrof-muhit to‘g‘risida bilim va tasavvurga ega bo‘lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo‘lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro‘y beradi. Shuningdek, bilish

insongagina xos bo‘lgan ma’naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Insoniyat ko‘p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o‘zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo‘lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shug‘ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sostial guruh vujudga keldi. Bular - ilm-fan kishilari bo‘lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug‘ullanadilar.

Bilishning ikki shakli: **kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish** bir-biridan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o‘ziga xos bo‘lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon g‘arb sostiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o‘rganuvchi maxsus soha - etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Nazariy bilishning obyekti, subyekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

Bilish obyekti. Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san’atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish obyektlari hisoblanadi. Bilish obyektlari moddiy, ma’naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo‘lishi mumkin. Bilish obyektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo‘lgan borliqni qamrab oladi. Bilish obyektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

Bilish subyekti. Bilish bilan shug‘ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va

jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o‘ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtida ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan - fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma’naviy barkamollikka erisha borgani sari ilm-fan qadriyat sifatida e’zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish subyekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti subyektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish obyektining ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o‘rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darjasи barcha tirik mavjudotlarga xos bo‘lib, **hissiy bilish** deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a’zolari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo‘lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalanishi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to‘g‘risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo‘lib, **aqliy bilish** (rastional bilish) deyiladi. Agar inson o‘z sezgilari yordamida narsa va hodisalarining faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarining ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham hodisa aldamchi va chalg‘ituvchidir. Binobarin, inson

sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to‘g‘risida bergen ma’lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Ilg‘or ilmiy nazariyalar ma’lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo‘nalishini o‘zgartirishi, ilmiylikning o‘ziga xos mezoni bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyustion nazariyasi, A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o‘zgarishlarni vujudga keltirdi.

Gnoseologiyada haqiqat tushunchasi muhim o‘rin tutadi. **Haqiqat** inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o‘zining mazmuniga ko‘ra mutlaq va nisbiy bo‘lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo‘lib, ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o‘z mazmuniga ko‘ra hamisha obyektivdir. Ya’ni uning mavjudligi ayrim kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq emasdir. Masalan, O‘zbekistonning milliy mustaqilligi obyektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmasligidan qat’i nazar, bu haqiqat o‘z mazmunini saqlab qolaveradi. Haqiqatni atayin buzish yoki soxtalashtirish oxir- oqibatda fosh bo‘ladi va o‘z qadrini yo‘qotadi. Shuningdek, haqiqat hech qachon mavhum emasdir. U hamisha konkretdir. Hegel so‘zlari bilan aytganda, nimaiki voqe bo‘lsa, u haqiqatdir, haqiqat - voqelikdir. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy, vaqt va sharoitni e’tiborga olishni talab etadi.

Falsafa tarixida haqiqatga munosabat. **Haqiqat** – bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. U borliqning bilishdagi ideal ifodasi, chunki haqiqat ongdan, bilayotgan subyektdan tashqarida va undan qat’iy nazar mavjuddir. Haqiqat – bilimlarning obyektiv borliqqa muvofiq bo‘lgan mazmuni. U bilish jarayoni, bilish in’ikosining natijasidir. Haqiqat ilmiy nazariyada mujassamlashgan anglab etilgan tasdiqlovchi mulohazalar ko‘rinishida o‘z ifodasini topadi. Har qanday ilmiy nazariya rivojlantirilishi, ba’zan boshqa, yanada haqiqiyroq nazariya bilan almashtirilishi lozim.

Falsafa tarixida haqiqat (bilimlarning haqiqiyligi) muammosi qadimgi davrlardayoq ta’riflangan. “Avesto”da haqiqat oliy sharofatdir deyiladi. Darhaqiqat insoniyat doimo haqiqatga intilgan. Zero haqiqat adolatga, sharofatga eltadigan buk qudrat. **Aristotel** fikricha haqiqat – mulohazalar va amaldagi holat o‘rtasidagi muvofiqlikdir.

Platon haqiqatni g‘oyalar dunyosiga mos keluvchi g‘ayritabiiy mustaqil ideal mohiyat sifatida tushungan, inson bilimi jonning shu g‘oyalar dunyosi bilan mushtarakligi darajasidagina haqiqiydir, deb hisoblagan.

Foma Akvinskiy haqiqat yolg‘on narsalarda emas, balki aqlda mavjud bo‘ladi, har bir narsa o‘zi bog‘liq bo‘lgan aqlga munosabati darajasidagina haqiqiy deb nomlanishi mumkin, deb qayd etgan.

Beruniy fikricha, haqiqat bilimning voqelikka muvofiqligidir. **Forobiy** fikricha, haqiqatni bilish aqlning kamolotiga bog‘liq. Bu aql inson qalbidadir, uning kamolotiga esa faol aqlga qo‘shilish orqali erishiladi. Faol aqlda borliqning eng oliy darjasи bo‘lgan. Birinchi sababdan boshlab to oxirgi haqiqatning barcha shakllari mavjud. Shuningdek Forobiy va uning izdoshlari fikricha, haqiqat bir nechta bo‘lishi mumkin emas, haqiqat bitta, shu bois falsafa ham bir nechta bo‘lishi mumkin emas. Forobiy haqiqatning o‘zgarmasligiga ishongan va falsafani haqiqatning birdan bir ifodasi deb hisoblagan².

Haqiqat-tasavvufda rujni kamolotga va uning so‘nggi maqsadi – Yaratganning diydoriga erishuv yo‘llaridagi to‘rtinchi bosqichdir. Bunda so‘fiy shaxs sifatida tugab, Xudoga mo‘ljallangan haqiqatga etishishi, ollohga singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur. Bu jarayon ma’lum davomli vaqt ni talab etadi. Maxsus ruhiy, jismoniy harakat, faoliyat, sig‘inish, ibodatlar, ohanglar yordamida amalga oshiriladi³. **Bahovuddin Naqshband** haqiqat bu Allohn ni anglashdir deb hisoblagan. Haqiqat so‘fiylar talqinida shariat doirasidan chetga chiquvchi ichki mazmunni anglatadi. Ilk so‘fiylar shariat va haqiqat o‘rtasida jarlik yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilganlar.

² Карапг. С.М. Хотамий Ислом тафаккури тарихидан. –Т.: Минҳој, 2003.-Б.126

³ Карапг. Хайруллаев М. Ўрта Осиё ва уйғониш даври маданияти. -Т.: Фан, 1994. –Б62

Gegelda haqiqatni tushunish uning falsafasidagi asosiy tamoyil bilan bog‘liq.

Bu tamoyilga binoan g‘oya o‘zining to‘liq va muayyan ko‘rinishida “o‘zida va o‘zi uchun borliqqa ega bo‘lgan haqiqat”dir. Gegel fikricha, haqiqat o‘zining mavhum ko‘rinishida muayyan mazmunning o‘ziga muvofiqligini anglatadi. Hamonki bu mazmunning to‘liqligiga mutlaq g‘oyaning o‘z-o‘zidan harakati natijasida erishilar ekan, Gegel o‘zining haqiqatni tayyor holda berilishi va shu holda cho‘ntakka solib qo‘yish mumkin bo‘lgan zarb etilgan tanga sifatida emas, balki sof tafakkur sohasida bilimlarning dialektik shakllanish jarayoni sifatida tushunish lozimligi haqidagi mashhur tezisini ta’riflaydi: “...hamma gap haqiqiy narsani substansiya sifatida emas, balki shuningdek subyekt sifatida”, ya’ni tafakkur faoliyati sifatida ham tushunish va ifodalashda⁴.

Haqiqatni obyektiv-idealistik tushunishning o‘ziga xos xususiyati unga dunyoning ongda aks etish jarayoniga bog‘lamasdan qarash va uni insonning obyekt haqidagi bilimi xossasi sifatida emas, balki empirik borliqqa qo‘srimcha tarzda obyektiplashgan qandaydir vaqtidan tashqaridagi g‘oyaning xossalari sifatida talqin qilishda namoyon bo‘ladi.

Haqiqatni subyektiv idealistik tushunish esa inson bilimining xossalari va tarkibi bilan bog‘lanadi, biroq mazkur bilim unda tashqi, mustaqil dunyoning aks etishiga bog‘lanmaydi, chunki bunday dunyoning mavjudligi inkor etiladi. Haqiqat “tafakkurning tejamkorligi” sifatida (Max), foydali natijalarga erishish imkonini beruvchi jarayon, tafakkurimiz obrazidagi qulaylik sifatida (Jeyms), inson tajribasining mafkuraviy ta’rifni tashkil etuvchi shakli sifatida (Bogdanov) talqin qilinadi.

Hozirgi zamon bilish nazariyasida haqiqiy bilim va uning shakllari haqida turli fikrlar mavjud.

Obyektiv haqiqat – bilimlarimizning inson insoniyatga bog‘liq bo‘lmagan mazmuni. Bizning bilimlarimizda doim yo muayyan odamga, yo muayyan ijtimoiy guruhga bog‘liq bo‘lgan unsur mavjud bo‘ladi. Binobarin, o‘z bilimlarimizda

⁴ Қаранг. Гегель Г. Феноменология духа. -М.: Наука, 1994. –С.196

subyektiv unsurlarga bog‘liq bo‘lмаган va shu sababli obyektiv hisoblanadigan mazmunni qayd etishimiz lozim. Obyektiv haqiqat rivojlanib, ikki shakl: nisbiy va mutlaq haqiqat shakllarida amal qiladi.

Mutlaq haqiqat – *predmetni kelajakda to‘ldirilishi yoki unga aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lмаган tarzda to‘la, mukammal bilishdir.* Olam vaqt va makonda cheksizligi tufayli bunday bilimga amalda erishish mumkin emas. Haqiqat tushunchasini mutlaq haqiqat tushunchasi bilan tenglashtirib, biz unga erishib bo‘lmasligi, demak, umuman bilish mumkin emasligi haqida gapiramiz. Biroq fanning haqiqiy tarixi buning teskarisidan dalolat beradi: fan rivojlanadi, chunki u nisbiy va mutlaq bilimning birligi sifatida tushuniladigan haqiqatni bilishga qodir. Boshqacha aytganda, obyektiv haqiqat to‘la va mukammal ko‘rinishdagi mutlaq haqiqatdir. Ayrim hollarda, agar haqiqat vaqt o‘tishi bilan o‘zgarmasa, ya’ni vqat shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lmasa, u boqiy haqiqat deb ataladi.

Nisbiy haqiqat – *borlijni asosan to‘g‘ri aks ettirsa-da, obraz obyektga uncha mos emasligi bilan ajralib turadigan bilim.* Nisbiy haqiqat to‘g‘ri, biroq noto‘liq, taxminiy, vaqt va joyning muayyan tarixiy shart-sharoitlari bilan cheklangan haqiqatdir.

Nisbiy va mutlaq haqiqat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Nisbiy haqiqatlar bilish taraqqiyoti jarayonida rivojlanib, o‘z chegarasi bo‘lgan mutlaq haqiqatga yaqinlashadi.

Biroq bilishning tarixiy rivojlanish jarayoni nafaqat nisbiy haqiqatlarning mutlaq haqiqatga aylanish jarayoni, balki ayrim mutlaq haqiqatlarning yuzaga kelish jarayoni hamdir. Bu fikrni fizikada atom va uning tuzilishi haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi misolida ko‘rish mumkin. Yuz yil muqaddam fiziklar va ximiklar atomlar amalda mavjud va ajralmas sharchalar ko‘rinishida, deb taxmin qilar edilar. Bu tasavvur zamirida mutlaq haqiqat unsurlari mavjud edi. Bundan: “Kimyoviy elementlarning atomlari amalda mavjud”, degan xulosa kelib chiqadi. Fizika va kimyoning keyingi rivojlanishi mutlaq haqiqatning bu elementini bekor qilmadi. Biroq bu tasavvurlarda xatolar mavjudligi (taranglik, ajralmaslik va h.k.) aniqlandi.

Takrorlash uchun savollar

- 1.Gnoseologiya nimani o‘rganadi?
- 2.Bilish nima?
- 3.Hissiy va ratsional bilishning o‘ziga xosligi nimada?
- 4.Bilish obyekti, subyekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
- 5.Ilmiy bilishning asosiy usul (metod) larini ko‘rsating.

Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar


Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
<p>1.Bilishning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?</p> <p>2. Haqiqat nima ?</p> <p>3. Nisbiy haqiqatlар va absalyut haqiqatlarning o‘zaro bogliqligi qanday?</p> <p>4. Bilishning yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishdagi ahamiyat nimada?</p>			

- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi
- muammoning mazmunining tushunish muhim bosqich hisoblanadi (1-ustun)
- Voqeliklarning sabab va omillari bilan (2-ustun) to‘ldiriladi
 - Muammoning yechimi to‘liq izohlanishi kerak (3-ustun).
 - Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (4-ustun)
- Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Venn diagrammasi*” interfaol usuli orqali tushuntirish.

Mavzu mashg‘uloti uchun topshiriqlar:

1. Bilishda haqiqatga erishish yo‘lini izholab bering ?
2. Bilimlar va axborot omili ta’sirini ortishini qanday tushunasiz “Venn diagrammasi” orqali boshqaruvning totalitar va yangi usullarining umumiy belgilari qiyosiy tahlil qilinadi.Masalaning o‘zaro bog‘liqligini xulosalash uchun quyidagi tushunchalar tanlandi:

1)* bilim 2)* axborot 3)* haqiqat



Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “Venn diagrammasi” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “Venn diagrammasi” interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo‘lib, masala mohiyati unga yaqin bo‘lgan tushuncha va ma’lumotlar orqali o‘zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilganidan so‘ng, ularni bog‘lovchi hususiyatlarni A)* va B)* qatorga to‘ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “Venn diagrammasi” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim

- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “Venn diagrammasi” interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo‘lib, masala mohiyati unga yaqin bo‘lgan tushuncha va ma’lumotlar orqali o‘zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilganidan so‘ng, ularni bog‘lovchi hususiyatlarni A)* va B)*qatorga to‘ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

Nazorat test savollari

1. Bilish haqidagi ta’limot bu....

- A. Gnoseologiya
- B. Ontologiya
- C. Ideologiya
- D. Logika

2. Dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan faylasuflar?

- A. Agnostika
- B. Gnostika
- C. Astika
- D. Sofistika.

3. Qaysi faylasuf falsafaga - Filosofiya – to‘g‘ri fikrlash orqali bilimga erishish deb tarif bergan.

- A. G.Gobbs
- B. Aflatun
- C. Gegel
- D. Forobiy

4. Mantiqiy bilishga quyidagilardan qaysilar kiradi?

- A. Ilmiy, noilmiy, oddiy.
- B. Tushuncha, hukm, xulosa chiqarish.
- C. Sezgi, idrok, tasavvur
- D. Kuzatish, tajriba, faraz.

5. Hissiy bilishga quyidagilardan qaysilar kiradi?

- A. Ilmiy, noilmiy, oddiy.
- B. Tushuncha, hukm, xulosa chiqarish.
- C. Kuzatish, tajriba, faraz.
- D. Sezgi, idrok, tasavvur,

6. Harakat turiga ko‘ra?

- A. Aqliy va jismoniy.
- B. Biologik va fizikaviy.
- C. Ijtimoiy va siyosiy.
- D. Moddiy va ma`naviy.

7. “O‘zingni bilsang, olamni bilasan” degan ibora qaysi muallif qalamiga mansub?

- A. Suqrot
- B. Arastu
- C. Aflatun
- D. Demokrit

5-MAVZU. MANTIQ BILISH NAZARIYASINING TADQIQOT OBYEKTI

Reja:

1. Tafakkur mantiqiy fikrlash asosi.
2. Tushuncha va hukm
3. Xulosa chiqarish

Tayanch tushunchalar

1. Mantiq - tafakkur qonunlari, shakllari va usullarini o‘rganuvchi fan.
2. Logika – grekcha “logike” so‘zidan olingan bo‘lib, “so‘z”, “fikr”, “aql” ma’nolarini bildiradi.
3. Tafakkur – aqliy bilish bosqichi bo‘lib, tafakkur jarayonida narsa va hodisalarning o‘zaro aloqadorligi, rivojlanish qonuniyatları, istiqboli haqida bilimlar, g‘oyalar, gipotezlar hosil bo‘ladi. Tafakkur – mantiq ilmining o‘rganish obyekti.
4. Tafakkur shakllari – tushuncha, hukm va xulosa chiqarishdan iborat bo‘ladi. Bular hammasi obyektiv borliqning, predmet, hodisalarning mavhum tafakkurda ifodalanish shaklidir.
5. Mantiqiy usul – uning yordamida bayon etilgan mulohazalarga asoslanib tafakkur shakli muayyan tipdagi buyumlar munosabatini aks ettiradi.
6. Tafakkur qonunlari – chin bilimga erishish maqsadiga xizmat qiladigan to‘g‘ri fikrlashning aniq normalaridir.
7. Arastu (er. av. 384 – 322 y.) – mantiqni mustaqil fan sifatida asoslab bergen qadimgi yunon mutafakkiri.
8. Stoya maktabi – qadimgi yunonistonda er.av. IV asrdan – eramizning II asriga qadar faoliyat yuritadi. Stoya maktabi vakillari tafakkurning shakl va qonunlarini o‘rganuvchi fanni birinchi bo‘lib “Mantiq” deb atadilar.
9. Al-Farobi (873-950) – o‘z asarlarida mantiq masalalarini keng ravishda izchil tadqiq etgan Markaziy Osiyolik mutafakkir.

10. Mantiqiy qonunlar – inson tafakkurigagina xos bo‘lgan, inson tafakkurida turli fikr, mulohaza, muhokamalar munosabatidagina amal qiladigan qonunlardir.

11. Ayniyat qonuni – har bir fikr, muhokama aniq, ravshan bo‘lishini o‘zida ifodalandigan mantiqiy qonun.

12. Ziddiyat qonuni – ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslikni talab etuvchi, fikriy ziddiyatning oldini olishga qaratilgan mantiqiy qonun.

13. Uchinchisi istisno qonuni – tushunchaning ikki zid munosabatini ifodalandigan mantiqiy qonun.

14. Yetarli asos qonuni – fikrlashning isbotli, ishonarli bo‘lishini talab etuvchi mantiqiy qonun.

“Mantiq” arabcha so‘z bo‘lib, ma’nosи bo‘yicha “logika” so‘ziga muvofiq keladi. “Logika” atamasi esa, grekcha “logos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “fikr”, “so‘z”, “aql”, “qonuniyat” kabi ma’nolarga ega. Uning ko‘pma’noligi turli xil narsalarni ifoda qilishida o‘z aksini topadi. Xususan, mantiq so‘zi, birinchidan, obyektiv olam qonuniyatlarini (masalan, “obyektiv mantiq”, “narsalar mantig‘i” kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo‘lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig‘indisini (masalan “subyektiv mantiq” iborasida), va nihoyat, uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fanni ifoda etishda ishlataladi.

Mantiq ilmining o‘rganish obyektini tafakkur tashkil etadi. “Tafakkur” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi “fikrlash”, “aqliy bilish” so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o‘rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo‘lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish murakkab, ziddiyathi, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir.

Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish - insonning sezgi organlari yordamida

bilish tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarining tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya’ni Ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo‘ladigan va shuning uchun ham inson bevosita sezaga oladigan belgilari haqida ma’lumotlar olinadi.

Hissiy bilish 3 ta shaklda: sezgi, idrok va tasavvur shaklida amalga oshadi. **Sezgi** predmetning birorta tashqi xususiyatini (masalan, rangini, shaklini, ta’mini) aks ettiruvchi yaqqol obrazdir. **Idrok** predmetning yaxlit yaqqol obrazi bo‘lib, u mazkur predmet haqidagi turli xil sezgilarni sintez qilish natijasida hosil bo‘ladi. Alovida olingan sezgilardan farqli o’laroq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan (masalan olmani behidan, nokdan va shu kabilardan) farq qilish imkonini beradi. **Tasavvur** esa avval idrok etilgan predmetning obrazini ma’lum bir signallar (berilgan predmet bilan ma’lum bir umumiylilikka ega bo‘lgan) ta’sirida miyada qayta hosil qilishdan, yoki shu va boshqa obrazlar negizida yangi obraz yaratishdan iborat hissiy bilish shaklidir. Masalan, tanishingizga o‘xshagan kishini uchratganda tanishingizni eslaysiz, yoki qurmoqchi bo‘lgan imoratingizni mavjud imoratlar obrazlari yordamida yaqqol his qilasiz.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo‘lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish obyektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) subyektga (individga, to‘g‘riroq‘i, uning sezgi organlariga) bevosita ta’sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa predmet-signal ta’sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy obraz predmetning yaqqol obrazidan iborat.

To‘rtinchidan, hissiy bilish, konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham, har bir alovida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog‘liq tarzda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishining dastlabki va zaruriy bosqichi

hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo‘la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o‘zining sezgi organlari orqali bog‘langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergen ma’lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog‘liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo‘li bilan, ya’ni tajribada bunday bilimlarning obyektini qayd etish orqali asoslanadi. O’z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda, aql tomonidan boshqarilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo‘naltiriladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergen ko‘rsatmalari asosida jinoyatchining portreti yaratiladi, yaqqol his qilinadi va qidiriladi.

Lekin, shunga qaramasdan hissiy bilish o‘z imkoniyatlari, chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar to‘plami), ularning tashqi belgilari haqida ma’lumot beradi. Unda mavjud predmetlar o‘rtasidagi aloqadorlik (masalan muz bilan havoning harorati o‘rtasidagi bog‘lanish) o‘rganilmaydi, predmetlarning umumiyligi va individual, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi.

Bundan tashqari, ba’zi hollarda hissiyotimiz bizni aldab qo‘yadi. Masalan, uzoqdan sizga qarab yurib kelayotgan kishini tanishingizga o‘xshatasiz, lekin yaqinroq kelganda uning boshqa kishi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Boshqa bir misol. Endi tanishgan kishingiz haqidagi dastlabki taassurot (bu asosan uning tashqi tomonidan ko‘rinishiga qarab hosil qilinadi), u bilan muloqatda bo‘lgandan keyin o‘zgaradi. Mana shu o‘rinda “Kiyimiga qarab kutib olishadi, aqliga qarab kuzatishadi” degan maqolning hissiy bilish bilan aql o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni, farqni yaxshi ifoda qilishini ta’kidlash lozim. Yuqorida qayd etib o‘tilgan holatlar bilishda tafakkurga bo‘lgan ehtiyojni, uning mohiyatini, bilishda tutgan o‘rnini chuqur anglashga yordam beradi.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori-rastional (lotincha ratio-aql) bilish bosqichi bo‘lib, unda predmet va hodisalarning umumiyligi, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlar aks ettiriladi.

Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

Unda voqelik abstraklashgan va umumlashgan holda in’ikos qilinadi. hissiy bilishdan farqli o’larоq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan abstraklashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan) holda, e’tiborimizni uning umumiyligi, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilardagi) e’tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiyligi, muhim belgilarni, masalan, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ongga ega bo‘lish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, “inson” tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiyligi belgilarni aniqlash predmetlar o’rtasidagi munosabatlarni, bog‘lanish usullarini o’rnatishni taqoza etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o‘xshash va muhim belgilariga ko‘ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug‘iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan “inson” tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o’rtasidagi muhim bog‘lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

Tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o’rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab, uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo‘ladi.

Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo‘lmagan narsalar-yuqori darajada ideallashgan obyektlarni (masalan absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar) ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o‘rganish, hodisalarni oldindan ko‘rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda-

moddiy hodisada (tovush to‘lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o‘zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo‘lish shaklidir.

Tafakkur uch xil shaklda: ***tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish*** shaklida mavjud.

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog‘lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi) dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifoda qilingan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Tafakkur shaklining tabiatini konkret misollar yordamida ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (to‘plami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bo‘lgan tushunchalarda aks ettiriladi. Masalan, “davlat” tushunchasida o‘zining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bo‘lgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. “Ilmiy nazariya” tushunchasida esa, predmetlarning birorta sohasiga oid bo‘lgan va ular haqida yaxlit tasavvur beradigan, ma’lum bir metod yordamida qurilgan tushunchalar sistemasi ifoda etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo‘lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko‘ra bir xildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali fikr qilingan. “o‘z maydoniga egaligi”, “aholisining mavjudligi”, “boshqaruv vositalariga egaligi”, “siyosiy tashkilotdan iboratligi” davlatning muhim xususyatlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, “predmetlarning birorta sohasiga aloqadorligi”, “predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga imkoniyat berishi”, “ma’lum bir metod yordamida qurilishi”, “tushunchalar sistemasi shaklida bo‘lishi” ilmiy nazariyaning muhim belgilari hisoblanadi. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya’ni fikrlash elementlarini a, v, s,..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasini A (a, v, s,..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o‘rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo‘lish yoki bo‘lmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan “Temir-metall” degan hukmda predmet (temir) bilan

uning xossasi (metall ekanligi) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan. “Axloq huquqdan ilgari paydo bo‘lgan” degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jixatdan turli xil bo‘lgan bu hukmlar tuzilishiga ko‘ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o‘rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya’ni R ning Sga xosligi tasdiqlangan. Umumiy xolda hukmning mantiqiy strukturasini (shaklini) S-R formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarishda ham yuqoridagiga o‘xhash hollarni kuzatish mumkin.

Masalan,

Daraxt - o‘simlik

Terak – daraxt

Terak - o‘simlik va Har bir ximyaviy element o‘z atom og‘irligiga ega. Mis - ximyaviy element Mis o‘z atom og‘irligiga ega.

Xulosa chiqarish ko‘rinishlari mazmuni bo‘yicha turlicha bo‘lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo‘lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda- “daraxt”, ikkinchi misolda – “ximyaviy element” tushunchasi) orqali bog‘langan.

Tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish tafakkurning universal shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana shular va ularning o‘zaro aloqalarga kirishishi natijasida vujudga keladigan boshqa mantiqiy strukturalar (masalan, muammo, gipoteza, nazariya, g‘oya, argumentlash va shu kabilar) da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo‘lishi va formal jihatdan to‘g‘ri qurilishi kiradi. Chin fikr deb, o‘zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (Masalan, “Temir-metall”). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, “Temir-metall emas”). Fikrning chin yoki xato bo‘lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir.

Fikrning chin bo‘lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo‘lsada, o‘z

holicha yetarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan to‘g‘ri qurilgan ham bo‘lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo‘lib, tafakkurda hosil bo‘ladigan turli xil mantiqiy strukturalarda, sodir bo‘ladigan har xil mantiqiy amallarda o‘z aksini topadi.

Fikrni to‘g‘ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. **Tafakkur qonuni** muhokama yuritish jarayonida fikrlar (fikrlash elementlari) o‘rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to‘g‘ri qurish uchun zarur bo‘lgan talablar fikrning aniq, izchil, yetarli darajada asoslangan bo‘lishidan iborat.

Muhokamani to‘g‘ri qurish bilan bog‘liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan prinstiplar, qoidalar tarzida, ya’ni to‘g‘ri tafakkur prinsiplari sifatida amal qilishiga e’tibor berish zarur. Mazkur qoidalarning buzilishi muhokamaning noto‘g‘ri qurilishiga sabab bo‘ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, “qonun – rioya qilish zarur bo‘lgan huquqiy hujjat”, “Buyruq qonun emas”, demak, “Buyruq rioya qilish zarur bo‘lgan huquqiy hujjat emas”) yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, “Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar”, “Temir-moddiy jism”, demak, “Temir-kimyoviy element”) mumkin.

1. Tafakkur ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni turli xil tomonidan, xususan, mazmuni va shakli (strukturasi) bo‘yicha, tayyor holida yoki kelib chiqishi va taraqqiyotida olib o‘rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlichha metodlardan foydalanishiga, har xil yo‘nalishlarga ajralishiga sabab bo‘ladi.

Keng ma’noda mantiqni tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan, deb atash mumkin. Hozirgi paytda uning formal mantiq, dialektik mantiq va matematik mantiq kabi yo‘nalishlarini farq qilish mumkin. **Formal mantiq** tafakkurning strukturasini fikrning konkret mazmuni va taraqqiyotidan chetlashgan holda, nisbatan mustaqil ravishda olib o‘rganadi. Uning diqqat markazida muhokamani to‘g‘ri qurish bilan bog‘liq qoidalar va mantiqiy amallar yotadi.

Formal mantiqga to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi falsafiy fan, deb ta’rif berish mumkin.

Dialektik mantiq, formal mantiqdan farqli o‘laroq, tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida hamda taraqqiyotida olib o‘rganadi. Matematik mantiq esa tafakkurni matematik metodlar yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tafakkurni mantiqiy hisoblash deb ataladigan yuqori darajada abstraktlashgan va formallahsgan sistemada tahlil qiladi.

Biz o‘rganadigan fan formal mantiq bo‘lib, u hozirgi paytda o‘zining maxsus formallahsgan tiliga, to‘g‘ri muhokama yuritish uchun zarur bo‘lgan samarali mantiqiy metodlari va usullariga, konsteptual vositalariga ega. Tafakkurni o‘rganuvchi boshqa fanlar, xususan falsafa, psixologiya, fiziologiya bilan hamkorlik qiladi hamda ilmiy bilimlar sistemasida o‘zining munosib o‘rniga ega. Ayniqsa, uning bilish metodi sifatidagi ahamiyati katta.

2.Tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o‘siradi, xususan, fikrni to‘g‘ri qurish malakasini rivojlantiradi; bahs yuritishda o‘zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo‘lishiga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to‘g‘ri qurishga, formal ziddiyatlar, xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish, aytish mumkinki, o‘ziga xos san’at-mantiq san’ati hisoblanadi. Bu san’atning nazariy asoslarini chuqr egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladi. Shu o‘rinda buyuk mutafakkir Forobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e’tiborga loyiq ekanligini ta’kidlash zarur. U shunday yozadi:

“Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda, to‘g‘ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyyot choralarini ko‘rsatadigan san’atni-mantiq san’atni o‘rganishdir. Uning asosiy qonun- qoidalalarining aqlga bo‘lgan munosabati grammatika san’ati qoidalalarining tilga bo‘lgan munosabatiga o‘xshash; xuddi

grammatika kishilarning tilini to‘g‘irlash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo‘lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda aqlni to‘g‘irlab turadi”.

Uning ta’lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O’quv jarayonining samaradorligi ma’lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarining, terminlarning aniq bo‘lishiga, muammolarning mantiqan to‘g‘ri qo‘yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasini to‘g‘ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalardan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni echish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasini o‘rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo‘lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

1. Olamdagi narsa va hodisalar harakati o‘ziga xos ichki qonunlar asosida yuzaga keladi. Bu harakatning inson ongidagi in’ikosi, ya’ni tafakkur jarayoni ham o‘ziga xos obyektiv qonuniyatlar asosida amalga oshadi.

Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiyligi, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Formal mantiq ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari o‘rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagи qonunlarga bo‘ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formallahgan mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari obyektiv olam va bilish jarayoniga xos bo‘lgan eng umumiyligi qonunlar bo‘lib, dialektik mantiq ilmining o‘rganish sohasi hisoblanadi. Formallahgan mantiq qonunlari esa, faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o‘rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to‘g‘ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo‘lishini e’tiborga olgan holda o‘rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zururiy bog‘lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari obyektiv voqelikning

inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan.

Bu qonunlar fikrlashning to‘g‘ri amalga oshishini ta’minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo‘lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o‘zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlari yuzaki qaraganda subyektiv qonunlardek bo‘lib tuyulsa ham, aslini olganda, obyektiv mazmunga egadir. Bu qonunlar hamma kishilarning fikr yuritishida bir xil amal qiluvchi umuminsoniy qonunlardir. Ularni buzish, almashtirish, o‘zgartirish, yangilash mumkin emas.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to‘g‘ri, tushunarli, aniq izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo‘lish va isbotlilik (asoslanganlik) to‘g‘ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo‘lganligi uchun ularning har birini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

Inson tafakkuriga xos bo‘lgan muhim xislatlardan biri fikrning aniq bo‘lishidir. Ma’lumki, obyektiv voqelikdagi har bir buyum, hodisa o‘ziga xos belgi va xususiyatlarga ega. Bu belgi va xususiyatlar buyum va hodisalarni bir-biridan farqlashga, ularning o‘ziga xos tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, buyum va hodisalarning inson tafakkurida aniq aks etishini, har bir fikr, mulohazaning aniq, ravshan ifodalanishini ta’minlaydi. Fikrning noaniqligi fikrdagi mantiqning sayozlashuviga, mantiqsizlikka olib keladi. Masalan, obyektiv va subyektiv sabab tushunchalarining mohiyatini aniqlab olmasdan birorta hodisaning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida aniq fikr yuritib bo‘lmaydi. Shu sababdan fikrdagi aniqlik to‘g‘ri tafakkurlashning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Tafakkurga xos bo‘lgan belgilardan yana biri fikrlash jarayonining ziddiyatsizlik xususiyatiga ega bo‘lishligidir. Bu belgi ham obyektiv asosga ega. Ma’lumki, obyektiv voqelikda har bir buyum yoki hodisa bir vaqtning o‘zida biror sifatiga ko‘ra ikki zid belgiga ega bo‘lmaydi. Masalan, biror buyum bir vaqtning o‘zida ham bor, ham yo‘q bo‘la olmaydi yoki inson ham e’tiqodli, ham e’tiqodsiz bo‘la olmaydi. Fikrda mantiqiy ziddiyatlarning mavjud bo‘lishi uning noaniq,

chalkash, tushunarsiz bo‘lishiga olib keladi.

Buyum va hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlar tafakkurga xos bo‘lgan asoslilik belgisining obyektiv negizidir. Inson fikr yuritish jarayonida iloji boricha chinligi asoslangan mulohazalarni bayon qilishga intiladi.

Yuqorida bayon qilingan belgilar tafakkur qonunlarining mazmunini tashkil etadi.

Ayniyat qonuni

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda ularga xos bo‘lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o‘zgarmas va qat’iy mazmunga ega bo‘ladi. Tafakkurga xos bo‘lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko‘ra ma’lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtida o‘z-o‘ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida “A-A dir” formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya’ni mulohazalar mantig‘i va predikatlar mantig‘ida o‘ziga xos ko‘rinishda ifodalanadi:

Mulohazalar mantig‘ida $a \square a$ va $a \square a$. (Bunda a - har qanday fikrni ifodalovchi belgi, $\square \square$ implikastiya belgisi, \square ekvivalentlik belgisi).

Predikatlar mantig‘ida ($\square x(R(x) \square R(x))$). Bu ifoda quyidagicha o‘qiladi: har qanday X uchun, agar X R belgiga ega bo‘lsa, X shu belgiga ega, degan fikr to‘g‘ri bo‘ladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va aksincha, o‘zaro aynan bo‘lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni, bilib yoki bilmasdan, buzish holatlari uchraydi. Ba’zan, bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan: “dialektika qonunlari” va “tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiyl qonunlari” tushunchalari shakliga ko‘ra turlicha bo‘lsa ham mazmunan aynandir.

Tilda mavjud bo‘lgan omonim va sinonim so‘zlarning qo‘llanishi ham ba’zan turli fikrlarning o‘zaro aynanlashtirilishiga, ya’ni noto‘g‘ri muhokamaga olib keladi. Masalan: falsafiy nuqtai nazardan «sifat» tushunchasi, o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lsa, biror hunarmand tomonidan bu tushuncha, boshqa mazmunda (yaroqli, foydali) qo‘llaniladi.

Shuningdek u, bir tushunchaga kasb-hunari, hayotiy tajribasi va dunyoqarashi turli xil bo‘lgan shaxslar tomonidan turli mazmun yuklatilishida ham namoyon bo‘ladi.

Bahs-munozara jarayonida qanday qilib bo‘lsa ham raqibni aldash va yutib chiqish maqsadida ayniyat qonunining talablarini ataylab buzuvchilar sofistlar deb ataladi; ularning ta’limoti esa sofistika deyiladi.

Ba’zan turli ma’nodagi bir xil so‘zlarni mohirlik bilan ishlatish orqali ajoyib she’riy misralar yaratiladi. Sharq adabiyotida “tuyuq” nomi bilan ma’lum bo‘lgan bu she’riy misralar go‘zalligi, insonga o‘ziga xos zavq berishi bilan ajralib turadi. Bunga Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining quyidagi misralari misol bo‘la oladi:

Qo‘lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot,
Nasihatim yod qilib ol farzandim,
Yolg‘iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot.

Yuqoridagi to‘rtlikda “ot” tushunchasining turli ma’nolarda qo‘llanilishi, ayniyat qonuni talabining buzilishini emas, balki unga rioya qilinganligini ifodalaydi.

Shuningdek, o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan askiya san’atida ayniyat qonunlari ataylab buzilishini, tushunchalarning o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishini kuzatish mumkin. Bu o‘ziga xos so‘z o‘yini bo‘lib, unda qo‘llaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini ko‘rsatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab bo‘ladi.

Demak, hayotda, amaliyotda tushunchaning turli ma’nolarda qo‘llanilishidan g‘arazli yoki beg‘araz, yaxshi yoki yomon maqsadlar uchun foydalanish mumkinligini ko‘ramiz.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgan holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning o‘zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to‘larq bilib borishimiz bilan o‘zgarishini e’tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo‘lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo‘lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o‘rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

Nozidlik qonuni

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo‘libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo‘lishi ham zarur. Zidiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo‘lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma’lumki, obyektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtida, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo‘lishi, ham ega bo‘lmashigi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o‘zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo‘lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo‘ladi.

Bir vaqtning o‘zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo‘lmashigi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo‘l qo‘ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo‘lishini ta’minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o‘zaro bir birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtida va bir xil nisbatda birdaniga chin bo‘lishi mumkin emasligini, hech bo‘lmasganda ulardan biri albatta xato bo‘lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bo‘la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig‘ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi: $\square x (r(x) \square P(x))$, ya’ni har qanday r (x) mulohaza uchun r (x) va uning inkori birgalikda chin bo‘lmashigi to‘g‘ridir.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo‘lishi mumkin; o‘zaro zid mulohazalar esa bir vaqtda xato bo‘lmaydi, ulardan biri xato bo‘lsa, ikkinchisi albatta chin bo‘ladi. qarama-qarshi mulohazalarda esa bunday bo‘lmaydi, ya’ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: “Aristotel-mantiq fanining asoschisi” va “Aristotel-mantiq fanining asoschisi emas”-bu o‘zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bo‘lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo‘lgani uchun, ikkinchisi xato bo‘ladi. O‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan “Bu dori shirin” va “Bu dori achchiq” mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bo‘lishi mumkin. Chunki dori shirin ham, achchiq ham bo‘lmasligi, balki bemaza yoki nordon bo‘lishi mumkin.

Ba’zida ikki qarama-qarshi fikr aytilganda mantiqiy ziddiyat bo‘lmasligi mumkin. Bunda bir masala yuzasidan bayon qilingan qarama-qarshi fikrlar turli vaqtda va turli nisbatda aytilgan bo‘ladi. Masalan: “Talaba A. mantiq fanidan imtihon topshirmadi” va “Talaba A. mantiq fanidan imtihon topshirdi”. Bu zid mulohazalar turli vaqtga nisbatan chin bo‘ladi, ya’ni ular o‘rtasida ziddiyat bo‘lmaydi.

Demak, fikrlash jarayonida, vaqt, munosabat va obyekt birligining saqlanishi nozidlik qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi. Nozidlik qonuni to‘g‘ri fikr yuritish jarayonida amal qiladi.

Mantiq ilmi umuman har qanday zid mulohazalarni ta’qiqlamaydi, balki bir masala yuzasidan bir xil vaqt va munosabat doirasida o‘zaro zid, qarama-qarshi mulohazalarni bayon qilish mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Formal mantiq dialektik ziddiyatlar bilan mantiqiy ziddiyatlarni chalkashtirib yuborishni qoralaydi. Mantiqiy tafakkurdagi ziddiyat bilan real hayot ziddiyatlarini, ya’ni dialektik ziddiyatni bir-biridan farqlash, ularni almashtirib yubormaslik zarur. Chunki bulardan birinchisi tafakkurda yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ziddiyat bo‘lsa, ikkinchisi buyum, hodisalar taraqqiyotining ichki manbaini tashkil qiladigan dialektik ziddiyatdir. Birinchisi subyektiv, ikkinchisi obyektiv ziddiyatdir.

Noziddlik qonunini bilish va unga amal qilish raqibning, suhbatdoshning

fikrlaridagi mantiqsizlikni aniqlash, ilmiy tahlilni izchil va chuqur mantiqiy asosda olib borish imkonini beradi.

Uchinchisi istisno qonuni

Uchinchi istisno qonuni nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo‘lib, fikrning to‘liq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligini ifodalaydi. Bu qonun “A V yoki V emasdir” formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig‘ida bu quyidagi formula orqali ifodalanadi: $rV P$. Bu formula quyidagicha o‘qiladi. r yoki r emas.

Uchinchisi istisno qonuni tushunchalar o‘rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar tushunchaning to‘liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma’lum bo‘lsa, unda uchinchisi istisno qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

-talaba imtihonda “a’lo” baho oldi. Talaba imtihonda “ikki” baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo‘lishi va talaba imtihonda “o‘rta” yoki “yaxshi” baho olishi mumkin.

Agar, “Talaba imtihonda “a’lo” baho oldi” va “Talaba imtihonda “a’lo» baho olmadi”, mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekanligi ma’lum bo‘ladi. Chunki “yaxshi”, “o‘rta” va “ikki” baholar-“a’lo” baho emas.

Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo‘llaniladi:

1. Alovida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o‘zaro zid fikr bildirilganda. Masalan, Toshkent-O’zbekistonning poytaxti. Toshkent-O’zbekistonning poytaxti emas. Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo‘la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o‘rin yo‘q. Uchinchisi istisno qonuni o‘zaro zid umumiyl mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiyl mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga

nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

-hamma faylasuflar notiqdir. hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan, birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Bunday holatda “Ba’zi faylasuflar notiqdir” degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

2.Son va sifatiga ko‘ra o‘zaro zid mulohazalar bayon qilinganda, buyum va hodisalarning sinfi haqida tasdiqlab bayon qilingan mulohaza bilan shu sinf buyum va hodisalarining bir qismi haqida inkor etib bayon qilingan mulohazalardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisiga o‘rin bo‘lmaydi.

Masalan:

-hamma faylasuflar tabiyotshunosdir. Ba’zi faylasuflar tabiyotshunos emas.

Bu ikki mulohaza bir vaqtda chin ham, xato ham bo‘la olmaydi. Ulardan biri (Ba’zi faylasuflar tabiyotshunos emas) albatta chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o‘rin yo‘q.

Demak, Uchinchisi istisno qonuni:

1.Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan;

2.Umumiylasdiq va juz’iy inkor mulohazalarga nisbatan;

3.Umumiylasdiq va juz’iy tasdiq mulohazalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Uchinchisi istisno qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor bo‘lishi yoki tushunchalardan biri ijobjiy va boshqasi salbiy bo‘lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohazaning bir-birini hajm jihatdan to‘liq inkor etishi kifoya. Masalan, erkak va ayol tushunchalarining har ikkisi ijobjiy bo‘lib, inson tushunchasining to‘liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

Uchinchisi istisno qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, obyekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o‘z kuchini yo‘qotadi, fikrning izchilligiga zarar etadi va mantiqsizlikka yo‘l qo‘yiladi.

Uchinchisi istisno qonuni boshqa mantiqiy qonunlar singari ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqeа va

hodisalarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o‘z bilimlariga asoslangan holda o‘zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o‘zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo‘lmasligini tasdiqlaydi.

Uchinchisi istisno qonunini bilish muhokama yuritishda to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun muhim bo‘lib, o‘zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo‘l qo‘ymaydi.

To‘g‘ri fikrlashga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo‘lmasligi uchun, uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma’lum bo‘lgan va o‘zaro mantiqiy bog‘langan mulohazalarga asoslaniladi, ya’ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma’lum bo‘lgan, tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Yetarli asos qonuni

Inson tafakkuriga xos bo‘lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnis ta’riflab bergan. Uning ta’kidlashicha, barcha mavjud narsalar o‘zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. **Har bir buyum va hodisaning real asosi bo‘lgani kabi, ularning in’ikosi bo‘lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo‘lishi kerak.** Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: “Agar V mavjud bo‘lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud”.

Yetarli asos qonunida to‘g‘ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog‘lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko‘rib o‘tilgan qonunlar bilan o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o‘zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan obyektiv, haqiqiy real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, “Bu kishi bemor” degan mulohazani “U shifoxonada davolanayapti” degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko‘rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo‘lishligining obektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo‘lish xususiyatlarini ham, ya’ni obyektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo‘lgan boshqa munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Insonning shaxsiy tajribasi makon va zamonda chegaralangan bo‘lib, sezgilarini bergan ma’lumot esa hamma vaqt ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Shunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli xissiy mushohadadan, bevosita kuzatishdan boshlanadi. Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog‘lab turadi.

Nazariy asoslashda keng foydalaniladigan usul-deduktiv xulosa chiqarish usuli, ya’ni umumiylar chin mulohazalarga tayanib fikr yuritishdir. Berilgan mulohazani mantiqiy usul orqali boshqa chin mulohazalar yordamida asoslash mumkin bo‘lsa, unda berilgan mulohaza chin, ya’ni asoslangan bo‘ladi. Bunda fikrlar o‘rtasidagi bog‘lanish umumiylar, xususiylik va yakkalik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Masalan, to‘g‘ri tafakkur qonunlarining obyektiv xarakterga ekanligini, barcha ilmiy qonunlarning obyektiv xarakterga ega ekanligi haqidagi umumiylar chin mulohaza yordamida asoslash mumkin.

Umumiylar chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalaridan, tushunchalarning ta’riflaridan, shuningdek aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning rastional yoki demonstrativ usullari bo‘lib, ular umum ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi.

Shuningdek, asoslashning subyektiv xarakterda bo‘lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo‘limgan usullari mavjuddir. Intuitsiyaga, e’tiqodga, avtoritetlarga va urf-odatlarga asoslanish shunday usullar

jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko‘proq kundalik ong darajasida foydalanildi.

Intuitsiya hech qanday muhokama va isbotlarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. Intuitsiya - lotincha intutio so‘zidan olingan bo‘lib, “diqqat bilan tikilib qarayman”, degan ma’noni bildiradi. Intuitsiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bo‘lib, hissiy va aqliy bilishdan o‘zgacha bir ko‘rinishini tashkil etmaydi; o‘ziga xos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuitsiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e’tibor bermagan holda, fikran yaxlit qamrab tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi-haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuitsiya haqiqatni aniqlashda yetarli asos hisoblansada, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishontirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

E’tiqod-kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida hatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bo‘lib xizmat qiladigan qarashlarning majmuasidan iborat. E’tiqod chinligi isbotlangan mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib ko‘rilmagan, chinligi noma’lum boshlang‘ich bilimlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Intuitsiya kabi e’tiqod ham subyektiv xarakterda bo‘lib, davr o‘tishi bilan o‘zgarib turadi. “Anglash uchun e’tiqod qilaman” - degan edi Avliyo Avgustin va Anselm Kenterberiyiskiyalar (1033-1109). Frunsuz faylasufi va teologi Per Abelyar (1079-1142) esa aql va e’tiqodning o‘zaro nisbatini haqqoniy ko‘rsatgan holda “E’tiqod qilish uchun tushunaman”, deydi. Albatta e’tiqod haqida fikr yuritganda ko‘r-ko‘rona e’tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bo‘lgan, bilimga asoslangan e’tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e’tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda yetarli asos bo‘ladi. Shuning uchun ham ular inson qalbida mustahkam o‘rnashib qoladi. Avtoritet (autoritas - hokimiyat, ta’sir) - keng ma’noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biror shaxsning yoki tashkilotning ko‘pchilik tomonidan tan olingan norasmiy ta’siridir. Yetarli asos qonuni bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilishda avtoritet tushunchasi obro‘li, e’tiborli, nufuzli manba ma’nosida qo‘llaniladi. Avtoritetlarga asoslanish deganda esa, biror fikr, mulohazaning

chinligini asoslashda obro‘li, e’tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilish tushuniladi. Nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas diniy kitoblarda yozilgan sura va oyatlar, xalq maqollari va hikmatli so‘zlaridan foydalaniladi.

MAVZU BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLAR:

1. Tafakkur shakllari nimalardan iborat.
2. Ayniyat qonuni nima?
3. Nozidlik qonuni?
4. Istisno qonuni?

Mantiqdan tarqatmalar

Tushuncha

1-tarqatma . Quyidagi tushunchalarni yakka va umumiylar, muhim va nomuhim belgilarini ajratib ko‘rsating.

Masalan, Mantiq – ijtimoiy fan (umumiylar, muhim), tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganadi (yakka, muhim), institutning ikkinchi kursida o‘tiladi (umumiylar, nomuhim), bu fandan chop etilgan ba’zi kitoblarning muqovasi ko‘k rangda (umumiylar, nomuhim).

a) O‘rik – meva, daraxt, Osiyoda ham o‘sadi, shirin ta’mli, institut binosi yonida ekilgan, novdasi butasimon emas, mevasi danakli; b) AQSh – jahonda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan davlat, quruqlikda Kanada bilan chegaradosh, g‘arbi va Sharqida Tinch va Atlantika okeanlari joylashgan, aholisining asosiy qismini Yevropadan ko‘shib kelganlar tashkil etadi, davlat boshlig‘i prezident, mustaqillik kuni 4 iyul; c) mis – rangli metall, elektr toki o‘tkazuvshan, insoniyat tomonidan birinchi mehnat quroli sifatida qo‘llanilgan metall, egiluvchan, suv bilan reaksiyaga kirishmaydi, elektronika sohasida qo‘llaniladi, O‘zbekiston hududida ham uchraydi; d) televidenye – ommaviy axborot vositasi, har bir kishi uning xizmatidan foydalanishi mumkin, XX asrda vujudga kelgan, hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining eng ko‘p tarqalgan shakli, axborotlarni tezkorlik bilan uzatadi, musiqiy dasturlarni efirga uzatadi; e) hukm – tafakkur shakli, gap bilan

uzviy bog‘liq, asosan darak gap bilan ifodalanadi, tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkab, mazmuniga ko‘ra chin va xato bo‘ladi, mantiq fanida o‘rganiladi; f) Farobiy – Markaziy Osiyolik mutafakkir olim, “ikkinchi muallim” taxallusiga ega, “Fozil odamlar shahri” asarining muallifi, O‘tror shahrida tug‘ilgan, Damashq shahrida yashagan, falsafaga oid asarlar yozgan.

2-tarqatma . Quyidagi belgilarga ega bo‘lgan tushunchalarni aniqlang.

Masalan, O‘z burchagiga ega bo‘lmagan geometrik shakl. Javobi – doira.

a) O‘zbekiston bilan chegaradosh, lekin Qozog‘iston bilan chegaradosh bo‘lmagan Markaziy Osiyo respublikasi; b) miqdoriga ega bo‘lmagan son; s) ong, til va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan tirik mavjudot; d) o‘z hajmiga ega bo‘lmagan tushuncha; e) yopiq tabiiy suv havzasi; f) tovarlar va xizmatlar uchun ekvivalent; g) molekulani tashkil etuvchi bo‘linadigan zarra; h) quyosh sistemasidagi eng chekkada joylashgan planeta; i) aholisi soniga ko‘ra dunyoda eng katta qit‘a; j) Yevropaning markaziy qismida joylashgan, aholisining asosiy qismi nemislar bo‘lgan federativ davlat.

3-tarqatma. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalari orasidan tushunchalarni ajratib ko‘rsating.

Mikrosxema, yashasin tinchlik, yurib bormoq, kelgin, hamma, nota, Koreya, blok, algoritm, makon, noma'lum obyekt, yil mahsuloti, Vatan hissi, muqova, xronologiya, observatoriya, jadval, aksioma, balli, sayoz, eng, katta yo‘l, kelajak avlod, oliy mansab, maqsad, ilohiy, asl, yosh, betakror, darkor, ba’zi, balki, yovuz.

4-tarqatma . Quyidagi tushunchalarni mazmuni va hajmini ko‘rsating.

Masalan, fan tushunchasining mazmuniga tizimlilik, o‘z tadqiqot obyektiga ega bo‘lish, dalil va isbotga asoslanish, kategoriyalarga ega bo‘lish va hakozolar tashkil etadi. Hajmiga tabiiy, ijtimoiy-gumanitar, aniq fanlar kiradi.

O‘zbekiston viloyatlari, donli o‘simlik, arxiv, tranzistor, shifoxona, musiqiy asbob, yoqilg‘i, oziq-ovqat, firma, birja, huquq, fan, shahar, yirtqish hayvon, gaz, sanoat, materik, fakultet, o‘zbek yozuvchilari, toq sonlar, millat, davlat, mutafakkir, tog‘, tafakkur shakllari, tushunchaning belgilari, avtobus, ilmiy nazariya, darslik.

5-tarqatma . Quyidagi tushunchalardan universal, yakka va bo‘sh sinfga oidlarini ajratib ko‘rsating.

Masalan, o‘quv qo‘llanma – universal sinf, Venera planetasi – yakka sinf, hajmsiz buyum – bo‘sh sinf.

Tropik meva, Boysun tog‘i, ko‘l, yo‘qlik, ajdarho, payg‘ambar, Tailand, o‘lka, doiraning boshi, aylana chiziq, Veneradagi oyli tun, mantiq, okeandagi cho‘l, ongsiz inson, Kamerun, virus, gazsimon metall, astrologiya, kafedra, Sinay yarim oroli, yassi tog‘, ibridoiy madaniyat, funksiya, Tunis, Movaraunnahr.

MAVZU BO‘YICHA TEST SAVOLLAR:

1. Qaysi alloma mantiqni “chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi “ fan deb ta’riflagan?
 - A. Aristotel
 - B. Platon
 - C. Suqrot
 - D. Demokrit
2. Mantiqiy qonunlar tizimini aniqlang.
 - A. Inkorni inkor, ziddiyat, nikoh xaqida qonunlar.
 - B. Mehnat haqida, ayniyat, jinoyat haqida qonunlar
 - C. Ayniyat, noziddiyat, istisno, yetarli asos qonunlari.
 - D. Axloqiy, huquqiy, ilmiy, obyektiv qonunlar.
- 3.. Ayniyat qonuni formulasi.
 - A. A ham V ham V emas bo‘la olmaydi.
 - B. AV yoki V emasdir.
 - C. Agar V mavjud bo‘lsa uning asosi sifatida ham mavjud.
 - D. A-A dir.
4. Nozidlik qonuni formulasi.
 - A. A ham V ham V emas bo‘la olmaydi.
 - B. AV yoki V emasdir.
 - C. Agar V mavjud bo‘lsa uning asosi sifatida A ham mavjud.

D. A-A dir.

5. Uchinchi istisno qonuni formulasi.

A. A ham V ham V emas bo‘la olmaydi.

B. AV yoki V emasdir.

C. Agar V mavjud bo‘lsa uning asosi sifatida ham mavjud.

D. A-A dir.

6.. Mantiqiy bilishga quyidagilardan qaysilar kiradi?

A. Ilmiy, noilmiy, oddiy.

B. Tushuncha, hukm, xulosa chiqarish.

C. Sezgi, idrok, tasavvur

D. Kuzatish, tajriba, faraz.

7. Mantiqiy xulosa chiqarish nima ?

A. Tafakkur shakllaridan biri

B. Narsa va hodisalarini ifodalovchi fikrning murakkab shakli

C. Ikki yoki undan ortiq chin hukmlardan ma’lum koidalar yordamida keltirib chikariladiganyangi mulohazaga aytildi?

D. Hukm va fikrlardan iborat bo‘lgan tafakkurning murakkab shakli

8.. Mantiq ilmining o‘rganish obyektini nima tashkil qiladi?

A. Tasavvur.

B. Tasavvuf.

C. Tushuncha.

D. Tafakkur.

6-MAVZU. JAMIYAT VA INSON FALSAFASI

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi va uning strukturasi.
2. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati.
3. Inson – falsafaning bosh mavzusi
4. Hayotning mazmuni va insonning vazifasi.

Tayanch tushunchalar: Jamiyat, inson, odam, shaxs, individ, antropologiya, hayotning ma’nosni in’ikos, hayot, o‘lim.

1.Jamiyat tushunchasi va uning strukturasi.

Insoniyat azal-azaldan jamoa bo‘lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma`noda jamiyat odatzodning umri, hayoti o‘tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog‘liq barcha o‘zgarish va jarayonlarni ifoda etadi.

Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo‘llaniladi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo‘lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a‘zosi deb ataladi.

Jamiyat - tabiatning bir qismi, ya`ni ijtimoiy borliq bo‘lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan juda ko‘plab munosabatlar yig‘indisi, degan turlicha ta`riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo‘ldi.

Jamiyatning vujudga kelishi. Kishilarni oila bo‘lib, jamoa bo‘lib uyushishga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamonlardanoq ulug‘

mutafakkirlar e`tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish - uni ilohiy kuch, xudo bilan bog`lab izohlashdir.

Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o`zini himoyalash, surriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma`naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o`zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san`at, g`oya, mafkura go`zallik bilan, ma`naviy kamolot yo`lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo`ladi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo`lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg`i, kommunikatsiya vositalari;
- moddiy ne`matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste`mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o`rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;
- moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar.

Jamiyatning ma`naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to`g`risidagi qarashlar, nazariyalar, ta`limotlar, g`oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta`lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning moddiy va ma`naviy hayotini boshqarish, kishilar o`rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o`rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tamonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o`zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat taraqqiyoti to`g`risidagi nazariyalar. Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Hegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning

rivojlanishi bilan, L. Feyerbax din bilan bog‘lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma`naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o‘zgarishlar bilan bog‘lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun‘iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama va xato ekanini ko‘rsatdi.

Jamiyat taraqqiyoti ko‘p bosqichli jarayon ekani to‘g‘risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko‘ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g‘oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko‘ra har bir xalq o‘zining betakror, noyob, o‘ziga xos va o‘ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos modelini yaratadi.

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo‘lgani kabi, jamiyat ham o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi.

Barqarorlik - jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko‘rsatish imkoniyatidir. U turg‘unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg‘unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o‘tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o‘zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo‘qolishida, g‘oya va mafkuraga

loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo‘lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o‘z ifodasini topadi.

2. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati.

Taraqqiyotning o‘zbek modeli - jamiyatning tadrijiy rivojlanish kontseptsiyasi sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning o‘zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg‘or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.

Ijtimoiy rivojlanish borasida xalqlar odatda ikki yo‘ldan — inqilobiy va tadrijiy yo‘ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o‘zgarishlar yo‘li nomaqbul va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evalyutsion) taraqqiyoti barqaror — tabiiy rivojlanish yo‘li ekanini ko‘rsatdi.

O‘zbek modelning asosiy tamoyillari quydagilardir:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy himoyalash;
- bozor munosabatlarga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo‘l bilan o‘tish.

O‘zbek modelining o‘ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishi va boshqalarda o‘z ifodasini topmoqda.

Jamiyat va oila. Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o‘z aksini topadi. Shu ma`noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a`zosi oila bag‘rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas

vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o‘z himoyasiga oladi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, tilimiz xususiyatlariga mos bo‘lgan yangi alifboga o‘tish uning mavqeini oshirish va yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Davlatning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati. Davlat - jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta`minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma`naviy taraqqiyotining muhim yutug‘idir.

Jamiyat ma`naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O‘zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an`analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Fuqarolik jamiyatini barpo etish — O‘zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. **Fuqarolik jamiyati** kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko‘pqirrali aloqasi bo‘lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o‘zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o‘ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O‘zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillardanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari qo‘liga o‘ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla

hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o‘z-o‘zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o‘z-o‘zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro‘yobga chiqarish maktabidir.

Urf –odat, rasm-rusm, an`ana va marosimlarning ma`naviyat bilan o‘zaro ta`siri shundaki, oqilona jamiyatning taraqqiyot darajasiga mos keladigan an`ana va marosimlar ma`naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ma`naviyat falsafasi uning tarkibi, mazmuni va mohiyatini tahlil qilishdan tashqari, uning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini tahlil etishni ham taqozo qiladi. Jamiyat taraqqiyotida ma`naviyatning o‘rni naqadar muhimligini shundan ham bilib olsa bo‘ladiki, bu taraqqiyot o‘zaro uzviy bog‘liq ikki jarayon, ya`ni moddiy ishlab chiqarish va ma`naviy boyliklar ishlab chiqarishning birligidan iborat.

3. Inson – falsafaning bosh mavzusi

Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o‘rni falsafiy muammolar tizimida muhim o‘rin tutadi. Turli falsafiy ta’limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo‘lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiytarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o‘zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro‘yobga chiqarishga intilaveradi. Suqrotning “O‘zligingni bil” degan hikmatli so‘zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug‘ mutasavvuf Abdulxoliq G‘ijduvoni insonni “kichik olam” deb hisoblagan. Mutafakkir Hakim Termiziyning inson tushunchasini “anasa”, ya`ni “bir-biriga talpinish, birgalikda o‘tirib ulfatchilik qilish, dilkashlik, do‘sit bo‘lishga intilishlari sababli insonlar o‘zaro ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarga doimiy ehtiyoj sezadilar, agar bu xislatni yo‘qotib qo‘ysalar, unda odamovi bo‘lib, yovvoyilashib qoladilar”, - degan fikrlarini keltiradi. Hakim Termiziydan inson to‘g‘risida so‘ralganda: “Inson – ochiq oydin zaiflik va katta da’vo”, - deb insonga bergen ta’rifni keltirgani va insonga berilgan ta’rifning mutasavvif g‘oyalariga aloqador tarzda tasavvufiy-falsafiy mohiyati ochib berilgan. Inson ongi, ilmi va

tafakkuri bilan boshqa mavjudotlardan farqli hamda mukarram qilib yaratilgan. U ilmi bilan yuqori darajalar va yuksak cho‘qqilarni zabit etadi. Shu ma’noda ilm va amal birligi insonni kamolotga yetaklaydi, – deydi Hakim Termiziy.

Falsafada bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo‘lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og‘irini yengil qilmasa, unday fanning keragi bormikan? Shu ma’noda, inson, avvallo, o‘zi uchun zarur bo‘lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan.

Tabiat, madaniyat, siyosat, sivilizastiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo‘lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog‘liqdir.

Falsafa insonni olamning tarkibiy qismi sifatida o‘rganadi. Inson shunday murakkab va ko‘pqirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma’nodosh bo‘lsa ham, bir- biridan farqlanadi.

Inson — o‘zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalananish, surriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos.

Inson boshqa mavjudotlardan sostial xususiyatlari bilan ajralib turadi. Chunonchi, til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilish, boshqarish, o‘z-o‘zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar, tabu (ruxsat va ta’qiqlash) shular jumlasidandir.

Inson shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U yaxlit mavjudot sifatida o‘z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta’minlaydi. Insonga xos bo‘lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo‘yish yoki psixologik xususiyatlarni bo‘rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi.

Falsafa tarixida inson to‘g‘risidagi ta’limotlarda biologizm, sostiologizm, psixologizm kabi yo‘nalishlar vujudga kelgan. Biologizm insonning tabiiy-biologik xususiyatlariga, sostiologizm insonning ijtimoiy xususiyatlariga, psixologizm esa,

ma’naviy, ruhiy, psixologik xususiyatlariiga bir yoqlama yondashishga asoslangan edi.

Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shaxs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir — biridan farqlash muhimdir. **Shaxs** o‘zida sostial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Kishilar shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo‘lib shakllanadi va rivojlanadi. Chunki insonga xos ijtimoiy sifatlar, fazilatlar avloddan-avlodga irsiy yo‘l bilan o‘tmaydi. Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum, madaniyat, ishlab chiqarish, oila, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo‘ladi.

Inson ta’lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me’yorlar, siyosiy g‘oya, milliy mafkura kabi omillar ta’sirida yashaydi, ularni o‘zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya’ni shaxs bo‘lib shakllanadi. Natijada insonda yangicha fazilat va sifatlar paydo bo‘ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, yuksak mas’uliyatni his etish, g‘oya uchun kurashish, mustahkam e’tiqodga ega bo‘lish, o‘z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir. Shaxsning maqsad, g‘oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g‘oya va mafkura bilan uzviy bog‘liq ravishda shakllanadi. Milliy g‘oya va mafkurani amalga oshirish, ezgu ideallar yo‘lida hatto hayotini qurbon qilish shaxs hayotining bosh maqsadigaayylanadi.

Shaxs mustahkam iymon-e’tiqod, g‘oya va insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, Vatan, millat tuyg‘usi bilan yashaydigan, o‘zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

Jamiyat o‘z taraqqiyoti davomida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun shaxsning muayyan tarixiy namunalarini yaratadi. Har bir o‘zgargan tarixiy sharoitda shaxs mohiyatini va mazmunini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bugungi adabiyotlarda harizmatik, shuhratparastlik, tajovuzkorlik va boshqa shakldagi shaxslar timsoli aks ettirilmoqda.

O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida fozil va barkamol

inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ydi.

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzlusizlikni ta’minlaydi. U o‘zbilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o‘z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi, o‘z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Antropologiya inson mohiyatini, uning tabiat va jamiyatdagi o‘rnini, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Antropologiyada inson mohiyatini to‘laroq ochish uchun “men”, “ong”, “shaxs”, “ruh” tushunchalari qo‘llanadi. “Men” - insonning o‘zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashidir. “Men” ong tufayligina o‘zini boshqa borliqdan farqlaydi. Boshqa narsalar insonga begona voqelik bo‘lib tuyuladi. Shaxs insonning mustaqilligini ifoda etadi.

Inson o‘z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish inson borlig‘ining birlamchi sharti hisoblanadi. Biroq hayotning ma’nosi faqat moddiy ne’matlardan bahramand bo‘lish, tanparastlik, lazzatlanish, boylikka ruju qo‘yishdan iborat emas. Inson ruhi ham o‘ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. Shu bois unda ma’rifatparvarlik, odamiylik, odillik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, oliyhimmatlilik, vatanparvarlik kabi ma’naviy fazilatlar shakllanadi. Yuksak ma’naviyat insonni ruhan poklaydi, iymon-e’tiqodini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonni ma’naviy-ruhiy jihatdan kamol toptirishga qaratilgandir.

Insonning ma’naviy ehtiyojlarini uning tabiiy-moddiy manfaatlaridan ajratish, unga faqat ilohiy mavjudot sifatida qarash ham biryoqlamalikka olib kelishi, etilgan ijtimoiy muammolar mohiyatini to‘g‘ri tushunishga xalaqit berishi mumkin.

Antropologiya insonning ma’naviy olamiga chuqurroq kirib borish orqali

olam mohiyatini bilish mumkin, degan g‘oyani ilgari suradi. Islom Karimov ta’rifiga ko‘ra, ma’naviyat (ruh) insonni axloqan poklaydigan, iyomon-e’tiqodini mustahkamlaydigan, ezgulikka undaydigan botiniy kuchdir. Yuksak ma’naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdir. Insonning oljanob fazilatlari etuk shaxslar timsolida o‘z aksini topadi. Insonga xos bo‘lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o‘rnida, uning o‘z moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishida, muayyan mafkurani amalga oshirishida yaqqol ko‘rinadi.

Bozor iqtisodiyoti inson ehtiyojlarini to‘laroq qondirish, uning qobiliyati, ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bular quyidagilardir:

- mehnatni tashkil etish usul va shakllarining o‘zgarganligi;
- mehnatga yangicha munosabatni rag‘batlantirishga yordam beruvchi omillar;
- o‘z qobiliyati, qiziqishlariga mos bo‘lgan faoliyat turlarini tanlash imkoniyatining yaratilganligi;
- shaxs tadbirkorligi va ishbilarmonligining qo‘llab-quvvatlanishi;
- turli mulk shakllarining vujudga kelganligi;
- shaxs erki va huquqlarining kengayganligi;
- davlat va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyatlarining yaratilganligi;
- demokratik qadriyatlar rivoji;
- ma’naviy meros va madaniyat yutuqlaridan erkin foydalanish imkoniyatining yaratilganligi kabilardir.

Ular shaxsning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishda, uning komil inson sifatida rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson manfaatlari, uning ezgu maqsadlari ro‘yobga chiqishini ta’minlashga, uning barkamol sifatlar kasb etishiga qaratilgandir. Shaxs islohot natijalaridan bahramand bo‘luvchigina emas, balki ularni sobitqadamlik bilan amalga oshiruvchi kuch sifatida ham yangilanish jarayonida o‘zgaradi, yuksaladi, qadr-qimmat topadi va e’zozlanadi.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday kishilar mavjudligini

e'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

4. Hayotning mazmuni va insonning vazifasi.

Inson hayotning tez oqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy an'anaside ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lмаган savollarni beradi. "Bu dunyoda nima uchun yashayapman?", deb so'raydi o'zidan inson va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o'zi bilan o'zi tanho qoladi.

Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil yechish zaruriyati qarshisida turganini anglab yetgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistensializm falsafasida yolg'izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig'i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Hayotni tark etish bosqichlari. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o‘limga mahkumdir. Hozirgi zamон fanida o‘lish jarayonining to‘rt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo‘lmaydigan biologik o‘zgarishlar sabab bo‘ladi.

Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug‘ilgan paytga qadar “jamlangan” va boshqa hech qachon yangilanmaydigan o‘n minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok bo‘ladi. Ammo bosh miya qobig‘ida bunday hujayralar soni 40 milliardga yetadi va shu sababli “qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlarga sabab bo‘lmaydi, chunki unda yana o‘n milliardlab neyronlar normal faoliyat ko‘rsatishda davom etadi”¹.

Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan o‘zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan **ijtimoiy o‘lim** yuz berganida boshlanadi. Surunkali giyohvand moddalarini iste’mol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, o‘z hayotidan doimiy norozilik ijtimoiy o‘limni bildiradi. So‘ngra **ruhiy** o‘lim yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o‘limning muqarrar ekanligini va o‘z hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. **Miya o‘lishi** bilan bosh miya faoliyati butunlay to‘xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon **fiziologik o‘lim** bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to‘xtaydi.

Xulosalar. Muayyan inson o‘z hayoti so‘nishining yuqorida sanab o‘tilgan bosqichlarini anglamasligi ham mumkin (aksariyat hollarda shunday bo‘ladi), ammo u o‘z hayot yo‘lidan ilgarilar ekan, bu dunyoda nima uchun yashayapman, degan savolga o‘z harakatlari, qilmishlari bilan javob beradi. Agar inson ularni hali to‘la anglab yetmagan bo‘lsa, mazkur vazifani yechish o‘z hayot yo‘lini endigina tanlayotgan odam uchun ham, umrining shomida ortga nazar tashlab, o‘z hayotini sarhisob qilayotgan odam uchun ham teng darajada mushkul ish bo‘lib qoladi.

¹ Годфруа Ж. Что такое психология. -Т. 2. – М.: 1996. – С.11.

Inson o‘z tabiatiga ko‘ra o‘limga mahkum, ammo, buni tushungan holda, u o‘zi bilan bog‘liq hamma narsa o‘zining tug‘ilish va o‘lish sanalari bilan chegaralangan qisqa vaqt oralig‘ida jamlanganini tan olishni istamaydi. U o‘z taqdirini ijtimoiy muhim maqsadlar, ma’naviy uyg‘onish bilan bog‘lashga harakat qilishi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Yana bir yo‘lni din taklif qiladi. Bu yerda u yoki bu e’tiqodlarga qarab, hayotning mazmuni va shaxsiy umrboqiylikka erishish haqidagi savolga shaklan har xil, lekin mazmunan juda o‘xhash javoblar beriladi. Ularda asosan u dunyo chin dunyo ekanligi, bu dunyoda bajarilgan ishlarga haqiqiy baho u dunyoda berilishi va shu kabilar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Yana bir imkoniyat – bu dunyoda o‘z hayotini odamlarga, ezbilik, haqiqat va adolatga xizmat qilishga bag‘ishlashdan iborat. Shu tariqa inson o‘z ishlari, g‘oyalari va qilmishlari bilan kelgusi avlodlar xotirasida qolish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Inson bu yo‘llarning qaysi birini tanlashi faqat uning o‘ziga bog‘liq. U o‘z hayotida bu yerda ko‘rsatilganidan butunlay boshqa yo‘lni tanlashi ham mumkin. Lekin ertami-kechmi har bir inson hayotda o‘zi tanlagan yo‘lning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqi haqida mulohaza yuritishi muqarrardir.

Nazorat savollari

1. Insonga nima uchun falsafaning bosh mavzusi deb qaraladi?
2. Shaxs deganda nimani tushunasiz?
3. Individ tushunchasining xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Antropologiya fanining ma'nosi va vazifalarini nimalardan iborat?
5. Inson tanasi va ruhining o‘zaro bog‘liqligi va o‘rtasidagi farqlar nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Istiqlolning insonparvarlik mohiyati nimalarda ko‘rinadi?
7. Antropologiyaning tekshirish usullari deganda nimani tushunasiz?

Ma’ruza mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Aqliy hujum*” interfaol usulidan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1.Jamiyat nima?
- 2.Jamiyatga xos belgilarni sanang? ...
3. Sivilizatsiya nima ?
- 4.Madaniyat nima ?
5. Qadr va Qadriyat tushunchalarini izohlang ?


Mavzu mashg‘uloti topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- “Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalaridan muhimi-tezlik bilan masala mohiyatini olib berishdan iborat.
 - Berilgan topshiriqlarni aynan manba bilan mosligi inobatga olinishi lozim.
 - Har bir topshiriqni bajarish uchun kam vaqt va sifatli natija muhim hisoblanadi
- Xulosa chiqarish uchun yig‘ilgan ma’lumotlar umumlashtiriladi va tizimga solinadi.

Ma’ruza mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri -“**Klaster**” interfaol usulidan foydalaniladi. Bunda asosan tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi.

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):

- 1.Jamiyat
- 2.Inson
- 3.Individ
- 4.Shaxs
- 5.Qadriyat
- 6.Qadrsizlanish
- 7.Sivilizatsiya va madaniyat



Mavzu bo‘yicha test savollari

1. Antroposotsiogenez nima?
 - A. G‘oyaning shakllanishi.
 - B. Jamiyatning shakllanishi.
 - C. Madaniyatning shakllanishi.
 - D. Jamiyatda insonning shakllanishi.
2. Insoniyat atrof muhitning bilishi mumkin emas degan g‘oyani ilgari suruvchi oqim.
 - A. Nakshbandizm.
 - B. Teizm.
 - C. Agnostism.
 - D. Sufism.
3. Insonlar juda ko‘pchilik bo‘lib yashaydigan va rivojlanadigan muhitning falsafiy atamasi.
 - A. Oila
 - B. Jamiyat.
 - C. Maktab.
 - D. Shaxar.
4. Insonni kamolotga eltadigan yo‘llaridan biri.
 - A. Rohatlanish.
 - B. Uyqusizlik.
 - C. Ma’naviyat.
 - D. Safarbarlik.
5. Inson tushunchasi arab tilidan olingan bo‘lib, ma’nosi?
 - A. Madaniyatli, aqli
 - B. Unutmoq
 - C. Maxluqot, e’tiqodli
 - D. Hissiyotli, ongli.
6. Insonda tabiiylikni ifodalovchi tushunchalar qatorini ko‘rsating.
 - A. Ong, Axloq, madaniyat.

- B. Tug‘ilish, bolalik, qarilik.
- C. Ishlab chiqarish, nutq, munosobat.
- D. Yuqoridagilarni barchasi.

7. Insonlar juda ko‘pchilik bo‘lib yashaydigan va rivojlanadigan muhitning falsafiy atamasi.

- A. Oila
- B. Jamiyat.
- C. Maktab.
- D. Shahar.

8. Shakllangan inson (ijtimoiylashgan inson).

- A. Individ.
- B. Janob.
- C. Shaxs.
- D. Subyekt.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. 53b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017 484 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. 28 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma’naviyat, 2015, 176 b.
5. Karimov I.A. Asarlar tuplami. 1-24 jildlar.- T.: O‘zbekiston, 1996-2016.
6. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
7. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.

9. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
10. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013 , 720 b
11. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
12. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.T.: Noshir, 2017

7-MAVZU. AXLOQIY QADRIYATLAR (ETIKA)

Reja

1. Etikaning mohiyati va ahamiyati
2. Sharq va Ga’rb mutafakkirlari ijodida axloqiy qarashlar
3. Axloqiy kategoriyalar

Tayanch tushunchalar: *axloqshunoslik, etika, odobnama, axloq, xulq, odob, burch, fe'l-atvor, yaxshi-xulq, husni-xulq, kategoriya, axloqiy kategoriyalar, yaxshilik, yomonlik, burch, vijdon,adolat, or-nomus.*

Etikaning mohiyati va ahamiyati

Etika yoxud axloqshunoslik eng qadimgi fanlardan biri bo‘lib, bir necha ming yillik tarixni o‘z ichiga oladi.

Axloqshunoslik Sharq mamlakatlarida:

- “Ilmi ravish”;

- “Ilmi axloq”;

- “Axloq ilmi”;

- “Odobnama”;


singari nomlar bilan atab keltingan.

Yevropada esa

- “Etika”;

nomi mashhur.

“**Etika**” atamasi yunonchada ➔ “ethos” so‘zidan olingan bo‘lib,




“odat”,

“fe'l”,


“fikrlash tarzi” singari ma`nolarni anglatadi.

“**Etika**” atamasini birinchi bo‘lib yunon faylasufi *Arastu (Aristotel)* ilmiy muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni klassifikatsiya (tasnif)lar ekan ularni uch guruhga bo‘ladi:



Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta’limotni fan darajasiga ko‘tarib, uni “**Etika**” deb ataganlar.

Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo‘lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq, keng qamrovli qismini axloq egallaydi.



Odob bu, - inson haqida yoqimli taassurot uyg`otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo`lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli hatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Olimlarning kitoblarida “Odob”ga turlicha ta’rif-tavsif berilgan:

-“**Odob** har bir holat va odatda aql buyurgan ravishda harakat qilish, ya’ni yaramas ishdan va yomon so‘zdan nafsiyi tiyish, o‘zining ham, boshqalarning ham izzatlarini saqlab, obro‘larini to‘kmaslikdir”;

-“**Odob** inson kamolotining eng zarur omilidir”;

-“**Odob** fazilatlardan biriga eltuvchi yaxshi harakat-intilishning nomidir”;

- “Maqtovga sazovor so‘zni aytish yoki ishni qilish **odobdir**”;
- “O‘zingdan kattani ulug‘lab, o‘zingdan kichikka mehr-shafqat ko‘rsatish **odobdir**”

Go‘zal tarbiya va chiroyli xulq-atvorlar bilan tavsiflanish, xunuk xislatlardan saqlanish holati “**odob**” deyiladi.

Xulq - oila, jamoa, mahalla-kuy miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy hatti-harakatlarning majmuidir.

“**Xulq**” so‘zining ko‘plik shakli *axloqdir*. Xulq nafsning qat’iy sobit turgan holatidir. Nafsning bu holati tufayli amallar undan osonlik bilan sodir bo‘ladi, bunda u fikr-mulohazaga muhtoj bo‘lmaydi. Agar nafsdan sha’ran va aqlan yaxshi amallar osonlik bilan sodir bo‘lsa-yaxshi xulqli, yomon amallar oson sodir bo‘lsa-yomon xulqli deyiladi. Aslida amal xulq hisoblanmaydi, balki islomiy axloqning asl manbai Qur'on va uning nuridan hosil bo‘lgan Sunnatdir.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida kishilarning axloq-odobiga katta ahamiyat bergenlar. Bolalarni yoshligidanoq chiroyli xulq, sharqona odob asosida tarbiyalashga harakat qilishgan. Ayniqsa, insoniyatga ulug‘ hidoyat va cheksiz saodat olib kelgan Islom dinimiz axloq-odob masalasini oliy darajaga ko‘tarib qo‘ydi. Barcha insonlarni odobli, xush xulqli, shirinso‘z, kamtar, oliyjanob bo‘lishga da’vat etdi. Demak, insonlar din ta’limotlariga amal qilib, xulqu odoblarini tuzatsalar, jamiyatda, oilada xushmuomala, mehribon, oliyjanob bo‘lsalar, abadiy saodatga erishadilar.

Ayniqsa, bu borada oliy xulq sohibi Payg‘ambarimiz Muhammad sollalloxu alayhi vasallamning o‘zлari yurish-turishda, oilada, jamoat orasida komil xislatlari, yuksak odoblari, oliy fazilatlari bilan barchaga namuna bo‘lganlar, ummatlarini ham shunga chaqirganlar. Rasululloh alayhissalomning o‘zлari: “Hech bir ota o‘z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi”, deganlar.

Axloq esa - jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobjiy hatti-harakatlar yig`indisidir.

Axloq (*arabchada* “*xulqning ko‘pligi*”; *lotinchada* “*moralis*”-*xulq-atvor*;) - ijtimoiy ong shakllaridan biri. Axloq- kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisidir.

-“**Axloq**”- butun boshliq jamiyat a’zolari, millat, xalq, shaxs amal qiladigan ijtimoiy tartib-qoida bo‘lib, ushbu tartib-qoidalar yordamida inson hatti-harakati tartibga solinadi, ya’ni boshqariladi. Murakkab ijtimoiy tartib intizom majmuasi bo‘lgan axloq shaxsning ruhiy ma’naviy faoliyati bo‘lib, uning kundalik hatti-harakatini tartibga soladi va turli axloqiy prinsiplarda, normalarda (burch, ma’suliyat, qadr-qimmat, vijdon va h.), munosabatlarda, baholarda, ideallarda namoyon bo‘ladi.

Adabiyutshunos olim Abdulla Sher “Axloqshunoslik” kitobida Axloq tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “**Axloq**” – *barcha odamlar uchun birdek taalluqli hisoblangan, ijtimoiy talablar hamda ehtiyojlarning munosabatlar shaklidagi ko‘rinishidan iborat bo‘lgan, insonga berilgan ixtiyor erkinligining xattiharakatlar jarayonida ichki iroda kuchi tomonidan oqilona cheklanishini taqozo etuvchi ma’naviy hodisadir*⁵.

“Axloq” –ijtimoiy borliqning ta’sirchan omillaridan biridir. Davr o‘zgara borgan sari har qanday hodisa kabi axloq ham o‘zgaradi, rivojlanadi, takomillashadi va ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloqni alohida falsafiy fan- “Etika” o‘rganadi.

“**Etika** –burch haqidagi fandir”⁶ degan fikr haqiqatga yaqindir. Chunki, burch- axloqning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, u shaxsning jamiyatga bo‘lgan munosabatidir. “Burch shaxsning axloqiy faolyatini ifodalovchi ma’suliyat, onglilik vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liqdir”.⁷

⁵ Abdulla Sher “Axloqshunoslik” T.: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2010. 10-bet.

⁶ L.A.Popov. Etika. Kurs leksii, M., “Sentr”, 1998, 10-b.

⁷ U.Mahkamov. Axloq-odob saboqlari, T., “Fan”, 1994, 28-b.

Axloq jamiyatda turli funksiyalarni bajaradi, ular orasida quyidagilar eng muhim hisoblanadi.

- *kishilar orasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish;*
- *kishilar faoliyatining insonparvar qadriyatlari va mo‘ljallarini belgilab berish;*
- *shaxsni ijtimoiylashtirish.*

Ushbu vazifalarni bajarar ekan, axloq zaruriylik, aqlga muvofiqlik va umuminsoniylik namunalarini namoyish etadi.

Bugungi kunda axloqshunoslik falsafiy fan sifatida uch yo‘nalishda ish olib boradi, ya`ni u axloqni: 1) *bayon qiladi*; 2) *tushuntiradi*; 3) *o‘rgatadi*. Shunga ko‘ra, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va mezoniy-me`yoriy tabiatga ega.

Axloqshunoslik –

- bu axloq nazariyasi bo‘lib, kishilarning axloqiy hayotini o‘rganadigan, axloqiy hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradigan eng qadimgi insonshunoslik fanlaridan biridir. U o‘z predmetini ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas aloqadorlikda tadqiq etar ekan, faqat axloqning paydo bo‘lishi va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini, funksiyalarini aniqlash bilangina cheklanib qolmay, balki ayni paytda axloqning ijtimoiy mohiyatini, kishilarning yurish turishini, axloqan tartibga solish qonunlarini va u orqali ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Axloqshunoslikning hozirgi kunda umumjahon global muammolarini hal qilishdek muhim vazifasi ham borki bu muammolardan biri “etosfera” – axloqiy muhit davrini yaratish bilan bog`liq. Inson o‘zini va o‘z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa etosfera davriga o‘tishi kerak.

Sharq va G‘arb mutafakkirlari ijodida axloqiy qarashlar

Axloqshunoslik mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar, falsafaning tarkibiy qismi, hattoki, uning yadrosi hisoblanar edi. Faylasuflar dunyoqarash muammolari (insonni o‘rab olgan olam, odamning shu olamdagи o‘rni), dunyonи

bilish yo'llariga javob berish jarayonida ular jamiyatda odam qanday yashamog`i va faoliyati qanday bo`lmog`i kerak, uning ijtimoiy burchi, vazifasi nimadan iborat bo`lishi kerak, insonning turmush kechirish normalari va boshqa shu kabi savollarga ham javob topishga uringanlar. Hamma zamonlarda, barcha makonlarda yaxshi xulqli, olижаноб, ширинсо‘з, halim insonlar jamiyatning ko`rki, odamlarning a’losi bo‘lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Ayniqsa, Sharq olami bu borada butun insoniyatga ibrat-namuna bo‘lgan.

Buyuk jadid mutafakkiri A. Avloniy ***axloqqa*** quyidagicha ta`rif beradi;



“Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg`on kitobni axloq deyilur”⁸.

Shoir va donishmand, **Husayn Voiz Koshifiy** aytadilar: “Go‘zal fe’l-atvor, yaxshi xulq nishonasi o‘ntadir: *yaxshilik qilish, insofli bo‘lish, boshqa odamdan ayb qidirmaslik, nojo ‘ya harakat qilayotganni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, aybga iqror bo‘lganning uzrini qabul qilish, boshqalar mashaqqatini zimmaga olish, faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik, ochiq yuzli va shirin so‘zli bo‘lish, muhtojlar hojatini chiqarish, muloyim va tavozeli bo‘lishni* aytib o‘tgan. Demak, inson mazkur amallarga rioya etsa, yaxshi xulq va go‘zal fe’l atvor uni kamolotga yetaklashini izohlaganlar.

Yusuf ibn Asbotning aytishicha, “Husni xulqning alomati o‘n xislatdadir: *o‘zgalar bilan ixtilofga bormaslik, chiroqli insof, birovlarning toyilib ketishini istamaslik, boshqalarning bilingan kamchiligini yaxshilikka yo‘yish, uzur so‘ray olish, aziyatlarga chidash, nafssini tergov qilib turish, o‘zganing emas, o‘z aybini*

⁸ A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” T.: “O`qituvchi” 1992 yil. 17 bet.

bilish, kattayu kichikka birday ochiq yuzli bo‘lish, o‘zidan yuqori yoki past kishiga ham muloyim so‘zlash” deb ta’kidlagan.

Chiroyli xulq o‘tmishda nafaqat odamlarning, balki butun bir jamiyatlarning ham hayot tarziga aylanib ulgurgan edi. Masalan, Usmoniyalar davrida uylarning darvozasi oldida ikkita bolg‘acha turgan. Ularning biri kichik, biri katta bo‘lgan. Kichigi bilan taqillatishsa, demak, ayol kishi ta’qillatyapti deb, darvozani ayol kishi ochgan. Kattasi bilan taqillatishsa, erkak kishi ekan deb, darvozani erkak kishi ochgan. Yana bemori bo‘lgan xonadon darvozasi oldiga bir dasta qizil atirgul qo‘yilgan. Ko‘chadan o‘tayotganlar ularni ko‘rganda bu xonadonda bemor borligini bilib, ovozlarini pastlatishgan.

Biz ana shunday buyuk ummat bo‘lganmiz... Ming afsus, hozirgi kelib, ana shunday ummatning ayrim toifalari axloqsizlikda, bexayolikda, shaloq so‘zlar aytishda boshqalarga “o‘rnak” bo‘lishmoqda. O‘zgalarga ozor yetkazuvchi, yolg‘on, fisq-fujur va faxsh so‘zlar ularning eng yomoni va qoralanganidir.

Bir kuni bir hakim zotdan: “Odobli bilan odobsizning farqi qanday ?” deb so‘rashipdi. “Gapiradigan hayvon bilan gapirmaydigan hayvon o‘rtasidagi farq kabi”, deb javob beripdi u. **Muhammad Zexniy** aytadi : “Fazilat naslu nasab bilan emas, balki odob bilan topiladi”, “Har bir kishi kasb-korni mukammal bilishi, ya’ni tarbiya olishi va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo‘lishi kerak”, deydi **Abu Nasr Forobiy**.

Yaqin o‘tmishda sharqona odobimizdan, uning uzoq yillik tajribalaridan “eskilik sarqiti” deya voz kechilgani, ularni ta’lim-tarbiya muassasalari u yoqda qolib, hatto turmushdan, oilalardan ham qisib chiqarilgani og‘ir musibat, katta yo‘qotish bo‘ldi. Uning o‘rniga o‘ta axloqsizlik, kattalarni mensimaslik va behurmat qilish, bexayolik, ichkilikbozlik va bangilik, o‘tmish merosga nafrat asosiga qurilgan. “yangicha axloq”, “ovrupacha odob” zo‘rlab targ‘ib qilindi. Oqibati ayon: salom berishni ham bilmaydigan, ota-onasidan nafratlanadigan, odobga chaqirilsa, “erkimga tajovuz qilyapti” deya dod soladigan, ko‘ngliga yoqqan hamma buzuqlikni bemalol qilishni madaniyat hisoblaydigan kimsalarning paydo bo‘lgani ana shularning achchiq mevasidir.

Bizdagi ayrim kishilar g‘arb madaniyatiga havaslari kelib, unga taqlid qilishga tirishib yurishgan bir paytda g‘arbliklarning o‘zлari ularda odob degan gaplar allaqachon unut bo‘lgani, u ahamiyatsiz narsaga aylanib qolgani, natijada yoshlar axloqsiz bo‘lib, tubanlashib borayotganini alam bilan yozishmoqda. Fransuz yozuvchisi va faylasufi Fransua Laroshfuko: “Odob jamiyat qonunlari ichida eng ahamiyatsizi va aslida eng hurmatga sazovoridir”, deyishga majbur bo‘lgan. Amerikalik adib va olim Uilyam Simms: “Bizda boodoblikning yo‘qligi ko‘pincha eng zo‘r talantlarning zavoliga sabab bo‘ladi”, deb yozgan. Rus yozuvchisi *Anton Chexovning* bunday gapi bor: “Dasturxonga ovqat to‘kmaslik yaxshi tarbiyani bildirmaydi, kimdir birov to‘kib yuborsa, uni ko‘rmaganlikka olish tarbiyadir”. Ovro‘palik adib Anri Amiel: “Oliyjanob bo‘lishning o‘zi kifoya emas, boodoblik ham zarur”, degan.

O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi azosi olim *Ahmad Muhammad Tursun* “Ulug‘lar shunday yashagan” kitobida bir voqeani keltiradi: Saudiya Arabistonida bo‘lganimizda vatandoshlarimiz bir voqeani hayajonlanib so‘zlab berishdi: “Ispaniyalik bir etnograf olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlari, axloq-odobini o‘rganishga, tadqiq qilishga bag‘ishlagan ekan. Ittifoqo, o‘sha olim yurtimizga kelib, Toshkent, Samarqand, Buxoroda bo‘libdi. Yurtiga qaytib borgach, “Hozirgacha o‘rgangan, tadqiq qilgan barcha ilmiy ishlarimni o‘n besh yoshli o‘zbek qizalog‘ining o‘rnidan turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ygan holda choy uzatganidagi odobiga, nazokatiga almashtirishga tayyor edim”, deb yozgan ekan. Vatandoshimiz bu voqeani hikoya qilar ekan: “Biz shunday yuksak odobli, madaniyatli xalqning farzandi ekanimizdan faxrlanaylik” degan ekan.

Axloqiy kategoriylar

Kategoriya so‘zi (yunoncha kategoria-mulohaza, fikr, belgi)- predmet va hodisalarning umumiyligi hamda muhim tomonlari xususiyatlari yoki munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiyligi tushunchalarni anglatadi. Etika kategoriylarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda axloqiy ongningm axloqiy

munosabatlarning, odob xususiyatlarining eng muhim tomonlari va elementlari umumlashgan holda aks etadi.

Etikaning muhim tushunchasi bo‘lgan axloq kategoriyalari jamiyatning axloqiy taraqqiyoti jarayonida yangicha xususiyatlar kasb etib, o‘zgarib va rivojlanib boradi; muayyan shaxsning faoliyati, hatti harakatlarida o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi.

Yaxshilik va yomonlik kategoriyalari.

Yaxshilik va yomonlik insonning hatti harakatlariga beriladigan ijobiy yoki salbiy bahoni ifodalovchi axloqshunoslikning eng umumiyligi juft kategoriyalidir.

Yaxshilik-eng muhim fazilat bo‘lib, inson faoliyatining asl va azaliy mohiyatini anglatadi. U insonga kuchli ruhiy lazzat bag‘ishlashi bilan birga uni shaxs sifatida shakllanishining muhim ko‘rsatkichidir. Yaxshilik halollik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, kamtarlik, xushmuomalalik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, umumxalq ishiga sadoqat, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligi, so‘z va ish birligi, mehnatsevarlik, millatlararo do‘stlik, birodarlik kabi insonning axloqiy fazilatlarida namoyon bo‘ladi.

Yomonlik- yaxshilikning muqobili bo‘lib, shaxs va jamiyat rivojiga to‘sqinlik qiluvchi illatdir. U yolg‘onchilik, pastkashlik, munofiqlik, behayolik, raxmsizlik, nomardlik, xiyonat kabi tushunchalarda o‘z ifodasini topadi.

Insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirlardan biri **Ibn Sino** fikricha, axloqshunoslik yaxshilikni yomonlikdan ajratadigan va bunga sharoit yaratadigan fandir. Masalan, u yaxshilikni shunday tushunadi:barcha mavjudot kamolotga moyildir. Xuddi shu kamolotga moyillikning o‘zi yaxshilikdir; yaxshilikka intilishning o‘zi moddiy olamga xosdir. “Yomonlik esa, deb ta’kidlaydi Ibn Sino,-mavjud bo‘imaslik bilan bog‘liq”. Shu sababdan u narsalarning imkoniyat holatidan voqelik holatiga o‘tishiga to‘sqinlik qiladi. Faylasuf yaxshilik bilan yomonlikni rohat-huzur qilishga olib kelish-kelmasligi bilan baholaydi. Rohatlanishning keltirib chiqaradigan hamma narsa yaxshilik, azobga olib keladigan hamma narsa yomonlikdir.

Burch

Burch ham axloqshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Burch kategoriyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u shaxsning jamiyatga va kishilarga nisbatan bo‘lgan axloqiy majburiyatidir. Ya’ni obyektiv mavjud bo‘lgan jamiyat talablarini bajarishining ichki ma’naviy zaruriyatidir, muayyan xulq-odob qoidalari majmuidir.

Burch kategoriyasida inson axloqiy qiyofasining ijtimoiy xarakteri aks etadi, unda axloqning jamiyat tomonidan o‘z kishilariga qo‘ygan imperativ xarakteri to‘la namoyon bo‘ladi. Burchning manbai ijtimoiy manfaatdir. Burchda manfaat buyruq, imperativ ma’nosini kasb etadi, asosiy xarakatga undovchi, xatti-harakatni tanlashdagi hal qiluvchi motiv bo‘ladi.

Insonning burchni anglashi, his qilishi juda qadimiydir. Odamlar jamoa bo‘lib yashagan davrlarodayoq, odat kuchi orqali jamoaga bo‘ysunganlar, bir parcha mato topib olsalar ham, butun jamoa a’zolari bilan teng bo‘lib olganlar, bir gunoh ish qilib urug‘dan haydalishni o‘lim bilan barobar hisoblaganlar. Mana shunday qilib, jamoa oldida o‘z burchlarini anglay bilish shakllana borgan. Inson jamiyati yuqori pog‘onaga chiqqan sari bu kategoriya ham rivoj topib boradi. Bu kategoriyani rivojlanishiga din ham, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Ota-onalidagi farzand burchi, ota-onaning farzand oldidagi burchi, do‘st oldidagi burch, vatan, jamiyat, xalq va kelajak avlod oldidagi burch shular jumlasidandir.

Vijdon kategoriyasi

Vijdon- insonning o‘z xulqini muayyan axloq normalari nuqtai nazardan turib axloqiy baholashi va nazorat qilishi, o‘z hatti-harakatlarini va bu hatti-harakatlarga bog‘liq bo‘lgan his tuyg‘ularni, kechinmalarni o‘zi tahlil qilishidir. Yunon faylasufi **Demokrit** ham aynan vijdon so‘zini aytmasa ham uning fikrlaridan vijdon tuyg‘usini anglash mumkin: “Uyat ish qilgan kishi, avvalo o‘zidan o‘zi uyalishi kerak. Boshqalardan ko‘ra o‘zingdan ko‘proq uyalishga o‘rgan. O‘z aybingni unutishing oriyatsizlikka olib keladi. Yomon ishlardan tavba-tazzaru qilish umrni qutqarish

demakdir” Shu bilan birga, **Demokrit** vijdon o‘z-o‘zini nazorat qilish ekanligini ta’kidlaydi.

Vijdonning kelib chiqishi insonda axloqiy ong va o‘z-o‘zini anglash odatlarning shakllanishi bilan bog‘liq. Inson, jamoa tomonidan unga yuklangan majburiyatlarni anglay boshlaydi, bu normalarni qo‘rqanidan emas, balki bajarmasa ko‘ngil g‘ashligidan ularni bajarish zarurligini tushunib yetadi, notog‘ri hatti-harakat uchun jamoatchilik oldida uyalish, aybdor bo‘lish, pushaymonlik hissi taraqqiy etadi. Ya’ni insonning o‘z harakatlarini baholashi-vijdon tuyg‘usi shunday vujudga keladi. Bu haqda Yunon faylasufi Suqrot shunday deydi: “Nimadir nomaqlchilik qilib, keyin yashirinib ketaman, deb o‘ylama, boshqalardan yashiringaning bilan o‘z vijdoningdan yashirina olmaysan”

Adolat kategoriyasi

Adolat bu-ijtimoiy tenglikning haqqoniy va taqdirlashning zaruriy o‘lchovidir. Mazkur kategoriyanı nazariy tahlil qilishga, uning mohiyatini tushuntirishga, kelib chiqishini ochib berib, jamiyat hayoti bilan bog‘lashga uringan birinchi mutafakkir yunon faylasufi Suqrot bo‘lgan. U adolatni “qonunga muvofiq xulq” deb talqin qilgan.

Adolat jamiyatda insonlar orasida, davlat va fuqarolar, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mezonini anglatadi hamda mehribonlik, muruvvat, saxovat, shafqat kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi.

Or-nomus (sha’n) va qadr –qimmat kategoriyalari

“**Or-nomus**” tushunchasi shaxsning qadr-qimmatini uning jamiyatdagi aniq ahvoli bilan faoliyat turi, jamiyat hayoti uchun ahamiyati va axloqiy xizmatlarning tan olinishi bilan bog‘liqdir. Or-nomus kategoriyası shaxsning o‘z qadr-qimmatini bilishi, jamiyatda egallagan mavqeini anglashi hamda unga dog‘ tushurmaslikka yo‘naltirilgan hatti-harakatlarini aks ettiradi. Or-nomus, qadr-qimmat kategoriyalari burch kategoriysi bilan ham uzviy bog‘liq.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki Yangi O‘zbekistonda Ozod va obod, erkin va farovon hayotni barpo etishda, komil insonni tarbiyalab voyaga

yetkazishda, mustaqillikni mustahkamlashda, jamiyatimizni ma’naviy yuksaltirishda axloqning roli shuningdek, axloq kategoriyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri – “*Konseptual jadval*” interfaol usulidan foydalilaniladi.

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Burch tushunchasining axloqiy mohiyatini qanday izohlash mumkin?
2. Nomus tushunchasining axloqiy hayotdagi ahamiyati nima bilan belgilanadi?
3. Nima uchun Vijdon axloqshunoslikning eng muhim mezoniylar tushunchalaridan hisoblanadi?
4. Yaxshilik va yomonlikning ezgulik va yovuzlikdan farqi nimalarda ko‘rinadi?

Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar


Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
<p>1.Burch tushunchasining axloqiy mohiyatini qanday izohlash mumkin?</p> <p>2. Nomus tushunchasining axloqiy hayotdagi ahamiyati nima bilan belgilanadi?</p> <p>3. Nima uchun Vijdon axloqshunoslikning eng muhim mezoniylar tushunchalaridan hisoblanadi?</p> <p>4. Yaxshilik va yomonlikning ezgulik va yovuzlikdan farqi nimalarda ko‘rinadi?</p>			

- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi
 - muammoning mazmunining tushunish muhim bosqich hisoblanadi (1-ustun)
- Voqeliklarning sabab va omillari bilan (2-ustun) to‘ldiriladi
- Muammoning yechimi to‘liq izohlanishi kerak (3-ustun).
 - Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (4-ustun)
- Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Venn diagrammasi*” interfaol usuli orqali tushuntirish.

Mavzu mashg‘uloti uchun topshiriqlar:

1. Axloqshunoslikning falsafiy fan sifatidagi mohiyati va o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish
 1. Axloqshunoslikning ahamiyati va vazifalari nimalardan iborat “Venn diagrammasi” orqali boshqaruvning totalitar va yangi usullarining umumiyligi belgilari qiyosiy tahlil qilinadi. Masalaning o‘zaro bog‘liqligini xulosalash uchun quyidagi tushunchalar tanlandi:

1)* odob 2)* xulq 3)* axloq



Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “Venn diagrammasi” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “Venn diagrammasi” interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo‘lib, masala mohiyati unga yaqin bo‘lgan tushuncha va ma’lumotlar orqali o‘zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilganidan so‘ng, ularni bog‘lovchi hususiyatlarni A)* va B)* qatorga to‘ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

TESTLAR:

1. Axloq deganda nimani tushunasiz ?
 - A) axloq Allohnning insonga bergan in’omi
 - B) axloq insonlar o‘rtasidagi turli xil munosabatlar
 - C) axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri, insonning yurish-turish qoidalari va xulq-atvor me’yorlari
 - D) axloq yaxshilik va yomonlikning o‘lchov mezoni.
2. Axloqning ijtimoiy hayotdagi roli nimadan iborat ?
 - A) insonga omad va baxt-saodat keltiradi
 - B) kishini xato qilmaslikka undaydi
 - C) insonni ma’naviy kamolotga yetkazadi, jamiyatda barqarorlikni ta’minlaydi
 - D) yoshlarni o‘z nafsiyi tiyishga va insofli bo‘lishga undaydi.
3. Yaxshilik nima ?
 - A) yaxshilik har bir insonga berilgan buyuk fazilat, axloqiy barkamollik negizidir
 - B) yaxshilik bor joyda yomonlik chekinadi
 - C) yaxshilik bor joyda yomonlik ham bo‘ladi
 - D) yaxshilik ham yo‘q, yomonlik ham yo‘q, bular faqat kishining u yoki bu hatti-harakatiga berilgan baho
4. Burch kategoryasini qanday tushunasiz?
 - A) burch-bu majburiyat
 - B) burch- bu o‘z istaklarini qondirish
 - C) burch-bu boshqalarga yaxshilik qilish
 - D) burch-bu axloqiy qonun.
5. Vijdon kategoriyasining o‘ziga xos xususiyati nima?
 - A) o‘z-o‘zini nazorat qilish
 - B) o‘zgalar manfaatini o‘ylash
 - C) o‘z-o‘zidan, qilmishlaridan uyalish
 - D) o‘zgalar oldiga tarbiyali ko‘rinish

Nazorat savollari:

1. Axloqshunoslik tushunchasiga ta’rif bering ?
2. Odob, xulq, axloq tushunchalarinig o‘zaro bog‘liqligini izohlang?
3. Sharq va G‘arb mutafakkirlari ijodida axloqiy qarashlar bir-biridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi ?
4. Axloqiy kategoriylar deganda nimani tushunasiz ?
5. Yangi O‘zbekistonni qurishda axloqiy kategoriylar o‘rni va roli aytib bering ?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdulla Sher “Axloqshunoslik” T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” 2010.
2. D.Po‘lotova “Axloqshunoslik”. O‘quv qo‘llanma.-T. “Premier print” 2011.
3. Pulatova D., Ro‘zmatova G., Jalolova O‘. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma - Toshkent: TDShI.2013.
4. Ahmad Muhammad Tursun. Ulug‘lar shunday yashagan” “Hilol nashriyot matbaa” 2022.
5. www.ziyo.uz
6. www.filosophy.ru

Qo‘srimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent; O‘zbekiston, 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent; “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi. -Toshkent: O‘zbekiston 2017 -53bet.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2021.

5. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni / Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.
6. L.A.Popov. Etika. Kurs leksii, M., “Sentr”, 1998, 10-b.
7. U.Mahkamov. Axloq-odob saboqlari, T., “Fan”, 1994, 28-b.
8. A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” T.: “O‘qituvchi” 1992 yil. 17 bet

8-MAVZU. ESTETIKA NAZARIYASI


Reja

1. Estetika tushunchasining mohiyati. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyutsiyasi
2. Go‘zallik kategoriyasi. Falsafiy – estetik fikr tarixida go‘zallik masalasining talqini. Go‘zallik va xunuklik, ularning namoyon bo‘lish shakllari.
3. Ulug‘vorlik kategoriyasi.
4. Fojiaviylik va hajviylik (kulgililik) kategoriyalari.

Tayanch tushunchalar: *Nafosat, go‘zallik, ulug‘vorlik, kulgulilik, fojeaviylik, satira, komiklik, hazil, xunuklik, go‘zal olam, uyg‘unligik, estetik qarashlar.*

Estetika tushunchasining mohiyati. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolyutsiyasi

Estetika yoxud **nafosatshunoslik** eng qadimgi fanlardan biridir. Estetika yunoncha “*aisthetikos*” so‘zidan olingan bo‘lib, – “*sezish*”, “*his qilish*”, “*his etadigan*” degan ma’noni anglatadi. Estetika fanining obyekti, predmeti va ahamiyati, vazifalari xususida estetik fikr tarixining barcha davrida turli xil qarashlar, ularning tarafдорлари orasida bahslar davom etib kelgan.

	Fales		Anaksimandr	Estetikani dunyo manzarasini yaratishga xizmat qiluvchi falsafiy fan, deb hisoblaganlar.
	Anaximenes		Geraklit	
Qadimgi yunon naturfaylasuflari				

Qadimgi yunon mumtoz falsafiy fikri asoschilari **Sokrat** (mil. Avv. 469-399), **Platon** (mil. avv. 427-347), **Aristotel** (mil. Avv. 384-322)lar ham estetika amaliy falsafa sifatidagi yo‘nalish bo‘yicha uning predmeti, ahamiyatini aniqlashga harakat qilganlar. Ular estetikani go‘zallik, san’atning umumfalsafiy hamda amaliy ahamiyatiga molik masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilm sohasi tarzida talqin qilganlar.


O‘rtaschlari Sharq va G‘arb estetik fikrida mazkur ilm sohasiga san’at vositasida Xudoning mohiyatini anglash, unga yetishish uchun xizmat qiluvchi ilohiy bilimlar tizimi, deb qaraladi. Bunday qarash tasavvuf ta’limotining yirik namoyondasi Abu Homid G‘azzoliy (1058-1111) tomonidan falsafiy – nazariy yo‘nalishda bayon etiladi. G‘arbda ko‘zga ko‘ringan katolik ilohiyotchi (teolog) Foma Akvinskiy (1225 – 1274) o‘zining “Ilohiy bilimlar majmui” nomli asarida estetikani Xudoning mavjudligini asoslash vositasi sifatida xizmat qiluvchi bilim sohasi, deb hisoblagan.

Turli davrlardagi estetikaning obyekti, predmeti va vazifalari, ahamiyatini aniqlash masalasiga nemis faylasufari A. Baumgarten, I. Kant, G.F. Gegellar ilmiyaroq yondashadilar.

“Estetika” (yunon. *aisthetikos* – hissiy idrok qilinadigan) tushunchasini birinchi bo‘lib Aleksandr Baumgarten (1714 – 1762) falsafiy yo‘nalishdagi ilm sohasini ifodalovchi atama sifatida qo‘llaydi. Baumgartennenning xizmati shundaki, u barcha davrlarda qizg‘in bahs mavzui bo‘lib kelgan, oddiy his – tuyg‘udan yuqori turadigan sof mantiqiy (ratsional) yo‘l bilan izohlab bo‘lmaydigan hodisaning mavjudligidan kelib chiqqan holda, uni (ushbu hodisani) mazkur tushuncha bilan ifodalaydi. Ana shu hodisa “estetika” deb nomlanadigan, falsafadan ajralgan fanning tadqiqot obyekti bo‘lmog‘i kerak, deb hisoblaydi.



Alexander
Baumgarten



U bu haqida shunday deb yozadi: “Bizning fanni faylasufning nazar – e’tiboriga loyiq emaslikda, u kishi hissiyotlarini xayolida ko‘rinadigan, kechadigan narsa, xotira, ehtiroslarini tasvirlash falsafiy bilim darajasining ahamiyatini pasaytirishda ayblashlari mumkin. Bunga mening javobim shunday: “Faylasuf ham inson. U shu qadar keng miqyosli inson bilishning sohasidan ajralib qolishga haqqi yo‘q”⁹. Baumgartenning fikricha, estetika fani go‘zallikni yuzaga keltiradigan va uni san’at, badiiy obrazlarda ifodalaydigan hissiy bilish haqidagi falsafiy fan bo‘lib, san’atdagi go‘zallikni anglash, idrok etishda amaliy ahamiyatga egadir. U hissiy bilish deganda faqat jonli mushohadani emas, balki emotsiya, intuitsiya, xotira, tasavvurni nazarda tutadi.

Respublikamizning yetakchi nafosatshunos olimlaridan biri E. Umarov “*Estetika*” nomli o‘quv qo‘llanmasida mazkur fanga quyidagicha ta’rif beradi: “*Estetika – bu nafosat olami, san’at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his – tuyg‘u, sezish – idrok qilish vositalari orqali o‘rganadigan va o‘rgatadigan fandir*”¹⁰. Ko‘rinib turibdiki, ushbu ta’rif A.Baumgartenning talqinidagi ta’rifdan unchalik katta farq qilmaydi. Ya’ni, bunda faqat san’at emas, balki nafosat olami qonuniyatlar (aslida san’atning o‘ziyam nafosat olamiga kiradi) ham hissiy bilish orqali o‘rganishligi ta’kidlanadi, xolos. Lekin nafosat olami, san’at sohasida qonunlar aniq ko‘rsatib o‘tilmagani holda, ularning mohiyati, amal qilish

⁹ Istiboh quyidagi kitob bo‘yicha. Gilbert K., Kun G. История эстетики. – М., 1960. – с307.

¹⁰ E. Umarov. Estetika. O’zbekiston, 1995, 10-bet.

tamoyillarini faqat his – tuyg‘u, sezish – idrok qilish vositalari orqaligina o‘rganish mumkin emasligi inobatga olinmaydi. Zotan, har qanday obyektning mohiyati – uning tarkibidagi zaruriy, muhim bog‘lanishlarni aqliy bilish shakllari ishtirokisiz bilib olish mumkin emas¹¹.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimovning “*Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*” asarida mamlakatimizning bugungi kuni, kelajagiga daxldor dolzarb muammo, vazifalar butun insoniyat, jahon sivilizatsiyasi taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan globallashuv jarayoni doirasida talqin qilinadi. Kitobda ma’naviyat milliy taraqqiyotimizning omili bo‘lishligi barobarida, insoniyat tamaddunini hozirgi globallashuv jarayonining salbiy oqibatlari xavfidan qutqaradigan birdan bir kuch ekanligi ko‘rsatib beriladi.

Bunda, aytish mumkinki, *haqiqat, ezgulik, go‘zallik* kabi umuminsoniy oliv qadriyatli g‘oyalilar inson ruhiy olami, qalbidan muqaddas – gumanistik tushunchalar tarzida joy olgandagina ular beqiyos kuch, insonning barcha qarashlarning mezoni, ya’ni ma’naviyat fenomeni maqomini oladi.

“*Ma’naviyat*, - deb yozadi I.A.Karimov, - insonni ruhan poklash, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”¹².

Hozirgi axborot – texnologiya davri insondan haqiqatni ma’lumot, pragmatik bilimlar darajasida anglashni emas, balki uni estetik ongi orqali idrok etishni va estetik faoliyatini ezgulik tamoyillari bilan baholaydigan asosiy mezon sifatida olib borishni taqozo etmoqda. Shunday ekan kundalik hayotimizda nafosat tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish borasida katta ahamiyatga ega. Erkin demokratik jamiyatimizning har bir a’zosi go‘zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo‘lishlari lozim.

¹¹ Abdulla Sher, B.Husanov, E. Umarov. Estetika. Uslubiy qo’llanma. – T ., 2008. 5-bet.

¹² Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.; Ma’naviyat, 2008 – 20- bet.

Go‘zallik kategoriyasi. Falsafiy – estetik fikr tarixida go‘zallik masalasining talqini.

Go‘zallik estetika fanidagi asosiy masalalardan biridir. Chunki undagi deyarli barcha boshqa muammolar ana shu mezoniylar tushunchalar mazmuni orqali tahlil qilinadi va anglashiladi. Kishilik estetik fikr taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mazkur masala asosiy bahs mavzularidan biri bo‘lib kelgan va uning qanday hal etilishiga qarab turli falsafiy – diniy qarashlar, ta’limotlar yuzaga kelganligini ko‘ramiz. Masalan, quyoshga sig‘ingan qadimgi ajdodlarimiz ayni paytda unga go‘zallik ma’budasi – timsoli sifatida qaraganlar va shu asosda zardushtiylik ilk natur falsafiy – diniy ta’limoti shakllangan. Mazkur ta’limot umuminsoniy, falsafiy – estetik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, u dunyo xalqlarining fan, madaniyat rivojiga kata ta’sir ko‘rsatadi. “Aytish mumkinki, - deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov zardushtiylikning muqaddas kitobi haqida fikr yuritar ekan, - “Avesto”da bayon etilgan ilmiy va hayotiy tushuncha – tasavvurlar nafaqat Markaziy Osiyo va Yunoniston, balki butun, G‘arb ilm –u fani va falsafasi rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shilgan”¹³.

Ushbu ta’limotning muqaddas kitobi “*Avesto*”da go‘zallik axloqiy va estetik tamoyillar birligida tavsiflanadi. Axura Mazda tomonidan nimaiki ezgulik yo‘lida yaratilgan bo‘lsa – xunukdir. U bunyod etgan tabiat hodisalari, kishilari yashaydigan joylar “ajoyib”, “muazzam”, “yorug‘ –ko‘zni qamashtiradigan”dir. Inson shu paytda go‘zalki, qachonki uning ezgu so‘zi ezgu amaliga mos kelsa. “Avesto”da Axura Mazdaning o‘zi haqiqat, ezgulik, go‘zallikning timsoli sifatida tasvirlanadi.

Zardushtiylik estetikasi, xususan, undagi go‘zallik masalasini hozirgi zamон estetika kategoriyalari bo‘yicha talqin qilish mumkin emas. Chunki zardushtlarning estetik munosabati ularning dunyoni hayotiy zaruriyat, foydalilikni ko‘zlab idrok etishlariga asoslangan edi¹⁴. Zardushtiylik ta’limoti mohiyatan tabiat va inson go‘zalligining falsafasidir. Qadimgi yunon natur faylasuflarining inson (mikro

¹³ Karimov I.A. Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amalni ulug‘lagan kitob. “Avesto” kitobining 2700 yilligiga bag’ishlab barpo etilgan yodgorlik majmuuning ochilishi marosimidagi nutqi. // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2001-yil, 9-sentabr.

¹⁴ Qarang : Maxmudova G. T. Философская сущность “Авесты”. – Т.: Издательство «Санъат», 2010. – с. 172.

olam) va tabiat (makro olam) uyg‘unligi haqidagi qarashlari ana shu falsafiy g‘oya ta’sirida yuzaga keladi, deb aytish mumkin Ular ana shu uyg‘unlikni go‘zallik deb hisoblaydilar.

Naturfalsafaning ilk namoyondalari – pifagorchilar (qadimgi yunon faylasufi *Pifagor* – e. a 580-500 va uning izdoshlari) tartibli miqdoriy munosabatlar narsa, hodisalarining mohiyati hisoblanadi, deb tushunadilar. Boshqacha qilib aytganda, butun olam sonlarning doimiy, uyg‘un qatorlaridir. Ular o‘zlarining ushbu umumiyligi fikrlaridan kelib chiqqanlari holda go‘zallikning mohiyatini matematik nuqtayi nazaridan turib tahlil qilishga harakat qiladilar. Pifagorchilar tasavvuricha, osmon jismlari tovush chiqqarganlari holda harakatlanadilarki, uning past – balandligi (tembri), harakat tezligi miqdoriy munosabatiga bog‘liq.

Natur faylasuflarning yirik namoyondalaridan biri *Geraklit* (e.o. 554 – 483) fikricha, doimiy harakatdagi ibrido unsur – substantsiya – olov (quyosh) olamning asosini tashkil etadi. U “Tabiat haqida” nomli asarida go‘zallikning mohiyatini o‘zining ana shu umumiyligi fikridan kelib chiqqan holda tushuntiradi. Uningcha, olov (quyosh) mangu harakat oqimi bo‘lgan hayotni yuzaga keltiradi. Go‘zallik ana shu oqimning mohiyatidir.

Yana bir yunon natur faylasufi *Empedokl* (e. o. 490 – 430 y) ning uqtirishicha, olam asosini to‘rtta ibrido unsur tashkil etadi. Bular: har biri alohida – alohida mavjud bo‘lgan olov, havo, suv, tuproqdir. Ularning o‘zaro birikishi va ajralishishini faylasuf ikki bir – biriga qarama – qarshi tortilish (muhabbat) va itarilish (dushmanlik – qahr, g‘azab) kuchlarining amal qilishi bilan izohlaydi. Mazkur kuchlarning bir – biriga nisbatan ustun kelishi bo‘yicha amal qilishi koinot taraqqiyotining davriy tarzda kechishini belgilaydi, deb hisoblaydi faylasuf. Qayd etilgan unsurlarning o‘zaro birlashishi – uyg‘unlashishi tabiat, uning bo‘lagi inson go‘zalligini yuzaga keltiradi.

Naturfalsafadan idealizmga burilish yasagan yunon faylasufi *Suqrot* (Sokrat – e.o. 469 – 399 y) narsa, hodisalarining go‘zalligi ularning faqat foydalilik jihatiga bilan belgilanadi, deb ko‘rsatadi. U bu haqida shunday deb yozadi: “Agar chiroyli bezatilgan qalqon jangchini dushmanidan himoya qilmasa, go‘zal emas. Aksincha

bezatilmagan qo‘pol qalqon o‘z vazifasini bajarsa, u go‘zaldir”. U naturfaylasuflardan farqli ravishda estetika masalalari, xususan, estetik kategoriyalarni idealistik nuqtayi nazardan bevosita inson mohiyati bilann bog‘liq tarzda talqin qilishni boshlab bergen faylasufdir.

Suqrot birinchi bo‘lib estetika masalalariga alohida tadqiqot obyekti sifatida yondashadi. Agar naturfaylasuflar estetikaning asosiy masalasi – go‘zallikni, asosan, koinotning substansiyaviy jihatni sifatida olib qaragan bo‘lsalar, Suqrot uni inson borlig‘i, axloqiy fazilatlar bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Faylasufning mazkur qarashi estetik fikr tarixida burilish bosqichini boshlab beradi va estetik masalalar kishilarning kundalik hayotiy faoliyatları bilan bog‘liq tarzda tadqiq qilina boshlanadi. Va “Go‘zallik nima?” degan savolga nisbatan “Nima go‘zal?” degan savolga javob izlash dolzarblik kasb eta boshlaydi. U mazkur savolga “o‘z – o‘zingni bil” degan qarashidan kelib chiqqan holda javob beradi va buning uchun kishiga nima ahamiyatli – qimmatli va foydali bo‘lsa o‘sha narsa go‘zaldir deb hisoblaydi.

Suqrotning shogirdi *Aflatun* (*Platon e. o. 428 – 348 y*) go‘zallikning mohiyatini mazmundan tashqaridagi mavhumiy shaklda ko‘radi. Shunga ko‘ra, u go‘zallikni narsa, hodisalar xususiyati sifatida emas, balki makon va zamondan tashqaridagi mutlaq mavhumiy (umumiy) shakl – g‘oya tarzida olib qaraydi. “Men buni (*shakl – g‘oyani*) u yoki bu narsaga nisbatan emas, balki u o‘z tabiatiga ko‘ra va mangu shunday bo‘lganligiga ko‘ra go‘zal deb atayman”¹⁵, - deb yozadi “Katta Gippiy” nomli asarida.

Aflatun birinchilardan bo‘lib go‘zallik bu – faqat narsa, hodisalarning “sof” obyektiv xususiyatlarini emas, balki insonning ruhiy borlig‘i, dunyosini ifodalovchi tushuncha ekanligini ko‘rsatib beradi.

Faylasufning mazkur masalaga bo‘lgan qarashlaridagi qimmatli jihatni shundaki, u go‘zallik narsa, hodisalarning tashqi tomoni, shaklida emas, balki

¹⁵ Platon. Соч.в Зх. т. 3 част 1. – М., 1963. – с. 66.

mohiyatidan yashiringan bo‘ladi, uni idrok eta bilish talab etiladi, degan fikrni ilgari suradi.

Arastu (*Aristotel* - e.o. 384 – 322y) mazkur masalada o‘z ustozি Aflatunga nisbatan muqobil qarashni ilgari suradi. Uningcha, go‘zallikning mohiyati narsa, hodisalarning tabiiy mutanosiblik, uyg‘unlik, hamohanglik va boshqa shu kabi xususiyatlarni ifodalashligida anglashiladi, deb tushuntiradi.

Faylasufning mazkur masalaga bo‘lgan qarashidagi qimmatli jihat shundaki, go‘zallik narsa, hodisalarning shaklida zuhurlansa – da, ularning mohiyatida yashiringan bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Aristotel ustozining g‘oyalar to‘g‘risidagi idealistik ta’limotiga qarsi chiqadi va g‘oyalar borliqning substansiysi bo‘la olmaydi, deb hisoblaydi. Uningcha, Platon talqinidagi g‘oyalar real, hissiy olamdagи narsa, hodisalarning xususiyatlarini tushuntira olmaydi. Real olamdagи narsa, hodisalarning xususiyatlari esa ularning mavjudligi, doimiy harakatda ekanlidir.

Aristotel Platonning g‘oyalar haqidagi qarashlarini tanqid ostiga olishi barobarida, moddiy narsa, hodisalar (materiya)dan ajralgan alohida substansiavy shaklni e’tirof etadi. U “Jon to‘g‘risida” degan asarida shunday deb yozadi: “Substansiya deganda biz uch narsani anglaysiz : birinchidan, shaklni, ikkinchidan, materiyani va nihoyat, ularning o‘zaro qo‘shilishini”¹⁶.

Bunda uning estetika masalasiga bo‘lgan dualistik qarashi namoyon bo‘ladi. Uningcha, go‘zallik mohiyati shakl va materiyaning mushtaraklashuvida anglashiladi. Ya’ni Aristotel narsa, hodisalarning mushtaraklashgan shakliy – o‘lchamlilik, mutanosiblik, uyg‘unlik, tartiblilik, simmetriklik kabi jihatlarini go‘zallikning atributiv xususiyatlaridandir, deb hisoblaydi.

Aristotel birinchilardan bo‘lib falsafiy kategoriyalarni tasniflaydi va ularni bilishning bosqichlari sifatida talqin qiladi. U “Kategoriyalar” nomli asarida “mohiyat”, “miqdor”, “sifat” kabi falsafiy kategoriyalar xususida fikr yuritadi va o‘zining estetik qarashlarini bayon etishda ularga asoslanadi.

¹⁶ Aristotel. О дүше. – М.: Соцэkgиз. 1937ю – с. 41.

Qadimgi yunon falsafiy – estetik fikri o‘rta asrlarda Sharq mutafakkirlari tomonidan rivojlantiriladi. Tarixdan ma’lumki, *Xorun ar – Rashid* (780-809) va uning o‘g‘li al - Ma’mun davrida Bag‘dodda tashkil etilgan “Baytul – hikma” (“Donishmandlar uyi”)da faoliyat ko‘rsatgan olim, faylasuflar Zenon, Epikur, Evklid, Platon, Aristotel kabi qadimgi yunon mutafakkirlarining asarlarini arab tiliga tarjima qiladilar, ularga sharhlar yozadilar.

“**Muallimus – soniy**” (“ikkinchi muallim”) deb nom qozongan yurtdoshimiz Abu Nasr Farobiy (873 – 950) ham yuqorida nomlari zikr etilgan yunon olimlari, faylasuflarining asarlarini tarjima qiladi, ularni tahlil qilib sharhlar yozadi. U buning barobarida o‘zining falsafiy, xususan, estetikaga oid qarashlarni ilgari suradi.

Abu Nasr Farobiy “Aflatun qonunlari mohiyati” (“Talxisu navomisi Aflatun”) nomli, Platon asarining sharhi bo‘lgan asarida go‘zallikni uning muqobil qutbi – xunuklik orqali ta’riflaydi. Bunda mazkur estetik tushunchani insonni yuksak ma’naviy – axloqiy kamolotga erishtiruvchi, mezoniy tushuncha sifatida olib qaraydi.

“Go‘zallik – bu turli musiqalar, yaxshi xulq – atvorga to‘g‘ri keladigan, masalan, saxiylik va jasurlik kabi yaxshi, ijobiy xislatlar – odamlar erishishiga havas qiladigan narsalardir. Xunuklik – be’manilik esa yomon xislatlarga undaydi”¹⁷, deb yozadi Farobiy ana shu asarida. Faylasufning fikricha, eng oliv go‘zallik bu ilohiyotdir. Insonning asl vazifasi unga intilishdir. U Ollohga bo‘lgan ishq orqali bu vazifani o‘taydi. Insondagi ishq oliv ishqning namoyishidir. Shunday ishq tufayli odamlar bir – biri bilan moslashadi, ular o‘rtasida uyg‘unlik hosil bo‘ladi¹⁸.

Abu Nasr Farobiyning estetikaga oid, xususan, go‘zallik masalasiga doir qarashlari “Musiqa haqida katta kitob”, “She’r san’ati”, “Shoirlarning she’r yozish san’ati qonunlari haqida” kabi asarlarida bayon etiladi.

Abu Nasr Farobiyning estetik qarashlari *Ibn Sino* (980 – 1037) tomonidan yanada rivojlantiriladi. U go‘zallikning substantsiyaviy asosini eng oliv tuyg‘u –

¹⁷ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.; Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 23-bet.

¹⁸ Qarang : Sulaymonova Fozila. Sharq va G’arb. – T.: O’zbekiston, 1997. – 337-bet.

ishq – muhabbat tashkil etadi va uni insoniy xususiyatlarning muqarrar atributi, deb hisoblaydi.

Ibn Sino “Ishq haqida risola” (“Risola – fi – 1 – ishq”) asarining beshinchi – “Nazokat va yoshlikning egasi bo‘lganlarning go‘zal qiyofalari ishq” deb nomlangan bobida : “Go‘zal qiyofa faqat tabiatdan in’om etilgan yaxshi mazmundagina bo‘ladi va yoqimli qiyofa va yaxshi insoniy xususiyat kamolot uyg‘unligini yaratadi”¹⁹, - deb yozadi.

Muxtasar qilib aytganda, Sharq Uyg‘onish davriga asos solgan Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilm – fanning barcha sohalaridagi tadqiqotlarni ilmiy va ilohiy bilimlarni uyg‘unlashtirgan, ularni inson mohiyatini anglashga, uni kamolotga erishtirishga yo‘naltirgan holda olib boradilar. Bunda go‘zallik, haqiqat, ezgulikni oliv qadriyatlar tarzda uyg‘unlashtiradigan ilohiy – ruhiy asos tarzida talqin qiladilar.

Dastavval Sharqda go‘zallikning talqini, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi olimlardan oldin, so‘fizm (tasavvuf) namoyondalari tomonidan umumiy tarzda boshlangan bo‘lsa, keyinchalik mazkur masala falsafiy – estetik, axloqiy ta’limot doirasidagi mavzuga aylanadi.

So‘fizmda go‘zallikning bir – birini taqozo etuvchi uchta bosqichi ajratiladi:

- 1) mutlaq, ilohiy go‘zallik;
- 2) moddiy olam narsa, hodisalari go‘zalligi;
- 3) inson faoliyati bilan bog‘liq go‘zallik.

Mutlaq go‘zallik timsoli Xudo bo‘lib, uning mohiyati “vahdat al vujud”, ya’ni panteistik (yunon. pan – hamma, theos – Xudo) falsafiy tamoyil orqali anglashiladi. Ushbu tamoyilga binoan, Xudoning “jamoli”, “husni” – go‘zallik atributlari barcha narsa, hodisalarda aks etadi. Go‘zallikni inson ana shu ilohiy ishq bilan seva olsagina kamolotga erisha oladi. Buning uchun kishi o‘z nafsinu tiya bilmog‘i, diliga oliv Go‘zallikni jo qila bilmog‘i kerak.

¹⁹ Ibn Sino Трактат о любви. – Тбилиси, 1976.- с.59. Ko‘chirma F. Sulaymonovning “Sharq va G’arb” nomli monografiyasi (-T.: O’zbekiston, 1997.-337-bet) bo‘yicha keltirildi.

So‘fizm ta’limotining yirik namoyondasi *Abu Homid G‘azzoliy* (1058 – 1111) shunday deb yozadi : “Bilgilki, dil bu olamdin emas, balki olami malakutdandir. Va nafs, sezgilarikim, bu olam ilmini kasb qilmoq uchun yaratibdur, nochor dilga olami malakutiy yo‘lini ko‘rmoqqa parda va hijob bo‘lur. Bu dunyo ishlaridan forig‘ bo‘limguncha malakut olamiga yo‘l topilmas”²⁰.

So‘fizm ta’limotiga ko‘ra, inson go‘zalligini uning tashqi chiroyi, go‘zalligida emas, ilohiy ishqni o‘zida jo qilgan qalbida va uning izmidagi axloqidadir. Boshqacha qilib aytganda, inson go‘zalligining mehvarini uning tashqi chiroyi bilan qalbining uyg‘unligini tashkil etadi.

Buni mashhur mutasavvuf, faylasuf shoir Jaloliddin Rumiy quyidagi hikoyatda (bu yerda uning nasriy bayoni keltirilmoqda) obrazli tarzda ifodalaydi.

- Bir podshoh ikkita qul sotib olibdi. Qullardan biri chiroyli, pokiza, tishlari durdek, nafasi guldek muattar, ikkinchisi esa badbashara, tishlari chirigan, og‘zi badbo‘y edi.

- Podsho go‘zal yuzli qulga ehsonlar qildi, so‘ngra hammomga yubordi. Tishlari chirigan, badbo‘y og‘izli qulni yoniga chaqirdi.

- Sen menga ma’qul bo‘lding, ammo negadir sheringing sen haqingda juda yomon gaplar aytdi, - deya hammomga ketgan sheringing yomon xislatlari haqida so‘radi. Biroq qul o‘rtog‘ing ustiga gard yuqtirmadi. Aksincha, uni maqtay ketdi:

- U doim to‘g‘riso‘z. Men uningdek yaxshi odam ko‘rmadim. Mendagi ba’zi ayb – nuqsonlarni ko‘rgan bo‘lishi mumkin, biroq men bundan bexabarman. Hamma avval o‘z qusurlarini ko‘rsa, ularni tuzatishga harakat qiladi. Masalan, men yuzimni va yuzimdagи kirni ko‘rolmayman, birovning yuzini esa ko‘raman.

Bu gaplarga qaramay, podshoh qulning hol – joniga qo‘ymadi:

- U sening ko‘p ayblaringni aytib berdi. Sen ham uning kamchiliklarini aytgingki, senga bo‘lgan ishonchim ortsin!

- Biroq xunuk yuzli qul sherigi haqida faqat yaxshi gaplar so‘yladi. Podshoh qanchalar urinmasin, uning og‘zidan sherigi haqida aslo yomon gap chiqmadi.

²⁰ Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoи saodat. Turkiy. – Toshkent.: Adolat, 2005. – 49-bet.

Nihoyat, ikkinchi qul hammomdan keldi. Podshoh uni sinash uchun huzuriga chaqirdi, uni alqay ketdi:

- Qushday yengil bo‘l, naqadar zarif va latif bo‘libsan. Koshki, narigi qul sanagan yomon fe’llaring bo‘lmasa edi.

Bu gaplarni eshitgan qulning jahli chiqib, g‘azablandi va sherigini yomonlay boshladи.

Birozdan so‘ng podshoh uni gapirishdan to‘xtatdi va dedi:

- Bas, yetar, ikkingizning ham aslingizni bilib oldim – uning og‘zi badbo‘y, sening esa iching sasib ketgan. Bundan buyon sen u to‘g‘ri so‘zli va axloqli qulning amridasan. Qani, jo‘nab qol endi.

- Mavlono voqeа so‘nggida quyidagi hikmatli so‘zlarni taqdim etadi: “Go‘zal va chiroyli yuz yomon fe’l bilan birga bo‘lsa, qalb bir chaqaga ham arzimaydi. Ko‘zaning shakli bilan qachongacha chalg‘ib yurasan? Ko‘zaning tashqi ko‘rinishidan voz kech, daryoga suvga tomon yur.

- Shaklni ko‘rding, ammo ma’nodan g‘ofilsan. Aqli raso bo‘lsang, sadafdan bir dur tanlab olib chiq” (“Masnaviy”, 2-jild, 843-1015-baytlar)²¹.

- Go‘zallik masalasi nemis faylasuflari I.Kant va G.V. Gegellar tomonidan atroflicha tahlil qilinadi. **I.Kant** (1724 – 1804) go‘zallikni har qanday foydali, manfaatdorlikdan xoli munosabatdir, deb ta’riflaydi.

- I.Kant estetikasida maqsadga muvofiqlik (qism va butunning uyg‘unligi) asosiy kategoriya hisoblanadi. Mazkur tushuncha faylasuf o‘zining tabiat tasodifiy sabab va oqibat birligidagi hodisalarining mexanik holatdagi ko‘لامи emas, balki transtsendent (lot. transcendere – chegaradan chiqmoq), ya’ni ong va bilish chegaralaridan tashqaridagi aqlga ega bo‘lgan jonli organizm bo‘lib, u ana shu aql yordamida o‘zining maqsadli o‘zgarish, harakatini o‘rnatadi, degan qarashini ifodalaydi.

- Inson bunday maqsadga muvofiqlikni aprior (lot. aprior – azaldan) ongi – subyektiv maqsadga muvofiqlik orqali bilib oladi. U o‘zining maqsadga muvofiqlik

²¹ Jaloliddin Rumiy ma’naviy hikoyalaridan darslar. 40 hikoyaga 40 sharh. – T.: “Muharrir” nashriyoti, 2008. -68-69-betlar.

ta’limoti bo‘yicha moddiylik va ma’naviylikning aloqasi, uyg‘unligini moslashtirishga harakat qiladi.

- Kant go‘zallikni o‘zining ana shu maqsadga qaratilgan transtsendental idealizmi tamoyilidan kelib chiqqan holda talqin qiladi. Bunga binoan, go‘zallik bu – manfaatdorlikdan holi holda tasavvur qilinadigan maqsadga muvofiqlikning subyektiv shaklidir. I. Kantning estetik qarashlari “Muhokama qobiliyatining tanqidi”, “Sof aqlning tanqidi” nomli asarlarida bayon etiladi.

- *Gege* (1770-1831) “Estetika haqida ma’ruzalar” nomli asarida go‘zallik xususida batafsil fikr yuritadi va uni mutlaq ruhning hissiy ifodalanish shaklidir, deb ta’riflaydi. Go‘zallikni bunday shaklda ifodalashning vositasi san’at, deb hisoblaydi faylasuf. Uningcha, mutlaq ruhni anglash haqiqatni bilishdirki, uning mohiyatini hissiy shaklda ochib berish san’atning so‘nggi maqsadi hisoblanadi²².

- Estetik fikr tarixida go‘zallik masalasiga bo‘lgan turlicha qarashlar uning mohiyatini aniqlashda nisbiy bilim – haqiqatlar majmui bo‘lib xizmat qiladi.

Go‘zallik va xunuklik, ularning namoyon bo‘lish shakllari

Ushbu masalani tahlil qilishda go‘zallik kategoriyasining hozirgi estetikadagi talqini falsafiy – estetik fikr tarixidagi, yuqorida ko‘rib o‘tilgan, unga bo‘lgan turlicha qarashlarning bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan jihatlarga asosanishligiga e’tibor berish zarur. Ana shunday jihatlardan biri – bu uyg‘unlik tamoyilidir. Yuqorida ko‘rib o‘tganimiz, estetik fikr tarixidagi barcha qarashlar, talqinlarni umumlashtirib go‘zallikka quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Go‘zallik - bu markaziy mezoniy tushuncha (kategoriya) bo‘lib, unda borliqdagi narsa – hodislarning shakl va mamun uyg‘unligi, mukammalligi va insonning ularga bo‘lgan ma’naviy – ruhiy lazzatlanishi bilan shartlangan munosabati ifodalanadi

Obyektning xususiyati, jihatlari kishi tomonidan estetik subyekt sifatida qayd etilgan birliklar o‘lchovida idrok etilgan paytda unda ma’naviy lazzatlanish his – tuyg‘ularini (ruhiy g‘izolanish – poklanish, zavqlanish, shodlik) uyg‘otadi.

²² Qarang: Gege G. V. Estetika. B 4 –x томах, том 1. – М. : Искусство, 1968. – с . 61.

Go‘zallikning mohiyati borliqning barcha sohalarida (tabiat, jamiyat , inson, san’at) turi, shakl, xususiyatlarda namoyon bo‘ladi.

Tabiatdagi go‘zallik har bir turning uzoq evolyutsion tadrijiy taraqqiyoti natijasi o‘larоq, shakllangan o‘zaro uyg‘unlik, maqsadga muvofiqlik kabi xususiyatlari bilan belgilanadigan mukammalligida namoyon bo‘ladi.

Bizni qurshab turgan jonli va jonsiz tabiat, tabiiy muhitning o‘zini shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo‘lsak, ular uchun umumiyluk mukammallik qonuniyatni xosdir. Tabiat barcha tirik va notirik turlarning o‘zaro uyg‘un, mutanosiblikdan tashkil topgan mutlaq mukammalligidir. Bunda ularning (turlarning) hech biri ortiqcha emas, ya’ni biri ikkinchisiz yashay olmaydi. Mazkur qonuniyatni anglab yetmaslik XX asr oxirida mavjud sivilizatsiyaga xavf soluvchi umubashariy ekologik muammolarni keltirib chiqardi.

O‘tgan asrning boshida rus faylasuf yozuvchisi F.M. Dostoyevskiy insoniyatga xavf solayotgan ma’naviy qashshoqlikdan tashvishlanib: “Dunyoniga go‘zallik qutqaradi,” –deb bashorat qilgan edi. O‘sha yozuvchining hikmatli iborasi ni qo‘llagan holda “Bugungi kunda umumbashariy ekologik xavfdan go‘zallik qutqaradi” – deb aytish mumkin.

Jamiyat go‘zalligi uning taraqqiyot yo‘nalishi, iqtisodiy va ma’naviy sohalarning o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Taraqqiyotning yo‘nalishi, har bir shaxs, fuqaroning kamolotiga qaratilgan jamiyatgina mukammallik darajasiga ko‘tarila oladi. Jamiyat, tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik ana shunday mukammallikni ifodalaydiki, bu uning ma’naviy rivoji darajasi bilan belgilanadi. Bu o‘rinda taniqli nafosatshunos, faylasuf T. Mahmudovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinlidir: “Ma’naviyat shaxs va millatning “aqli qalbi”ni ifoda etadigan, tarix taqozosiga binoan uning tomonlari namoyon bo‘ladigan tabiat, jamiyat va insonning insoniylashuv darajasini bildiradigan ruhiy idrok, ziyrak qalb olamidir”²³.

²³ Maxmudova T. Mustaqillik va ma’naviyat. – T.: 2001. – 18-bet.

Bugungi kunda mamlakatimizda qurilayotgan huquqiy – demokratik davlat, fuqarolik jamiyati maqsad va mohiyatiga ko‘ra ana shunday mukammal ijtimoiy tuzum tipi hisoblanadi.

Shaxs (inson) go‘zalligi keng ma’noda uning ma’naviy – ruhiy dunyosining faoliyati, hatti-harakatlarida namoyon bo‘lishligi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, konkret shaxs go‘zalligi uning ijtimoiy – siyosiy faolligi, xulq – atvori, axloqi va kudalik amaliy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq jihat hisoblanadi. Lekin ayni paytda mazkur jihat quyidagi mezoniy o‘lchovlarga ega:

1) obyektga estetik subyekt sifatida munosabatda bo‘lishi. Boshqacha qilib aytganda, narsa, hodisalarga esteik obyekt munosabatda bo‘lish, ularning estetik qimmatini baholay olish qobiliyatiga ega bo‘lishi. Masalan, u yoki bu siyosat mafkurasini estetik ideallar mezonida turib baholay olmaydigan shaxsning ijtimoiy faolligi manqurtlik darajasida bo‘ladi. Bugungi kunda terrorizm va boshqa turli siyosiy oqimlarning ta’sriga tushib qolgan ba’zi yoshlarning ijtimoiy faolligi ana shunday manqurtlik – siyosiy ko‘rlikdir.

2) san’at asarlarini idrok eta bilish, esteik qadriyatlar sifatida baholay bilish va ulardan ma’naviy g‘izolanish (oziqlanish), lazzatlana bilish malakasiga ega bo‘lishi.

3) inson ichki ma’naviy – ruhiy dunyosining uning tashqi dunyosi (hatti – harakati, husni, chiroyi) bilan uyg‘unligi va bunda birinchisining belgilovchi mavqeiga ega ekanligi. Masalan, kishining husni, chiroyi qanchalik jozibali bo‘lmisin, agar ichki dunyosi ma’naviyatdan oziqlanmagan bo‘lsa, u go‘zallik fazilatidan mahrumadir.

Bu o‘rinda taniqli yozuvchi Mirzakalon Ismoiliyning “Go‘zallikning yaprog‘i axloq, ildizi – ichki dunyo, mevasi insoniy fazilatdir”, degan hikmatli gapi yodga keladi.

Inson go‘zalligining qayd etilgan mezoniy o‘lchovlarini hisobga olmasdan turib bugungi kunning asosiy vazifalarida hisoblanmish komil insonni shakllantirish masalasini hal qilish mumkin emas.


San'atda voqelik shakl va mazmun uyg'unligida, badiiy obrazlarda aks ettiriladi. Shunga ko'ra, har qanday yuksak darajada yaratilgan san'at asarlari go'zallikning konkret shakldagi ifodasidir. Bunda estetik ideal badiiy asar yaratishning o'lchovi – go'zallikni tasvirlashning mezoni bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda Cho'lpon va Abdulla Oripovlarning "Go'zallik" deb nomlangan she'rlarini olib qaraylik. Ularda o'quvchi inson go'zalligining o'zi uchun notanish jihatlarini kashf etish bilan birga poetik so'zlar jilosidan – go'zallidan estetik zavq oladi.

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukub,
Aytadur:men uni tushda ko'ramen,
Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal,
Bizdan – da go'zaldir, oydan- da go'zal!
Ko'zimni olaman oy chiqqan yoqqa,
Boshlayma oydan – da seni so'rmoqqa.
Ul – da aytadir: bir qizil yonoqqa
Uchradim tushimda, ko'milgan oqqa.
Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan – da go'zaldir, kundan – da go'zal!



Cho'lpon (1897-1938).

Kuzning rutubatli oqshomi edi,
 Bog‘lar sekingina chekar edi oh,
 Ruhimda bir xazon ayyomi edi,
 Ajib go‘zallikka duch keldim nogoh.
 Bir zum go‘zallikning huzuruda jim,
 Samoviy hislarga bo‘lib qoldim band.
 O dono tabiat, o, buyuk hakim,
 Hikmat ko‘rmadim hech senga monand.
 O‘zing yuraklarga cho‘ktirib qadar,
 Xalos ham qilursan rahm etgan damda,
 Shunday go‘zallarni yaratmasang gar,
 Qolib ketarmidik doimo g‘amda.



A.Oripov (1941-2016).

Go‘zallikning mohiyati uning qarama – qarshi qutbi – **xunuklik** bilan bo‘lgan nisbatida anglashiladi. **Xunuklik** estetik kategoriya bo‘lib, u tabiatda, jamiyatda, insonda va san’atdagi o‘ziga xos jihat, jarayonlarni ifodalaydi.

Kishilarning go‘zallik haqidagi dastlanki tasavvur, qarashlari narsa, hodisalardagi xunuklik jihatlariga bo‘lgan munosabatlari jarayonida shakllanib, takomillashib borgan. Aslida tabiatda xunuk narsa, hodisaning o‘zi yo‘q, ular mukammal, maqsadga muvofiq tarzda yaratilgan.

Tabiatdagi xunuklik muayyan predmetlar jinsi turlarining o‘zaro nisbatida namoyon bo‘ladigan xususiyat, jihatlaridirki, ular kishida yoqimsizlik, hazarlanish, seskanish, qo‘rquv kabi his – tuyg‘ularni uyg‘otadi. Masalan, hech bir qush turi, aytaylik, boyo‘g‘li nomukammal (xunuk) emas, lekin uning xunukligi bulbul yoki boshqa sayroqi qush turlari bilan bo‘lagan nisbatida namoyon bo‘ladi. Boyo‘g‘li bulbulga o‘xshab bog‘larda, subhi sodiq – tongda emas, xarobalarda, bemavrid palla – yarim tunda sayraydi. Shu bois uning ovozi kishida qo‘rquv, seskanish aralash noxush his – tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Insondagi xunuklik haqiqat, ezhgulik, go‘zallik umuminsoniy oliv qadriyatlar mezonidan turib baholaniladi. Kishilar biologik tur – mavjudot sifatida bir – biridan tabiiy - irqiy jihatdan, ya’ni yuz tuzilishlari, tanasining ranglari bilan farqlanadi. Ularni ana shu jihatdan chiroyli yoki xunuk deb baholashning umumiy mezoni yo‘q. Shuning uchun qora tanlini oq taniga yoki sariq tanliga nisbatan xunuk, deb baholab bo‘lmaydi.

Insondagi xunuklik uning umuminsoniy mezoni qadriyatlarga xilof bo‘lgan axloqsizlik, riyokorlik, yolg‘onchilik, yovuzlik kabi hatti – harakatlari bilan baholaniladi. Kishi jismonan zaif, nogiron bo‘lsa-da, lekin u haqiqatparvar, axloqan pok, go‘zallikdan zavqlanish xislatlariga ega bo‘lishi mumkin.

Inson go‘zalligi uning muqobili – xunuklik kategoriyasi orqali talqin qiish, ayniqsa, globallashuv jarayoni salbiy oqibatlari ta’sirining kuchayib borayotgan hozirgi davrda kishilarimizda, xususan, yoshlarimizda estetik immunitetni shakllantirish, kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunda “Dunyoni go‘zallik qutqaradi”, degan mashhur iboraga qo‘shimcha qilib “Dunyoni xunuklik halokatga olib boradi!”, degan ogohlantiruvchi shiorni harakar dasturi qilib olmoq lozim.

San’atdagi xunuklikning ifodalanishi go‘zallikni tasdiqlash, qaror toptirishning o‘ziga xos usulidir. Shunga ko‘ra, san’atdagi go‘zallik va xunuklikning o‘zaro munosabati *parodoksal* (yunon. paradoxos – g‘alati) xarakterga ega bo‘lib, masalaga birinchi bo‘lib Aristotel e’tiborini qaratgan edi. Mazkur paradoksallikning mohiyati shundaki, xunuk narsa va hodisa san’at asarida go‘zallik tarzida tasvirlanadi.

Bunda san’at asarida tasvirlanayotgan xunuklikni idrok etish jarayoni unga (xunuklikka) nisbatan bo‘lgan nafrat, g‘azab his – tuyg‘usi estetik lazzatlanish, ruhiy poklanish (katarsis) bilan birgalikda kechadi. Mazkur jarayon orqali asarning estetik g‘oyasida tajassum topgan go‘zallik teran anglashiladi, oliv qadriyat tarzida o‘zlashtiriladi.

San’atning badiiy adabiyot turida xunuklik salbiy obrazlar tizimida ifodalanadi va ular ushbu jarayonning qayd etilgan yo‘nalishda kechishi uchun xizmat qiladi. Bunga misol qilib Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi

Zaynab obrazini keltirish mumkin. O‘quvchi, bir tomonidan, uning Kumushbibini zaharlaganidan g‘azablansa, nafratlansa, ayni paytda unga nisbatan qandaydir ichki achinish hissini tuyadi.

Shuningdek, u (o‘quvchi) romanning estetik g‘oyasi tugunini tashkil etuvchi Otabek va Kumush muhabbati fojiasini Zaynab obrazining mohirona tasviri orqali chuqur anglab yetadi. Bu shunchalik bir sof mushohada (ratsional) etish bo‘lmasdan, kuchli estetik his – tuyg‘u bilan yo‘g‘irilgan anglab yetish hisoblanadi.

Bu o‘rinda asar kulminatsiya nuqtasi hisoblanmish, Zaynab obrazi tasviri bilan bog‘liq tasvirdan parcha keltiramiz “... Tabib kirdi. Otabek telbalarcha yugurib Kumushning boshiga keldi, yuzini ochib manglayini bosdi va o‘pdi... Kumush ko‘zini ochib kuch bilan so‘l qo‘lini erining yelkasiga tashladi... Qo‘lida chaqaloq bilan O‘zbek oyim kirdi.

- Zaynabni chaqir, Zaynabni!
- O‘zbek oyim tabib so‘zidan xabardor edi:
- Zaynab, Zaynab!

Zaynab yugurib uyga kirdi. Tusi murdadek oqorgan edi. Otabek Kumushni qo‘yib yerdagи atalani oldi:

- Ich muni, ich jalab!
 - Zaynab orqaga tislandi...
- Otabek kosani unga otdi...”²⁴.

Ulug‘vorlik kategoriyasi

Ulug‘vorlik - estetik (nafosat)likning, xususan, go‘zallikning o‘ziga xos jihatlarida namoyon bo‘lishidir. Falsafiy fikr tarixida ko‘pgina faylasuflar ana shu o‘ziga xoslikni aniqlashga urinadilar. Ulug‘vorlik haqidagi dastlabki nazariy fikrlar muallifi Psevdo – Longin deb taxmin qilinadigan, so‘nggi antik davrda yaratilgan (eramizdan avv. I asrning 40- yillarida) “Ulug‘vorlik to‘g‘risida” nomli traktatda bayon etiladi. Ma’lumki, bu davr qadimgi yunon tamaddunining beqiyos

²⁴ Abdulla Qodiriy. O’tgan kunlar. – T.:Sharq. 2009. -385- bet.

yuksaklikgiga putur yetib, individualizm, pastkashlik, tubanlik kabi illatlar hayotda keng ildiz ota boshlaganligi bilan xarakterlanadi.

Mazkur traktat ana shu ma’naviy inqirozning ta’siri natijasi o‘laroq yozilgan bo‘lib, uni (inqirozni) mazkur traktatning leymotivini kishilarda ulug‘vorlikni anglash, o‘z hayotlarida uni qaror toptirish ana shu inqirozni bartaraf etishda belgilovchi rol o‘ynaydi degan g‘oya tashkil etadi. Psevdo – Longinning fikricha, ulug‘vorlik go‘zallikning o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishidir. Go‘zallikning mohiyatini uyg‘unlik tashkil etadi. Buni so‘z san’atida yaqqol ko‘rish mumkin. Chunki undagi go‘zallik so‘z va fikr uyg‘unligining natijasidir, bunday uyg‘unlik esa o‘zining eng yuksak ifodalinishda ulug‘vorlikka aylanadi.

Ingliz faylasufi **E. Byork** (1729 -97) “Ulug‘vorlik va go‘zallik haqidagi tasavvurlarning paydo bo‘lishi haqida tadqiqotlar” nomli asarida ulug‘vorlikni kishining hayrat, qo‘rinch his – tuyg‘usini ifodalovchi kategoriya sifatida talqin qiladi.

I.Kant ulug‘vorlik inson ruhida tug‘iladigan, uni junbushga keltiradigan his – tuyg‘u, deb tushuntiradi. “**Ulug‘vorlik**, - deb ta’kidlaydi u, - hech qanday tabiat hodisalarini aks ettirmaydi, u faqat ruhimizda tug‘yon uradi”²⁵. Uningcha, go‘zallik hamma vaqt jozibali bo‘lib, kishini zavqlantirsa, lazzatlantirsa, ulug‘vorlik hayratlanish, qo‘rquv his – tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Nemis klassik falsafasining yana bir yirik namoyondasi Gegel ulug‘vorlikni mutlaq ruh taraqqiyot etapining estetik xarakteristikasi bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Mutlaq ruh san’at bilan o‘zaro muayyan muvofiqlikda rivojlanadi. San’at taraqqiyotining klassik etapida ulug‘vorlik go‘zallik bilan sintezlashgan holda namoyon bo‘lsa, romantik bosqichda esa e’tibor ulug‘vorlikka, tarixiy shaxslar, qahramonlar xarakterini yaratishga qaratiladi.

Qahramon xarakterining ushbu Gegelcha konsepsiysi uning estetik ta’limotining g‘oyat muhim qismini tashkil etadiki, bu keying davr estetik fikri taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ulug‘vorlik, Byork, Kant ta’kidlaganidek, faqat

²⁵ Кант И. Наблюдения над чувством прекрасного и возвышенного. Соч. в 6 т-х, т.5. – М., 1966. –с.272.

“sof” tarzdagi qo‘rquv, hayratlanish hissiyotini uyg‘otib qolmasdan, kishida yuksak o‘lchovlardagi, darajadagi estetik zavq, lazzatlanish tuyg‘ularini hosil qiladi. Shunga ko‘ra, u go‘zallik mezoniy tushunchasi mazmunining o‘ziga xos shaklda ifodalanishidir.

Ayni paytda ulug‘vorlik go‘zallikdan shakl va mazmun, miqdor va sifat uyg‘unligi munosabati bilan farq qiladi. Agar go‘zallikda shakl va mazmun o‘zaro muvofiq uyg‘un holatida bo‘lsa, ulug‘vorlikda shakl mazmunga nisbatan haddan ortiq darajadagi miqyos, o‘lchovga ega bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ulug‘vorlikni estetik idrok etishda kishida hayratlanish, lol qolish his – tuyg‘usi yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Shunday qilib ulug‘vorlik bu narsa, hodisalarning yuksak daraja, mezonda baholanuvchi estetik qimmatni ifodalovchi kategoriyadir. Shaxs estetik subyekt darajasidagina obyektning bunday qimmatini idrok eta oladi.

Ulug‘vorlik borliqning barcha sohalarida – tabiatda, jamiyat hayoti, shaxsda, san’atda o‘ziga xos xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Tabiatda ulkan, muazzamligi, ko‘لامи, miqyosiyligi bilan ajralib turadigan narsa, hodisalar ulug‘vorlikdir. Shu bois purviqor tog‘lar, ulkan daryolar, bepoyon ummon, okeanlar o‘zlarining oddiy fazoviy miqyos – me’yori bilan o‘lchanmaydi va ular kishilarda hayratlanish, qo‘rquv aralash estetik zavqlanish his – tuyg‘usini uyg‘otadi.

Bunday his – tuyg‘u qir – adir, kichik daryoga, ko‘llarga nisbatan paydo bo‘lmaydi. Chunki ular fazoviy miqyosi jihatdan chegaralangan, shaklan kishi tasavvuri qamroviga mos keladi. “Ikkinci tabiat”, ya’ni inson qo‘li bilan yaratilgan tarixning turli davrlari, turli mamlakatlarda muazzam, hashamatli majmua, inshoot, binolar, transport yo‘llari va boshqa qurilishlar ulug‘vordirlar. Masalan, Misr ehromlari dunyo ahlini to hozirgacha lol qoldirib, hayratga solib kelayotgan “ikkinci tabiat” mo‘jizalaridir.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda bunyod etilgan ko‘plab majmualar, koshona binolar, avtomagistral va temir yo‘llar inson qo‘lining mo‘jizakor kuchini namoyish etuvchi ulug‘vor qurilishlardir.

Jamiyat hayotidagi ulug‘vorlik ijtimoiy taraqqiyotning buyuk maqsadlarida hamda ularni ro‘yobga chiqaruvchi xalq ommasi, tarixiy shaxslarning faoliyatları, qahramonliklarida namoyon bo‘ladi.

Insoniyat tamadduni ravnaqi, o‘z yurti, vatani ozodligi uchun fidoyilik ko‘rsatgan faylasuflar, olimlar, davlat arboblari tom ma’noda eng buyuk, ulug‘vor tarixiy shaxslar hisoblanadi.

I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli kitobida Suqrot, Platon, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Jardano Bruno, Galileo Galiley kabi allomalarining ilm – fan, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi el farzandlarining Vatan ozodligi, ravnaqi yo‘lidagi fidoyiliklarini eng buyuk jasorat – ma’naviy jasorat deb ta’riflaydi²⁶.

Shuningdek, birinchi Prezidentimiz zahmatkash va bunyodkor xalqimizning kunni kunga, tunni tunga ulab qiladigan mehnatini ham ma’naviy jasorat namunasi – qahramonlik deb baholaydi: “Har kuni, har soatda fidoyi bo‘lish, o‘zini tomchi va tomchi, zaramma – zarra buyuk maqsadlar sari charchama, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu, deb aytgan bo‘lar edim”²⁷. Shunday qilib aytish mumkinki, jamiyat, shaxs hayotida ulug‘vorlik *ma’naviy jasorat* – qahramonlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan jarayonlarning mohiyati, uning taraqqiyoti oliy maqsadining estetik qimmatini anglamasdan, tasavvur etmasdan turib uni ulug‘vorlik mezoni bo‘yicha baholab bo‘lmaydi. Masalan, shunday jarayonlardan biri ma’naviyatning mohiyatini, shakllanishini teran anglab olish uchun uning ulug‘vorlik jihatini his eta bilmoq kerak. I.A. Karimov ma’naviyatning g‘oyat keng qamrovli, ko‘lamli (ulug‘vor) ekanligi, uning oddiy o‘lchovlarga sig‘masligi haqida shunday deydi: “ Bizning ma’naviyatimiz asrlar davomida million – million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o‘lchab ham, poyoniga yetib ham bo‘lmaydi U inson uchun bir olam... El, oila, ota – ona, bolalar, qarindosh

²⁶ Qarang: Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008. – 160-163-betlar.

²⁷ O’sha joyda, - 160 – 165-betlar.

urug‘lar, qo‘ni qo’shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik – ma’naviyatnning ma’nosi ana shnday keng”²⁸.

Ulug‘vorlikning obyektiv manbai qudratli kuchga ega bo‘lgan tabiat hodisalari, insonning yuksak g‘oyalarga fidoyiligi, ijtimoiy taraqqiyotdagi tub sifat o‘zgarishlari bo‘lsa, subyektiv jihat – ularning yuksak estetik ideallar asosida baholanishidir. Mazkur jihat san’at sohasida o‘z aksini to‘la namoyon etadi. Shuning uchun agar cheksiz, sarhadsiz okean, osmono‘par tog‘lar, vulqonlar kishida “sof” holdagi qo‘rquv, hayratlanish hissiyotini uyg‘otsa, san’at asarlarida tasvirlangan ulug‘vor narsa, hodisalar uni zavqlantiradi, ruhan lazzatlantiradi. Masalan, Cho‘lponning “Xalq” she’rini o‘qir ekanmiz, xalqning qudratli kuch ekanligini konkret – obrazli tarzda idrok etish, anglab olish bilan birga uning ulug‘vorligini qa,ban his etamiz va zavqlanamiz.

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,

Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir...

Xalq qo‘zg’alsa kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsin,

Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin.

Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi,

Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...²⁹.

Ulug‘vorlikning jamiyat va inson namoyon bo‘lishning qarama – qarshi qutbi tubanlik va pastkashlikdir. Bugungi kunda taraqqiyparvar, demokratik kuchlar faoliyatining ulug‘vorligini ularning muxolifi bo‘lgan terrorizmning tubanligini chuqur tushunib yetmasdan turib idrok etish mumkin emas. Tubanlik tushunchasida muayyan guruh, alohida shaxsning ijtimoiy –estetik ideallarga zid hatti – harakatlari aks etadi. Masalan, hozirgi globallashuv davrida ma’naviy – mafkuraviy tahdidlar hisoblanuvchi missionerlik, prozelitizm, diniy ekstrimizm, terrorizm kabi siyosiy to‘dalar va ularning yo‘lboshchi, rahnamolarining hatti – harakatlari tubanlik mezoni bilan baholanadi.

²⁸ Karimov I.A. O’zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T.: O’zbekiston, 1998.- 78-bet.

²⁹ Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. –T.: Gafur Gu’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1991.- 408-bet.

Kundalik hayotda kishilar orasida uchraydigan oqpadarlik, nonko'rlik, sotqinlik, giyohvandlik va boshqa hatti – harakatlar ana shu o'Ichovda baholanilganda kishida nafratlanish his – tuyg'ularini uyg'otadi.

Fojiaviylik va hajviylik (kulgililik) kategoriyalari

Mazkur kategoriya (mezoniy tushunchasi)ni go'zallik va ulug'vorlik kategoriyalari mazmuni muqoyasi orqali tahlil qilish kerak.

Insonlar doimo o'zini qurshab turgan borliq, tabiatga bo'lgan munosabatini, hayotning mazmun – mohiyatini o'lim va umri boqiy, abadiyat masalasi bilan bog'liqlikda olib qarash bilan anglashga harakat qilib kelganlar. Bunda ular ushbu masalani "O'lim nima, undan keyin ham kishi boshqa dunyoda yashaydimi?", "O'lim insonning oliy qadriyat sifatidagi mohiyatini belgilovchi immanent xususiyatmi? Agar shunday bo'lsa, nima uchun?" degan savollarga javob topishga uringanlar. Mazkur savollar barcha falsafiy – diniy ta'limotlarning negizini tashkil etuvchi masalan bo'lib kelgan. Dunyoviy dinlarning yuzaga kelishi, falsafiy dunyoqarashning takomillashib borishi natijasi o'laroq, o'lim o'ziga xos axloqiy, estetik qadriyat, xarakter kasb etib boradi.

O'lim insonning biologik mavjudot sifatida hayotning tugashi, jon berishidir. Shu bois o'lim qo'rqinchi boshqa har qanday qo'rquvlardan yuqori turadi. Narigi dunyodagi hayotga ishonish kishini ma'lum darajada bunday qo'rqinchdan xalos etadi. Bunda o'lim qo'rqinchining o'rnini kishining o'z hayotida sodir etgan gunohlari uchun narigi dunyoda beriladigan jazo qo'rqinchi va aksincha, qilgan savob ishlari uchun mukofot hissi egallaydi, bu o'limning axloqiy qadriyat kasb etishda muhim rol o'ynaydi.

O'limning keskin ijtimoiy ziddiyatlar to'qnashuvida yuz berishini anglash va uni haqiqat, ezgulik, go'zallik umuminsoniy oliy qadriyatlar mezonidan turib baholash darajasida hayotning yakuni – o'lim o'ziga xos estetik qadriyat xarakteriga ega bo'ladi. Bunda o'lim kishida qo'rqinch, jismonan azoblanish his – tuyg'usini emas, balki ruhiy ko'tarinkilik, ulug'vorlik his – tuyg'usini uyg'otadi. Fojiaviylik

kategoriyasi o‘limni ana shu jihatni – axloqiy – estetik qadriyatlik xarakterini ifodalaydi.

Fojiaviylik mezoniylar tushunchasida asosan jamiyat va shaxs hayotidagi o‘ta murakkab ziddiyatlar ifodalanadi. Mazkur ziddiyatlar ijobiy (taraqqiyparvar) va salbiy (reaksion) ijtimoiy kuchlar o‘rtasidagi kurash tarzida kechadi. Uning estetik ahamiyati, mohiyati falsafiy kategoriyalar – zaruriyat va erkinlik mazmuni orqali anglashiladi. Bunday kurashlar ko‘pincha taraqqiyparvar kuchlarning halokati, o‘limi bilan yakunlanadi. Lekin ularning qismati mangulikka daxldor bo‘ladi. Chunki bu o‘lim (halokat) yuksak maqsad, ilg‘or g‘oyalar uchun kurash yo‘lidagi fidoyilik bo‘lib, boqiy umr, abadiyatlik nomi bilan ataladi. Masalan, bugungi kunda istiqlol uchun kurashgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Behbudiy larning halokatlarini fojiaviylikning ana shu mezoniylar o‘lchovlari bilan baholaymiz.

Kishi fojiyaviylikning estetik ahamiyatini idrok etmasdan turib hayot, umr, yashashning maqsadini chuqur anglab yetmaydi.

Fojiaviylikni badiiy obrazlarda mujassamlashtiruvchi san’at ana shu jihatdan muhim rol o‘ynaydi. San’atdagi fojiaviylik asosan qahramonlik, ya’ni yuksak ijtimoiy – estetik ideallarni qaror toptirish yo‘lidagi murosasiz, keskin ziddiyatli kurashlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi obrazlarning hatti – harakatla ri orqali tasvirlanadi. Fojiaviylik san’atning *tragediya* janrida ifodalanadi. Mazkur janrda – fojiaviylik ijtimoiy ziddiyatlar konkret shaxs (xarakter) va turli holatlar, kuchlar o‘rtasidagi keskin to‘qnashuv, kurashlar tasvirida beriladi. Bunda konkret shaxs obrazining fojiasi ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilish yo‘lidagi qahramonlik, halokat sifatida tasvirlanadi.

Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi”, “Mirzo Ulug‘bek” pyesalari tragediya janridagi asarlardir. Birinchi pyesada Jaloliddin Manguberdining qahramonligi, xarakteri uning mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi turib kurashishdan ko‘ra ularga taslim bo‘lishni afzal bilgan otasi, Xorazmshoh boshliq kuchlar o‘rtasidagi keskin to‘qnashuv, ziddiyatlari tasviri orqali ochib beriladi.

Jaloliddin Vatan oldidagi asl farzandlik burchini o‘z otasi oldidagi burchidan yuqori qo‘yadi. Mana, uning bu boradagi ichki ruhiy iztiroblarini ifodalovchi misralar:

Odamlar o‘ylarki, bo‘lmasa tojim.
Qalandar bo‘lurman,qolmas ilojim.
Bechora otamchi, fahmi shuncha ko‘r?
Bilmaski shu bilan taxtga qazir go‘r...
Otami azizdir yoki saltanat?
Ko‘p og‘ir masala... kufrdir albat –
Otaga qarshi ko‘tarmoq isyon.
El uzra bulutlar kelsa havodan
Maydonga kirmaymi qo‘rqib balodan?
Bu gal o‘xshamaydi otaga o‘g‘il
Mulk ahli mo‘g‘ulga sira bo‘lmas qul.
Tug‘ildim qilich –u qalqonga xushtor,
Bo‘lay g‘anim uzra misoli – ajdar...³⁰.

Ingliz dramaturgi V. Shekspirning “Hamlet” tragediyasidagi Hamlet fojiasi bu shunchaik tahqirlangan kishining o‘z otasi uchun qasos olish hikoyasi emas, balki uning mavjud ma’naviy tubanlashishga yuz tigan muhitni o‘zgartirish yo‘lida o‘zini fido qilish, halokat tasviridir.

Arastu tragediya janrining xususiyati – bu qo‘rqinch va hamdardlik uyg‘otuvchi voqealarni tasvirlash orqali kishini ruhiy poklantirish (katarsis)ligidir, deb hisoblaydi³¹.

Kulgiliklik (hajviylik) mezoniy tushunchasining mazmuni fojiaviylik tushunchasining mohiyati orqali anglashiladi.chunki mazkur tushunchada ijtimoiy ahamiyatga molik ziddiyatlarga estetik ideal nuqtayi – nazardan bo‘lgan tanqidiy munosabat ifodalanadi. Lekin kugilikda, fojiaviylikdan farqli ravishda keskin,

³⁰ Ko‘chirma B.Imomov. Трагедия на характер. Монография. - -Т.: Gafur Gu’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.1997.- 72-bet.

³¹ Qurang: Aristotel. Poetika. – T.: Gafur Gu’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1980. – 23-24-betlar.

kelishish yo‘li bilan hal qilib bo‘lmaydigan ziddiyatlar emas, balki ijtimoiy ixtilof, to‘qashuvlarsiz, tanqid, rad etish, fosh qilish yo‘li bilan bartaraf qilinadigan ziddiyatlar ifodalananadi.

Kulgiliklik insonning voqeasi, hodisalarga bo‘lgan murakkab ruhiy, psixofiziologik his – tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos munosabatdir. Shunga ko‘ra kulgiliklik obyektiv va subyektiv jihatlarning o‘zaro uyg‘unligidagi ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan estetik qadriyat hisoblanadi. Faqat insongina kuladigan mavjudoddirki, u kulgilikni estetik qadriyat sifatida idrok etadi, baholaydi. Shu asosda kulgilikni ifodalovchi san’at turlari yuzaga keladi.

Estetik fikr tarixida kulgiliklik asosan go‘zallik va xunuklik (Arastu), ulug‘vorlik va tubanlik (Kant), soxta bema’nilik va haqiqat (Gegel) o‘ratasidagi qarama – qarshiliklarning natijasi sifatida ta’riflanadi. Ma’lumki, kulgi psixofiziologik hodisa bo‘lib, turlicha tur, xillarda bo‘ladi (hajviy, ironiyali, masxaraomuz va boshqa).

Ba’zi kishilar kulgu ta’siridan qattiq hayajonga tushadi, ruhiy zarbaga uchraydilar. Masalan, manbalarda qayd qilinishicha, Bobil va Yunonistonni vayron etgan eron shohi (e.o.? - 465vafot etgan) Kreks kulgidan o‘igan. Fransuz dramaturgi Pyer Ogyustin (1732 -99) o‘zini jahonga tanitgan “Seviliya sartaroshi” nomli komediyasini otasiga o‘qib berarkan, keyingisi ichak uzdi kulgidan jon beradi. Qadimgi yunon dramaturgi Sofokl (e.o. 496-406) ham tomoshabin olqishlari ostida kulgidan vafot etgan.

Kulgilikning estetik ahamiyati, mohiyati shundaki, unda jamiyat hayotidagi hodisalarga, shaxs hatti – harakatiga estetik ideal mezonidan turib baho beriladi. Kulgilik doimo kishida psixofiziologik holatni keltirib chiqaravermaydi. U qarama – qarshi qutbdagi tomonlarni oqlovchi yoki qoralovchi kulgidir. Boshqacha qilib aytganda, mazkur kulgi jamiyat va shaxs hayotidagi ziddiyatli hodisa, jihatlarga ijtimoiy – estetik ideal mezoni bo‘yicha beriladigan bahodir. Shunga ko‘ra u mohiyatan ijtimoiy ahamiyatga molik kulgi bo‘lib, u ayni paytda kishida qayg‘urish, achinish, azoblanish his – tuyg‘ularini uyg‘otadi. Masalan, terrorizm umuminsoniy – gumanistik, estetik ideallar o‘lchovidan turib baholaganda, shu ma’nodagi kulgili

holat hisoblanadi. Kulgilik san’atning badiiy adabiyot turidagi komediya, satira, humor kabi janrlarida ifodalanadi.

Komediya dramatik janr turi bo‘lib, u go‘zallikning muqobili bo‘lgan xunuklikni turli xil obraz, xarakterlar to‘qnashuvida yuzaga keladigan kulgili holatlarda ifodalaydi. Kulgili holat esa Arastu ta’kidlaganidek, xunuklikning bir qismi xolos³². Masalan, Said Ahmadning “Kelinlar qo‘g‘oloni” komediyasida qaynona – kelin munosabatining tasviri zamirida xunuk ijtimoiy illatlar keltirib chiqargan sobiq ittifoqning ma’muriy – buyruqbozlik boshqarish tizimi ustidan bo‘lgan kulgi yotadi. Sadreddin Ayniyning “Qori ishkamba” hikoyasidagi Qori obrazi insondagi xunuklik ma’naviy tubanlik go‘zallik muqobilida tasvirlanganligi uchun kulgi uyg‘otadi. Jamiyat hayoti rivojiga to‘sinqilik qiluvchi salbiy voqeа, hodisalarni tanqid qilish,fosh va rad etishda *satira* (*masxara*) janri alohida mavqeni egallaydi.

Bu o‘rinda XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan mashhur shoir Muqimiyning (1850 – 1903) satirik janridagi she’rlarini misol qilib keltirish mumkin. Xususan, uning “**Tanobchilar**” she’rida chor kolonizatorlarining gumashtasi bo‘lgan mahalliy amaldorlarning qiyofasi fosh qilinadi.

“Tanobchilar” satirasining asosiy personajlari mahalliy amaldorlarning vakili – tanobchilar – yer soliqchilari Sulton Alixo‘ja va Hakimjonlardir.

Muqimiyl bu ikki amaldorning xalqni talash uchun til biriktirib olganlarini quyma iborlar orqali fosh etadi:

Sulton Alixo‘ja, Hakimjon ikkov,
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyov.
Ikkalasi bo‘ldi chumon ittifoq,
Go‘yo xayol aylaki, qilmay nifoq;
Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,
Xo‘ja – chirog‘yog‘i, Hakimjon – pilik³³.

³² Qarang: Aristotel. O’sha asar.- 14-bet.

³³ Muqimiyl. Asarlar to’plami. Tom II. – T. 1960. – 5-bet.

Grotesk va mubolag‘a satira yo‘nalishlari bo‘lib, ular kundalik hayotda uchraydigan turli xil sabiy voqea, hodisalarни tanqid fosh etishda keng qo‘llaniladi.

Grotesk (fran. *Grotesque* – g‘aroyib) – g‘aroyibot hajv, kulgilikni ifodalovchi san’atning o‘ziga xos janridir. Unda mubolag‘a usuli qo‘llanib, kishida ko‘z yoshi aralash ko‘ngilsiz kulgi uyg‘otadi.

Grotesk har bir narsadan nuqson izlovchi, g‘alamis, xira kimsalar ustidan kulish va ularning quyushqonga sig‘maydigan qilmish – kirdikorlarini rad etishga qo‘llaniladi.

Bunga misol qilib O‘zbekiston qahramoni, yozuvchi Said Ahmadning “Meni kechiring” intermediyasini keltirish mumkin. Unda o‘ta xira, g‘alamis xodim (Hasan)ning majlisda o‘z boshlig‘i (Ergash) ga nisbatan tanqidiy so‘z aytib yuborgani va buning uchun kechirim so‘rab qabuliga kirganligi hikoya qilinadi.

Boshliq (Ergash) harchand uni kechirdim deya tavallo qilsa –da, lekin Hasan unga ishonmaydi va oxiri uni o‘zining xiraligi bilan behush qilib yiqitadi. Mana shu epizod:

“Ergash (toqati toq bo‘lib). Kechirdim. Ming marta kechirdim birodar.

Hasan. Shunaqa deyapsiz- u gapingiz astoydilga o‘xshamayapti.

Ergash . hoy Baraka topkur, bundan boshqa qanaqa qilib kechiray?

Hasan. Ovozingiz sal titrabroq chiqayapti-da. Astoydilga o‘xshamayapti. Undan tashqari basharangiz ham unchalik mayin bo‘lmayapti.

Ergash. Kechirdim, kechirdim, kechirdim...

Hasan. Baribir kechirganingiz bilinmayapti.

Ergash. (holdan toyib). Kechirdim !!!

Yo‘qol! (O‘zidan ketib yiqildi).

Hasan. (tepasiga kelib). Kechirishi o‘xshamasayam yiqilishi o‘xshaydi. Hozir do‘xtir chaqiraman. Tirik qolsa kechirmaguncha qo‘ymayman. Mabodo o‘lgani rost bo‘lsa, alvido”³⁴.

³⁴ Said Ahmad. Nasr bo’stoni. Hikoyalar va intermediyalar. – T.: Yozuvchi, 1991. -31-bet.

Kulgililikning estetik hodisa sifatida namoyon bo‘lish shakllaridan biri humor (hazil)dir

Yumor (*ingliz. humour – kayfiyat*) kulgililikning shunday turiki, unda idrok etilayotgan obyektni estetik baholashda jiddiylik va hazil birga qo‘shilgan bo‘ladi. U insonning kulgilikni yuksak estetik ideallar darajasida his etish va ma’nan anglash shaklidir. Shunga ko‘ra shaxsning rivojlangan humor his – tuyg‘usi, uni fahmlash qobiliyati uning ma’naviy barkamolligining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, kishilarimizda kulgi madaniyatini shakllantirish ma’naviy – estetik tarbiyaning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Lekin mazkur masalaga bugungi kunda estetik tarbiya nazariyasi va amaliyotida yetarlicha ahamiyat berilmasdan kelmoqda. Bir paytlar akademik shoir G‘afur G‘ulomning kuyinib aytgan quyidagi tanqidiy so‘zлари hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas: “Kulgi adabiyoti to‘g‘risida hanuz maydonda na mulhaza, na tanqid, na muhokama, hatto kulgi yo‘li bilan kitob yo majmua shaklida yozilgan birorta asarga ega emasmiz. Bizdagi kulgichlik yarim unutilgan holda o‘smoqda. Kulgi adabiyoti to‘g‘risida hech kim, hech qachon birorta yangilik bilan maydonga ko‘tarilmadi”³⁵.

Shunday qilib, san’at asarlari fojiaviylik kulgililikning estetik mohiyatini anglashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Umumiy xulosalar”:

- 1) estetikaning mezoniyligi tushunchalari falsafiy mazmunga ega bo‘lib, ular kishining tabiat, jamiyat hodisalariga va o‘ziga nisbatan bo‘lgan bahoviy munosabatini ifodalaydi.
- 2) estetik bilish estetikaning umumiy mezoniyligi tushunchalari tizimi orqali amalga oshiriladi.
- 3) estetik ong va faoliyatning mohiyati mazkur tushunchalar mazmuni orqali anglashiladi.

³⁵ Gafur Gulom. Adabiy – tanqidiy maqolalar. – T.: Fan, 1971. – 299-bet.

4) estetik mezoniy tushunchalar san'at asarlarini yaratish va ularni idrok etish, ma'naviy qadriyatlar sifatida baholay bilishning tamoyillari bo'lib xizmat qiladi.

Mavzu mashg'ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Debat” usulini o'tkazish bosqichlari:

O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirishdan avval talabalarga quyidagi muammoli vaziyatni og'zaki bayon etadi.

Muammoli vaziyat: Falsafiy-estetik fikr tarixida go'zallik va xunuklik tushunchalarining talqini qanday bo'lgan.

- Talabalardan mazkur muammoli vaziyatni kelib chiqishiga sabab bo'lgan holda so'raladi va u tahlil qilinadi, ya'ni muammoli vaziyat, o'quv muammosi, o'quv muammosini yechish uchun izlanish, yechim tartibida

- Fikrlar umumlashtirilib, yangi mavzuni bayonini boshlaydi. Talaba muammoli vaziyatni tahlil qilib, o'z munosabatini bildiradi: - Fikrlarini misol va sabablar orqali tushuntiradi.

Kutiladigan natija: Talabalar muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali muammoli o'qitish, uni tashkil etish bosqichlarini o'rganadilar.

Maruza mashg'ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Insert” interfaol usulidan foydalaniadi.

INSERT JADVALI

A	M	-	?

“Insert” metodini o‘tkazish bosqichlarini quyidagicha olib boriladi:

Ularga mavzuni qisqacha bayoni tushirilgan tarqatma materiallarni beradi:

Topshiriqlar:

1. Arastu go‘zallikni qanday ifodalaganini yozing ?
2. Kulgulilik va Fojeaviykik haqida bilganlarni doskada yozish.
3. San’atda go‘zallik qanday namoyon bo‘ladi?
4. Komediya, satira, humor ko‘rinishdagi asarlarga misol keltiring.
5. Hozirgi zamon tabiat estetikasi haqida qanday tushunchaga egasiz?

TESTLAR:

1. Estetika atamasini birinchi marta kim ilmiy termin sifatida kiritgan.
 - A) Baumgarten
 - B) Aflotun
 - C) Arastu
 - D) Lessing
2. Go‘zallik nima ?
 - A) Go‘zallik estetikaning shunday umumiy tushunchasi hisoblanadiki, u har qanday hodisani uning komilligi va oliy darajadagi estetik qiymatini ifodalaydi
 - B) San’atshunoslik eng muhim va asosiy tushuncha va atamalaridan hisoblanadi
 - C) Go‘zallik-bu tabiat va jamiyat hamda insondagi chiroyli tasvir ifodalaydigan tushunchadir
 - D) Go‘zallik shunday tushunchadirki, u buyum va hodisalarning nafosatini ifodalaydi
3. Fojiaviylik hayotda qanday hodisalarni ifodalaydi?
 - A) og‘ir, baxtsiz, ko‘p hollarda o‘lim bilan tugaydigan hodisalar
 - B) kulgili, hajviy, satirik hodisalarni
 - C) jiddiy, vazmin, osuda hayot tarzini
 - D) ma’naviy, jismoniy, siyosiy holatlarni
4. Estetikaning asosiy kategoriyalari to‘g`ri berilgan qatorni toping?

- A) go‘zallik, ulug`vorlik, fojiaviylik, kulgililik, qiziqarlilik, mo‘jizaviylik
 B) go‘zallik, tubanlik, xunuklik, san`at
 C) zerikarlilik, xayoliylik, go‘zallik, kulgililik
 D) go‘zallik va xunuklik, ulug`vorlik va tubanlik, mo‘jizaviylik va xayoliylik
5. Qaysi turlar sa’natning makon turlariga kiradi?
- A) me’morchilik va badiy suratkashlik
 B) teatr va kino
 C) estrada va sirk
 D) xoreografiya, sirk

Nazorat savollari:

1. Estetika so‘zining ma’nosi va tarixi.
2. Arastu go‘zallikni qanday ifodalaydi?
3. Go‘zallik qonunlarini aytинг.
4. Ulug‘vorlik tushunchasini qayerlarda ko‘ramiz?
5. Go‘zallik kategoriyasi to‘g‘risida so‘zlang.
6. Xunuklikning estetik talqini.
7. Hazil tuyg‘usini izohlang.
8. San’atda go‘zallik qanday namoyon bo‘ladi?
9. Fojeaviylik va kulgulilik kategoriyalarning farqi nimada?
10. Satira san’ati to‘g‘risida so‘zlang.
11. Komediya, satira, humor ko‘rinishdagi asarlarga misol keltiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdulla Sher, Husanov B. Estetika. Uslubiy qo‘llanma. – T.;O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Буров А.И. Эстетика: проблемы и споры. М.;искусство,1975
3. Бычков В.В.Эстетика. Краткий курс.- М.; Академический проект,2009
4. Ahmad Muhammad Tursun. Ulug‘lar shunday yashagan” “Hilol

nashriyot matbaa” 2022.

5. Мартынов В.Ф .Философия красоты. – Минск:Тетра Системс,1999.
6. Овсянникова М.Ф. История эстетической мысли. – М.;Высшая школа,1984
7. Olloyorov M. Uyg‘unlik borliqni estetik o‘zlashtirish qonuni sifatida. Risola. – Samarqand, 2011.
8. Xaitov L.A. Kulgililik(Hajviylik) janrlari va turlari masalasi.
9. Umarov E. Estetika. – T.; O‘zbekiston,1995.
10. Shermatov E. Olam sir – sinoatlari va ekologik ta’lim.// “Zarafshon”gazetasi, 2011, sentabr,6,8,13,15-sonlari,4- sahifa.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent; O‘zbekiston, 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent; “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonlik garovi. -Toshkent: O‘zbekiston 2017 -53bet.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2021.
5. O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni / Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.
6. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T .;Ma’naviyat,2008.
7. Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar. – T.:Sharq. 2009. -385- bet.
8. Maxmudova T. Mustaqillik va ma’naviyat. – T.: 2001. – 18-bet.

9-MAVZU. GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT

Reja:

1. Globallashuv tushunchasi va uning mohiyati
2. Global muammolarning tasnifi
3. Jamiyat – axborotlashuvining ijtimoiy- falsafiy jihatlari.

Bugun biz tez o‘zgaruvchan, o‘ta shiddatkor va murakkab bir zamonda yashayapmiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar v jamiatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimir uni yuksak texnologiyalar asri desa, kimir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Asrimiz boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to‘la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo‘q, deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a’zo bo‘lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas.

Globallashuv jarayonining kelib chiqishi va uning O‘zbekiston taraqqiyotiga ta’siri to‘g‘risida gapurishdan oldin “globallashuv” terminiga izoh bersak. Bitiruvmalakaviy ishimiz mavzusida “globalizm” va “globalizatsiya” tushunchalari ishlataligan. Bu tushunchalarning farqi nimada? “**Globalizatsiya**” — “gloub” (inglizchadan “global”, ya’ni yer shari), “global” (“global”, ya’ni butun dunyoga tegishli) va “globallashuv” (“globalize”, ya’ni butun dunyoga tarqalishi) so‘zlaridan kelib chiqqan.

Collins English lug‘atida (1998) globallashuv moliyaviy va sarmoya kirituvchi bozorlarga davlatlar va millatlarning o‘zaro bog‘lanmaganliklaridan foydalangan holda rivojlangan va tartibga solingan aloqalar orqali boshqarish imkoniyatini beradi, deb ta’kidlanadi.

Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g‘ayriixtiyoriy ta’sir esa

ko‘pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va siyosatlari qanday ekani bilan bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobjiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish lozim. Bu hodisani chuqur o‘rganmay turib unga moslashish, kerak bo‘lganda, uning yo‘nalishini tegishli tarzda o‘zgartirish mumkin emas.

Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o‘rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodiyoti va madaniyati, ma’naviyatini tog‘dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz qayiqni topshirib qo‘yish bilan bab baravar bo‘ladi.

“**Globallashuv**” atamasining mazmun-mohiyati nimada, degan savol tug‘ilish tabiiydir. Bu borada ko‘plab siyosatshunos olimlar va arboblar o‘z fikr va mulohazalarini bildirib o‘tishgan. “Globallashuv” iborasi 1983 yilda amerikalik siyosatshunos olim *T.Levitta* tomonidan iste’molga kiritilgan. Yangi atamaga yanada keng ma’no Garvard biznes-maktabida berildi. Bu atamaning asosiy targ‘ibotchisi yapon olimi K.Ome bo‘lib, u 1991 yilda “Chegarasiz dunyo” asarini chop ettingan. Bu asarda globallashuv tushunchasining mazmun-mohiyatini ohib berishga harakat qilgan. Globallashuvga BMTning “Inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi ma’ruza” hisobotida quyidagicha ta’rif berilgan: “Globallashuv – jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchi va fikr-kashfiyotlar oqimining kengayishi, shuningdek, mamlakatlarning jahon miqyosidagi iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan birgalikdagi harakatlari tufayli davom etayotgan integratsiyasi” – deyilgan.

Globallashuv – turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va bog‘liqlikning kuchayishidir. Globallashuvga berilgan ta’riflar juda ko‘p. Lekin, uning xususiyatlarini to‘laroq qamrab olgani, bizningcha, fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergen ta’rif. Unda globallashuv jarayonining uch o‘lchovli ekaniga urg‘u beriladi:

1. *Globallashuv* – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
2. *Globallashuv* – jahoning gomogenlashuvi (1 jinsli) va universallashuvi jarayoni;
3. *Globallashuv* – milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni.

B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o‘lchovlarining har uchallasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko‘rishimiz mumkin. Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan ijobiylar salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi **Mahatma Gandining** quyidagi so‘zlarida yaxshi ifodalangan: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman” Hozirgi paytda globallashuvning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko‘rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital tovarlar zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli madaniyat, qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg‘unlashuvi sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi va bular borasidagi imkoniyatlarning ortishi – tabiiyki, bularning barchasi globallashuvning natijasidir. Globallashuv dunyo hamjamiyati hayotini, jahon siyosati va xalqaro munosabatlarni belgilab beruvchi yetakchi omilga aylanmoqda va alohida olingan davlat va hududlar ichki siyosatidan tarkib topgan umumdunyoviy sharoit bilan muvofiqlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro munosabatlarning globallashuvi muammosi asta-sekin eng yuksak darajalarda o‘tadigan ko‘plab ikki tomonlama va ko‘p tomonlama uchrashuvlarda eng asosiy muammo sifatida baholana boshlandi. Shu jihatdan qaraganda, “katta sakkizlik” mamlakatlari rahbarlarining 1999 yil yozda Germaniyaning Kyoln shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvi Yakuniy kommyunikesining ikkinchi bandi

diqqatni jalb etadi. Mazkur hujjatda globallashuv jarayonining quyidagi xususiyatlari qayd etilgan: - globallashuv g‘oyalar, kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo‘ylab oqishining jadallahib va keng miqyosga ega bo‘lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholanishi; - globallashuv ayrim jamiyatlardagi turli xalqlarni nihoyatda yaqinlashtiradigan ommaviy madaniyat tufayli yuzaga kelgan tub o‘zgarishlar bilan bog‘liq; - globallashuv borgan sari kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasi yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit deb qaralishi; - globallashuv ishlab chiqarish samaradorligini rag‘batlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish hamda iqtisodiyotni o‘stirish evaziga qo‘shimcha ish joylarini yaratadigan integratsion jarayonlarning yangi shakli sifatida qaralishi; - globallashuv axborot sohasidagi inqilob bilan chambarchas bog‘liqligi; - globallashuv turli madaniyatlar va qadriyatlar tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning kuchayib borishiga zamin hozirlab, dunyo miqyosida demokratik jamiyat qurish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarining kafolatini shakllantirish tamoyilida o‘z ifodasini topishi; - globallashuv ayrim odamlar, oilalar va elatlar uchun yashash joyini o‘zgartirish va moliyaviy munosabatlar bilan bog‘liq xavf-xatarning ortishida namoyon bo‘ladigan muayyan tahdidlarga ega bo‘lishdan iborat. Globallashuv jarayonining mohiyati, uning shakllari ko‘rinishlari va oqibatlari allaqachon yer shari kurrasida umumiy, ya’ni G‘arb va Sharq, Shimol va Janubning barcha qadriyat va an'analarini ifoda etib ulgurdi. Shu bois globallashuv jarayonlari hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda butun dunyoda yaratilayotgan modellar, strategiyalar, dasturlar va loyihalarning o‘zaro boyishi va to‘ldirilishi uchun keng imkoniyatlarni yaratdi. Ular esa o‘z navbatida butun jahon hamjamiyatining manfaatlariga xizmat qila boshladi. Globallashuv jarayonlari oqibatida namoyon bo‘layotgan hodisa va harakatlarning natijasi, imkoniyatlari va oqibatlari axborot maydonida namoyon bo‘lib, ularning rivojlanishida o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Yuqorida ta’kidlanganidek, globallashuv jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Bu ta’sir jahon taraqqiyoti, inson ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojida ijobjiy natijalar berish bilan birga salbiy oqibatlarni ham keltirib

chiqarmoqda. Globallashuv jarayonining ijobiy jihatlariga quyidagilarni keltirish mumkin: - davlatlar o‘rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayganligi, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlarning ortishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizida uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi; - global kommunikatsiya tarmog‘ining vujudga kelganligi, axborotlar almashinuvining tezlashuvi inson manfaatlari uchun ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ihtiyoj va tadqiqotlarni yuqori sur'atlar bilan o‘sishiga olib keldi, yoki bu ham jamiatning global axborotlashuvi ilmiy-texnik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining o‘zagini tashkil etmoqda; - iqtisodiy globallashuv, turli davlatlarda, qo‘sishimcha ish o‘rinlarining yaratilishi, transmilliy korporatsiyalar hududlarga tez kirib kelishi bilan xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi hamda bugungi kunda mahalliy biznesga jiddiy qo‘sishimcha bo‘lib, minglab odamlarni ish bilan ta’minalash va shu orqali ijtimoiy muammolar hal etiladi ; - tamadduniy taraqqiyot imkoniyatlarini kengaytiradigan jihatlari qatorida insoniyat hayot faoliyatining o‘ta muhim tarmoqlarida xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi turli xalqaro tizimlarning paydo bo‘lishi, tamadduniy muammolarni hal etish, mamlakatlarning umumjahon tartibot asosida yagona xamjamiatiga integratsiyalashuv imkonini beradi. (BMT, YUNESKO, MAGATE, Interpol, ShHT, Jahon banki kabi tashkilotlar faoliyatları). Barcha masalalarning ijobiy jihatlari bilan birga salbiy tomonlari ham bo‘lgani kabi globallashuvning salbiy jihatlari quyidagilarda ifodalanadi : - globallashuv sharoitidagi axborot almashinuvining tezlashishi va erkinlashishi (Internet, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish natijasida) yoshlarni shakllantiruvchi jamiatning madaniy-ma’naviy sohalariga ta’sir o‘tkazib, ulardagi muayyan o‘zgarishlarga olib keladi, ularning ma’naviy-axloqiy, psixologik qiyofasiga jiddiy ta’sir o‘tkazib yoshlarning vatanga, ota-onaga bo‘lgan muhabbat oila muqaddasligi hamda kattalarga bo‘lgan hurmat xis-tuyg‘ularning yo‘qolishiga olib kelishi; umumtamadduniy globallashuv jamiatning madaniy-ma’naviy sohalarga ta’sir o‘tkazib, ulardan muayyan o‘zgarishlarga olib keladi, milliy an'anaviy va qadriyatlarning yo‘qolib ketishiga milliy

madaniyatlarning kam sonli xalqlarning o‘z tilini unutishi, hattoki yo‘qolib ketishi holatlarini yuzaga keltirishi ; - globallashuv jarayoni va ularning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “ommaviy madaniyat” ta’sirida sodir bo‘ladigan qadriyatlar tizimidagi tub o‘zgarishlar “ijtimoiy mavjudot” bo‘lgan insondagi o‘zgarishlarga “ommaviy ma’daniyat” kishiga insoniylik, shaxs martabasini beradigan milliy ma’daniyat va ma’naviyatidan, tarixiy xotirasidan maxrum etishiga olib kelishi; - globallashuv jarayonlarining muayyan xususiyatlari ta’sirida sodir bulayotgan ijtimoiy va individual ongdagi destruktiv o‘zgarishlarning qayd etilishi, bu holat individualistik kayfiyatning avj olishi, insonparvarlik tamoyillarining yemirilishi, hayotiy maqsad va tasavurlarning buzilishida namoyon bo‘lmoqda ; - yetakchilikka da‘vogar mafkuralarning rivoji, xalqaro tashkilotlar sonining tez sur’atlар bilan o‘sishi, manfaatlar yo‘lida jahon bozorini egallah, xom ashyo va energiya zahiralaridan foydalanish uchun butun dunyoda demokratik boshqaruv tamoyillari niqobi ostida uni joriy etish, inson huquqlarini himoya qilish yoki terrorizmga qarshi kurash niqobi ostidagi xom-ashyo zahiralariga boy hududlarga ta’sir o‘tkazish, buning oqibatida iqtisodiy o‘sishni ko‘zlab daromad orqasidan quvish, natijadagi tabiatga texnogin ta’sirining ortishiga olib kelmoqda.

Global muammolarning tasnifi

Falsafa nafaqat insonning azaliy muammolari va g‘am-tashvishlarini, balki uning so‘nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida tobora jadalroq sur’atlarda, shu jumladan dunyo miqqosida o‘zgarayotgan real hayoti kundalik amaliyotini ham aks ettiradi. Shu munosabat bilan yuzaga kelayotgan yangi hodisalar, g‘ayrioddiy qiyinchiliklar va alohida sharoitlar olimlarning ham, faylasuflarning ham e’tiborini tortmoqda.

Bunda falsafaning fandan ustunligi shundaki – u o‘z xulosalarida tafsilotlar va muayyan dalillarga mahkam yopishib olmaydi, ayrim, uzuq-yuluq va o‘tkinchi narsalarni osongina chetlab o‘tadiki, bu unga asosiy e’tiborni ishning mohiyatiga qaratish, rivojlanishning eng muhim omillari va asosiy jarayonlarini qayd etish imkonini beradi. Falsafaning mazkur fazilatlari insonning ijtimoiy munosabatlar

tizimida yoki “jamiyat-tabiat” tizimida yuzaga kelayotgan murakkab, kompleks vazifalarni hal qilishga majbur bo‘layotgan hozirgi sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan falsafiy tahlilning, muhim narsalarni ikkinchi darajali narsalardan, qonuniy narsalarni tasodifiy narsalardan farqlash, tarixiy rivojlanishda obyektiv jarayonlarning subyektiv omillardan farqi kabi usullari va metodlari hozirgi vaqtda insoniyat duch kelgan olamshumul muammolarni nazariy anglab yetish va amalda bartaraf etish uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko‘rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo‘lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi vaqtda dunyo so‘nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o‘zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o‘laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiyligi (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Juhon hamjamiyati o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo‘ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o‘zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo‘ldi.

Bu o‘zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. globus – yer kurramasi) deb nomlandi. Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo‘lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo‘jaligi, umumiyligi ekologik o‘zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar gelotsentrik yondashuvlarga o‘rin bo‘shatdi, insoniyat esa, nihoyat,

kun va tunning almashishini to‘g‘ri talqin qilishga muvaffaq bo‘ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to‘planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo‘ldi. So‘nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o‘zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o‘zgartirdi.

Global muammolarni yechishda falsafaning roli shundan iboratki, og‘ir va murakkab vazifalarni yechishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo‘lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo‘lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o‘ziyoq odamlarni fanga o‘z e’tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni yechish yo‘llarini izlashga majbur qildi. “Hozirgi davrning global muammolari” tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o‘rin oldi. Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo‘llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular “global” deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Muammolarning turli darajalari quyidagilar kiradi:

Xususiy, maxalliy, milliy, mintaqaviy, global muammolar.

Xususiy muammolar - davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy obyektlarga tegishli bo‘lgan muammolardir. Bular, odatda, turli avariylar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriqoq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo‘lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu yerda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagи fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Mintaqaviy muammolar ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fofiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Sassel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik "asr falokati" degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.

Global muammolar to'g'risida so'z yuritilgan holda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi.

Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun yuqorida zikr etilgan "geografik" mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomonidan – ularning sifati, va muhim xususiyatlar nuqtai nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi

Global muammolarning tasnifi. Global muammolarning keltirilgan mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari asosan mazkur sohadagi aksariyat tadqiqotchilarining qarashlarini aks ettiradi va global muammolarni boshqa barcha muammolardan farqlab, aniq aytish imkonini beradi. Bunda u yoki bu muammoning keskinlik va muhimlik darajasini belgilash, uning boshqa muammolar bilan o'zaro nisbatini aniqlash uchun odatda turli tasniflashlar amalga oshiriladi, ular alohida guruhlarga ajratiladi. Tasniflash birdan-bir maqsad hisoblanmaydi, balki hozirgi davrning o'ta

keskin ziddiyatlarini kompleks o‘rganishning muhim elementi sifatida amal qiladi va mazkur muammolarni ularning o‘zaro aloqasi va bir-birini taqozo etishi nuqtai nazaridan o‘rganish imkonini beradi. U muhim aloqalarni farqlash, ustuvorliklarni va obyektiv mavjud global muammolarning keskinlashuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, tasniflash global muammolarning tizimli o‘zaro aloqasini yanada teranroq tushunishga ko‘maklashadi va amaliy qarorlar qabul qilish ketma-ketligini belgilashga yordam beradi.

Demografik tizim - hozirgi vaqtda insoniyatning eng muhim muammolari orasida, aksariyat davlatlar va mintaqalarda aholi haddan tashqari ko‘payishiga sabab bo‘layotgan aholining nazoratsiz o‘sishi qayd etiladi. XX asrda yer kurrasi aholisining “demografik portlash” deb nomlangan mislsiz darajada o‘sishi biologik qonunlarning emas, balki stixiyali, notekis ijtimoiy rivojlanish va insoniyat katta mashaqqatlar bilan bartaraf etishga harakat qilayotgan chuqur ijtimoiy ziddiyatlar mahsuli bo‘ldi. Demografik muammolar juda murakkab va o‘ta turg‘un bo‘lib, ularni tez bartaraf etish mumkin emas. Ayni vaqtda ularni yechish kechga surilgani sari, ular yanada murakkabroq va chigalroq tus oladi. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlarda barcha hukumatlar tug‘ilish darajasini pasaytirishga qaratilgan demografik siyosatni amalgalashishga harakat qilmoqda.

Sog‘liqni saqlash muammosi - aholi soni va uning yashash sharoiti, shuningdek atrof muhit holati hozirgi davrning yana bir global muammosi bilan uzviy bog‘liq. Aksariyat kasalliklar va atrof muhitdagi antropogen o‘zgarishlar o‘rtasida bevosita va bilvosita aloqa mavjud. Hozirgi odamlar avlodiga atrof muhit ifloslanishining hali o‘rganilmagan yoki kam o‘rganilgan ko‘p sonli fizik (avvalo elektromagnit), kimyoviy va biologik omillari ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi kasalliklarining tarkibi va xususiyatida yuz bergen o‘zgarishlar ayni shu hol bilan izohlanadi. Ommaviy kasalliklar (Covid -19) va umrning sezilarli darajada qisqarishi sabablaridan biri oziq-ovqat muammosidir. Xususan, surunkali to‘yib ovqat yemaslik va nomutanosib ovqatlanish kam rivojlangan mamlakatlar aholisida ommaviy tarzda namoyon bo‘layotgan muttasil oqsil ochligi va vitamin taqchilligiga olib kelmoqda. Natijada jahonda har yili

ochlikdan bir necha o‘n millionlab odamlar, kattalardan ko‘ra ko‘proq bolalar halok bo‘lmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning notekisligi - rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish va yangi xalqaro iqtisodiy tartib o‘rnatish hozirgi davrning global muammolari orasida alohida o‘rin egallaydi, chunki bu yerda vujudga kelgan xalqaro munosabatlar tizimi beqarorlashuvining kuchli omillari yashirinib yotadi.

Ta’lim muammosi - ta’limning ijtimoiylashuvi o‘quv jarayoni gumanitar fanlarning o‘quv soatlari yoki fanlar sonini ko‘paytirish emas balki, tabiiy ilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har qanday ilmiy kashfiyotni inson manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirish lozim. Shundagina inson o‘z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Urush va tinchlik muammosi - harbiy soha jamiyat hayotining eng isrofgar sohasi hisoblanadi. Ayni shu sababli jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va yerda mustahkam tinchlikni ta’minalash butun dunyoda mavjud barcha global muammolar orasida eng muhimi deb e’tirof etiladi. Uning keskinligi barcha zamonlarda hech qachon pasaymagan bo‘lsa-da, XX asrda u nafaqat ayrim kishilar, xalqlar, balki butun insoniyat oldiga “o‘lish yo qolish?” degan mudhish savolni qo‘yib, alohida, fojeaviy mazmun va ahamiyat kasb etdi

Energetika va xom ashyo resurslari - insoniyatni energetika va xom ashyo resurslari bilan ta’minalash xalqaro maydonda ko‘p sonli ziddiyatlar, shu jumladan harbiy mojarolar manbaiga aylandi. Bu resurslar moddiy ishlab chiqarishning negizi hisoblanadi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga qarab inson hayotida tobora muhimroq rol o‘ynaydi. Mazkur resurslar tiklanadigan, ya’ni tabiiy yoki sun’iy yo‘l bilan tiklash mumkin bo‘lgan resurslarga (gidroenergiya, yog‘och, quyosh energiyasi va sh.k.) va miqdori mavjud tabiiy zahiralar bilan chegaralangan tiklanmaydigan resurslarga (neft, ko‘mir, tabiiy gaz, har xil rudalar va minerallar) bo‘linadi.

Globallashuv jarayonlarini nazariy jihatdan anglab yetish va global muammolarni bartaraf etish nafaqat o‘ta og‘ir va uzoq davom etadigan, balki kutilgan natijalarga qanday erishish mumkinligi xususida hali aniq javoblar va uzil-

kesil yechimlarga ega bo‘lmagan ishdir. Ayni vaqtda aksariyat tadqiqotchilar global tangliklarni bartaraf etish imkoniyatini ommaviy ongda yangicha axloqning shakllanishi va mustahkamlanishi, madaniyatning rivojlanishi va uning insonparvarlashuvi bilan bog‘lamoqdalar. Buning uchun jiddiy asoslar bor, zero odamlarning fe'l- atvori, xatti-harakatlari, pirovard natijada esa ular erishishga harakat qiladigan natija asosan ularning hayotga munosabati va fikrlash tarzi bilan belgilanadi.

Xalqaro kuchlarning lozim darajada birlashuvi, ularning muvofiqlashtirilgan, izchil va eng muhimi, samarali harakatlari ham hali mavjud emas. Nega shunday bo‘lyapti va bunga nima xalaqit beryapti? Hozirgi rang-barang va ziddiyatlarga to‘la dunyoda kelishilgan harakatlarni amalga oshirish mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, bunga qanday asosda erishish mumkin? Bular bugungi kunda ijtimoiy tafakkur, shu jumladan falsafa yechishga harakat qilayotgan bosh masalalardir.

Global muammolarni hal qilishda xususiy va umumiy manfaatlar. Har bir xalq, har bir mamlakat xalqaro munosabatlarning u yoki bu tartibida, davlatlararo savdo oqimlarining yo‘nalishi va kapitallarning taqsimlanishida o‘z muayyan manfaatiga ega bo‘ladi. Ular tabiiy resurslardan foydalanish, atrof muhitni saqlash va shu kabi masalalarda doim o‘z manfaatlarini himoya qiladiki, bu ularning siyosatida umumiy masalalarda ham, xususiy masalalarda ham bevosita aks etadi va boshqa mamlakatlar siyosatiga o‘xshamasligiga sabab bo‘ladi. Ba’zan ichki manfaatlar umumiy manfaatlardan ustunlik qiladi. Bunday hollarda mazkur siyosat boshqa davlatlarning manfaatlariga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, ekologiya nuqtai nazaridan bu qo‘shni hududlarda yashovchi xalqlarning qaramaqarshi manfaatlari to‘qnashgan hollarda ko‘p kuzatiladi. Ammo hozir, jamiyat hayotining internatsionallashuvi va iqtisodiy aloqalar ning o‘sib borayotgan integratsiyalashuvi sharoitida, sayyoramizning turli burchaklarida jahon hamjamiyatining yadro urushi, ekologik tanglik, demografik keskinlik va resurslar taqchilligini bartaraf etishdan iborat obyektiv manfaatlarini o‘zlarining umumiy manfaati deb biluvchi odamlar soni tobora ko‘payib bormoqda. Ma’rifatli siyosiy va jamoat arboblari yanada aniqroq anglab yetayotgan kelishilgan harakatlarga bo‘lgan

bu obyektiv ehtiyoj hozirning o‘zidayoq ayrim davlatlar xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatmoqda va hatto ularning ichki va tashqi siyosatini ma'lum darajada belgilamoqda.

Insoniyat o‘zini o‘zi tashkil etuvchi jonli tizim sifatida o‘z mavjudligi uchun kurash olib bormoqda, yaxshiroq kelajakka erishishga harakat qilmoqda. Bunda hozirgi globallashuv jarayonlari va ular yuzaga keltirayotgan turli muammolar insoniyat oldida tarqoqlik va ixtiloflarni yengib, o‘z birligi sari harakat qilish, ayni vaqtda madaniyatlar, asriy an'analarning o‘ziga xosligini, ayrim millatlar va xalqlarning xususiyatlarini saqlashdan boshqa chora qoldirayotgani yo‘q. Bunday birlashuvga esa, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, faqat umuminsoniy qadriyatlarni e'tirof etish va ularga rioya qilish orqali erishish mumkin.

Jamiyat – axborotlashuvining ijtimoiy- falsafiy jihatlari.

Jamiyat tushunchasining mohiyatini turli falsafiy maktab va yo‘nalishlar shuningdek, alohida mutafakkirlar ham turli yo‘llar bilan tushuntirishga harakat qilganlar. Shu jumlada jamiyat to’g‘risidagi yuqorida ko‘rsatilgan avvalgi ikkita tushunchani o‘z ichiga olgan “sotsium” tushunchasi paydo bo‘ldi. Etimologik nuqtai nazardan bu tushuncha turlicha hodisalarning birligini ifodalaydi:

1. Moddiy dunyoning bir qismi bo‘lib, odamlarning birligini va shakllarining tarixan rivojlanayotgan barcha usullari majmuidir.
2. Odamlarning tarixiy jihatdan o‘zaro ta’sir usuli va birligi shaklining har biri.
3. Yashash vaqt va yashash joyi bir bo‘lgan odamlarning (mintaqa, mamlakat va b.) majmui.
4. Odamlarning ma'lum maqsad yo‘lida birlashishi.
5. O‘z vaqtini birgalikda o‘tkazuvchi odamlar guruhi va boshqalar.

Nemis faylasufi Maks Veber (1864- 1920) fikricha, jamiyat insonlarning o‘zaro ta’siridan, ya’ni ijtimoiy hatti-harakatlardan tashkil topgan tizim bo‘lib, boshqa odamlarning hatti-harakatiga qarshi javob tariqasida yo‘naltirilgandir. M.Veber jamiyat rivojining asosini ijtimoiy faoliyatda, deb hisoblaydi.

“Jamiyat” tushunchasini bir ma'noda ta'rif qilinganda bir qancha nazariy, metodologik va etimologik murakkabliklarga duch kelinadi.

Birinchidan, bu tushuncha hajmi va mazmuni jihatdan juda keng. Ikkinchidan, bu tushuncha mavhum, ya'ni falsafiy kategoriyadir. Uchinchidan, bu tushuncha dinamik, ya'ni rivojlanuvchandir. To'rtinchidan, jamiyat faqat falsafa fanining predmeti bo'lmashdan, hamma ijtimoiy fanlar majmuining predmetidir. Beshinchidan, “jamiyat” atamasi turli ma'nolarda ishlatalishi mumkin.

“Jamiyat” tushunchasi yuqorida ko'rsatib o'tilgan ma'nolardan tashqari yana:

- a) biologik tizimlarning eng rivojlangan bosqichi;
- b) konkret aniq sotsium;
- v) ijtimoiy aloqalar va o'zaro ta'sirlar shakli va b.

Jamiyat to'g'risida gap ketganda, u keng, falsafiy nuqtai nazardan tushuniladi. Eng keng ma'noda, jamiyat – bu odamlar birlashuvining hamma shakllari va ularning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'sirlarining hamma usullari majmuidir. Jamiyat har qanday murakkab bir butun hodisa va tizim sifatida o'z tuzilishi, strukturasiga ega. Bu struktura qanday degan savolga faylasuflarning bir emas bir qancha avlodlari javob topishga harakat qilishgan.

So'nggi yillarda “axborot”, “invariantlik”, “nomuayyanlik” kabi umumilmiy tushunchalar falsafiy tahlil predmetiga aylandi. Bilimning u yoki bu tarmoqlarida yuzaga kelgan va ilmiy bilishning mantiqiy-metodologik vositalari darajasiga ko'tarilgan bu tushunchalar nafaqat obyektlar va jarayonlarni ko'rishning umumiy usullari, balki rivojlanayotgan bilimni tahlil qilish shakllari hamdir. Ilmiy ijodning rivojlanishi uning informativlik darajasi oshishi bilan bog'liq. Bu pirovard natijada hodisalarning mohiyatini anglashning teranligi, insonga ham, insoniyatga ham bog'liq bo'lmanan obyektiv haqiqatga to'liq erishilishi bilan o'chanadi. Biroq bilish faoliyatini (bilim olish jarayoni sifatida) yaxlit holda juda serqirradir. U ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, ularga erishish vositalari, bilishning shartsharoitlari, subyektning informatsion “xulq-atvor” usullari, obyekt va faoliyat natijasini o'z ichiga oladi. Bilish faoliyatini amalga oshirish natijasida bilim o'sishining tahlili

uning informativligi muammosi bo‘rtib ko‘rinishiga olib keladi. Ilmiy faoliyatga nisbatan mantiqiy-gnoseologik, sotsiologik va psixologik yondashuvlarning birligini ifodalovchi bu muammo hozirgi zamon fanining metodologik tadqiqotlarida hali yetarli darajada o‘rganilmagan. Axborot o‘z subyekti va obyekti (manbai) o‘rtasidagi o‘zaro aloqa jarayonining mahsuli (natijasi) sifatida vujudga keladi. Aks ettirishning uzatilgan, invariant qismi sifatidagi axborot kontseptsiyasi tanlash jarayonini amalga oshirishga qodir o‘zini o‘zi boshqaruvchi tizimlar faoliyatini tavsiflashi mumkin. Axborot murakkab tarkibli tizimlarda aks ettirilgan rang-baranglikning boshqaruvga xizmat ko‘rsatuvchi muhim qismi, kommunikatsiya vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. U bir qancha xossalarni o‘zida mujassamlashtiradi – nafaqat aks ettirish, boshqarish, balki aloqa vositasi sifatida ham amal qiladi. Bu yerda axborotning kommunikativ jihatni birinchi o‘ringa chiqadi.

Axborot – obyektiv reallikning muhim qismini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, o‘zini saqlash, qayta ishslash va ta’sir natijalari (izlari)dan foydalanish uchun mo‘ljallangan moddiy tizimlarda namoyon bo‘ladi. Axborot tizimlarning faoliyat jarayonida o‘z mazmuniga ega. Obyektivlik, moddiylashtirish va uzatish imkoniyatining mavjudligi – axborotning muhim xususiyatlari. Axborotning evristik mazmunini o‘rganishda informatsion vaziyatning quyidagi unsurlari muhim o‘rin tutadi:

- 1) axborot subyekti (axborot oluvchi, uni o‘zgartiruvchi va undan foydalanuvchi), axborot obyekti (axborot manbai): subyekt bilan o‘zaro aloqaga kirishadi;
- 2) ehtiyojlar: aks ettirilgan rangbaranglikning muhim qismini tanlash masalasini yechadi. Subyektning qizg‘in izchil faoliyati axborotning shakllanish jarayonida muhim omillardan biri sifatida amal qiladi. Tashqi ta’sirlardan axborot obyektining subyektga ta’siri, ta’sirni kodlashtirish va modellashtirish, teskari aloqa, subyektning bilim darjasini ta’sirida o‘zgarish va hokazolarni qayd etish mumkin. “Axborotni o‘rganish axborot-boshqaruv jarayonini tahlil qilish bilan uzviy bog‘liq, chunki axborot unda funksional xossa sifatida mavjuddir”. Informatsion vaziyat butun axborot jarayoni maydonini ifoda etadi. Shu sababli axborotning o‘zi emas,

balki u amalda o‘z aksini topgan faoliyat yoki xulq- atvorni boshqarish tizimidagi aloqalar, funktsiyalar va mexanizmlar o‘rganish predmetini tashkil etadi. Axborot kommunikativ jarayonga qo‘shilib, bilim muayyan shaxsning boyligiga aylanishiga imkoniyat yaratadi. Bilim – subyekt ongining mazmuni, bilish faoliyatining natijasi, amalda mavjud predmetlarga bog‘langan bilish obrazlari majmui. Muayyan subyekt bilimining mazmuni hech qachon idrok etilgan axborot mazmuni bilangina cheklanmaydi. Idrok etish bilimning alohida turi sifatida olingan axborotni anglab yetish, tushunish, talqin qilishni nazarda tutadi. Ilmiy bilimlar hajmining o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgan demokratik jamiyat sharoitida bilimning yangi shakllarini izlash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammo asosan bilimni semiotika vositalari yordamida soddalashtirish yo‘li bilan shaklan o‘zgartirish bilan bog‘liq. Bilimning informativligi bilish faoliyatining barcha sohalari, kommunikativ jarayonlarda muhim ahamiyatga ega. Bunda “kundalik amaliyat, ishlab chiqarish faoliyati, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarda aloqa texnikasi ma’nosidagi axborot miqdori emas, balki avvalo axborotning mazmuni yoki boshqacha aytganda informativlik muhimdir. Zotan, axborot miqdori qancha ko‘p bo‘lmisin, agar u idrok etilmasa, tushunib yetilmasa, undan zarracha naf bo‘lmaydi”. Bilimning informativligi borliq qonunlarini aniq aks ettiruvchi va insonga uning amaliy-o‘zgartirish va bilish faoliyatida xizmat qiluvchi tushunchalar, mulohazalar, kontseptsiyalar, nazariyalar va bilimning boshqa shakllarida ifodalangan muhim axborot majmuidir.

Ishlab chiqarishni axborotlashtirish va avtomatlashtirish ishchilar va xizmatchilarga turli talablar qo‘yib, ularni bevosita ishlab chiqarish jarayonidan olib chiqadi va mazkur jarayon bilan bir qatorda turuvchi sub'ektlarga aylantiradi. Inson shaxsining o‘ziga xosliklarini namoyon etish uchun shart-sharoit va ijtimoiy erkinlikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratiladi. Bir kasbiy faoliyatdan boshqa kasbiy faoliyatga o‘tish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar paydo bo‘ladi.

Nazorat savollari

1. Globallashuv tushunchasining mazmini.
2. Global muammolarning tasnifi.
3. Jamiyat – axborotlashuvining ijtimoiy- falsafiy jihatlari.
4. Xususiy, maxalliy, milliy, mintaqaviy, global muammolar.
5. Globallashuvning ijobiy tomonlari
6. Globallashuvning salbiy tomonlari

Maruza mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**T - chizma**” interfaol usulidan foydalaniadi.

+	-
+	-
+	-
+	-
+	-
+	-
+	-
+	-

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Globallashuv jarayoni: +ijobiy, -salbiy
- 2.Ommaviy madaniyat. +ijobiy, -salbiy
- 3.Jamiyat axborotlashuvi: +ijobiy, -salbiy

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

“**T – sxema**” o‘tkazish bosqichlarini qo‘yidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “**T – sxema**” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “**T – sxema**” interfaol usuli masala mohiyatini to‘liq tushunib olishga asoslangan bo‘lib, bunda mavzu oid bo‘lgan tushuncha, ma’lumot, tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+, salbiy – xususiyatlari ochib beriladi

Maruza mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**Insert**” interfaol usulidan foydalaniladi.

INSERT JADVALI

A	M	-	?

“**Insert**” metodini o‘tkazish bosqichlarini quyidagicha olib boriladi:

Ularga mavzuni qisqacha bayoni tushirilgan tarqatma materiallarni beradi:

Topshiriqlar:

1. Globallashuv bu
2. Globalistlar va antiglobalistlar kimlar izohlang
3. Globallashuvning ijobiy jihatlari tushuntiring
4. Globallashuvning salbiy jihatlari izohlang

TESTLAR

1. Ekologik muammo:
 - A. Global.
 - B. Lokal.
 - C. hal qilib bo‘lmaydigan.
 - D. qisman hal qilinadigan.
2. Ekologik muammo nimaning natijasi.
 - A. Alovida mamlakatlar rivojlanishi.
 - B. Butun dunyo tarixiy jarayoni.
 - C. Kapitalistik mamlakatlar mavjudligi.
 - D. Insoniyat rivojlanishi notekisligi.
3. Noosfera ta`limoti kim tomonidan ishlab chiqilgan.

A. Marks.

B. Ibn Sino.

C. Kant.

D. Vernadkiy

4. “Globallashuv” bu....

A. “gloub” (inglizchadan “global”, ya'ni yer shari),

B. Globalizatsiya” — “gloub” (inglizchadan “global”, ya'ni yer shari),

C. globallashuv” (“globalize”, ya'ni butun dunyoga tarqalishi)

D. Barchasi to‘g‘ri

5. “Globallashuv” iborasi kim tomonidan ishlatalilgan

A. “Globallashuv” iborasi 1983 yilda amerikalik siyosatshunos olim

T.Levitta tomonidan iste'molga kiritilgan

B. Globallashuv” iborasi 1953 yilda amerikalik siyosatshunos olim

Vernadkiy.tomonidan iste'molga kiritilgan

C. “Globallashuv” iborasi 1988 yilda frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi tomonidan iste'molga kiritilgan

D. “Globallashuv” iborasi 1999 yilda siyosatshunos olim F.Bafoyev tomonidan iste'molga kiritilgan

6.Frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi tomonidan .“Globallashuv” ga berilgan ta'rifni ko'rsating.

A. Globallashuv – milliy chegaralarning “yuvinib ketish” jarayoni

B. “gloub” (inglizchadan “global”, ya'ni yer shari),

C. Aloxida mamlakatlar rivojlanishi.

D. qisman hal qilinadigan muammo

7.“Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘darto‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman” Globallashuvga berilgan ta’rif muallifi kim.

A. Mahatma Gandhi

B. Marks

C. T.Levitta

D. Beruniy

10-MAVZU. GLOBAL KORRUPSIYA IJTIMOY-MADANIY INQIROZ OQIBATI

Reja:

1. Korrupsiya tushunchasining ma’nosi va uning tarixiy ildizlari
2. Dunyo bo‘yicha korrupsiya holatining tasnifi
3. Korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” farmonidagi davlat dasturi va asosiy vazifalar.

Tayanch tushuncha: *Korrupsiya, “Artxashastra yoxud Siyosat ilmi”, poraxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o‘zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste’mol qilish, PF-5729son farmonni*

1.Korrupsiya tushunchasining ma’nosi va uning tarixiy ildizlari.

Qadim yunon faylasufi Aristotel ta’kidlaganidek: Hokimiyatga pul bilan erishgan odam undan daromad olishga intiladi. Korrupsiya – nihoyatda ijtimoiy-siyosiy vayronkor kuch, uning oqibatida milliy iqtisodiyotga putur yetadi, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi, xalqning davlat boshqaruvi hokimiyati organlariga ishonchi yo‘qoladi, uyushgan jinoyatchilik kuchayadi, jamiyatda ma’naviyat izdan chiqa boshlaydi. Korrupsiya oqibatida kelib chiqadigan noxush hodisalar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Korrupsiya buzg‘unchilik tabiatiga ega ekani uchun ham insoniy jamiyat qadim zamonlardan boshlab unga qarshi kurashib keldi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor miloddan avvalgi XXIV asrda Mesopotamiyaning Lagash degan shahar-davlatida boshlangan, lekin taassufki, barcha sa’y-harakatlar zoe ketgan. Keyingi zamonlarda ham korrupsiyaga qarshi qancha-qancha kurashlar yuz berdi, lekin ular besamar yakun topdi.

Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo‘llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan “Artxashastra yoxud

“Siyosat ilmi” kitobi davlatni boshqarish va xo‘jalik yuritish mavzuiga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Bu asarga davlatni tuzish, boshqarish va uni rivojlantirishning huquqiy asoslari, deb qarash ham mumkin. Kitob muallifi sifatida brahman Kautile nomi (u Chanakya ismi bilan ham mashhur) zikr etiladi. “Artxashastra”ning 26-bo‘limi korrupsiyaga bag‘ishlangan. Bo‘limda korrupsiya “o‘zlashtirish” iborasi orqali izohlanadi: “Shohning shaxsiy yoki boshqa mulklariga qo‘l cho‘zish o‘zlashtirishdir. Bu holatda narxi yuqori bo‘lgan buyumlarni o‘zlashtirganlik uchun o‘lim jazosini qo‘llash, narxi o‘rtacha bo‘lgan buyumlarni o‘zlashtirganlik uchun ularni undirib olish, narxi past bo‘lgan mulklarni o‘zlashtirganlik uchun ularni qaytarib olish jazolarini tayinlamoq lozim”. “Artxashastra”da poraxo‘rlikning qirqta turi tasnif etiladi. Korrupsiyaning oldini olishga javobgar mansabdor shaxs vaqtি-vaqtি bilan xalq to‘planadigan joylar va bozorlarda quyidagicha murojaat qilib turishi lozimligi aytildi: “Biron bir boshliqdan zarar ko‘rganlar bo‘lsa, shu haqda bizga xabar bersinlar”.

Islom dinida ham pora harom qilingan, bu borada hadislar ham juda ko‘p. Ulardan biri Payg‘ambarimizning mana bu qarg‘ishlaridir: “Pora beruvchiga ham, pora oluvchiga ham Allohning la’nati bo‘lsin!”. Yana ul zot aytadilar: “Pora beruvchini ham, pora oluvchini ham, ikkovi orasida yurib porada vositalik qiluvchini ham Alloh la’natlasin!”.

Alisher Navoiyning zamondoshi, podshoh Husayn Boyqaroning voizi Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi muhsiniy” asarida shahzodaga nasihat tariqasida quyidagi pandni bergen edi:

“Ish yurituvchi amaldorlar pora olishdan ehtiyyot bo‘lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo‘lsa, pora olishga ruxsat bergen bo‘ladi. Pora berish va pora olish haromdir. Va pora olgan pora bergandan yomonroq bo‘ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo‘ladi”.

XX asrga kelib Shvesiya, Singapur, Yangi Zelandiya, Shveysariya kabi mamlakatlarda korrupsiyani qattiq jilovlashga muvaffaq bo‘lindiki, mazkur

davlatlar fuqarolari va davlati orttirgan tajriba barchani korrupsiyaga qarshi kurashga ruhlantirmoqda.

Ijtimoiy hayotdagи korrupsiyaning amal qilish sohalari. Hozirgi davrdagi “korrupsiya” ([lotincha](#): corrumpō- aynish, poraga sotilish) - tushunchasini sharhlaydigan bo‘lsak, u asosan, “shaxsiy foyda olish uchun hokimiyatni suiiste’mol qilish” ma’nosida ishlatiladi. Korrupsiyaning quyidagi to‘rt asosiy sababini keltirish odat tusiga kirdi:

1.- Shaxsiy sabablar. Korrupsiya “yomon” hodisa, u yaxshi ta’lim-tarbiya ko‘rmaslik va kam maosh oladigan amaldorlarning nokasligi oqibatida paydo bo‘ladi.

2.- Institutsional sabablar. Bunda boshqaruvning kuchsizligi asosiy omil sanaladi. Masalan, kadrlar tayyorlash, hisobga olish va nazorat qilishning samarasizligi, mansabdorlarni yollashning osonligi va ularni oson ishdan haydash, ularda uzoq vaqt mansabda turishga ishonchsizlik paydo bo‘lishi kabilar korrupsiyani rag‘batlantiruvchi omillardir.

3.- Tizimiyl sabablar. Hukumat ba’zan jamiatning shunday talablariga duch keladiki, ularni bajarishning rasmiy tartiblari hali aniq ishlanmagan bo‘ladi yoxud ular ko‘p miqdorda mablag‘ talab etadi va aksar holda uzoq muddatlarga cho‘ziladi. Shunday holatlarda korrupsiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qisqa yo‘llar ochiladi.

4.- Ko‘p tomonlama sabablar. Ba’zan davlat rahbariyatining o‘ziga xos xulqi tufayli davlat boshqaruvida hal qiluvchilik rolini “shaxsiy” omillar bajaradi. Bunday sharoitda davlat mansablariga ishonchga sazovor odamlar tayinlangan taqdirda ham institutsional va tizimga oid muammolar sabab korrupsiya ko‘payadi.

-Korrupsiya konturlari va oqibatlari: Korrupsiya deganda, umumiyl ma’noda, shaxsiy boylik orttirish va shaxsiy manfaati yo‘lida shaxsga ishonib topshirilgan lavozimini qasddan va noqonuniy suiiste’mol qilish tushuniladi.

-Korrupsiya boshqaruvning barcha darajalarida uchraydi: global, milliy va mahalliy. Barcha turdagи agentlar (jismoniy shaxslar, korxonalar, davlat xizmatchilari va siyosatchilar) korrupsiyaga ixtiyoriy yoki noixtiyoriy ravishda jalb qilinishi mumkin.

-Korrupsiya turli shakllarga ega: poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o'zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste'mol qilish, xushomadgo'ylik, sovg'a, qarindoshlik, homiylik va boshqalar.

-Korrupsiyaning holatiga turli omillar: ijtimoiy va madaniy sharoit, institutsional va tashkiliy tuzilmalar, siyosiy muhit, shuningdek iqtisodiy va tarkibiy o'zgarishlar siyosati ham ta'sir qiladi.

-Yirik korrupsiya deganda, amaldagi davlat siyosatini yo'qqa chiqaradigan, hukumat darajasida amalga oshiriladigan siyosiy va hukumat rahbarlariga xalq hisobidan manfaat ko'rishga imkon beradigan harakatlar tushuniladi.

-Mayda korrupsiya deganda, odatda kasalxonalar, maktablar, miliitsiya bo'limlari va boshqa joylarda asosiy xizmatlardan foydalanishga uringan oddiy fuqarolar bilan aloqa qilishda hokimiyatning quyi va o'rta bo'g'inlari mansabdor shaxslarining kundalik ishonchli vakolatlarini suiiste'mol qilishlari tushuniladi.

-Siyosiy sohada korrupsiya demokratik tamoyillarga o'tish jarayonini to'xtatadi, siyosiy maqsadlarni umummilliylar rivojlanish maqsadlariga emas ayrim guruhlarning maqsadlariga tobe qiladi, qonun ustuvorligini buzilishiga, siyosiy va sud institutlari faoliyatining samarasi tushishiga, mamlakat obro'sining tushishiga va haqiqiy siyosiy raqobatning yo'qolishiga olib keladi, shu bilan hokimiyatga ishonch susayadi, uni jamiyatdan uzoqlashtiradi.

-Iqtisodiy sohada korrupsiya davlat mablag'lari va resurslarining samarasiz taqsimlanishi va sarflanishiga, biznesni yuritishda ko'p vaqt va moddiy xarajatlarga, moliyaviy va tijorat xavflarining o'sishiga, narxlarning o'sishiga, raqobat muhitining yomonlashishiga, xufiyona iqtisodiyotning o'sishiga, soliq tushumlarining kamayishiga, investitsion muhitning yomonlashishiga, investitsiyalarning kamayishi va umuman mamlakat iqtisodiyoti samaradorligining pasayishiga olib keladi.

-Ijtimoiy sohada korrupsiya ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlikning kuchayishi, hokimiyatning byudjet sohasiga zarar yetkazuvchi "zarbalar" ("otkat")lar tufayli ijtimoiy muammolarni yechishga qodir bo'lmay qolishi, uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi va jamoatchilik ko'z o'ngida qonunning

obro'sizlanishiga olib keladi. Bu axloqiy me'yorlar mohiyatining yo'qolishiga va ijtimoiy keskinlikning o'sishiga sabab bo'ladi.

Korrupsiya qanday o'lchanadi?

O'zbekistonda korrupsiya dinamikasi va buning sabablari haqida. Uni qanday o'lhash va u bilan qanday kurashish mumkin? O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashda uzoq muddatli ijobiy dinamikani namoyish etuvchi 16 ta davlat qatoriga kiradi

Korrupsiyani o'lhash rasmiy muomaladan resurslarni chiqib ketishi va davlat boshqaruvidagi muammoli sohalarni aniqlashga yordam beradi. Davlat xazinasidan yo'qotilgan pul miqdorini hisoblash bilan bir qatorda, korrupsiya to'g'risidagi ma'lumotlar davlat va jamoat institutlarining alohida e'tiborini talab qiladigan qonunchilik tizimining sifati, qonunlarga muayyan sohalarda amal qilinishi, davlat siyosatining samaradorligi kabi davlat boshqaruvining muammoli sohalari haqida xabar beradi. Korrupsiya to'g'risida nisbatan aniq ma'lumotlarga ega bo'lish tufayli hukumat davlat xizmatlarini taqdim etishdagi tengsizlik, qashshoqlik va izolyasiya, shuningdek, pul olib chiqish (otmivaniye), soliq to'lashdan bo'yin tovslash va poraxo'rlikka yo'l ochib beradigan moliyalash tizimidagi bo'shliqlar (lazeykalar) kabi qator masalalarni hal qilish uchun samaraliroq siyosat va tartibga solish vositalarini ishlab chiqishi mumkin.

Bugungi kunda dunyoda korrupsiya darajasini o'lhashning beshta asosiy usuli qo'llaniladi. Ularning barchasining afzalliklari ham, kamchiliklari ham mavjud. Zero, korrupsiya to'g'risida aniq ma'lumot olish juda qiyin, ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslar ko'p hollarda kimligi ochiqlanishini xohlamaydilar.

O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmonni mazmun-mohiyati.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishda "**compliance control**" tizimi joriy etiladi. O'lchov usullari orasida eng keng tarqalgani korrupsiyani idrok etishni baholashdir (masalan, Transparency International tashkilotining korrupsiyani idrok etish indeksi, Jahon bankining korrupsiyani boshqarish indeksi). Ushbu usul

mamlakat ekspertlari va aholi o‘rtasida mamlakatda korrupsiya holati to‘g‘risida so‘rov o‘tkazishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ushbu usulning noqulayligi shundaki, jamoatchilik va ekspertlarning fikrlariga taqdim etayotgan ma’lumotlarining ochiqligi va sifati mamlakatlar va vaqt oralig‘ida turlicha bo‘lgan ommaviy axborot vositalari ta’sir qilishi mumkin.

O‘lchashning yana bir keng tarqalgan usuli – bu korrupsiyani baholash bo‘yicha so‘rov usuli (masalan, Transparency International tashkilotining global korrupsiya barometri va Jahon bankining biznes so‘rovi). U mamlakatda korrupsiya muammolari bilan bog‘liq tajribasi to‘g‘risida firmalar va aholi orasida so‘rov o‘tkazishni o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi usulning kamchiliklari – ba’zi respondentlarning davlat organlarida korrupsiya bo‘lishidan manfaatdorligidadir, shuning uchun ular korrupsiya holatlari to‘g‘risida xabar bermaslikni lozim tutishlari mumkin.

Korrupsiyani bevosita kuzatish ham korrupsiyani baholash usullaridan biri sifatida qo‘llaniladi. Masalan, Indoneziyada to‘qqiz oy davomida tadqiqotchilar yuk mashinalari haydovchilarini kiyimini kiyib, odatiy yo‘nalishlar bo‘ylab yuk mashinalari haydovchilarini kuzatib borishgan va yuk mashinalari haydovchilari politsiya nazorat punktida to‘xtaganlarida qancha to‘lashganini qayd etib borishgan. 300 tadan ortiq sayohatlar davomida ular 6000 dan ortiq noqonuniy to‘lovlarini kuzatishgan. Natijada, noqonuniy to‘lovlar umumiylashtirish xarakatlarning 13 foizini tashkil etganligi ma’lum bo‘lgan. Ushbu usulning noqulayligi tegishli tadqiqotlarni o‘tkazish uchun ko‘p vaqt va moliyaviy xarakatlarni talab qilishidadir.

Korrupsiyani ajratish bo‘yicha baholash hisobot nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladigan hisobot xarakatlari va amalda ishlataligan xarakatlarni taqqoslashni o‘z ichiga oladi. Ushbu usulning kamchiliklari shundaki, inspeksiya organlari xodimlarining o‘zi pora olishga va o‘g‘irlikni yashirishga moyil bo‘lishi mumkin. Korrupsiya harakatlarini aniqlashning turli xil bilvosita usullari ham mavjud bo‘lib, ular bo‘yicha korrupsiya holatlari korrupsiyaga bevosita aloqador bo‘lmagan ma’lumotlardan foydalangan holda aniqlanadi.

Korrupsiyani o‘lchash usullari xilma-xilligiga qaramay, mutaxassislar korrupsiyaning aniq xarajatlari va oqibatlarini aniqlashda jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar:

- korrupsiya xatti-harakatlari odatda yashirin bo‘lib, bu ularni aniqlash va yozishni qiyinlashtiradi; korrupsiya faoliyati to‘g‘risida ko‘pincha xabar berilmaydi, chunki to‘lashi kerak bo‘lganlar qasos olinishidan yoki biron-bir darajada jinoyat uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlari mumkinligidan qo‘rqishadi;

- korrupsiya turli shakllarni oladi – o‘g‘rilik, firibgarlik, qarindoshchilik, poraxo‘rlik, tovlamachilik va pul yuvish (otmivaniye), bu korrupsiya amaliyotini yagona indiqator ko‘rinishida qamrab olish imkonsiz ekanini ko‘rsatadi. Masalan, biror bir ishda mansabdan foydalanib o‘z yaqin kishisiga yordam berish (boshqalar zarari hisobiga) va buning uchun to‘lov olmaslik, mohiyatan korrupsiya, lekin buni aniqlashning deyarli iloji yo‘q.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, hozir dunyoda har yili 1 trillion AQSh dollari hajmida pora beriladi. Jahon iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion dollar mablag‘dan ayrıldi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizidir. BMT Bosh kotibining bildirishicha, “Korrupsiya odamlarni maktab, kasalxonalardan mahrum qiladi, investorlarni vahimaga soladi, tabiiy resurslar talon-taroj bo‘lishiga sabab bo‘ladi, boshqa turli jinoyatlar paydo bo‘lishiga shart-sharoit yaratadi.

Jahon mamlakatlari orasida korrupsiyaning yoyilishi indeksi har yili xalqaro Transparency International tashkiloti tomonidan aniqlab chiqiladi. Transparency Internationalning 2018 yil uchun indeksi 180 mamlakatni qamrab olgan va 0 dan (korrupsiyaning eng yuqori darajasidan) 100 gacha (korrupsiyaning eng past darajasigacha) bo‘lgan ko‘rsatkich asosida korrupsiyaning qanchalik yoyilganini ko‘rsatadi. Ushbu indeks bo‘yicha eng kam korrupsiyalashgan mamlakatlar sirasiga Daniya, Yangi Zelandiya kiradi. Eng ko‘p korrupsiyalashgan mamlakatlar esa Somali, Suriya, Janubiy Sudan bo‘lib, Transparency International tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, korrupsiyalashish ko‘rsatkichi bu davlatlarda 10 dan 13 gacha. Rivojlangan mamlakatlar qonunchiligiga korrupsiyaning oldini olish maqsadida davlat mansabdorlarining korrupsiyaviy faoliyatga yo‘l qo‘ymaslik

maqsadida qator taqiqlar, cheklov va yo‘l-yo‘riqlar standartlari kiritilishidan tashqari yana maxsus “korrupsiyaviy bardoshlilikni tekshirish” usuli ham joriy etilgan.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarda ba’zi mansabdorlarning tadbirkorlar va fermer xo‘jaliklari mulklariga ta’magirlilik ko‘zi bilan qarashi, bankdan kredit olishi yo‘liga sun’iy to‘siallar qo‘yishi zamirida korrupsiyaviy manfaatlar yotgan edi. Yoshlarning oliy ta’lim muassasasi, tanlov yuqori bo‘lgan kollej va litseyga o‘qishga kirishida, talaba bo‘lgandan so‘ng esa joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo‘yicha zarur ballarni to‘plashida ayrim “ustoz”larning ta’magirligi negizida ham shu illat yashab keldi. Shuningdek, nufuzi va maoshi yuqori bo‘lgan korxona-idoralarga ishga kirishda, yuqori mansab darajasiga ko‘tarilishda, turli tenderlarni yutishda, xomashyo va boshqa resurslarni taqsimlashda korrupsiyaning xalq tilida “shapka” deb ataluvchi ko‘rinishi urchiy boshladи. Ba’zan aholiga uy solish yoki foydalanish uchun yer maydoni ajratish, davlat mulkini xususiylashtirish, faoliyat yuritish bo‘yicha litsenziya olish kabi talab-ehtiyoji yuqori bo‘lgan sohalar ham o‘zini korrupsiya manbai o‘larоq namoyon etgани hech kimga sir emas.

To‘g‘ri, mustaqillik davrida korrupsiyani jilovlash va tugatish borasida birmuncha islohotlar amalga oshirildi. 2008 yilda O‘zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo‘sildi. 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog‘i – Istanbul harakat dasturiga qo‘sildi. Xalqaro va milliy huquq me’yorlariga asoslangan Korrupsiyaga qarshi kurashishning Milliy rejasi ishlab chiqildi. Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarida korrupsiyani sodir qilgan va unda qatnashgan shaxslarga nisbatan tegishli jazolar belgilandi. Shuningdek, Budget va Bojaxona kodekslari (yangi tahrirda), “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”, “Ichki ishlар organlari to‘g‘risida” kabi qonunlar qabul qilindi.

Korruptsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish va demokratlashtirish maqsadida 2014 yilda qabul qilingan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonun esa axborotdan

erkin foydalanish va bu borada xalqaro standartlar me'yorlarini implementatsiya qilishda muhim qadam bo'ldi.

Taassufki, korrupsiyaga qarshi kurashishda bu ijtimoiy illatning tomirlarigacha yetib borilmadi, oqibatda ko'rilgan barcha chora-tadbirlar besamar ketdi.

Oliy Ta'limni sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni sabab va omillari.

Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to'g'risida xabar qilish majburiyati.Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biror-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to'g'risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlari haqida o'z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart. Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ldi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ldi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin. Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ldi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ldi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni ta'qib etish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ldi. Ushbu moddaning qoidalari

korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risida bila turib yolg‘on axborot bergen shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular qonunga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar manfaatdor shaxsning arizasiga ko‘ra vakolatli davlat organi, boshqa tashkilot yoki mansabdor shaxs tomonidan bekor qilinishi yoxud o‘zgartirilishi yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilganligi natijasida qabul qilingan qaror bekor qilingan, o‘zgartirilgan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, uning qabul qilinishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi lozim.

Korrupsiya sohasidagi tadqiqotlar. Korrupsiyaning holatini, xususiyatini, miqyoslarini, o‘zgarishlarini va tendensiyalarini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilish samaradorligini o‘rganish davlat organlari tomonidan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, shuningdek fuqarolar bilan hamkorlikda sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagи tadqiqotlar o‘tkazish yo‘li bilan doimiy asosda amalga oshiriladi.

Axborot olish. Har kim davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida, shu shaxsning o‘ziga yoki shaxslar guruhiba taalluqli bo‘lgan hujjatlarning qabul qilinish jarayonlari haqida axborot olish huquqiga ega. Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyat uchun ahamiyatga molik voqealar, faktlar, hodisalar va jarayonlar to‘g‘risidagi xabarlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi. Axborot olish faqat qonunga muvofiq cheklanishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga

oshiriladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari chet davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to‘g‘risida so‘rovlar yuborish va ularning so‘rovlariga javob berish huquqiga ega. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida olingan mol-mulkni O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq qaytarish choralarini ko‘radi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, qonun ustuvorligi quyidagi uchala holat bo‘lgandagina, o‘zining to‘liq ifodasini topadi.

Birinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo‘lishi shart.

Ikkinchidan, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar barcha davlat organlari, mansabdar shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi zarur.

Uchinchidan, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo‘lishi – qonun ustuvorligini ta‘minlashning asosiy mexanizmlarini tashkil etadi. Demokratik jamiyatning muhim tamoyili bo‘lgan qonun ustuvorligi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyatি qurishning asosidir. Albatta, demokratik jamiyat qurish faqat qonun ustuvorligi bilan cheklanib qolmaydi, balki xalqimizning milliy-ma’naviy negizlariga tayanishni taqozo etadi va zaruriy sharti qilib qo‘yadi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida PF-5618 son farmonni tushuntirish orqali talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiyligida belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarining samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlari hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida:

1. Quyidagilar jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib belgilansin:

- aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida “Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e’tibor qaratish, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini keng targ‘ib qilish;

- yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsianing muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatish;

- aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma’rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg‘ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

- davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyatni institutlarining manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish borasidagi o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish;
- ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish;
- yuridik ta’limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;
- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

2.“Yuksak huquqiy madaniyat -mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g‘oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ‘ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs - oila - mahalla - ta’lim muassasasi - tashkilot - jamiyat” prinsipi bo‘yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.

Nazorat savollari:

1. Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqi muhsiniy” asarida shahzodaga nasihat tariqasida qanday pandni bergen edi.
2. “Artxashastra”ning nechanchi bo‘limi korrupsiyaga bag‘ishlangan.
3. Korrupsiya qanday o‘lchanadi.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplarini ayting.

5. 2018 yil 9 aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 12-moddasi nima deb nomlanadi ?

Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
<p>1.Korrupsiyaning jamiyatdagi salbiy ta’siri nimalarda namoyon bo‘ladi</p> <p>2.Korrupsiyaning qanday turlari mavjud</p> <p>3. Korrupsiyaga qarshi kurash nima uchun olib boriladi?</p> <p>4. Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy mexanizmining vujudga kelishi necha bosqichdan iborat?</p>			


- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi
 - muammoning mazmunining tushunish muhim bosqich hisoblanadi (1-ustun)
 - Voqeliklarning sabab va omillari bilan (2-ustun) to‘ldiriladi
 - Muammoning yechimi to‘liq izohlanishi kerak (3-ustun).
 - Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (4-ustun)
- Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Venn diagrammasi*” interfaol usuli orqali tushuntirish.

Mavzu mashg‘uloti uchun topshiriqlar:

1. Korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ma’naviy marifiy islohtlarni tahlil qilish
2. Korrupsiyasiz jamiyat g‘oyasini izohlang “*Venn diagrammasi*” orqali boshqaruvning totalitar va yangi usullarining umumiy belgilari qiyosiy tahlil

qilinadi. Masalaning o‘zaro bog‘liqligini xulosalash uchun quyidagi tushunchalar tanlandi:

1)* korrupsiya 2)* shaxsiy manfaat 3)* manfaatlar to‘qnashushi



Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “Venn diagrammasi” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “Venn diagrammasi” interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo‘lib, masala mohiyati unga yaqin bo‘lgan tushuncha va ma’lumotlar orqali o‘zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilganidan so‘ng, ularni bog‘lovchi hususiyatlarni A)* va B)* qatorga to‘ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qanday tuzilma tashkil etildi?

A. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi.

B. Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi

C. Bosh prokuratura huzurida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha departament

D. barcha javoblar to‘g‘ri

2. Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biriniko‘rsating.

- A. Jamiyatda aholi huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi.
- B. aholini islohotlardan xabardor ekanligi
- C. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunning mavjudligi
- D. Aholini huquqiy madaniyati darajasining yuksakligi
3. 2017-2021 yillarda qabul qilingan qonun hujjatlarini aholi va ijrochilarga o'z vaqtida yetkazishning samarali tizimini yaratish maqsadida qanday huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqish nazarda tutilgan?
- A. Jurnalistning kasbiy faoliyatini himoya qilish to'g'risidagi qonun
- B. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun
- C. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonun
- D. Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risidagi qonun.
4. Bevosita korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlatorganlariga qaysilar kiradi?
- A. Bosh prokuratura,milliy xavfsizlik xizmati
- B. Ichki ishlar vazirligi, adliya vazirligi
- C. Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti
- D. Barcha javoblar to'g'ri.
5. O'zbekiston Respublikasi BMTning Korruptsiyaga qarshi Konventsiyasiga qachon qo'shilgan?
- A. 2017 yil
- B. 1992 yil
- C. 2000 yil
- D. 2008 yil.

11-MAVZU: DIN MADANIYAT FENOMENI

Reja:

1. “Dinshunoslik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Dinshunoslikning ijtimoiy gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.
3. Dinning strukturasi. Dinning ijtimoiy funksiyalari.
4. Din va dinshunoslik atamalarining ta’rifi hamda dinshunoslik fanining vujudga kelishi va tadrijiy taraqqiyoti.

Tayanch tushunchalar: *Din, e’tiqod, ibodat, diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi, din mifologiyasi, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi, din fenomenologiyasi, din falsafasi, din tarixi*

1. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Din insoniyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismidir. O‘zbekiston Respublikasida ziyolilar oldiga ma’naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo‘ylgan bir paytda din masalasini chetlab o‘tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgarigi dinga agressiv hujum etish uslubining saloxiyatsizligi hammaga ochiq-oydin. Lekin keyingi paytda paydo bo‘lgan diniy bo‘lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo‘lgan, fikrlarni tahlil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o‘zini oqlamaydi. Demak, ushbu masalaga prinsipial, professional, ilmiy yondashuv darkordir.

“Dinshunoslik” fani ana shu muhim omilni tadqiq etib, tarix bilan bog‘liq ravishda tahliliy o‘rganadi. **“Dinshunoslik” fanini o‘qitishdan maqsad** – talabalarga buddaviylik, xristianlik, islom kabi jahon dirlari bilan bir qatorda urug‘-qabila dirlari va alohida millatlarga xos milliy dinlar tarixini zamonaviy ilmiy konsepsiylar asosida chuqurroq o‘rgatish. Shuningdek, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda dinga nisbatan munosabatning tubdan o‘zgarganligi, diniy qadriyatlarni tiklash, diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish yo‘lida qilinayotgan muhim o‘zgarishlar, yangiliklar haqida ma’lumotlarni berish ko‘zda tutilgan. Mustaqillik davrida milliy va diniy qadriyatlarning xalqqa qaytarilishi bilan

birga jahonda mavjud xalqlarning dinlari haqida keng ma'lumot olish, ularning qadriyatlarini o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada dinshunoslik fani izchillikda rivojlanan boshladi. Bunda alloma ajdodlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish bilan birga shu kunga qadar chet ellarda amalga oshirilgan izlanish va tadqiqotlarning natijalaridan unumli foydalanish zarurati paydo bo'ldi. "Dinshunoslik" fani dinni tanqid qilish yoki ko'r-ko'rona maqtash maqsadida emas, balki dinni tarixiylik, xolislik asosida turli xalqlar hayotida tutgan o'rnini ilmiy jihatdan, ma'naviy hayotning bir bo'lagi sifatida yondashib o'rganadi.

"Dinshunoslik" fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- dinning jamiyatga ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy ta'siri haqida bilimlar berish;
- ibtidoiy diniy tasavvurlar, milliy va jahon dinlari ta'limotlari haqida ma'lumot berish;
- dinning mohiyati va uning kishilik jamiyatni taraqqiyotidagi turli tarixiy bosqichlarda –tutgan mavqeい haqida tushuncha berish;
- jamiyatni ma'naviy jihatdan kamol toptirishda diniy qadriyatlarning ahamiyatini yoritish;
- dunyoviy davlat va dinning o'zaro munosabatlarini yoritib berish;
- diniy aqidaparastlik, ekstremizm va fanatizm kabi salbiy illatlar mohiyatini yoritish va ularga qarshi g'oyaviy immunitetni shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasida dinga nisbatan munosabatning tubdan o'zgarganligi,— xususan, islom dini qadriyatlarni tiklash yo'lida qilinayotgan ishlar haqida keng tasavvur hosil qilish.

"Dinshunoslik" fanining amaliy ahamiyati shunda ham ko'rinadiki, u talabalarda islom va boshqa dinlar qadriyatlariiga hurmat bilan qarash, ularni qadrlash, boshqa dinlarga va ularning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalaydi. "Dinshunoslik" fani bo'yicha talabalarning bilimi, uquvi va ko'nikmasi uchun quyidagi muhim talab, vazifalar qo'yilgan:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zbek xalqining ma'naviy merosi, dini, jumladan, islom dini qadriyatlari, milliy

g‘oya, milliy mafkura haqida bildirgan fikr va mulohazalar, ta’rif va tavsiflarni mazkur fanni o‘rganishda nazariy asos qilib olish;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun va boshqa qonuniy hujjatlarda din masalasi yuzasidan belgilangan inson huquqlari, turli diniy tashkilotlar huquqlari va majburiyatlarini bilish;

uchinchidan, “Dinshunoslik” asosiy fanlar qatorida o‘qitilishi, din, dindorlar va diniy tashkilotlarga nisbatan davlat tomonidan adolatli siyosat o‘rnatalishi, fuqarolar uchun vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi mustaqillik sharofati ekanligini tushunib yetish;

to‘rtinchidan, qonunga hurmat hissini, faqat o‘zining emas, balki boshqalarning ham diniy his-tuyg‘ulari bilan hisoblashish lozimligini, o‘z shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga tazyiq bilan o‘tkazish, turli norasmiy diniy mazhab va guruhlarga jalb etish g‘ayriqonuniy xatti-harakat ekanligini, jamoat joylarida diniy masalalarda zo‘ravonlik, mutaassiblikka, aggressivlikka yo‘l qo‘yish mumkin emasligini chuqur tushunib yetish;

beshinchidan, “Dinshunoslik” fanining boshqa gumanitar fanlar bilan birga rivojlanishini nazarda tutgan holda, o‘zi qo‘lga kiritgan soha yutuqlaridan ushbu fanni o‘zlashtirishda foydalanish.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, “Dinshunoslik asoslari” **kursi predmetini** quyidagicha ta’riflash mumkin: **Dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo‘lgan barcha din shakllarining ma’naviy, ijtimoiy, gnesologik va psixologik ildizlarini, ularning ta’limoti va marosimchiligi, ijtimoiy hayotidagi mavqeい va ijtimoiy funksiyalarini ilmiy jihatdan o‘rganuvchi fandir.**

2. Dinshunoslikning ijtimoiy gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.

Dinshunoslik fani ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan, rivojlangan va hozirda ham shu jarayon davom etmoqda. O‘zbekiston Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lgan va jahon hamjamiatidan ajratilib yashagan bir

davrda G'arbda XIX asrning o'rtalarida vujudga kelgan dinshunoslik fani ancha yo'l bosib o'tib, ko'plab ilmiy natijalarga erishdi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tadqiqotchilari bu yangi soha bilan yaqindan tanishib, mutaxassis kadrlarni tarbiyalay boshladilar. Ular dinshunoslikni sotsiologiya, psixologiya, falsafa, antropologiya, filologiya, tarix fanlari bilan bog'liq holda o'rganishlari kerak. Zero, dinshunoslik fani mazkur fanlar bilan hamkorlik qilib tutashgan yerida uning turli sohalari vujudga kelgan.

Qadim zamonlardan boshlab falsafiy tafakkurda din masalasi faylasuf olimlarning diqqatini o'ziga jalb etib kelgan. Dinga turlicha ta'rif va tavsiflar berilgan. Falsafiy dunyoqarashda dinni g'oyalar tizimi sifatida tahlil etuvchi din falsafasi yo'nalishi shakllangan.

Psixologiya fani tarmoqlari murakkab hodisa bo'lgan dinni inson ruhiyati bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Buning natijasida din psixologiyasi fani shakllangan va rivojlangan. Shuning uchun ham dinshunoslik asoslarini o'rganishda psixologiya fanining ko'p sonli yutuqlariga suyanish muhimdir.

Muayyan jamiyatda diniy ta'limotning tarqalishi, uning kishilar ongiga ta'sir darjasи (diniy ong darjasи), ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotga ta'siri va rolini aniqlash maqsadida sotsiologik tadqiqotlar xulosalariga murojaat qilinadi. Keyingi ikki asr davomida dinni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganuvchi din sotsiologiyasi fani barq urib rivojlandi.

Dinning ta'rifi, tavsifi, ta'limoti va ijtimoiy hayotdagи o'mini o'rganishda turli yondashuvlar mavjud, masalan: 1) ilohiyot (teologiya) fani jihatidan; 2) tanqidiy-ateistik va 3) ilmiy nuqtai nazardan. Kishilik jamiyat uchun har qaysi yondashuv natijasida to'plangan ilmiy, amaliy, tarixiy, falsafiy ma'lumotlar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu bog'liqlik natijasida dinshunoslik tarkibida bir qancha sohalar yuzaga kelgan. **Din sotsiologiyasi** – din va jamiyat munosabatlari hamda shu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi natijalarni o'rganuvchi dinshunoslik sohasi. U dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqeа-hodisalarini, turli diniy jamoalarning jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini

tadqiq qiladi. **Din sotsiologiyasi** ham ijtimoiy, ham diniy ilmlarga tayanadi. Ma'lumot uchun Din tarixi — dinlarni tarixiy nuqtayi nazardan o'rganadigan dinshunoslik sohasi. Unda asosan dinlar yuzaga kelishining tarixiy shart-sharoitlari, asoschilari, ilk jamoalar, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holatiga ahamiyat beriladi. "Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq... toatibodat qilishda va diniy rasm-rusum hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi."(Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, 18-modda)

Shu bilan birga, din sotsiologiyasi kishilarning diniy e'tiqodlari, diniy tashkilotlarning faoliyatini, jamiyat a'zolaridagi diniy tafakkurni o'rganadi. Sotsiologiya din hodisasini o'rganishda dinning ijtimoiy hayotda bajarayotgan funksiyalariga albatta murojaat qilishi lozim bo'ladi. **Din psixologiyasi** - inson diniy hayotining psixologik jihatlarini o'rganuvchi dinshunoslik sohasi. Din psixologiyasi shaxsning diniy tajribalarini va bu tajribaning turli ko'rinishlarini bayon qilishga harakat qiladi. Kishining diniy his, tushuncha va yashash tarzi din psixologiyasining asosiy mavzusidir. Ma'lumot uchun Sotsiologiya atamasi lotincha *societas* - "jamiyat" va yunoncha *logos* — "ta'limot" so'zlarining birikmasidan olingan bo'lib, u bevosita jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. **Din falsafasi** - dinning mohiyati, insonning diniy haqiqatlar bilan bog'liqligini o'rganadigan soha. U Xudoning mavjudligi, sifatlari, yaratuvchi va borliq munosabatlari, yaratish, olamning yaratilishidagi maqsad, qayta tirilish, payg'ambarlik va vahiy kabi keng miqyosdagi masalalarni qamrab oladi. **Din fenomenologiyasi** - dinning ko'zga ko'rinvchi, tashqarida aks etuvchi jihatlarini o'rganuvchi ilm sohasi. Din fenomenologiyasi diniy tuyg'u va uning ko'rinishlari butun dunyoda deyarli bir-biriga o'xshashigan. Ma'lumot o'mida «...podshoh Doro ibn Doro xazinasida Abisto (Avesto)ning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan yozilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar Maqduniy otashxonalarini vayron qilib, ularga xizmat qiluvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yuborgan edi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistoning beshdan uch qismi (ya'ni, o'n sakkiz naski) yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz

nask edi, majusiylar qo‘lida chamasi o‘n ikki nask (qism) qoldi». Abu Rayhon Beruniy Diniy ramz (belgi)larda yashiringan ma’nolarni ochish va majoziy so‘zlarning muqaddas mazmunini yoritish kabi ishlar ham din fenomenologiyasining vazifalari doirasiga kiradi. Fenomen “namoyon bo‘luvchi”, “ko‘zga ko‘rinuvchi” narsa bo‘lib, fenomenologiya ko‘zga ko‘rinuvchi narsaning sistematik shaklda tadqiq qilinishidir. Turli dinlarning ibodat va marosimlari, muqaddas joy, zamon, narsa va shaxsiyatlarini tadqiq qilib, mushtarak jihatlarini topishga harakat qiladi. Din tarixi — dinlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi bosqichlarini o‘rganuvchi soha. U bir qancha fanlarga tayanadi va ular bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, tarix fani o‘tmishdagi voqeа-hodisalarни o‘rganishi bilan birga, moziy va joriy dinlarning tarixiy shakllanishi jihatidan “Dinlar tarixi” ga yaqindan ko‘makchi bo‘ladi. Diniy matnlarning o‘rganilishida filologiya fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari tarixni o‘rganishda yordamchi fanlar - mifologiya (rivoyat va afsonalar), etnologiya, arxeologiya, san’at tarixi, folklor va shunga o‘xshash bir qancha fanlar ham din tarixi bilan bevosita bog‘liq

Dinshunoslikda shakllangan mifologik, tarixiy, sotsiologik, antropologik va boshqa maktablar shakllanishi va hurfikrlilikka xos dastlabki g‘oyalar Markaziy Osiyoda deizm, panteizm, mu’taziliylar, bu o‘lkada yashagan, ijod qilgan ulug‘ mutafakkirlar Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida o‘z aksini topgan. Ibn Rushdning “Ikki haqiqat” ta’limotida olg‘a surilgan edi. XVII asrda Boburning nabirasi shoh Akbar, so‘ngira XVIII asrda fransuz faylasuflarining dinga, diniy tashkilotlarga munosabati XIX asrda ilmiy dinshunoslik xususida yangi oqim, yo‘nalish va nazariyalar yuzaga kelishiga katta turki bo‘lgan. Binobarin, XIX asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. va V.Rimm, M.Myuller); antropologik maktab (L. Feyerbax) va boshqa yo‘nalishlar paydo bo‘lgan. XX asrda dinshunoslik yanada yangi nazariyalar bilan boyigan. Bunda shveytsariyalik psixolog K.Yung va ayniqsa fransuz sotsiologi E.Dyurkgeymning “kollektiv ong” haqidagi ta’limoti diqqatga sazovordir.

Dinshunoslik fanining tarixi bir yarim asrga yaqin davrga borib taqaladi.

Dinlarni o‘rganish uzoq tarixga ega. Har bir inson yon–atrofidagilarning e’tiqodi, qaysi dinga mansubligiga qiziqadi, ular haqida bilishni istaydi. Bu boradagi ilk ma’lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilarasi asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri “tarix otasi” nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) o‘zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma’lumotlar keltirgan. Bu qiziqish O‘rta asr Yevropasida ham mavjud bo‘lgan. Lekin boshqa dinlar haqida fikr bildiruvchilar, xristianlarning e’tiborini jalb qilmaslik va ularni o‘sha dinlarga kirib ketmasliklari ta’minalash maqsadida, u dinlarga nisbatan salbiy fikr bildirish, ularni yomonlash orqali ularga yondashishni ma’qul deb topganlar.

Islom olamida ham dinlarni o‘rganish bo‘yicha taddiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII–VIII asrlardayoq diniy tortishuv (munozara)larni o‘z ichiga olgan “maqola”lar (keyinchalik “maqolot”), VIII –IX asrlardan e’tiboran esa boshqa dinlarga “raddiya”lar yozila boshlangan. Keyingi asrlardan esa “al–Firaq” (Firqlar), “ar–Radd” (Raddiya), “ad–Diyonot” (Dinlar) va “al–Milal” (Xalqlar) yo‘nalishidagi adabiyotlar vujudga kelgan.

“Ad–Diyonot” (Dinlar) yo‘nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso an–Navbaxtiyning (vaf. 910) “al–Aro‘ vad–diyonot” (E’tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas’udiy (957) o‘zining “ad–Diyonot” (Dinlar), Masbihiy (1029) “Darkul bug‘yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti” (Dinlar va e’tiqodlar vasfida maqsad me’yori) kitoblarini yozganlar. Shuningdek Beruniyning (973–1048) “Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin fil–aqli av marzulatin” (Aqlga maqbul yoki noma’qul bo‘lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi ham shular sirasiga kiradi.

“Al–Firaq” (Firqlar) yo‘nalishida yozilgan kitoblarga Abu Mansur Abdulqodir al–Bag‘didiyning (vaf. 1038) “al–Farq baynal–firaq” (Firqlar orasidagi farq) asari hamda Abul–Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning (vaf. 1092) “Baynal–adyon” (Dinlar orasida) asarlarini kiritish mumkin.

“Al–Milal” yo‘nalishida Qozi Abu Bakr Baqilloniyning (vaf. 1012) “al–Milal van–nihal” (Dinlar va xalqlar), Abu Muhammad Ali Ibn Hazmning (vaf. 1064) “Kitobul–fasl fil–milal val–ahvoi van–nihal” (Dinlar, havo va xalqlar haqida

ajraluvchi kitob), Abul–Fath Muhammad ibn Abdulkarim ash–Shahristoniyning (vaf. 1183) “al–Milal van–nihal” asarlarini sanash mumkin.

“Ar–Radd” (Raddiya) yo‘nalishida ham ko‘plab asarlar dunyo yuzini ko‘rgan. Ularda Imom G‘azzoliyning (vaf. 1111) “ar–Raddul jamil” (Go‘zal raddiya), Ibn Kalbiyning (vaf. 819–821) “Kitobul–asnам” (Butlar kitobi) asarlarini alohida qayd etish lozim.

Islom olamida qiyosiy dinshunoslik sohasida ham salmoqli ishlar qilingan. Ulardan Abu Rayhon Beruniyning “al–Osorul boqiya” (Boqiy asarlar), Ibn Nadimning (vaf. 990) “al–Fihrist” (Mundarija), Muhammad ibn al–Huzaylning (vaf. 840) “Kitobul–Majus va kitobus–sanaviya” (Majusiylik va ko‘pxudolilik kitobi), Abul–Abbos Ahmad ibn Muhammad as–Saraxsiyning (vaf. 899) “Risola fi vasfi mazohibis–sobiyiyn” (Sobiylarning mazhablari vasfi haqida risola), Abu Zayd al–Balxiyning (vaf. 941) “Kitobu sharo‘iil adyon” (Dinlar shariatlari kitobi) asrlarini sanab o‘tish mumkin.

G‘arbda, zamonaviy ma’nodagi dinlar tadqiqotlari Maks Myuller (1823–1900) tomonidan boshlab berilgan. Olim 1856 yilda “Qiyosiy mifologiya” va 1870 yilda nashrdan chiqqan “Dinlarning asosi va shakllanishiga oid dars baholari” nomli asarlari bilan boshqa dinlarni tadqiq qilishga yo‘l ochgan va kattagina e’tibor qozongan. U Angliyadagi mashhur Oksford universitetida dinlar tarixidan ma’ruzalar o‘qigan. O‘zining “Sharqning muqaddas kitoblari tarjima silsilasi” asarida u ilk bora “religious studies” (dinshunoslik) so‘zini qo‘llagan. Myuller va uning zamondoshlari dinlarni ilmiy tadqiq qilishda filologiyani muhim deb bilishgan va dinning asl mohiyatiga faqatgina til orqali qilingan izlanishlar bilangina etishish mumkin, degan fikrni olg‘a surgan.

Biroz keyingi davrlarda Gollandiyada S.R.Tile va Shantepi de la Sosse bu borada izchil faoliyat olib borganlar. Shunday qilib davrlar o‘tishi bilan Parij, Bryussel va Rim kabi markazlarda dinshunoslik universitetlar ta’lim dasturlaridan joy olgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dinshunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar shakllangan. Bu davrda turli mintaqalarda zikr qilingan sohada bir qancha mutaxassislar yetishib chiqqan. Ulardan R.Pettazoni, M.Eliade, Van der

Lyu, R.Otto, G.Menshing, J.Vax, F.Xeiler, G.Dumezil, E.G.Parrinder, S.G.F.Brandon, Erik F.Sharp, Ninian Smart, M.Kitagava, R.S.Zeyxner, Ugo Bienchi, V.Kantvell Smit, Ake V.Strom, Xans J.Shoyps va Mixael Pay va hokazolar.

3. Dinning strukturasi. Dinning ijtimoiy funksiyalari.

Dinning ijtimoiy vazifalari haqidagi ta’limotni dinshunoslikda funksionalizm rivojlantiradi. Funksionalizm jamiyatga ijtimoiy sistema sifatida qaraydi: unda jamiyatdagi har bir element muayyan funksiyani bajaradi. Dinning jamiyatda bajaradigan ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, har qanday din o‘z e’tiqod qiluvchilari uchun **to‘ldiruvchilik, tasalli beruvchilik - kompensatorlik** vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo‘lishi hodisasini olaylik. Inson o‘z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlari jarayonida hayotiy maqsadlariga erishishi ilojsiz bo‘lib ko‘ringanida, unda qandaydir ma’naviy-ruhiy ehtiyojga zaruriyat sezgan. Ana shunday ehtiyoj diniy extiyoj edi. Din bu o‘rinda ma’naviy-ruhiy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan va hali ham bajarmoqda.

Masalan, buddaviylik dini roxiblikni targ‘ib qilar ekan, bu dunyoda orzu-xavaslardan, rohat-farog‘atdan voz kechgan inson nirvana holatiga erishgach, abadiy rohatda bo‘lishini ta’kidlaydi. Shuningdek, xristianlikda har bir xristian Iso Masixning qaytishiga umid qilgan holda hayotning turli muammolarini yengib, sabr-bardosh bilan hayot kechiradilar. Chunki xristianlik Iso Masix qaytib kelgach barcha izdoshlarini saodatli hayotga yetkazishi haqidagi ta’limotni ilgari suradi.


Shuningdek, islom dinida ham har bir musulmon bu dunyoda erishmagan moddiy yoki ruhiy orzu-istiklariga oxiratda erishishga ishongan holda dunyo orzu-xavaslariga ortiqcha berilmay, turmush mashaqqatlariga sabr qiladi.

Ikkinchidan, muayyan din o‘z ta’limot tizimini vujudga keltirgach, o‘ziga e’tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta’limot doirasida saqlashga harakat qilgan va hozirda ham shunday. Bu ijtimoiy hodisa dinning **birlashtiruvchilik - integratorlik** vazifasi deb ataladi. Din hamisha muayyan ijtimoiy, etnik va ma’naviy hayotning

o‘z ta’sirida bo‘lishiga intiladi. Bu ta’sirning muntazamligini ta’minlash maqsadida din xalqlarning ijtimoiy hayotiga, axloqiy munosabatlariga, shuningdek adabiyoti va san’atiga ham ta’sir o‘tkazadi.

Masalan, yaxudiylikda mazkur din vakillarini bir mafkura atrofida saqlab turish uchun ularni bir millat va yagona maslak egalari ekanliklari, yagona xudo - Yaxvening eng sevimli bandalari ekanliklari uqtiriladi.

Xristianlikda ham e’tiqod qiluvchilarni bu dinga yanada ko‘proq jalg etish uchun diniy me’moriy, tasviriy, musiqa san’ati turlaridan unumli foydalaniladi. Xristianlikda maxsus ikona chizuvchilik maktablari faoliyat olib boradi.




Uchinchidan, har bir din o‘z qavmlari turmushini **tartibga solib, nazorat qiluvchilik - regulyatorlik** vazifasini bajaradi. Dinlar o‘z urf-odatlarining, marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan o‘z vaqtida, qat’iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo‘yadi.

Masalan, islomda kuniga 5 mahal namoz o‘qilishi, har hafta juma namozini jome masjidlarida ado etilishi, Ramazon oyida bir oy ro‘za tutilishi, ro‘za (iyd al-fitr) va qurban (iyd al-adxo) hayitlarining nishonlanishi musulmonlarning hayot tarzini tartibga solib turadi.

To‘rtinchidan, din **aloqa bog‘lashlik, birlashtiruvchilik - integratorlik** vazifasini ham bajaradi, ya’ni har bir din o‘z qavmlarining birligini, jamiyat bilan shaxsning o‘zaro aloqadorlikda bo‘lishini ta’minlashga intiladi. Bunda u yoki bu dinga e’tiqod qiluvchi kishilarning o‘z dinidagi boshqa kishilar bilan aloqador ekanligi, o‘zaro huquq va burchlarining borligi, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo‘lib bajarilishi lozimligi nazarda tutiladi.

Beshinchidan, dinning **integratorlik** vazifasi bilan **legitimlovchilik - qonunlashtiruvchilik** vazifasi chambarchas bog‘liq. Dinning bu funksiyasining nazariy asosini yirik amerikalik sotsiolog T. Parsons ishlab chiqdi. Uning fikricha, “har qanday ijtimoiyy sistema muayyan cheklovlarsiz mavjud bo‘la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko‘tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo‘lgan munosabatni ham belgilaydi”. Oltinchidan, din vazifalarining **falsafiy, nazariy** jihatlari ham mavjud. falsafiy vazifasi insonning yashashdan maqsadi, hayotning mazmuni, dorulfano, dorulbaqo – dunyo haqidagi masalalarga o‘z munosabatini bildirishdan iborat; dunyoqarashlik vazifasi – kishilarda o‘ziga xos diniy dunyoqarashni shakllantiradi.



Dinlar tasnifi.

Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko‘ra;
- etnik jihatga ko‘ra;
- e’tiqod qiluvchilarining soniga ko‘ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o‘lik diniy tizimlar) va h.k.

I. TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIF.

1) O‘rta yer dengizi havzasi dirlari:

- a) grek;
- b) rim;
- v) ellistik.

2) Qadimiylar Yaqin va O‘rta Sharq dirlari:

- a) Misr;
- b) Shumer;
- v) Akkad;
- g) g‘arbiy-somiy;
- d) islomgacha arablar dirlari.

3) Yaqin va O‘rta Sharqning payg‘ambarli dirlari:

- a) zardushtiylik;
- b) yahudiylik;
- v) xristianlik;
- g) manixeizm;
- d) islom.

4) Hindiston dirlari:

- a) vedalar dirlari;
- b) xinduizm;
- v) hind buddizm i (teravada, maxayana);
- g) jaynizm.

5) Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo dirlari:

- a) Shri-Lanka, Tibet, Janubi-Sharqiy Osiyo havzasi buddizmi;
- b) Xitoy dinlari (daosizm, konfutsiychilik, buddizm maktablari);
- v) Koreya va Yaponiya dinlari.

6) Amerika xindulari dinlari:

- a) toltek va atsteklar dinlari;
- b) inklar dinlari;
- v) mayyalar dinlari.

II. ETNIK TASNIF.

1) urug‘-qabila dinlari — totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o‘z urug‘idan chiqqan sehrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig‘inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo‘lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba’zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari — ma’lum millatga xos bo‘lib, boshqa millat vakillari o‘ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylar (yahudiy millatiga xos), hinduizm (hindlarga xos), konfutsiychilik (xitoy millatiga xos), sintoizm (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari — dunyoda eng ko‘p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qati nazar unga e’tiqod qilishlari mumkin bo‘lgan dinlar. Ular safiga odatda buddizm, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari, dinlar ta’limotiga ko‘ra monoteistik — yakkaxudolik (yahudiylar, islom) va politeistik — ko‘pxudolik (hinduizm, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo‘linadi.

4. Din va dinshunoslik atamalarining ta’rifi hamda dinshunoslik fanining vujudga kelishi va tadrijiy taraqqiyoti.

Dinning mohiyati turlicha izohlansa-da, uning asosida ishonch, e’tiqod tuyg‘usi yotadi. Darhaqiqat, din ishonmoq tuyg‘usidir. Ishonmoq tuyg‘usi insoniyatnitning eng teran va ruhiy- ma’naviy ehtiyojlaridan.

Din arabcha so‘z ekani barchaga ma’lum, lekin din tushunchasini to‘liq anglab olish uchun, uning ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’nolarini alohida-alohida olib tanishib, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Arab tilidagi manbalarda qayd etilishicha, din so‘zi “دانا” (“dâna”) fe’lidan yasalgan bo‘lib, “kimgadir bo‘ysunmoq, bo‘yin egmoq, itoat etmoq, kimdandir qarzdor bo‘lmoq, e’tiqod qilmoq, qilgan ishiga yarasha mukofotlamoq”; “diynun” so‘zi esa, “din, iymon, ajr–mukofot, qilingan ishga yarasha berilgan haq” kabi ma’nolarni bildiradi.

O‘zbek tili lug‘at adabiyotlarida “din” – ishonch, ishonmoq, e’tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo‘ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo‘l tutish, odat qilish, e’tiqod qilish ma’nolarini bildirishi keltirib o‘tiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda “drm”, “darm”, “nom” va “den” kabi so‘zlarni ishlatganlari ma’lum. Ulardan “drm”, “darm” din, aqida ma’nosida sanskritcha (qadim hind tili) “dharma”dan (Pali tilida dhamma); “nom” din ishonch, qonun ma’nosida sug‘d tilidan kirib kelganligi aytildi.

O‘zbek tilidagi “din” ma’nosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiyarning manbasi “Avesto”da “din” sifatida “daena”, qadimgi fors pahlaviy tilida “den”, “din”, “dena”, “daena” so‘zi ishlatilib, “yo‘l”, “mazhab”, “marosim”, “uslub”, “tarz” kabi ma’nolarni bildirgan. Ibroniylar tilida istifoda qilinadigan “dath” so‘zi “din” tushunchasini ifodalash uchun umumiyligi termin bo‘lib, “hukm”, “amr” va “qonun” ma’nolarini anglatgan.

Rus tilida din ma’nosini anglatadigan “religiya” so‘zining kelib chiqishi borasida lug‘atlarda bir qancha yondashuvlar keltirib o‘tilgan. Ulardan ba’zilariga ko‘ra mazkur atama lotincha “religio” so‘zidan kelib chiqib, “diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo‘ylik, mo‘minlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat–topinish–sig‘inish va u bilan bog‘liq diniy marosimlar” degan ma’nolarni anglatadi.

Ikkinci guruh tilshunoslar «religio» so‘zi semantik, ma’no va morfologik jihatdan «relegere» so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, «yangidan to‘plamoq, yangidan

tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish» kabi ma'nolarni anglatadi, deb ta'kidlaydilar.

Olimlar muayyan e'tiqod din deb atalishi uchun **uch** asosiy xususiyatga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydilar. Bulardan **birinchisi**, g'ayritabiyy iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligi. Har bir dinda topinish obyekti – Xudo bo'lishi shart hisoblanadi.

Mavjud dinlardagi Xudo haqidagi tasavvurlarni shartli ravishda ikkiga – transsendent va immanent ilohlarga bo'lish mumkin. Transsendent ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi bo'limgan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom ma'noda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, yahudiyligidagi Yaxvelarni keltirish mumkin.

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir bo'lagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga o'xshab ketadigan, biroq g'ayrioddiy yaratuvchilik, buzg'unchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega bo'lgan Xudolar kiradi. Bunday turdagilohlar ko'pincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, Yunon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, Yaponiya dinlarini sanash mumkin.

Ikkinchisi, Xudo bilan insonlarni bog'lab turuvchi kult yoki kultlar majmuasi. Yuqorida aytilganidek har bir dinda topinish obyekti – Xudo bo'lishi lozim. Yaratuvchi bilan insonni bog'lab turadigan ibodat va marosimlar majmui (qurbanlik, ro'za, bayramlar) kult deb ataladi. Kultlar kundalik yoki mavsumiy, yakka tartibdagi yoki jamoaviy kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Jumladan, islom dinida "Namoz mo'minning me'roji" (ya'ni Alloh taolonining xuzuriga ko'tarilishi) hisoblansa xristianlikdagi "sirli marosimlar"da Muqaddas Ruhning o'zi ishtirok etadi deb hisoblanadi. Shu tariqa, mavjud barcha dinlarda kultlar vositasida e'tiqodchilar o'z ilohlari bilan bog'lanadilar.

Uchinchisi esa e'tiqodchilarni o'zida jamlaydigan diniy tashkilotlarning mavjudligi. Diniy tashkilot – bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda o'z diniy

rasm-rusum, ibodat marosimlarini o'tkazadigan, diniy ta'lim oladigan muassasalaridir. Bu, islomda – masjid, madrasa, xristianlikda – cherkov, seminariya, yahudiylikda – sinagoga va hokazo.

Dinlar tarixi, ular bilan bog'liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jahhalari bilan o'zaro ta'sirlashuvini o'rganuvchi fan "Dinshunoslik" deb ataladi.

Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori ham o'zining o'rganish obyektiga ega. U dinning paydo bo'lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyusiyasini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Dinshunoslik fanining predmetini izohlang?
3. Dinshunoslik qanday ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador?
4. Din sotsiologiyasi, Din fenomenologiyasi, Din psixologiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Dinga qanday ta'riflar berilgan?
6. Dinni o'rganishda qanday yondashuv turlarini bilasiz?
7. Din jamiyati qanday vazifalarni bajaradi?
8. Hozirgi kunda din tipologoliyasida dinlarning qanday tasniflari mavjud?

Ma'ruza mashg'ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - "*Aqliy hujum*" interfaol usulidan foydalanildi.

Amaliy mashg'ulot uchun topshiriqlar:

1. Din nima?
2. Dinning jamiyatdagi roli qanday? ...
3. Dinning ijtimoiy funksiyalari?
4. Vijdon erkinligi nima?
5. Dinlar tipologiyasi nima?


Mavzu mashg‘uloti topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- “Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalaridan muhimini-tezlik bilan masala mohiyatini olib berishdan iborat.
 - Berilgan topshiriqlarni aynan manba bilan mosligi inobatga olinishi lozim.
 - Har bir topshiriqni bajarish uchun kam vaqt va sifatli natija muhim hisoblanadi
- Xulosa chiqarish uchun yig‘ilgan ma’lumotlar umumlashtiriladi va tizimga solinadi.

Ma’ruza mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri -“**Klaster**” interfaol usulidan foydalilanildi. Bunda asosan tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi.

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):

- 1.Din
- 2.Dinshunoslik
- 3.milliy dinlar
- 4.Din sotsiologiyasi
- 5.Din psixologiyasi
- 6.din tipologiyasi
- 7.jahon dinlari



TESTLAR

1.Dinshunoslik fani nimani o‘rganadi?

- A. Islom dinini vujudga kelishi va taraqqiyoti qonunlarini
- B. Barcha dinlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti qonunlarini
- C. Milliy dinlar vujudga kelishi va taraqqiyoti qonunlarini
- D. Urug‘ qabilaviy dinlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti qonunlarini

2.Konfessiya so‘zini izohlang:

- A. E’tiqod qilish
- B. Diniy idora
- C. Diniy his – tuyg‘u
- D. Diniy ong

3.Din – bu;

- A. Xalq uchun af’yun,
- B. Insonning xudo bilan o‘zaro munosabat usuli,
- C. Tashqi olam kuchlarining kishi ongida g‘ayritabiyy ifodalanishi,
- D. Axloqiy me’yor va printsiplar tizimi.

4.“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qachonqabul qilingan (yangi tahrirda)?.

- A. 1992 may
- B. 1999 yil may.
- C. 1998 yil may
- D. 1991 yil may

5.Dinning qanday funksiyalari bor?

- A. Axloqiy, tarbiyaviy, mafkuraviy, ma’naviy, ijtimoiy
- B. To‘ldiruvchilik, birlashtiruvchilik, o‘zaro aloqadorlik, tartibga soluvchilik, qonunlashtiruvchilik
- C. Tinchlik, do‘stlik, tenglik, tabiatni muhofaza qilish, ekologik
- D. Gnoseologik, antropologik, teologik, psixologik, axloqiy

6.Jahon dinlari qaysilar?

- A. Buddizm, xristianlik, islom
- B. Buddizm, iudaizm, sintoizm
- C. Xristianlik, islom, protestantizm
- D. Pravoslavie, katolitsizm, braxmanizm

7.Qaysi bir din eng qadimgi?

- A. Islom
- B. Yaxudiylik
- C. Buddizm
- D. Nasroniylik

8.Vijdon erkinligi nima?

- A. Kishilarning o‘z milliy diniga e’tiqod qilish huquqi
- B. Fuqarolarning albatta biron bir jahon diniga e’tiqod qilish zarurligi
- C. Fuqarolarning dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmasligini o‘zlar mustaqil hal qilish huquqi
- D. Fuqarolarning dinga ishonmasligi va unga qarshi tashviqot olib borish huquqi

9.“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”. Ushbu fikrlar Konstitutsiyamizning qaysi moddasida ko‘rsatib o‘tilgan

- A. 41 modda
- B. 8 modda.
- C. 31 modda
- D. 128 modda

10.Diniy tasavvurlar va umuman dinni inkor qiluvchi hurfikrlik shakli nima?

- A. Monoteizm
- B. Panteizm
- C. Ateizm
- D. Skeptitsizm

12-MAVZU. BUDDAVIYLIK VA XRISTIAN DINI TARIXI VA FALSAFASI

Reja:

- 1.** Buddaviylikning vujudga kelishi, ta’limoti- to‘rt oliy haqiqat, nirvana.
- 2.** Buddizimdagi oqimlar va O‘zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari, ularning tadqiq etilishi.
- 3.** Xristianlik va xristianlikdagi asosiy oqimlar.
- 4.** Xristianlikning O‘rta Osiyoga kirib kelishi.

Tayanch so‘zlar: *Budda, Sidharta Gautama, Shakyamuni, Bxagavan , Tripitaka, Meditatsiya, Panch-Shila, Panchtantra, Xristos, Injil, Iso Masix, Pasxa, Provaslav, Katolik, Protestant, Ikona, Bibliya*

1. Buddaviylikning vujudga kelishi, ta’limoti – to‘rt oliy haqiqat, nirvana.

Buddizm mil.av.I ming yillikning o‘rtalarida Hindistonda braxman kastasiga kirmaganaholining braxmanizmga norozilik kayfiyati natijasida, jaynizm dini kabi paydo bo‘lgan dindir. Buddizm dini Hindistonda paydo bo‘lgan bo‘lsada, Osiyoning katta qismi – Xitoy, Hindixitoy, Mongoliya, Yaponiya, Koreya va boshqa hududlarga tarqalgan jahon dinlaridan biridir. Bu dinga e’tiqod qiluvchilar turli manbalarga ko‘ra 700 mln kishini tashkil etadi.

Buddizm dinining asoschisi tarixiy shaxs – Siddxartxa Gautama – Shakya (sakya) qabilasi rojasining o‘g‘li bo‘lib mil.avv. VI asrda tug‘ilgan. Uning tug‘ilishi haqidagi afsonaga ko‘ra onasi Mayya tushida o‘zining biqiniga oq fil kirib ketganligini ko‘radi va bola ham xuddi shunday onasini biqinidan tug‘iladi. Gautamaning onasi u tug‘ilgandan bir necha kun o‘tgandan so‘ng vafot etgan. Otasi Siddxartxa Mudsxadana xotiniga bo‘lgan muhabbat ixotirasiga o‘g‘lini g‘amtashvishsiz voyaga yetkazishga harakat qiladi. Gautama o‘z zehni va qobiliyati bilan tengdoshlari orasida ajralib turardi. Donishmand qariyalari tomonidan uni o‘ziga xos kelajak kutayotganligi bashorot qilingan. Hashamat va o‘yin-kulgi bilan o‘ralgan Gautama faqat hayotni quvonchlarini bilardi xolos. U voyaga yetadi, uylanadi, o‘g‘il ko‘radi va bu orada hech narsa uning baxtiga to‘sqinlik qilmasdi. Kunlarning birida

u xizmatkori Changa bilan saroy tashqarisida aylanib yurib yuzlari yara bosgan kishini ko‘rib undan ta’sirlanadi. Shundan so‘ng u mukkaygan qariya, dafn marosimi va chuqur o‘ylovga sho‘ng‘igan zohidni ko‘radi. Bu to‘rtta uchrashuv hikoya qilinishicha g‘amsiz yashayotgan shaxzoda dunyoqarashini tubdan o‘zgartiradi. U dunyo o‘zi o‘ylaganidek g‘am-tashvishsiz emasligini tushunadi. Dunyoda baxsizlik, kasallik, o‘lim borligi hamda olamni azob-uqubatlar boshqarishini tushunib, rohat-farog‘atda yashayotgan shaxzoda o‘z saroyini tark etadi. Gautama mana shu azob-uqubatlarni sabablarini aniqlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan. O‘sha davrdagi hind madaniyati bu muammoga ma’lum shakldagi javobni ishlab chiqgan edi. Yuqorida aytganimizdek rivojlangan falsafiy tizimlar, amaliy yoga mavjud edi. Shuning uchun Gautama vedizm va braxmanizmning falsafiy merosini o‘rganishga kirishadi va bu merosning ko‘p tamonlari u tomonidan o‘zlashtirilib, ijodiy qayta ishlandi. Biroq bundan oldin u o‘sha davr falsafiy tizimida ta’kidlangan – osoyishtalikga faqat zoxidlik turmush tarzi orqali erishish mumkin degan ta’limotga amal qildi. Mana shu maqsadda zohid ko‘rinishiga kirib yetti yil haqiqatni izladi. U shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, mana shu davr ichida zoxidlik turmush tarzida yeysidan tiyilib, jismoniy jihatdan yomon bir holatga kelib qoladi. Kunlardan bir kuni u Bodxi (bilish) daraxti ostiga o‘tirganida unga birdaniga haqiqat namoyon bo‘ladi. U hayot charxpalagining siri va ichki sababini, to‘rt muqaddas haqiqatni anglaydi. Shundan so‘ng, u Buddha (nurlangan, ko‘ngli ravshan) bo‘ladi. Buddha bo‘lgan Gautama bir necha kun xolsiz ahvolda, joyidan qimirlay olmasdan muqaddas daraxt ostida o‘tiradi. Afsonalarga ko‘ra shunda Buddani yovuz ruh Mara haqiqatdan odamlarni boxabar qilmasdan, to‘g‘rida-to‘g‘ri nirvanaga sho‘ng‘ishga undab, uni chalg‘itishga harakat qiladi. Lekin Buddha barcha qiyinchiliklarga chidab unga qarshi turadi. “Haqiqat”ni anglagan Buddha o‘z targ‘ibotini boshlash maqsadida Banoras yaqinidagi Sarnatxga kelib beshta zoxidni o‘ziga shogirdlikga oladi va ularga o‘zining targ‘ibotini o‘qib eshittiradi. Bundan tashqari Buddha Urevela o‘rmonidagi zohid-braxmanlarga, Magadxining poytaxti Rajagrixda o‘z ta’limotini targ‘ib qiladi. Uning izdoshlarini soni kun sayin oshib borgan. Bir qism shogirdlarini o‘z ta’limotini yoyish maqsadida Hindistonning turli

chekkalariga yuboradi, bir qism shogirdlari bilan esa mamlakatni kezib ta’limotini o‘zi targ‘ib qiladi. Keyingi Buddanining 40 yillik umri mana shunday o‘z targ‘ibotini mamlakatning turli chekkalariga yoyish bilan o‘tadi. Umrining oxiriga kelib Buddanining izdoshlari Magadxa, Koshal va Shimoliy-Sharqiy Hindistonda ko‘pchilikni tashkil etardi. Buddha 80 yoshda vafot etgandan so‘ng uning tanasi qadimgi Hindistondagi an'anaga ko‘ra kuydiriladi va xoki mamlakatning turli chekkalariga yuborilib, mana shu xududlarda uning nomi bilan ibodatxonalar qurdiriladi.

Buddizm dinining paydo bo‘lishi o‘sha davr Hindiston aholisining ijtimoiy, diniy ma’naviy hayoti bilan bog‘liq. Buddizmning paydo bo‘lgan vaqt masalasi ham o‘ziga xos ilmiy munozaralarga sababdir. Uning qachon paydo bo‘lganligi haqidagi ishonchliroq ma’lumotga ko‘ra podsho Ashoka ikkinchi buddistlar yig‘inidan 118 yil o‘tgandan so‘ng taxtga o‘tirgan va o‘z navbatida buddistlarning ikkinchi yig‘ini Buddanining nirvanasi (o‘limi)dan 100 yildan keyin bo‘lgan. Podsho Ashakaning hukmronligi mil avv. 273-236 yillarga to‘g‘ri keladi va shunga asoslanib Buddanining to‘g‘ilishi taxminan mil.avv. 570 yillarga, vafoti esa mil. avv. 490 yilga to‘g‘ri keladi.

Demak, buddizm dini mil.avv. VI-Vasrlarda Magadxada vujudga kelgan. Magadhada o‘sha davrdagi yuqori kasta – braxman va kshatriylar bilan quyi kasta vakillari o‘rtasidagi ziddiyat, hokimiyat uchun braxmanlar bilan kshatriylar o‘rtasidagi kurash; kshatriylar kastasidan yangi harbiy sulolalarni (masalan, Seysunaga sulolasiga) vujudga kelishi va ularni hokimiyatdan braxman zadagonlarni siqib chiqarishi braxmanizm dini asosida shakllangan an'anaviy dunyoqarashni inqiroziga sabab bo‘ldi. Go'yoki xudo Braxma tomonidan o‘rnatilgan kasta tuzumiga nisbatan ishonchga putur eta boshladi. Zohidlik, tarkidunyochilik, rohiblikning keng tarqalishi (hatto yuqori kasta vakillari orasida ham) mayjud tuzumdan norozilikni kuchayganligidan dalolat beradi. Mana shu sharoitda tarki dunyochilik ta’limoti, sektalari, hatto charvaka kabi falsafiy oqimlar ham vujudga keldi. SHu davrdagi jamiyat ma’naviy ruhiyatini o‘zida ko‘proq ifodalagan ta’limotlardan biri buddizm edi.

Buddizmning axloqiy va ijtimoiy g‘oyalari jamiyatning keng qatlami vakillari manfaatiga mos kelardi. Uning amaliyoti, ya’ni nirvanaga erishish maqsadi faqat rohiblar uchun mo‘ljallangan edi. Shu sababli budda jamoalari rohib-bxikshu (“qashshoq”)lar jamoasi edi. Buddaning birinchi izdoshlari yomg‘irlar davrida yig‘iladigan kichik gruhdan (6 kishidan kam bo‘lman) iborat zoxidlar bo‘lgan. Jamoaga kiruvchilar har qanday mulkdan voz kechishgan va sochlarini olib, sariq rangli maxsus kiyim kiyishgan o‘zлari uchun birinchi zarurat bo‘lgan narsalarda tashqari hech narsaga ega bo‘lishmagan. Ular asosiy vaqtini shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib sadaqa yig‘ishda o‘tkazgan. Ular faqat tushgacha go‘shsiz ovqat yejish huquqiga ega bo‘lishgan va ertasi kuni tonggacha umuman ovqat iste’mol qilishmagan. G‘orlar, tashlandiq binolarda yomg‘ir davrini kutib, o‘zaro suxbatlashib, meditasiya amaliyotini bajarib, o‘z ta’limotlari nazariyasi va amaliyotini rivojlantirib yashashgan. Ular manzilgohi yaqinida o‘lgan bxikshu dafn qilingan. Keyinchalik mana shu ilk buddistlar dafn qilingan joylarda yodgorliklar-gumbazsimon qurilmalar bino qilingan. Mana shu yodgorliklar atrofida asta-sekin boshqa qurilmalar ham qad ko‘targan va shu asosda monastirlar vujudga kelgan. Monastir hayoti nizomi asta-sekin shakllana bordi, rohiblar soni oshdi, tinglovchilar, manastir dehqonlari va qul- xizmatkorlar paydo bo‘ldi. Avvalgi erkin sayyoh bxikshu monastirda doimiy yashaydigan, nizom talablariga rioya qiladigan, umumiylig‘in, sangxa (ushbu monastir rohiblari jamoasi) va saylangan ustozga bo‘ysunuvchi rohibga aylandi.

Rohiblar turmush tarzi Tripitaka (“Uch savat”)ning muhim qismi bo‘lgan Vinayapitakimatnlari bilan tartibga solingan. U beshta kitobdan iborat bo‘lib, budda rohiblari jamoasining tashkiliy dasturlariga, bu jamoaga kirish qoidalariga, rohiblarning farzlariga bag‘ishlangan. Suttapitaka ham Tripitakaning tarkibiga kirgan va u ham besh kitobdan iborat bo‘lib, unda Buddha ta’limoti uning o‘zini tilidan, shogirdlari tilidan masal, suhbat, afsona, doston, hikmatli so‘z, sharhlar tarzida bayon qilingan. Tripitakaning uchinchi qismi Abhiidxarmapitaka yetti kitobdan iborat bo‘lib, unda diniy ta’limot asosiy qoidalarining ilohiy talqini o‘z ifodasini topgan. Bu matnlar buddaviylar tomonidan yuksak baholanib yaxshi

saqlangan va rohiblar tamonidan ko‘chirilib yirik va mashhur monastirlarning kutubxona-arxivlarida saqlangan. Shunday mashhur monastirlardan biri milodimizning boshlarida Hindistondagi Nalanda monastiri bo‘lib, unga ko‘pgina hududlardan buddaviylik ta’limotini o‘rganmoqchi bo‘lgan, ta’lim olishni hohlovchi, buddizmning muqaddas matnlarini ko‘chirib olib o‘z yurtiga olib ketishni hoxlovchi ko‘plab kishilar intilgan.

Buddizmning ilk ta’limotida diniy mazmundan ko‘ra falsafiy-axloqiylik ustun turadi. Ilk budda ta’limotida “to‘rt haqiqat” nazariyasi asosiy o‘rin egallaydi. Bu to‘rt haqiqat: azob- uqubatlarning mavjudligi, azob-uqubatlarning sabablari, azob- uqubatlarni tugatish va azob- uqubatlarni tugatish yo‘llari haqidagi ta’limot.

Uning ta’limoti insonning xayolida, ishlarida va o‘zini tutishida samimiy olivjanoblik g‘oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta’limotini inkor qildi, hayvonlarni vahshiyona qurban qilishni qoraladi, *varna* (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda “Yaratuvchi oliy kuch”ning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu turmush tarzidir.

Budda ta’limotining asosida “hayot – bu azob, uqubat” va “najot yo‘li mavjud” degan g‘oyalar yotadi. Buddizm ta’limotiga ko‘ra, inson o‘ziga xos mavjudot bo‘lib, tug‘iladi, o‘zini o‘zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g‘oyalar Buddaning ilk da’vatida ta’birlangan to‘rt haqiqatda o‘z ifodasini topgan.

1- haqiqat “Azob-uqubatlar mavjuddir”. Budda ta’limotiga ko‘ra butun hayot azob- uquqbatdir. Tug‘ilish azob-uqubat, keksalik azob-uqubat, kasallik azob- uqubat, yomon ko‘rgan kishisi bilan yashash azob-uqubat, yaxshi ko‘rgan kishisidan ajralish azob-uqubat, istagan narsasiga erishmaslik azob-uqubatdir.

2- haqiqat – “Azob-uqubatlarning sabablari mavjuddir”. Azob- uqubatlarning sabablari – yashash istagi, lazzatlanish, mayl, nafs, hamda hukmronlikga va abadiy hayotga intilish va boshqa.

3- haqiqat – “Azob-uqubatlarni tugatish mumkin”. Azob-uqubatlardan qutulish uchun ushbu istaklarni butunlay tugatish lozim. Odam har qanday mavjud

bo‘lishga intilishni, har qanday istakni, nimaga bo‘lishidan qat’iy nazar bog‘liqlikni, maylni o‘ziga bo‘ysundirishi kerak.

4- haqiqat – “Azob-uqubatlardan qutulish yo‘llari”. Azob-uqubatlardan qutulish uchun Buddha tomonidan ishlab chiqilgan “Sakkiz bosqichli yo‘l”ga rioya qilish lozim. Bu yo‘l haqiqatga erishish va nirvanaga yaqinlashish usullaridir.

1. *To ‘g‘ri qarash, e’tiqod*, ya’ni “ezgu haqiqat” ga asoslangan qarashlar, Buddaning “bu olam g‘am-tashvish va azob-uqubatdan iborat hamda inson o‘ziga istaklarini bo‘ysundirishi kerak” degan fikriga ishonish.

2. *To ‘g‘ri qat’iylik*, niyat ya’ni haqiqat uchun har qanday jasoratga tayyor turish. O‘z yo‘lini qat’iy belgilash, o‘zining istak va intilishlarini cheklash.

3. *To ‘g‘ri so‘z, nutq*, ya’ni samimiylar, chin, yaxshi niyatli so‘z. O‘z so‘zlarini nazorat qilish va ular yovuzlikga olib bormasligi, nutq chin, yaxshi niyatli bo‘lishini ta’minlash.

4. *To ‘g‘ri ish, hatti-harakat*, ya’ni yovuzlik qilmaslik. Yovuz xatti-harakatlardan saqlanish va ezgu ishlarni qilish.

5. *To ‘g‘ri turmush tarzi*, ya’ni tinch-totuv, sof, vijdonli. Tirik mavjudotga zarar keltirmasdan munosib turmush tarzi yuritish.

6. *To ‘g‘ri intilish, to ‘g‘ri fikrlash*, ya’ni o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini boshqarish. O‘z fikri yo‘nalishini nazorat qilish, yovuz fikrlardan holi bo‘lish va ezgulariga yo‘naltirish.

7. *To ‘g‘ri diqqat*, ya’ni ongning faol xushyorligi.

8. *To ‘g‘ri yo‘naltirish, yaratish*, ya’ni yaratish va meditasiyaning to‘g‘ri usullari. Doimiy va sabr bilan shug‘ullanish, diqqatini bir joyga to‘plash qobiliyatiga erishish, haqiqatni izlashga sho‘ng‘ish.

Buddizm ta’limoti, asosan, uch qismdan iborat: 1) axloq; 2) meditastiya; 3) donolik.

1.Axloq normalari – “Pancha shila” (Buddaning besh nasihat):

- 1) qotillikdan saqlanish;
- 2) o‘g‘rilikdan saqlanish;
- 3) gumrohlikdan saqlanish;

- 4) yolg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish;
- 5) mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

2.Meditastiya.

- 1) to‘g‘ri tushunish (to‘g‘ri e’tiqod qilish) – Buddaning birinchi da’vatida so‘z yuritilganto‘rt haqiqatni bilish va unga ishonish;
- 2) to‘g‘ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo‘lishga, keraksiz fikrlar vaboshqalarga zarar yetkazib qo‘yishdan saqlanishga intilish;
- 3) o‘zini to‘g‘ri tutish – o‘ziniki bo‘lmagan narsaga ko‘z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;
- 4) to‘g‘ri anglash – o‘z tanasi va ruhiga o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan darajada nazoratdabo‘lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo‘yish;
- 5) to‘g‘ri harakat qilish – o‘zidagi yomon tuyg‘ularni jilovlash hamda ezgu tuyg‘ular va harakatlarni rivojlantirish;
- 6) to‘g‘ri hayot kechirish – noma’qul hayot tarzidan saqlanish;
- 7) to‘g‘ri fikr yuritish – kamolotning to‘rt bosqichini ketma-ket bosib o‘tish;
- 8) to‘g‘ri gapirish – yolg‘ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

1. Donishmandlik – bu buddizmning asosiy maqsadi bo‘lib, narsalar tabiatini to‘g‘ri tushunishdan iborat.

Yuqorida ko‘rsatilgan uch amaliyot bosqichini o‘tagan inson oxir-oqibat oliv saodatga, ya’ni *nirvana* holatiga erishadi. *Nirvana* so‘zining lug‘aviy ma’nosi – “o‘chish, so‘nish”. Unda hayotning har qanday ko‘rinishiga intilish yo‘qoladi.

2. Buddizmdagi oqimlar va O‘zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi. Ilk buddaviylikning dxarmalar tabiatini haqidagi mavhum metafizik asoslari buddaviylikda ikki oqim “Xinayana” (kichik g‘ildirak) va “Maxayana” (katta g‘ildirak) yuzaga kelishiga olib keladi.

Xinayana ta’kidlashicha dxarmalar tabiatini o‘rganish va nirvanaga erishish ma’naviy yo‘l bilan bo‘ladi. Bu yo‘l juda og‘ir va faqat monaxlargina nirvana

holatiga etishi mumkin. Maxayana esa Buddha tanasi jonzotlarni azobdan qutqarish uchun turli jonzot formasiga kirishi mumkin va hayot zanjiridagi barcha uni o‘rganishi, anglashi mumkin deydi. Bu narsa cheksiz Buddha ramlarini, xudolarni kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bu xudolarga ishonish yo‘llari barchaga mumkin. Shu sababli “Katta g‘ildirak” deb nomlanadi.

“Dzen buddizm” V–VI asrlarda Xitoyda paydo bo‘lgan mahayana yo’nalishidagi maktablaridan biridir. Uning asoschisi afsonaviy rohib Bodhidharma hisoblanadi. “Dzen” (lotincha – meditatsiya, fikrni jamlash, diqqat bilan mushohada qilish) buddizmning asosiy xususiyatlari sifatida nazariyadan ko‘ra amaliyatga, diniy o’git va qonun–qoidalarni yodlash o‘rniga mushohada qilishga alohida e’tibor berilishini, irratsionalizm va mistikaga moyillikni qayd etish mumkin.

Dzen buddistlar “yoga” mashqlarini bajarish, jismoniy mehnat qilish, san’at turi bilan shug’ullanishga katta ahamiyat beradilar. Har qanday aqida va e’tiqod shakllarini (hattoki, Buddani ham) inkor qilish, hech kimga taqlid qilmaslik va ruhiy erkinlikka erishish, “vaqt–abadiylik”, “subyekt–obyekt”, “hayot–o’lim”, “haqiqat va yolg’on”, “yaxshilik va yomonlik” kabi ziddiyatlarni bartaraf etishni kamolotga erishishning oliy yo’li, deb hisoblaydilar. Dzen buddizmda tashqi olamdan uzilib, abadiy tashvishlardan chetlanish va fikrni bir nuqtaga jamlashga alohida e’tibor beriladi va “satori” (sanskritcha – yilt etib ko’rinish)ni targ’ib qilinadi. Trans holatiga tushgan kishining haqiqatga erishishi dzenning oliy maqsadi, deb bilinadi.

“Dzen buddizm” barchani irqi, millati, diniy e’tiqodidan qat’i nazar, “hammaga mos jonli amaliy haqiqat” sirlaridan ogoh bo’lishga chaqiradi. Hozirda dzen buddistlar 10 milliondan ortiq, ularning 85 foizi Yaponiyada yashaydi. Unda ilgari surilgan g’oyalarning bevosita “dildan–dilga” uzatilishi, insonning o’z ruhiy mohiyati bilan yaqinligi, belgi va shakllarga qaram bo’lmaslik, ya’ni fikrning so’z va belgilarsiz ifoda etilishi, insonning o’z ichki dunyosiga murojaat qilishi orqali Buddha kabi barkamollikka erishish mumkinligi haqidagi qarashlar ommaviy tus olgan.

Hozirda Yaponiyada dzen ibodatxonalari diniy, siyosiy va madaniy markazga aylanib, yoshlar tafakkuri, turmush tarzi, faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, dzen san'ati xitoy va yapon madaniyati an'analaridan biriga aylangan. Samuraylar dzen buddizm targ'ibotchilari hisoblanadi. Dzenga "hammaga mos jonli amaliy haqiqat" deb ta'rif berishgan, ya'ni inson ichki dunyosi orqali haqiqat va barkamollikka erishishi mumkinligi e'tirof etilgan holda qat'iy tartib va maxsus ruhiy mashqlarga amal qilish talab etiladi.

Bugungi kunda dzen buddizm G'arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSh va Kanada yoshlari orasida keng tarqalganini qayd etish lozim. Shu asnoda mediatatsiya qonun va talablarini buzib talqin etish, mast qiluvchi ichimlik va narkotik moddalardan foydalanish orqali "nirvana"ga erishish mumkin, degan qarashlar ham keng yoyilib borayotganini ta'kidlash zarur. Yoshlarning bunday qarashlar ta'siriga berilishi ularning turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatib, nosog'lom mayllarning kuchayishi, alkogolizm va narkomanianing chuqur ildiz otishiga zamin yaratmoqda.

Lamaizm (tibetcha – eng ulug') VII–XIV asrlarda Tibetda mahayana yo'nalishi ta'sirida vujudga kelgan. Muqaddas diniy kitoblar "Kang'yur" va "Teng'yur"da bayon qilingan barcha qonun–qoida va talablar lamaizm e'tiqodining asosini tashkil etadi. Lamaizm ta'limotiga ko'ra, inson buddaviylik aqidalariga tayanib, faqat lamalar yordamida najot topadi, gunohlardan poklanadi, lamalar yordamisiz oddiy kishilar jannatga tusha olmaydi.

Buddanining Yer yuziga yana qaytishi va dunyodaadolat o'rnatishiga ishonch lamaizm ta'limotida muhim o'rin egallaydi. Xudolarning Yerdagi vakili hisoblangan lamalarga va dunyoviy hokimiyatga so'zsiz bo'ysunish, ibodat va rasm–rusumlarni dabdabali o'tkazish, muqaddas kitoblar talqinini teatrlashtirilgan tomoshalarda aks ettirish, xudolarning g'azabi, yovuz ruhlar ziyonini qaytarish uchun turli duo va afsunlar o'qish lamaizmga xos xususiyat hisoblanadi. Odam o'ldirish, o'g'rilik, yolg'onchilik, tuhmat, g'iybat, bekorchi so'zlash, ochko'zlik, kek saqlash, zino qilish lamaizmda ham og'ir gunoh sanaladi. Lamaizm ta'limotiga

ko’ra, gunoh qilishdan o’zini tiyish fazilat hisoblanib, insonga “eng yaxshi qayta tug’ilish”ga yordam beradi.

Lamaizmning oliy diniy rahnamosi Dalay–Lama (tibetcha – “dengizdek ulug’ lama”) tug’ilgan mavjudotlarning eng ulug’i, “boddhisattva”ning Yerdagi ko’rinishi, tirik xudo hisoblanadi.

“Lamaizm” tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. Tibetda 3000 dan ortiq buddaviylik ibodatxonalar mavjud. Shuningdek, lamaizm Rossiyaning, Buryatiya, Tuva, Oltoy kabi hududlarida ham keng tarqalgan.

Buddaviylik miloddan avvalgi VI–V asrlarda Shimoliy Hindistonda vujudga keldi. Bu davrga kelib ko‘p xudolikka asoslangan vedachilik, braxmanlik, jaynizm yangi ijtimoiy sharoitga javob bera olmay qolgan edi. Buddaning bo‘ysunish va itoatkorlik, azob–uqubatlardan qutulishning asosiy yo‘li, aql farmoniga bo‘ysunish orqali inson oliy saodatga erishishi mumkinligi haqidagi g‘oyalari o‘sha davr ijtimoiy–siyosiy va ma’naviy hayotini yorqin aks ettirar edi.

Baqtriya–Toxaristonning eng taraqqiy etgan madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Termizning madaniy–ma’naviy hayotida buddaviylikning o‘rni misolida ko‘rish mumkin. Miloddan avvalgi 1–asrda Termizda buddaviylik ustuvor mavqega ega bo‘ldi. Bunda shahar zadagonlarining buddaviylikni qabul qilishi va ibodatxonalar qurilishiga homiylik qilishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalar eng katta sajdaghohlardan hisoblangan. Ularda Buddaning loydan yasalgan katta haykali va stupalar bo‘lgan. Ibodatxonalar odatda yer osti va yer usti qismlaridan iborat bo‘lgan. Bu yerda alohida stupalar ham mavjud bo‘lib, ular oq marmardan mahorat bilan ishlangan Buddha haykalchalari bilan bezatilgan “Zo‘rmala” stupasi mahobati bilan ajralib turgan. Stupalar bir necha balandlikda to‘rtburchak shaklda bunyod etilgan. Stupa usti gumbazsimon qilib ishlanib, unga yog‘och yoki toshdan yasalgan langar o‘rnatalgan. Bu langarlarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo‘lib, buddaviylar uni “chatra” deb atashgan. “Chatra” muqaddas daraxt timsolidir. Fayoztepa “vixara” (sanskritcha – kulba, boshpana, buddaviy rohiblarning yomg‘ir mavsumi vaqtida yashaydigan kulba, hovli va bog‘dan iborat bo‘lgan joyi) uslubidagi ibodatxona bo‘lib, uning markazida

diniy marosimlar o‘tkazilgan. Ibodatxona bilan yonma–yon joylashgan stupadan oltin suvi yurgizilgan, sopol va marmardan yasalgan haykallar topilgan. Bu yerdan marmar toshdan nafis ishlov berib yasalgan muqaddas “Boddxa” daraxti ostida o‘tirgan Buddha va uning ikki tomonida turgan ikki rohib haykali ham topilgan. Qoratepa xarobasidan shimoliy Baqtriyadagi eng katta va mahobatli stupa topilganini alohida qayd etish lozim. Bizgacha stupaning asosi hamda zinapoyaning ikki tomonida joylashgan kichik stupalar, o‘sha davrga tegishli yozuv namunalari saqlanib qolgan. Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa o‘rnida bo‘lgan. Kushonlar hukmdori Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllanib, savdo–sotiq markazlaridan biriga aylangan. Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa (qalinligi 10 metrgacha bo‘lgan qudratli mudofaa devori bilan o‘rab olingan qal’a shahar) majmuasidan Buddha ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma, shuningdek, oltin xazina to‘ldirilgan ikki yarim metrli sopol ko‘za topilgan. Bular buddaviylikning o‘sha davr xalqlari ijtimoiy–ma’naviy hayotidagi mavqeい va boshqa mahalliy dinlar o‘rtasida egallagan o‘rnini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi va madaniyati rivojida buddaviylik muayyan o‘rin egallaydi. Bunga Markaziy Osiyo hududida joylashgan Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayrитом mavzelaridan topilgan arxeologik qazilmalar, jumladan, Shakyamuni sanamlari, haykalchalar, ramziy g‘ildiraklar va stupa qoldiqlari, shuningdek, marmardan yasalgan va juda yaxshi saqlangan Buddha haykali aniq dalolat beradi. Qadimgi Termiz xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Buddha kompleksi (Buddaning tikka turgan, o‘tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan. Qoratepada topilgan arxeologik yodgorliklar yer usti va g‘or ichida joylashgan ibodatxona, saroy, rohib (zohid) uchun moslashtirilgan hujralardan iborat bo‘lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yodgorliklar buddaviylikning o‘sha davrdagi mavqeい haqida xabar beradi. Shuningdek, ajdodlarimizning yuksak moddiy madaniyati, dini, urf–odati, tafakkur tarzi haqidagi tasavvurimizni boyitishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubiy–sharqi, Sharqiy Osiyo mamlakatlari Shri Lanka, Hindiston, Birma, Tailand, Laos, Mo‘g‘uliston, Kambodja, Vyetnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Yevropa va Amerika qit’asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya, Qalmiqiston kabi hududlarida keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo‘nalishlariga e’tiqod qiladi. Hozirda buddaviylik Yaponianing davlat dini hisoblanadi. Xristianlik dini buddaviylik va islom dinlari qatorida jahon dini hisoblanadi. Bu din o‘ziga e’tiqod qiluvchilarning soni jihatidan jahon dinlari orasida eng yirigi hisoblanadi. Unga e’tiqod qiluvchilarning soni 1 mlrd. 600 mln. bo‘lib, bu son dunyo aholisining deyarli uchdan biriga to‘g‘ri keladi.

Xristianlik asosan Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya qit’alarida hamda qisman Afrika qit’asining janubiy qismida va Osiyo qit’asining sharqiy qismida tarqalgan.

Xristianlik eramizning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masix (Iisus Xristos) Bibliyaning xabar berishiga ko‘ra, xristianlik ta’limotining asoschisi bo‘lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747 yili Falastinning Nazaret qishlog‘ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog‘liq.



Muqaddas “Troitsa”

Eramizning boshlarida yaxudiylar xokimiyatning uch tabaqasi bilan bog‘liq og‘ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomondan Rim imperatori va uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomondan Falastin podshoxi Irod Antipa, uchinchi tomondan esa ruhoniylar xalqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko‘mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yaxudiylar o‘rtasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvchilar paydo bo‘ldi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masix yaxudiylikni islox qilish va uni turli

xurofotlardan tozalash g‘oyasi bilan chiqib, xristian diniga asos soldi. Yaxudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg‘in qildilar. Isoning 33 yoshida fitnachilikda ayblab qatl etishga xukm qildilar.

Isoning tarixiyligi xususida diniy va diniy bo‘lмаган манбалар орасида истилоф мавjud: xristianlik manbalari Isoning o‘zi xudo bo‘la turib, insoniyatning gunoxlarini o‘ziga olish uchun odam qiyofasida tug‘ilganini, uning tarixiy shaxs ekanini ta’kidlab, uning hayot tarzini, insonlar bilan muloqoti haqidagi keng ma’lumotlarni bersada, diniy bo‘lмаган манбаларда Isoning nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxsdir deguvchilar ham bor.



Bibi Maryam ikonasi

Iso nomiga qo‘shiluvchi Masix so‘zi qadimiy yaxudiy tili - *ivritdagи “moshiах”* so‘zidan olingan bo‘lib, “silangan” yoki “siylanigan” ma’nolarini beradi. Grekchada bu so‘z “xristos” (“christos”) shakliga ega. Bu dinning “xristianlik” yoki “masixiylik” deb atalishi ham shu so‘zlar bilan bog‘liq. Bundan tashqari xristianlik Iso Masixning tug‘ilgan qishlog‘i - “Nazaret” bilan bog‘lab, *nazroniyya* deb ham atalgan. Keyinchalik bu nom *nazroniyya*, *nazroniylik* shaklini olgan.

Iso Masix o‘z ta’limotini o‘zining 12 o‘quvchisi *Apostollar - Xavoriylarg‘a* o‘rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta’limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar *Bibliyaning “Yangi axd”* qismini tashkil etadi.

Xristianlikning ta’limoti. Manbalar xabar berishicha, xristianlik yaxudiy muxitida yuzaga kelgan. Bu esa xristianlikning yaxudiylikdan ko‘p jixatdan ta’sirlanishiga sabab bo‘ldi. Xristianlikning asosiy g‘oyasi - Isoning odamzodning xaloskori “messiya” ekanligi yaxudiylikda mavjud bo‘lib, oxiratga yaqin kelishi kutilayotgan xaloskor haqidagi ta’limotdan kelib chiqqandir.

Keyinchalik bu ta’limot Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki xil – odam va xudo moxiyati haqida “gunoxni yuvish”, ya’ni Isoning o‘zini ixtiyoriy

tarzda qurbon qilishi haqidagi ta'limot bilan mustaxkamlanadi. Xristianlik muqaddas ruh ota-xudo, bola-xudo va muqaddas ruh - uch yuzlik xudo to‘g‘risidagi ta’limoti, targ‘ibot - tashkilotchilik, jannat va do‘zax, oxiratda go‘yo dunyoning oxiriga borish, Isoning qaytishi haqida va boshqa aqidalarini o‘z ichiga oladi.

Xristian jamoasining shakllanishi, uning aqidalarini tartibga solinishi, cherkov munosabatlarining ishlab chiqilishi, diniy tabaqalar tuzumining vujudga kelishi eramizning IV asr boshlarida 324 yili xristianlik Rim imperiyasida davlat dini deb e’lon qilinganidan so‘ng amalga oshdi.

325 yili tarixda birinchi marta Rim imperatori Litsiniya imperiya hududidagi xristian jamoalarini o‘zaro kelishtirish va tartibga solish maqsadida Nikey shahrida I Butun Olam Xristian Soborini chaqirdi. 381 yili Konstantinopolda II Butun Olam Xristian Sobori bo‘lib o‘tdi. Bu soborlarda xristianlik ta’limotining asoslari qabul qilindi va bu asoslar 12 qismda ifodalandi.

Birinchi qismda olamni yaratgan Xudo haqida so‘z yuritiladi.

Ikkinchi qismda Xudoning o‘g‘li Isus Xristosga imon keltirish haqida so‘z boradi.

Uchinchi qismda ilohiy mujassamlashuv haqida so‘z yuritilib, unga ko‘ra, Iso Xudo bo‘la turib, bokira Bibi Maryamdan tug‘ilgan va inson qiyofiga kirgan.

To‘rtinchi qismda Isoning azob-uqubatlari va o‘limi haqida so‘z ketadi. Bu gunoxlarning kechirilishi haqidagi aqidadir. Bunda Isoning tortgan azoblari va o‘limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunoxlari kechiriladi deb e’tiqod qilinadi.

Beshinchi qismda Isoning xochga mixlanganidan so‘ng uch kun o‘tib qayta tirilganligi haqidagi aqida keladi.

Oltinchi qismda Isoning meroji haqida so‘z yuritiladi.

Yettinchi qismda Isoning nuzuli (ikkinchi marotaba yerga qaytishi) haqida so‘z yuritiladi.

Sakkinchi qism Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasidadir.

To‘qqizinchi qism cherkovga munosabat haqida.

O‘ninchi qismda cho‘qintirishning gunohlardan forig‘ qilishi haqida.

O‘n birinchi qism o‘lganlarning ommaviy tirilishi haqida.

O‘n ikkinchi qismda abadiy hayot haqida so‘z yuritiladi.

Xristianlikning bundan keyingi falsafiy va nazariy rivojida avliyo Avgustinning ta’limoti katta rol o‘ynadi. Beshinchi asr bo‘sag‘asida u dinning bilimdan afzal ekanligini targ‘ib qila boshladi. Uning ta’limotiga ko‘ra, borliq inson aqli bilishga ojizlik qiladigan hodisadir, chunki uning ortida ulug‘ va qudratli Yaratuvchining irodasi yashiringan.

Avgustinning taqdir haqidagi ta’limotida aytishicha, Xudoga imon keltirgan har bir kishi najot topganlar safidan o‘rin egallashi mumkin. Chunki imon taqdir taqozosidir.

Xristianlikdagi oqimlar. Xristian cherkovining Katolik va Pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim papasi va Istanbul Patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida vujudga keldi. Ajralish jarayoni Rim iperiyasining g‘arbiy va sharqiy tafovutlari o‘sib chuqurlashib borayotgan asrlardayoq boshlangan edi. 867 yillar orasida Papa Nikolay va Istambul patriarxi Fetiy orasida uzil-kesil ajralish ro‘y berdi va bu ajralish 1054 yili rasman tan olindi.

XVI asr boshlarida katolitsizmdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestanlik harakatlari vujudga keldi. Buning davrasida lyuteranlik, baptizm, anglikanlik va kalvinizm cherkovlari shakllandi. Bular bir cherkovning asosiy marosimlari jixatidan o‘zlariga xos bo‘lgan tomonlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, bular ham o‘z navbatida bir necha yo‘nalishlar, mazxablar va oqimlarga bo‘lindi.

1. Pravoslav oqimi. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo‘nalishidan biri o‘laroq, tarixan uning sharqiy shaxobchasi sifatida ro‘yobga chiqdi va shakllandi. Bu oqim asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarida tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha *ortodoksiya* so‘zidan olingan bo‘lib, ilk davr xristian yozuvchilari asarlarida uchraydi. Pravoslaviening kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandi, chunki bu yo‘nalish u yerdagi hukmron din edi.

Muqaddas kitob bo‘lmish Injil va muqaddas o‘gitlar IV-VIII asrlardagi yetti butxona Soborlarining qarorlari, shuningdek Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damasskiy, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta’limotining asosi deb tan olingan.

Xristianlikning Sharqiy tarmog‘i bo‘lmish pravoslaviyaning rivojlanishi jarayonida 14 Mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Amerika cherkovlari shakllangan.

Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o‘rin egallaydi. Cherkov ta’limotiga ko‘ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo‘ladi.

Cho ‘qintirish - sirli hodisasi. Bunda dindor o‘z tanasini uch marta suvga botirishi Xudo-otani, O‘g‘ilni va Muqaddas ruhni chaqirish bilan ruhiy tug‘ilishni kasb etadi.

Badanga eleyni surkash ham sirli bo‘lib, bunda dirdorga Muqaddas ruhning ruhiy hayotga qaytaruvchi va chiniqtiruvchi ehsonlari ulashiladi.

Poklanishning sirliligi. Unda dindor non va vino ko‘rinishida o‘z badanida Iso qonini abadiy hayotga tayyorlaydi.

Nadomatning sirliligi shundaki, dindor o‘z gunoxlarini din peshvosi oldida tan oladi, din peshvosi esa uning gunoxlarini Iso nomidan kechiradi.

Ruhoniylilikning sirliligi u yoki bu shaxsni ruhoniy darajasiga ko‘tarish uchun episkopning qo‘lini o‘sha shaxs badaniga tegizishi (yoki qo‘yishi) orqali amalga oshiriladi.

Badanni eley bilan ishqalash sirida Xudoning ruhiy va jismoniy zaifliklarni tuzatuvchi lutfu marhamatidan umid qilinadi.

Pravoslav cherkovi bayramlar va diniy marosimlarga alohida ahamiyat beradi. Post diniy marosimi odatda, katta cherkov bayramlaridan oldin o‘tkaziladi. Postning moxiyati inson ruhini tozalash va yangilash, diniy hayotning muhimi voqealariga tayyorgarlikdan iborat.

Rus Pravoslavining ko‘p kunlik postlari to‘rtta: Pasxa oldidan, Pyotr va Pavel kuni oldidan, Bogoroditsa uyqusidan oldin va Iso tug‘ilgan kundan oldin.

Buyuk bayram ichida Pasxa birinchi o‘rinda turadi. Pasxa Isoning o‘lganidan so‘ng qayta tirilganini nishonlab o‘tkaziladigan bayram. U yilning 22 apreliдан may oyining birinchi yakshanbasigacha o‘tkaziladigan bayram. U “Otsovskiy den”dan avval o‘tkaziladi. Pasxaning tarixi yaxudiylikdagi *pesax* bayrami bilan bog‘liq bo‘lib, u yaxudiylarning Misrdan qochib chiqishi va ozodlikka erishishini nishonlanishidir. Xristianlik yaxudiylikdan to‘la ajralib chiqqach pasxa yangicha tus olgan.

Pasxadan so‘ng pravoslav dinining o‘n ikki kunlik o‘n ikki muhim bayrami boshlanadi. Ular: *Iso tug‘ilishi, Sretenie, Isoni cho‘qintirish, Preobrazenie, Quddusga kirish, Isoning osmonga ko‘tarilishi, Troitsa Muqaddas butning osmonga ko‘tarilishi, Blagoveshanie* (Injilning nozil bo‘lishi), *RojdestvoBogoroditso*’ (Isoning xochga osilishi) va xakozo.

2. Katolik oqimi. Xristianlikning yirik yo‘nalishlaridan biri katoliklardir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo‘lib, muxlislari taxminan 800 mln. kishini tashkil etadi.

Katolitsizm *umumiyy*, *dunyoviy* degan ma’nolarni ifodalaydi. Uning manbai - uncha katta bo‘Imagan Rim Xristian jamoasi bo‘lib, rivoyatilarga ko‘ra uning birinchi Yepiskopi apostol Petr bo‘lgan.

Katolitsizmda Bibliyani sharxlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi, chunki ular uylanmaslik haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va soxtalashtirilgan ko‘rinishga ega, diniy o‘qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Provslaviyadagi kabi katolitsizmda ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan marxum jasadlariga sig‘inish odatlari mavjuddir.

Katolitsizm xristianlikning yo‘nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta’limot, sig‘inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik diniy ta’limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq Pravoslav cherkovidan farqli o‘laroq katolik cherkovi

Muqaddas yozuvlar deb nafaqat avvalgi yetti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozirgacha bo‘lib o‘tgan barcha Soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaning maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat’iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig‘i. U diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning xokimiyati dunyoviy soborlar xokimiyatidan yuqori turadi.

Katolik cherkovining markazlashuvi jumladan diniy ta’limotni noan’anaviy tahlil qilish (sharxlash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, Pravoslav cherkovi tomonidan tan olingan diniy ramzda ta’kidlanishicha, Muqaddas ruh *ota xudodan* kelib chiqadi. Katolik aqidasiga ko‘ra esa Muqaddas ruh *ota xudodan* va *o‘g‘il xudodan* kelib chiqadi. Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o‘ziga xos alohida ta’limot shakllangan. Najotning asosi iymon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, Katolik ta’limotiga ko‘ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga – Iso tomonidan yaratilgan “Xayrli ishlar zaxirasiga” ega.

Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muxtojlarga ulashish, ya’ni gunoxlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tufxa qilish huquqiga ega. Pul yoki tufxa evaziga avf qilish huquqiga ega. Pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunoxlarini kechirish - *indulgensiya* haqidagi ta’limot mana shundan kelib chiqqan.

A’rof haqidagi (do‘zax va jannat oralig‘idagi mavze) aqida faqat katolik ta’limotida mavjud. Gunohi katta bo‘lмаган gunohkorlarning ruhi u yerda o‘tda kuyadi (extimol bu vijdon va nadomat azobining ramziy intihosidir), keyin jannatga yo‘l topadi. Ruhning a’rofda bo‘lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr ehsonlar o‘lganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

A’rof haqidagi ta’limot I asrdayoq paydo bo‘lgan edi. Pravoslav va Protestant cherkovlari a’rof haqidagi ta’limotni rad etadi.



Toshkentdagি Rim katolik kosteli

Bundan tashqari, pravoslav dini ta'limotidan farqli o'larоq, katolik yo'nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870 yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. G'arb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan alohida e'tibori 1950 yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan, Bibi Maryamning meroji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi yetti asrorni tan oladi, biroq bu

asrorlarning talqin qilinishida qarashlar mos kelmaydi. Masalan, pricheshenie (tamaddi) qilish qattiq non bilan, (pravoslavieda bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy (miryane) larga non va vino bilan shuningdek faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qintirish sirini o'tash paytida suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho'ktirilmaydi.

Miropomazanie (cho'qinuvchining peshonasiga eley surkash) yetti-sakkiz yoshlarda amalga oshiriladi, go'dak-ligida emas. Bunda o'spirin (bola) yana bitta ismga ega bo'ladi. Bunda u o'sha avliyoning qilmishlari va g'oyalarini maqsad qilib qo'yadi. Shunday qilib, bu rusumning ijro etilishi imon mustaxkamlanishiga xizmat qilishi zarur.

Pravoslavlarda nikoxsizlik rusumini faqat qora ruhoniyliek qabul qiladi. Katoliklarda esa nikoxsizlik (selibat) Papa Grigoriy VII tomonidan joriy qilingan qoidaga ko'ra barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Din markazi - exromdir. Dinning muhim elementlari cherkovga qatnovchilar hayotining maishiy asoslarini tartibga soluvchi bayramlar, shuningdek postlardir.

Milodiy post katoliklarda advent deb ataladi. U Avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanbada - 30 noyabrda boshlanadi. Ular uch ibodat bilan: yarim

tundagi, ertalabki va kunduzgi ibodat bilan nishonlanib, Bibi Maryam xomilador bo‘lishi, Isoning tug‘ilishi va dindorning qalbida bo‘lishi kabi ramziy ma’noni anglatadi. O‘sha kuni ta’zim qilish uchun exromlarda go‘dak Isoning figurasi qo‘yilgan yaslilar o‘rnataladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: diakon, ruhoni (kyure, pater, kendz) Yepiskop. Yepiskopni papa tayinlaydi. Papani kardinal kollegiya saylaydi. Bunda umumiyo ovozning uchdan ikki qismi plyus 1-ovozi (yashirin ovoz berish yo‘li bilan) II Vatikan soborida (1962-1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabxalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Birinchi navbatda ibodat an’analariga tegishli bo‘ldi. Masalan, ibodatni lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

3. Protestantizm dini. Protestanizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U birinchi bo‘lib katolik cherkovi bilan aloqani uzdi va protestant cherkovining asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko‘ra, insonning Xudo bilan bevosita muloqoti mumkin. Lyuterning diniy va dunyoviy xokimiyatga qarshi chiqishlari, katolik dindorlarning imonni va vijdonni inson bilan Xudo o‘rtasidagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi muloxazalarga qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.

Protestantizmning moxiyatiga ko‘ra, ilohiy lutfu marhamat insonlarga cherkovning vositasiz, bevosita in’om etiladi. Inson najot topishi uning shaxsiy e’tiqodi va Isoning vositasi orqali ro‘y beradi. Avom ruhoniylardan farqlanmaydi, ruhoniylar hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko‘pchiligini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho‘qintirish saqalanib qoldi.

O‘lganlarga bag‘ishlangan duo o‘qish, aziz-avliyolarga sig‘inish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha xashamlardan, mexroblardan, sanamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylanmaslik shartlari bekor qilindi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharxlash har bir xudojo‘yning eng muhim burchi bo‘lib qoldi.

Asrorlardan faqat *cho ‘qinish* va *mansublik* (cherkovga) e’tirof etiladi. Ibotat va’z-nasixatlar, birgalikdagi ibodat va suralarni kuylashdan iborat bo’ldi. Protestantlar Bogoroditsa shaxsiyatini, a’rofni tan olmaydilar.

Lyuter tomonidan tuzilgan reformatsiya bosh taomillari 95 tezis shaklida yozib bergen. Ular Vittenbergning Nasriy cherkovining shimoliy eshiklariga yozib qo‘yilgan. Mana shu tezislardan bir nusxasi: Iso payg‘ambar: “Tavba qiling, chunki samoviy shoxlik yaqinlashib qoldi” deb jar solganida shuni ta’kidlaydiki, imon keltirganlar hayoti boshdan-oyoq to‘xtovsiz tavba-tazarrudan iborat bo‘lmog‘i darkor.

Tavba-tazarru ruhoniy (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to‘rt tezis, Lyuter ta’kidlaydiki, haqiqiy tavba uzoq muddatli jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro‘yobga chiqmaydi.

Papa faqat o‘zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysi samoviy jazodan insonni ozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tiriklar uchun joriy qilinadi (belgilanadi). Bu yerda va keyingi bir qancha tezislarda papaning a’rof ustidan xukmronligi rad etiladi.

“Ruhlar uchun indulgensiya olgan shaxslarga tavbu-tazarru qilish talab qilinmaydi”, degan ta’limot Iso ta’limoti emas. Chindan tavba qilgan kishilarni Xudo gunohlarini kechadi va abadiy azobdan ozod qiladi. Gunohkor papa yorlig‘isiz ham bunday mag‘firatdan umid qilishi mumkin.

Lyuter bir necha tezislarda ta’kidlaydiki, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian (nasoro) “samoviy jazoga shoshilmaydi, ya’ni unga samoviy jazo joriy etilmaydi”.

Cherkovning haqiqiy xazinasi muqaddas Injil va xudo marhamatidir. Lyuterner ta’kidlashicha, “xayrli amallar xazinasi”ning mavjudligi kambag‘allar uchun emas boylar uchun foydalidir, bu xazinalarga papa marhamati bilan emas, o‘z amallari bilan erishushi mumkin. Bu xil vositalar bilan Xudoning mexrini qozonmoqni Lyuter sarob deb ataydi.

Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog‘i zarur. Najot yo‘li ruhsatnama yorlig‘ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir.

1517 yili 31 oktyabrdan jamoatchilik xukmiga xavola qilingan tezislar shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo‘lib qoldi.

Kalvinizm. Diniy isloxitning boshqa bir yirik arbobi Jan Kalvin (1509-1564) edi. Uning 1536 yilda nashr etilgan “Xristian dinidagi ko‘rsatmalar” degan bosh asari, protestanizm ta’limot sifatida shakllanganidan keyin yangi bir diniy yo‘nalish - kalvinizmning asosi bo‘lib qoldi.

Dastlabki isloxit arboblaridan farqli o‘laroq, Kalvin uchun diqqat markazi Injil emas Tavrot bo‘lib qoladi. Kalvin absolyut taqdir haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. Bu ta’limotga ko‘ra, barcha odamlar xudoning biz uchun noma’lum bo‘lgan irodasiga asosan mag‘firat qilinganlar va maxkum etilganlar toifasiga bo‘linadi. Inson na imon, na “xayrli ishlar” bilan taqdirga yozilganni o‘gartira olmaydi: mag‘firat qilinganlar najotga maxkum, mag‘firatdan maxrum bo‘lganlar esa abadiy azobga maxkumdirlar. Taqdir haqidagi ta’lim shunday asosga qurilganki, Iso ham bizning gunohlarimiz uchun azobu uqubatlarga giriftor qilingan edi.

Protestant cherkovining kalvinistik yo‘nalishdagi davomchilari (kalvinistlar yoki reformatorlar) Shotlandiya, Gollandiya, Shimoliy Germaniya, Fransiya, Angliyada keng obro‘ga va ta’sirga ega edilar.

Presviterianlar. Presviterianlik kalvinistik cherkovdan kelib chiqqan bo‘lib, (yunoncha eng *eski*) mo’tadil puritanlardir. 1592 yili Shotlandiya parlamenti bu ta’limotni asosiy mafkura deb hisoblash haqida qaror qabul qilgan. Bu jamoa boshida jamoa a’zolari tomonidan saylangan presviter turadi. Jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadi. Diniy marosim ibodat, presviterning mavizasi, oyatlarni kuylashdan iborat. Liturgiya bekor qilgan, na “din ramzi” va na otche nash” o‘qilmaydi. Faqat dam olish kunlari bayram kuni deb hisoblanadi.

Anglikan cherkovi. Anglikan cherkovi - Angliyaning davlat cherkovi 1534 yilda mahalliy katolik cherkovi Rim qiroli Genrix VIIIni cherkov boshlig‘i deb e’lon qildi, ya’ni cherkov qirol xokimiyatiga bo‘ysundirildi. XVI asr o‘rtalariga kelib

ibodatni ingliz tilida olib borish joriy etildi, postlar bekor qilindi, but va sanamlar olib tashlandi, ruhoniylar uylanmasligi majburiy bo‘lmay qoldi. “Mo‘tadil yo‘l” ta’limoti, ya’ni Rim katolitsizmi va protestanizm orasidagi o‘rtacha yo‘l shakllandi. Anglikan diniy ta’limoti “Umumiy ibodatlar kitobi”da aks ettirilgandir.

Baptizm. Protestant ta’limotining eng ko‘p sonli davomchilari baptistlardir. Baptizm (yunoncha “suvga cho‘ktirish”) XVII asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda dunyoning 130 mamlakatida o‘z tarafдорларига eга. Bu ta’limot tarafдорлари faqat o‘spirinlarnigina cho‘qintirishga olib boradilar. “Hech kim, jumladan, ota-onalar ham kishi uchun biror dinni tanlay olmaydi. Kishi dinni ongli ravishda o‘zi ixtiyor qilmog‘i zarur”, degan qoida baptistlar va zabur xristianlarining asosiy qoidasidir, ularda ibodat o‘ta soddalashtirilgan bo‘lib, diniy qo‘sinq, ibodat va mav’izadan iborat. Zabur xristianlari to‘rtta rusumni saqlab qolishgan: cho‘qintirish, (o‘spirinlar uchun) tanovul, nikox, qo‘l bilan silab qo‘yish. Bu xristianlar uchun but extirom ramzi emas.

Adventistlar harakati. Adventistlar harakati (lotincha - *kelish*) Amerikada XIX asrning 30 yillari og‘ir iqtisodiy buxron (krizis), umumiy ishsizlik davrida vujudga keldi. Uning asoschisi Vilyam Miller (1782-1849). Adventistlar bir necha mustaqil cherkovlarga bo‘lingan bo‘lib, ularning eng kattasi “*Yettingchi kun adventistlari*”. Ularning asosiy g‘oyasi Isoning ikkinchi bor yerga tushishi va insoniyatni xalos etib, shayton va uning tarafдорларини bilan urushib, ularni mutlaq yakson qilishidir. Ular kishilarni Isoni kutib olish uchun yaxshi axloqli bo‘lishga chaqiradi. Adventistlar dindorlardan o‘z mablag‘laridan o‘ndan birini cherkov hisobiga o‘tkazishlarini va tinmasdan targ‘ibot ishlarini olib borishlarini talab qiladi. Iso payg‘ambarning ikkinchi marta yerga qaytishi haqidagi bashorat najot yo‘li deb hisoblanadi.

Hozirgi paytda g‘arbiy hamda sharqiy cherkovlarning Rahbarlari ko‘p asrli ixtiloflarning ayanchli oqibatlarini bartaraf qilishga intilmoqdalar. Masalan, 1964 yili Rim papasi Pavel VI va Konstantinopol patriarxi Afinagor ikkala cherkov vakillarining XI asrda aytgan o‘zaro qasamyodlarini tarqoqligini bartaraf qilish uchun birinchi qadam qo‘yildi.

Bibliya. Bibliya Yaxudiylik va Xristianlik dinlari talimotiga ko‘ra u Xudo tomonidan nozil qilingan, asosiy diniy aqida va axloq qonunlarini o‘zida jamlagan muqaddas kitoblar majmuasidir.

Uning tarkibiga kirgan yaxudiy diniga talluqli kitoblar “Qadimiy axd” deb, xristian talimotiga tegishli kitoblar “Yangi axd” deb nomlanadi. Yaxudiy va Xristian bibliyalari bir-biriga mos kelmaydi. Yaxudiyarning muqaddas kitobi Qadimiy Isroil va Qadimiy Yaxudiyarning diniy talimot va urf-odatlari asosida eramizdan avalgi XIII davrda yozilgan bo‘lsa, Xristianlarning kitobi esa eramizning boshlarida vujudga keldi. Yaxudiylar Xristianlarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan olmaydilar Xristianlar esa Yaxudiyarning kitobini muqaddas kitob sifatida tan oladilar.

Bibliya so‘zining grekchadan tarjimasи *biblia - kitob, o‘ram* ma’nolarini anglatadi. Hozirgi Bibliya katolik nashrlarida 72 ta kitobdan, protestant nashrlarida esa 66 kitobdan iborat. Yaxudiyarning yana bir diniy manbasi Talmudning xabar berishicha Qadimiy axdda 24 ta kitob bo‘lishi kerak. Qadimiy yaxudiy tarixchisi Iosif Flafiyning aytishicha 22 ta kitob bo‘lishi kerak. Protestantlar va yaxudiyalar, Trident Soboridan keyin (1545-1563) katoliklar ham qadimiy axd tarkibiga 45 ta kitob kirgizadilar. Bu son bilan yuqorida keltirilgan son o‘rtasidagi tafovutni keyinchalik ba’zi kitoblar bir necha mustaqil kitoblarga bo‘linib ketganligi bilan izoxlash mumkin. Masalan, “Musoning besh kitobi” avval bir butun bo‘lib, keyinchalik beshta mustaqil kitobga ajratib yuborilgan, “kichik payg‘ambarlar kitobi” 12 kitobga ajratib yuborilgan.

Yaxudiylar Qadimiy Axdni 3 qismga bo‘ladilar:

- 1.birinchisiga “Musoning besh kitobi” - “Tora”(“Tavrot”);
- 2.ikkinchisiga “Payg‘ambarlarning avvalgi va keyingi kitoblari (Netiim);
- 3.uchinchisiga qolgan kitoblar (Ketubim)

Xristianlar Qadimiy Axdni “Rivoyatlar kitoblari”, “Ta’limotlar kitoblari”ga, “Payg‘ambar kitoblari”ga bo‘lishadi. Ular Yangi Axdnинг 27 kitobini ham shunday tasnif qiladilar. “Rivoyatlar kitoblari”ga “Injil” va “Xavoriylar faoliyati” kitoblari

kiradi. “Ta’limotlar”ga “Xavoriyalar maktublari” kiradi, “Payg‘ambarlar kitoblari”ga “Vaxy” kitobi kiradi.

Bibliyaning kitoblari boblarga, boblar esa suralarga bo‘linadi. Uning hozirgi qabul qilingan bo‘linishi Nenterberiya episkopi Stefan Langton (vafoti 1228 y.) tomonidan kiritilgan. U 1214 yili lotin tilidagi matnni boblarga bo‘lib chiqdi va bu narsa keyinchalik yaxudiy va yunon tillaridagi matnlarga ham joriy qilindi. Suralar avval Santes Panino (v. 1541 y.) keyinchalik 1555 yillarda Robert Etenlar tomonidan raqamlandi.

Tavrot. Musoga tegishli bo‘lgan, besh kitob “Tavrot” deb ataladi va u quyidagi kitoblarga bo‘linadi: 1) “Borliq” yoki “Ibtido”; 2) “Chiqish”; 3) “Levit”; 4) “Sonlar”; 5) “Ikkinci qonun”.

Injil. Injil - xushxabar ma’nosini anglatadi. Yangi axd tarkibiga kirgan Injil 4 ga bo‘linadi. 1) Matvey injili; 2) Marko injili; 3) Luka injili; 4) Ioann injili.

4. Xristianlikning O‘rta Osiyoga kirib kelishi.

Fanda xristianlik dinining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi ikki yo’l bilan amalga oshgani e’tirof etiladi. Birinchisi, milodning III asrlaridan to bugungi kunga qadar xristianlikni targ’ib etuvchi missionerlarning targ’ibotchilik harakati bo’lsa, ikkinchi yo’l, mintaqaning Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e’tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko’plab ko’chib kelishi orqali amalga oshgan.

Zamonaviy O’zbekiston va Qozog’iston hududlarida apostol Andrey Pervozvaniyning diniy faoliyati ilk xristianlik tarixi manbalarida qayd etilgani diqqatga sazovor. Buning dalili sifatida bugungi qadar saqlanib qolgan hind xristianlarining “Foma qaydnomalari” va milodiy II–asrda tashkil topgan Markaziy Osiyo cherkovi taraqqiyoti haqidagi tarixiy yozma manbalar xizmat qiladi. Hozirgi O’zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg’iziston, Qozog’iston va Sintszyan–Uyg’ur muxtoriyati (Xitoy) hududida arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko’plab xristianlik yodgorliklari, jumladan ibodatxona va monastirlarning harobalari, freskali ikona yozuvlari, matolarga bitilgan ikonalar (zandanachi), Injil qissalari tasvirlangan keramiklar, bo’yinga osiladigan xoch va medallar hamda

xristianlik timsoli tushirilgan davlat tangalari ahamiyatga molik. Undan tashqari minglab xoch tushirilgan qabr toshlar yoki qabr ustiga qo'yilgan xochlar topilgan. Yuqoridagilarning aksariyati IV – XIV asrlarga mansub deb topilgan.

Missionerlar faoliyati natijasida 280 yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik, missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (658 yillar) yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. IV asr boshlarida tashkil etilgan Marv yepiskopligi, V asr boshida mitropoliyaga aylangan. Xurosonliklar va sug'diyonaliklar zardushtiylar, monaviylar, buddaviylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo'lgan. Ular qoraxitoylar va sosoziylarga qarashli yerlarda yashaganlar.

431 yilda Vizantiyadagi xristianlarning Efes soborida mojaro yuz berdi – Nestorean oqimining xristianlari, hukmron din aqidalariga xilof ish qilgan deb e'lon qilindi. Shuni aytish joizki, Nestorianlar – Konstantinopol patriarxi Nestorning izdoshlari bo'lib, (5-asr boshlarida) – ular Xristosning ilohiy kelib chiqishi haqida gapirib, uning onasi Mariya Xudoni emas, balki insonni dunyoga keltirib, uning tanasiga Xudo kirib olgan va shuning uchun la'natlangan deb hisoblaydilar.

Markaziy Osiyoga ilk rus pravoslavlarning kirib kelishi XIX asrning 40-yillaridagi Chor Rossiyasining Turkistonning shimoliy hududlarini egallashi natijasida Turkistonga ruslarning ko'chib kelishi bilan bog'liq. Har bir polkda maxsus ruhoniylar bo'lib, askarlarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko'chma ibodatxonalar tashkil etilgan edi. 40-yillar oxiriga kelib doimiy ibodatxonalar mahalliy paxsa uslubida qurila boshlaydi va 1850 - yili Kopalda birinchi muqim ibodatxona bunyod qilinadi.

Ruslar joylashgan hududlarda kichik diniy qarorgohlar vujudga keladi. Dastlabki qarorgohlar 1850-yillarda Fort №1 (Aralsk shahri, Qoraqalpog'iston), Perovsk (Qizil-O'rda, Qozog'iston), Katta Olma-Ota tumani (Olma-Ota, Qozog'iston), Sergiopol (Ayaguz), Lepsin (Lepsinsk), 1860-yillarda Toshkent,

Jizzax, Samarqand, Chimkent, Avliyoota (Jambul), To'qmok, Katta–Qo'rg'onda rus pravoslavlarning diniy qarorgohlari mavjud edi.

1871 - yilda Toshkent gospitali huzurida arxiepiskop Yermogen (Golubev) tomonidan pravoslav qarorgohi ta'sis etilgan. Bu ibodatxona xozirgi Uspenskiy kafedral sobori o'rnida bo'lgan.

Dastlab Turkiston Orenburgning tarkibida bo'lганligi bois Tomsk yeparxiyasiga bo'y singan. Ko'p o'tmay mustaqil arxierey kafedraga aylanadi.

1869 - yil Turkiston mustaqil yeparxiyasini tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilingan. 1871 - yil Toshkent va Turkiston yeparxiyasini tashkil etish to'g'risida imperator farmoni chiqadi. Biroq mahalliy imperator amaldorlari Toshkentdagi kafedra faoliyati diniy avtoritetni kuchaytirib asl siyosiy maqsaddan chalg'itadi deb qarshilik ko'rsatgan. General–gubernator fon Kaufman "Toshkentda na arxiereylik, na jandarmiyaga o'rinn yo'q" deb ta'kidlagan. Uning ko'rsatmasiga binoan yepiskop kafedrasи qarorgohi Verniy (1854 - yil asos solingan «Verniy» shaharcha, zamonaviy Olma–Ota) shahriga ko'chirilishi kerak edi. "Toshkent va Turkiston" nomini olgan yeparxiya yepiskoplari markazdan tashqariga chiqib boshqarish mantiqsizlik ekanligi va noqulay bo'lганligi bois ko'chishdan bosh tortadi. Imperatorlik davrida Toshkent arxiereyasi kafedraning Toshkentda bo'lishi uchun kurashganlar. Nihoyat 1916 yil oxirida arxiepiskop Innokentiy (Pustynskiy) harakatlari tufayli bu masala butunlay ijobiy yakun topgan.

Dastlabki cherkovlarning ko'pchiligi omi bo'lgan va qo'ng'iroqlari ham bo'lмаган. Rus aholining ko'payishi XIX asr oxirlaridan boshlab bir nechta Rossiya cherkovlaridan qolishmaydigan cherkovlarning bunyod bo'lishiga olib keldi. Ular orasida Toshkent Svyato–Preobrajenskiy (1888 - yili qurilgan, 1923 - yili buzib tashlangan.), Verniy (Olma ota)dagi Voznesenskiy (1907 - yili qurilgan, 1995 qayta tiklangan), Samarqanddagi Svyato–Aleksievskiy (1911 - yili qurilgan, hozirda ochiq va qayta tiklanmoqda) soborlari alohida ajralib turgan.

Markaziy Osiyoga katolik va protestant yo'nalishi vakillarining kirib kelishiga 1879 - yil 27 - martdagi Rossiya imperatorining maxsus qonuniga ko'ra birinchi jahon urushida asrga olingan nemis, polyak, eston, shved, litva, latish va

boshqa yevropalik askarlarning Turkiston o'lkasiga surgun qilinishi turtki bo'ldi. Bu o'z navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20–30 yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkistonda 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav to'g'ri kelgan yoki 5340 masjidga 306 cherkov to'g'ri kelgan. Bundan tashqari, 10,1 ming pravoslaviega mansub bo'lgan staroobryadchilar, 8,2 ming lyuterchilar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar va 26 ming yahudiy diniga mansub kishilar tashkil etgan.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo'lgan. O'sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 - yilda qurila boshlanib, 1917 - yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta'mirlandi.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda armanlar taxminan III–IV asrlarda paydo bo'lganligi qayd etilgan. 1890 - yilga kelib ularning soni 3839 kishini tashkil etgan. XIX asr oxirlaridan boshlab Echmiadzin Sinodi Turkiston o'lklarida ibodatxonalar qurishga qaror kilgan. Samarqand cherkovi o'z faoliyatini 1903 - yildan e'tiboran boshlagan.

O'zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo'nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o'n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo'nalishiga qiziqish ortdi. Bunga, bir tomonidan koreylarning o'z qarindosh–urug'lari bilan diydor ko'rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo'ldi. Xorijda ular ma'lum bir diniy oqim ta'siriga tushib, O'zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta'limotlarini targ'ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQShlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag'ga ega bo'lgan protestantizm yo'nalishi

markazlari hisobiga mahalliy koreys millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar.

O'zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo'nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo'nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. Hozir O'zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo'nalishidagi cherkovlar hamda birgina metodistlik yo'nalishiga oid cherkov faoliyat ko'rsatmoqda.

O'rta Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asrning boshlarida paydo bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdag'i birinchi jamoasi 1910 - yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga yetgan. Jamoa 1912 - yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917 - yildan so'ng umumiyligi soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-sharqiy ittifoqi tarkibida 1925 - yili O'zbekistonda adventistlarning Markaziy Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 - yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinch'i ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930-yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalarini tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi.

1976 - yil 26 - avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. Shuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalarini tuzila boshladi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1967 - yili Toshkentda V.A.Shelkov boshchiligidagi adventist-islohotchilar paydo bo'lган va hozirgi davrga qadar faoliyati davom etmoqda.

Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 - yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 - yil 2 - iyulda 60 kishilik baptist

jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 - yil oktyabr oyida ‘Samarqand jamoasi tuzildi.

1921 - yildan e’tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 - yilda Toshkent baptistlar qurultoyida Markaziy Osiyo baptistlar ittifoqi, so’ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo’limi tuzildi.

1946 - yildan O’zbekiston hududida Yevangelchi xristian–baptistlar (EXB) jamoasi sifatida qayd etildi, 1948 - yil oktyabr oyidan esa T.Penkov Butunittifoq YEXB kengashining O’zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930 - yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi. 1958 - yilga kelib O’zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamaa faoliyat ko’rsatgan.

1964 -yilda bu jamoalar norasmiy Markaziy Osiyo Yevangelchi xristian–baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik “Osiyo janubi bo’yicha baptist birodarlar kengashi” deb nomlandi. 1992 - yil noyabr oyida Moskvada bo’lib o’tgan baptistlarning 1–qurultoyida Yevangelchi xristian–baptistlar ittifoqi federatsiyasi Yevro–Osiyo YEXB ittifoqi nomiga o’zgartirildi.

O’zbekistonda faoliyat ko’rsatayotgan To’liq Injil xristianlarining (pyatidesyatniklik) asrimiz 20–yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30–yillarga kelib ularning soni 950 kishiga yetdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo’lsalar–da, Toshkent jamoasi markaziy o’rin tutdi. 1945 - yilga kelib baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to’liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992 - yildan e’tiboran rasmiy faoliyat ko’rsatib kelmoqda.

Respublikamizda mavjud bo’lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e’tirof qilingan ta’limotdir. Yevangelchi–lyuteranlar O’zbekiston hududida 1877 - yildan buyon faoliyat ko’rsatib kelmoqda. 1884 - yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890 - yilda arxitektor A.L.Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 - yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

Ayrim manbalar O'rta Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40–yillapida paydo bo'lganligini bildiradi. O'sha davrda ular o'zlarini «kanalistlar» deb atab kelganlar.

O'tilgan mavzu bo'yicha savollar:

- 1 Buddaviylik asoschisining shaxsi?
- 2.Buddaviylik ta'limoti nimaga asoslangan?
3. Buddaviylik manbalari haqida gapirib bering.
- 4."Nirvana" nima?
5. Buddaviylikning maxayana, xinayana, vajrayana, lamaizm va boshqa oqimlari haqida ma'lumot bering.
- 6.Pravaslov ta'limoti va marosimlari nimadan iborat?
7. Xristian cherkovidagi bo'linishlar. Katolik, pravoslav, protestant yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.
8. Hozirgi davrda O'zbekistondagi xristian jamoalari va ularning diniy hayoti haqida nima bilasiz.

Ma'ruza mashg'ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko'rsatma va tavsiyalar:

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
<p>1. “Sidharta Gautama” tarixiy shaxsmi yoki afsonaviy</p> <p>2. Buddaviylik ta’lomiting asoslarini izohlang</p> <p>3. Buddaviylik va xristianlikning o‘zaro bog‘liqligi va farqlari</p> <p>4. Buddaviylik va xristianlik manbalari</p> <p>1.Bilishning ahamiyat nimada?</p>			

- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi
- muammoning mazmunining tushunish muhim bosqich hisoblanadi (1-ustun)

-Voqeliklarning sabab va omillari bilan (2-ustun) to‘ldiriladi


- Muammoning yechimi to‘liq izohlanishi kerak (3-ustun).
- Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (4-ustun)

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Venn diagrammasi*” interfaol usuli orqali tushuntirish.

Mavzu mashg‘uloti uchun topshiriqlar:

1. Buddaviylik ta’limotining falsafiy ahamiyati
2. Buddaviylikdagi yo‘nalishlari “Venn diagrammasi” orqali boshqaruvning totalitar va yangi usullarining umumiy belgilari qiyosiy tahlil qilinadi.Masalaning o‘zaro bog‘liqligini xulosalash uchun quyidagi tushunchalar tanlandi:

1)* budda 2)* maxayana 3)* xinayana



Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “Venn diagrammasi” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “Venn diagrammasi” interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo‘lib, masala mohiyati unga yaqin bo‘lgan tushuncha va ma’lumotlar orqali o‘zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilganidan so‘ng, ularni bog‘lovchi hususiyatlarni A)* va B)* qatorga to‘ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

TESTLAR

1.Buddaviylik ta’limotining asoschisi kim?

- A. Iso Masih
- B. Muso
- C. Surayk ibn Fatak
- D. Sidxarta Gutama

2.Buddaviylik dini qachon va qaerda vujudga kelgan?

- A. Millodiy I asrda Hindistonda
- B. Milloddan avvalgi III asrda Rim Imperiyasida
- C. Milloddan V-VII asrlarda Hindistonda
- D. Milloddan avvalgi VI asrlarda Hindistonda

3.Mashxur "Tibb qonuni" asarining muallifi kim?

- A. Gippokrat
- B. Ibn Rushd
- C. Ibn Sino
- D. I. P. Pavlov

4.Buddaviylik ta’limotining asosiy uch bosqichi bu...

- A. Ta’lim,tarbiya, donolik.
- B. Meditatsiya, donolik, Ta’lim-tarbiya
- C. Axloq, Meditatsiya, Donolik.
- D. Axloq, Tarbiya, Meditatsiya

5.Buddaviylik dinining asosiy manbasi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.

- A. Tavrot
- B. Injil
- C. Tripitaka
- D. Avesto

6. Xristianlik so‘zi qaysi istilohdan olingan?

- A. Masih – siylangan so‘zining yunon tilidagi shaklidan.
- B. Arab so‘zidagi bo‘ysunishdan.
- C. Iso Masih tug‘ilgan joy Nazaret – nasroniyadan.
- D. Ya’qub payg‘ambarning o‘g‘li Yahudo nomidan.

7. Xristianlik dinining asoschisi kim?

- A. Muhammad.
- B. Gautama.
- C. Iso Masih.
- D. Muso.

8. Nasroniylik qachon paydo bo‘ldi?

- A. Eramizgacha II asrda
- B. Eramizning I asrida
- C. Eramizgacha III asrda
- D. Eramizning II asrida

9. Katolik oqimidagilar Iso Masihning erdag'i noibi deb kim hisoblanadi?

- A. Vatikan
- B. Cherkov
- C. Rim Papasi
- D. Kardinallar

10. Xristianlikning muqaddas kitobi qaysi?

- A. Veda.
- B. Tavrot.
- C. Bibliya.
- D. Zabur.

13-MAVZU. ISLOM DINI TARIXI VA FALSAFASI

Reja:

1. Islom dini shakillanishidagi tarixiy sharoit.
2. Muhammad payg‘ambar (a.s) hayoti va faoliyati.
3. Islomda mazhablarning paydo bo‘lishi.
4. Tasavvuf va hozirgi zamon.

Tayanch tushunchalar: Islom, Hijoz, quraysh, haniflar, muslim, umma, halifa, vahiy, Qur’on, hadis, sunnat, suhuf, sura, Usmon mus’hafi, ro‘za, zakot, shariat, farz, shialar, mazhab, mutakallimlar, mu’taziliylar. oyat; pora, juz’; pergament,tafsir,hofiz;qiroat;hadis;sunnat;roviy;isnod;sahih;zaif;muhaddis;

1.Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muhammad payg‘ambar (a.s) hayoti va faoliyati.

Islom dini yuzaga kelishi jihatidai jahon dinlari ichida uchinchi o‘rinda turadi. Islom dini Yaqin va O‘rta Sharq, Shimoliy Afrika, Janubi-sharqiy Osiyo, Kavkaz xalqlarining tarixida nihoyatda muhim o‘rin tutadi va ayni vaqdda ham ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga katta ta’sir o‘tkazib kelmokda. Eron, Pokiston, Afg‘aniston, Saudiya Arabistoni, Liviya, Tunis, Sudan singari mamlakatlarda islom rasmiy davlat dini mavqeiga ega. MDX, davlatlari xududida Markaziy Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Ozarbayjon, Tatariston va Boshqirdiston xalqlari o‘zlarining islom dinida ekanliklarini e’tirof etishadi. Hozirgi kunda turli qit’alarda yashovchi bir milliarddan ziyod kishi irqi, millati, sinfi va tabaqaviy farqlaridan qat’i nazar, islom dini normalari va qadriyatlari atrofida birlashgan hamda jahon ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida salmoqli o‘rinlardan birini egallaydi. XX asrda musulmonlar dunyo aholisining 15-16 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda bu ko‘rsatkich Yer yuzidagi har besh kishidan birini tashkil etmoqda. 2025 yilda esa, dunyo aholisini 30 foizini islomga e’tiqod qiluvchilar tashkil etishi mumkin. Eng katta musulmon jamoalari Indoneziyada (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh

(120 mln.), Hindiston (93 mln.), Eronda (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigeriyada (43 mln.) mavjuddir.

Islom milodiy VII asrning boshlarida Arabiston Yarimorolida paydo bo‘lgan. Yarimorol aholisining asosiy qismini arablar tashkil etgan. Islom vujudga kelishi arafasida arablar asosan chorvachilik bilan shug‘ullanar edi. Arabistonning qulay geografik o‘rni (hududidan g‘arb va Sharq davlatlarini bog‘lovchi karvon yo‘llari o‘tgan va uchta qit’ani tutashtirib turadi) sababli, savdo-sotiq va hunarmandchilik qadimdan rivojlangan. Iqtisodiy rivojlanish darajasi Yarimorolning hududlarida turlicha bo‘lgan. Uning bepoyon cho‘llarida yashagan ko‘chmanchi arablar chorvachilik bilan shug‘ullangan. Yarimorolning shimoliy qismida Vizantiya va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniy markazlarning ta’siri kuchli edi. Karvon yo‘li o‘tgan janubi-g‘arbiy qismi (Hijoz)da qadimdan savdo-sotiq, sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik va qisman xunarmandchilik rivojlangan. Milodiy I asrda Arabistonning janubi-g‘arbiy qismida shahar-davlatlar vujudga kelgan. IV—VI asrlarda bu erla Makka. Yasrib, Toif singari yirik shaharlar mavjud edi. Ularda istiqomat qiluvchi arab zodagonlarining daromadini karvon yo‘llaridan kelayotgan boj soliqlari va savdo-sotiq tushumlari tashkil etgan. Mintaqadagi iqtisodiy jonlanish natijasida ko‘chmanchi chorvador qabilalarda urug‘-qabilaviy munosabatlarning yemirilishi va davlat uyushmalarining paydo bo‘lish jarayoni kuchaygan. Islomgacha bo‘lgan davrda Arablarda johiliya davri hukm surgan. “Johiliya” so‘zi adabiy arab tilida “bilmaslik- nodonlik”, ma’nolarini beradi. Bu davrda axloqsizlik, nodonlik, sudxo‘rlik, xotin-qizlarga past nazar bilan qarash holatlari kuchayib borgan edi. Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o‘z ichiga olgan qismini qadimdan Hijoz deb atalgan. Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelguniga qadar “ko‘pxudolilik” e’tiqodi hukm surardi. Islomgacha Arabistonda turli xil dinlar mavjud edi. Semit qabilalari an’analariga ko‘ra, quyosh, Oy, tabiatning bejilov kuchlari, turli xudolar va ruhlarga sig‘inganlar. Har bir qabilaning o‘z xudolari, totem yoki fetishlari mavjud bo‘lgan. Ular gohida bir-biriga qarama-qarshi edi. Qabilaning diniy tasavvurlari faqat mazkur qabila a’zolarininggina birligini

ta'minlagan, umumarab dini esa yo'q edi. "Allohning Rasuli dunyoga kelishi arafasida Arabiston yarim orolida tarqoq, qabila tuzumida istiqomat qiladigan xalqlar butparastlik va jaholat botqog'iga botib qolgandilar. Payg'ambar Ibrohim (a.s.) va uning o'g'li Ismoil (a.s.) tiklagan muqaddas Ka'ba but va sanamlarga to'lib bo'lgandi. Qabilalar tinmay o'zaro janglar olib borar, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik chidab bo'lmas darajada edi. Jaholat shu darajaga borgandiki, ayrim qabilalarda qiz farzand dunyoga kelsa, uni tiriklayin ko'mib yuborar edilar". Demak, Arabistondagi iqtisodiy inqiroz, tarqoq qabilalarni birlashtirishga intilish Yangi mafkuraga talabni kuchaytirgan va islom shunday mafkura sifatida vujudga kelgan. Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm elementlari va o'tmish ajdodlar ruhiga sig'inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalili sifatida ko'pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: asad "arslon", kalb "it", bakr "bo'taloq", sa'lab "tulki", zi'b "bo'ri" va h.k. Barcha somiy xalqlarga xos bo'lgan samoviy jismlarga sig'inish, ya'ni astral kultlar arablar orasida ham keng tarqalgan edi. Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar kulti bir vaqtda paytda paydo bo'lgan emas, albatta. Ular uzoq vaqt shakllanganlar. Biroq, keyingi davr islom tarixchilarining xabar berishlariga qaraganda, Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ'ib qilgan shaxs Amr ibn Luhay ismli kishi bo'lgan. Keyinchalik butlarga sig'inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlarga sig'inish – dinning Yangi bosqichi bo'lgan. Ibn al Kalbiyning (v. 763 y.) «Kitob al-asnom» asarida ta'kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o'z sanamiga ega edi. Tez-tez bo'lib turadigan qabilalararo urushlardan so'ng, odatda, mag'lub qabila g'olib qabila sanamiga sig'ina boshlardi. Ba'zida g'olib qabila mag'lub qabilaning sanamini ham o'z sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi. Arabistonning turli yerlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi. Ulardan biri Makka Ka'basi edi. Makka eski Arabistonning diniy markaziga aylangach, u erdag'i Ka'baga sanamlar to'plandi. Ibn al-Asirming (vafoti 1232 y.) uqtirishicha, Makka fath etilgan 630 yili Ka'ba ichida 360 ta sanam bo'lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda katta ko'rindi, ammo muayyan sanam bir necha

qabilada ehtirom qilingan bo‘lsa, u Ka’baga shuncha nusxada qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Islomdan oldin Arabistonda Yahudiy jamoalari mavjud bo‘lgan. Arabiston Yahudiylari haqida, asosan, Qur’on, hadis, tafsir, sira (Payg‘ambar hayoti va muqaddas urushlari haqida hikoya qiluvchi adabiyot janri) va tarix kitoblari xabar beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan va hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi – Yangi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539) tegishli xronikadir. Unda aytishicha, mil. av. 552-542 yillarda Shimoliy Arabistondagi Tayma shahrini o‘ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu yerdagi shaharlarni o‘zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko‘chirgan; ularning ko‘pchiliginin Yahudiylar tashkil qilgan. Ma’lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabit qilganida salkam 30 ming Yahudiyni asir olib, Bobilga keltirgan va «Bobil asirligi» 50 yil davom etgan edi. Shundan so‘ng ham ba’zi Yahudiylar Falastinga qaytmay, Bobilda qolib ketgandilar. Arabiston yarim orolida Yahidiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldiijtimoiy ziddiyatlar va arab qabilalarining og‘ir tanglikdan chiqish uchun markazlashgan mustaqil davlatga birlashishga harakatlar kuchaygan. Buning uchun tarqoq arab qabilalarini birlashtiruvchi mafkura zarur edi. Islom dini tarqoq qabilalarni birlashtiruvchi mafkura sifatida tarix sahnasiqa chiqqan. VI asrda Janubiy Arabistonda haniflar (arabchada — chinakam e’tiqod qiluvchilar, taqvodorlar degan ma’nolarni anglatadi), ya’ni yakka xudolikka da’vat etuvchilar harakati keng yoyilgan. Ularni “haniflar” deb atalganligining sababi hozirgacha aniq emas. Ayrim manbalarda harakat ishtirokchilarining ko‘pchiligi “banu hanifa” urug‘idan chiqqanligi bois shunday nom berilganligi qayd etiladi. Ular sanamlar, fetishlar va turli xudolarga sig‘inishni qoralab, Yagona xudoga sig‘inishga da’vat qilganlar.

2. Muhammad payg‘ambar hayoti va faoliyati

Makka davri. Muhammad ibn Abdullox ibn Abdal-Muttalib Arabiston tarixida “fil voqeasi” nomi bilan mashxur jangdan 50 kun keyin tavallud topdi. Misrlik munajjim Maxmud poshoning aniqlashicha payg‘ambarning tavallud topishi milodiy sananing 571 yil 21 aprel kuniga to‘g‘ri keladi. Otasi Abdullox Muhammad

a.s. tug‘ilmasidan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasrib(Madina)da vafot etdilar va o‘sha yerga dafn etildi.

Rivoyat qilinishicha, Rasulullox Xalimaning qo‘ylarini yaylovdan boqib yurganlarida ikki oppoq kiyimli kishi kelib u kishining ko‘kraklarini yorishadi-da, ichlaridan bir narsani olib tashlab, kesilgan joyni tikib qo‘yishadi. Muhammad a.s.ni ikki oq kiyimli kishi olib ketishayotganini ko‘rgan akalari o‘z onalariga bu xabarni yetkazishganida bibi Xalima voqeа sodir bo‘lgan joyga zudlik bilan yetib keladilar. Bu vaqtda kichkina Muhammad a.s. ranglari bir holatda turgan edilar. Keyin ularga bo‘lgan voqeani o‘z og‘izlari bilan gapirib beradilar. Shundan so‘ng birovning farzandiga biror shikast yetib qolishidan qo‘rqan Xalima bolani o‘z onalariga topshiradi. 5 yoshlarida onalari Omina vafot etdi. 8 yoshgacha buvalari Abdulmuttalib qo‘llarida qolib, buvalari vafot etgach amakilari Abu Tolib Muhammad a.s.ni o‘z qarmog‘iga oldi. Muhammad a.s. 25 yoshga to‘lganlarida Asad jamoasidan bo‘lgan boy ayol Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o‘zining savdo karvoni bilan birga Shomga safar qilishni so‘radi. Bu savdodan katta foyda tushdi. Muhammadning to‘g‘ri so‘zlilik, xalollik, sadoqatlilik kabi yuksak insoniy fazilatlarini ko‘rgan Xadicha yoshlari ancha katta bo‘lishiga qaramay, taomilga zid ravishda ungasovchi qo‘ydi. Muhammad tomonidan amakilari Abu Tolib, Xadicha tomonidan amakivachchasi Varaqa rozilik berib, nikox o‘qildi.

Muhammad 40 yoshga yetganida ko‘proq tarkidunyochilikni qo‘msaydigan bo‘lib qoldi. Makkaning 3 mil yuqorisidagi Xiro tog‘ida joylashgan g‘orga ketar va Ramazon oyini u yerda kechirib, ibodat qilardi. G‘amlagan ozuqalari tugagach bibi Xadicha oldiga qaytar, bu yerda bir oz qolib, yana o‘sha g‘orga ketar edi. Uerda o‘zlarini sukunatga berib, chuqur o‘yga tolar edilar. G‘oyibdan quloqlariga “Sen Alloxning elchisisan” degan tovushlar eshitilar edi. Tush - xayollari to‘g‘ri chiqayotgandek edi.

Milodning 610 yilida Ramazoni sharif oyida Payg‘ambar a.s. odatga ko‘ra, yana Xirodagи g‘orga chiqdilar. Jamiyatda yuz berayotgan nohaqliklar, insoniyat jabr tortayotgan zalolatdan qutulish - oliy haqiqatga erishish haqida fikr yuritar edilar. Xiro tog‘ida avvalgi o‘tgan payg‘ambarlardan Ibroxim, Muso, Iso kabi

“taxannus” ibodati bilan mashg‘ul bo‘lardilar. Imom al-Buxoriy bu ibodatga shunday sharh beradilar: “Payg‘ambarimizning qaysi shaklda ibodat qilganligi so‘raladigan bo‘lsa, buning tafakkur va ibratdan iborat bo‘lganligini aytamiz”.

Payg‘ambarlikning boshlanishi tushda ayon bo‘la boshladи. Tushda ko‘rilgan har bir narsa oydin bir subx kabi o‘ngda yuz berardi. Kunlarning birida Xiro tog‘idagi g‘orda vahiy keltirgan malak Jabroil a.s. Payg‘ambarga ko‘rindi va:

O‘qi, - dedi.

Payg‘ambar:

Men o‘qishni bilmayman, - dedilar.

Malak yana amrini takrorladi. Payg‘ambar yana:

Men o‘qishni bilmayman, - javobini berdilar. So‘ngra malak uni boshdan oyoqqa qadar kuchlari qolmaguncha siqdi.

Shunda Payg‘ambar:

Nimani o‘qishim kerak? - deb so‘radi.

U zamon farishta ilohiy oyatlarni o‘qiy boshladи:

“Yaratgan rabbing nomi bilan o‘qi! U insonni laxta qondan yaratdi. O‘qi! Karami keng bo‘lgan Rabbing haqqi uchunki, U qalam bilan ta’lim berdi, insonga bilmaganlarini o‘rgatdi”.

Alaq surasining boshidagi bu oyatlar ilk kelgan vahiydir. Payg‘ambar a.s. bu oyatlarni qalbga joylab, farishtaning ketidan qaytardilar. Shundan so‘ng bo‘lib o‘tgan voqeadan nihoyatda hayrat va qo‘rquvga tushganlaridan darhol bibi Xadichanining huzurlariga qaytdilar va “Meni o‘rab qo‘ying, o‘rab qo‘ying”, dedilar. Shundan so‘ng uzoq uyquga ketdilar. Uyg‘ongach bo‘lgan voqeani ayollariga so‘zlab berdilar. Xadicha buni yaxshilikka yoyib, Varaqa ibn Navfal nomli avvalgi samoviy kitoblardan boxabar bo‘lgan qarindoshlarining huzuriga borib bu voqeanning tafsilotini so‘radilar. Varaqa bu ko‘ringan farishta Muso va Iso payg‘ambarlarga vahiyini olib tushgan - Jabroil ekanligini aytdi. U yana kelajakda Muhammad a.s. o‘z ummatiga payg‘ambar bo‘lishi, bu yo‘lda ko‘p aziyat chekishi, o‘z yurtidan chiqarilishi haqidagi xabarlarni bildirdi.

Rasululoh yashirin da'vatga o'tdilar. Birinchi bo'lib Xadicha bint Xuvaylid va amakivachchalari Ali ibn Abi Tolib iymon keltirishdi. Keyin Zayd ibn Xorisa, Abu Bakr iymon keltirishdi. Birinchilardan bo'lib iymon keltirganlarni ko'radigan bo'lsak, ular ayollardan - Xadicha, erkaklardan - Abu Bakr, go'daklardan - Ali ibn Abi Tolib, nullardan - Zayd ibn Xorisa bo'ldilar. Ular jamiyatning turli tabaqalaridan bo'lib, bu narsa islom hamma uchun ham munosib din ekanini ko'rsatardi. Vaqt o'tishi bilan jami musulmonlar 30 kishiga etdi. Ular qurayshiyarning yangi dinga qarshi ekanliklarini bilganliklari uchun o'z dinlarini yashirin saqladilar.

Ilk musulmon bo'lганлarning ichidan hech kimi va orqasida quvvatli suyanchig'i bo'lмаганлар mushriklarning ta'qibiga uchradilar. Mushriklar Usmon ibn Affon kabi musulmonlarga qo'llaridan kelgan azoblarni berishdan chekinmayotgan edilar. Payg'ambarga eng ko'p dushmanlik qilganlar quyidagilar edilar: Abu Laxab, Abu Jaxl, Valid ibn Mug'ira, Abu Sufyon, Umayya ibn Xalaf, Os ibn Voil.

Quraysh ulug'lari Payg'ambarning Alloh elchisi bo'lганligini tan olgan edilar.

Musulmon bo'lмаган makkaliklar ham Muhammadning yuksak axloq egasi ekanini tan olar edilar. Musulmonlar safi kengayib Payg'ambar amakilari - jasur Hamza undan so'ng Umar ibn al-Hattobning imon keltirishlaridan mushriklar sarosimaga tushib qoldilar. Ular musulmonlarga ozor berishni yanada kuchaytirib yubordilar. Bu aziyatlardan xoli bo'lishlari uchun Payg'ambar musulmonlarga Xabashistonga xijrat qilishni buyurdilar.

Xabashistonga ketishni istagan 11 erkak va 4 ayoldan iborat bo'lган birinchi guruh Makkadan yashirin ravishda chiqib, Qizil dengiz bo'ylab ketdi. Ularning ichida Usmon ibn Affon va xotini Ruqiya (Payg'ambarning qizi), Abu Xuzayfa va xotini, Zubayr ibn Avvom, Abdurraqmon ibn Avf, Abdullox ibn Mas'ud bor edilar. Guruh boshlig'i Usmon ibn Maz'un edi. 15 kishi bir guruh holida vahiyning 5-yili Xabashistonga ketdilar. Ularni Xabashistonda juda yaxshi kutib oldilar. U yerda yaxshi sokin hayot kechira boshladilar. Ularning bunday osoyishta hayot kechirayotganliklarini eshitgan boshqa musulmonlar ham bir yildan so'ng ikkinchi

bir guruh holida u erga xijrat etdilar. Bu guruhning boshida Ja'far ibn Abi Tolib bo'lib (Alining akasi), ular 80 kishi edilar.

Xabashiston xalqi va uning podshoxi Najoshiy musulmonlarga juda yaxshi munosabatda bo'ldilar.

Makkaliklar Abdumanof urug'ini Abu Tolib darasiga qamal qildilar. Shundan so'ng ikki marta Habashistonga xijrat qilindi.

Qamaldan so'ng Xadicha vafot etdi. Payg'ambar Toifga xijrat qildilar.

Makkada "Isro va Me'roj" voqeasi yuz berdi. Dushmanlar Rasulullohni o'ldirishga qaror qilishdi.

Madina davri. Madinaliklar Makkaga Payg'ambar huzurlariga kelib islomni qabul qildilar. Ular bilan makkalik musulmonlar o'rtasida do'stlik aloqalari o'rnatildi. Makka mushriklarining musulmonlar ustidan tazyiqlari kuchaygach, Payg'ambar ularga Yasrib(Madina)ga xijrat qilishni buyurdilar. Ular ketidan o'zlarini ham jo'nadilar.

Madinalik "ansor"("yordamchi")lar makkalik muhojirlarni juda samimiy kutib oldilar. Muhammad a.s.ning xijratlari rabi al-avval 8-kuni milodiy 622 yil 20 sentyabrda bo'ldi. Birinchi musulmonlar masjidi qurildi. Azonga asos solindi. Avs va Xazraj arab qabilalari va Banu Qurayza, Banu Qaynuqo', Banu Nadir qabilalari bilan o'zaro sulh tuzildi. Har tomondan musulmonlarga qarshi hujumlar uyshtirildi. Musulmonlar ularni muvaffaqiyat bilan qaytardilar. "Badr" g'azoti bo'ldi.

Madina davrida Muhammad payg'ambar etakchiligidagi islom jamoasi yaqin davlatlar orasida tuzilajak kuchli bir davlatning vazifalarini bajarib, turli arab qabilalarining va bir-biriga qaram bo'lgan qabilalar ittifoqlarining o'zaro dushmanligini yo'qotishga ular o'rtasida yaqin va uzoq muddatli sulh shartnomalarini tuzishga kirishgan edi.

Xijratning 6 - yilida Makka qurayshiyлари bilan tuzilgan Xudaybiya shartnomasi eng muhim tarixiy hujjatlardan biridir.

Oradagi keskin vaziyatni yumshatish uchun payg'ambar Xudaybiya degan joyda Makka raislari bilan o'n yillik sulh shartnomasini tuzishni taklif etdilar. Xudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi.

Musulmonlar davlatining ilk tarixiy hujjatlaridan bo‘lgan

Shartnomaga musulmonlar jamoasi tarafidan Muhammad payg‘ambardan so‘ng Abu Bakr Siddiq, Umar ibn al-Xattob, Abduraxmon ibn Avf, Abdullox ibn Suxayl (g‘uraysh vakilining o‘g‘li), Sa‘d ibn Abi-l-Vaqqos, Muhammad ibn Maslama imzo chekdilar. Qurayshilar tarafidan Suxayl ibn Amr, Miqroz ibn Xafs, Xuvaylid ibn Abdul Uzza imzo chekdilar.

Xijratning 8-yili Makka fath etildi. Makka fathidan so‘ng islom hukumati Arabiston yarim orolida to‘la g‘alabaga erishdi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, Makkaning olinishi musulmonlar uchun g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘ldi, chunki shundan so‘ng Madinadagi musulmonlar jamoasi Arabiston muhitida yagona davlat va siyosiy kuchga aylandi.

632 yili payg‘ambar hajga borishga qaror qildi. Bu uning oxirgi haji bo‘lganligi tufayli islom tarixida “Xajjatul vado” (xayrlashuv haji) deb nomlandi. Bu safarga to‘qson ming musulmon otlandi. Zu-l-xijja oyining to‘qqizinchi kuni Arafot tog‘ida Payg‘ambar a.s. islom dinining asosiy shartlarini bayon etgan “Vidolashuv xutbasi”ni o‘qidilar. Shundan so‘ng, deyarli barcha arab qabilalari islomni tan olib Payg‘ambar a.s.ga elchi va maktublar yo‘llay boshladilar.

Hajdan Madinaga qaytgan Payg‘ambar bir oz muddatdan so‘ng kasallikka chalindilar. Zotan “Moida” surasining 3-oyati nozil bo‘lgan vaqtida sahobalarning ba’zilari payg‘ambar hayotining oxirlashib qolganligini sezgan edilar.

Xijratning o‘n birinchi yilida Payg‘ambar a.s. vafot etdilar. Payg‘ambarning vafot etgan kuni haqida tarixchilar orasida turli xil fikr-muloxazalar mavjud. Tarixchilar V.V.Bartold, Muhammad Xuzariy Sayid Amir Ali, marhum professor Mutalib Usmonov, Doktor Abdulkun‘im Majid Muhammad payg‘ambarning vafot etgan kunini 632 yilning 8 iyun deb beradilar. Tarixchi Muhammad Rizo payg‘ambarni 632 yil 9 iyunda (11 xijriy yil, 12 rabiul avval) vafot etgan deb hisoblaydi.

Islom so‘zining arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi – taslim bo’lish, bo’ysunish, istilohda esa yagona Allohga bo’ysunish ma’nolarini beradi. Islom dini ta’limoti bo'yicha Muhammad payg‘ambar (a.s.) avvalgi payg‘ambarlar ishini davom

ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg' ambar (Xotam al-anbiyo) – nabiylar deb tan olinadilar.

Imon, namoz, zakot, ro'za, haj islomning besh asosiy sharti – rukni hisoblanadi.

“Imon” so’zining lug’aviy ma’nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo’lib, istilohda esa “La ilaha illallohu Muhammadun rasululloh” (“Allohdan o’zga iloh yo’q va Muhammad – Allohning payg’ ambari”) kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash demakdir. Hadislarda imonning yetti sharti borligi ta’kidlanadi. Ular:

– Allohning borligi va birligiga, Qur’on va hadislarda bayon qilingan barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytargan narsalaridan qaytish.

– farishtalarning borligiga imon keltirish. Farishtalar (maloika) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so’zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabroil, Mikoil kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur’onda zikr etilgan;

– ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh Muhammad payg’ ambarga (a.s.) Qur’oni nozil qilganidek, boshqa payg’ ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma’lum bo’lganlari: Ibrohim payg’ ambarga “Sahifalar”, Muso payg’ ambarga “Tavrot”, Dovud payg’ ambarga “Zabur” va Iso payg’ ambarga berilgan “Injil” kitoblaridir. Islom ta’limotiga ko’ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababli Qur’on ularning ta’limotini tiklab kelgan;

– payg’ ambarlarning haqligiga imon keltirish. Alloh insonlarga to’g’ri yo’lni ko’rsatish uchun payg’ ambarlar yuborgan. Barcha payg’ ambarlar bir zanjirning bo’g’inlari kabidirlar. Qur’onda 25 payg’ ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg’ ambarlarning umumiyligi soni 124 ming ekani bayon qilingan;

– oxirat kuniga ishonish. Islom ta’limotiga ko’ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud;

– taqdirga – inson boshiga tushgan yaxshiligu yomonlik Allohdan ekaniga e’tiqod qilish;

– o’limdan keyin qayta tirilishga ishonish. Islom ta’limotiga ko’ra, qiyomat kuni bo’lganda barcha insonlar qabrdan turadilar va mahshargoh maydoniga yig’iladilar. U yerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do’zax)ga mahkum etiladilar.

3. Islomda mazhablarning paydo bo‘lishi.

Muhammad payg‘ambar vafotidan keyin islom 2 ta yirik oqimga bo‘linib ketdi. Bu bo‘linishning asosida turli hukmron guruhlarning hokimiyat uchun kurashlari yotadi. Xalifalar hokimiyati tarafdori bo‘lgan umaviylar islomdagi an’naviy diniy ta’limotga amal qiluvchilarni da’vo qilganlar sunniylikni, Ali va uning avlodlari hokimiyatining tarafdarlari esa shialikni tashkil qildilar.

Sunniylik (Ahli sunna val-jamoa) o‘zlarini sunnatga amal qiladigan va jamoatdan ajralmaydigan guruhi sunniylar deb ataldi. Bugungi kunda sunniylar dunyo musulmonlarining 92.5 foizini tashkil etadi. Sunniylar doirasida 4 ta fiqhiy mazhab mavjud.

Mazhab so‘zi arabcha “yo‘l, yo‘nalish” ma’nosini bildirib, istilohda esa “biror diniy masala, muammo bo‘yicha muayyan mujtahid olimning fatvosiga ergashish” ma’nosini bildiradi

Hanafiy mazhabi. Hanafiylik asoschisi Imom A’zam Abu Hanifa No“mon ibn Sobitdir. U hijriy 80-150 milodiy 699- 767 yillarda hayot kechirgan. Ko‘fa shahrida voyaga etgan.

No‘mon ibn Sobit tarixga ikki sharaflı nom bilan kirdi.

Abu Hanifa, ya’ni to‘g‘ri yo‘lda sobit turuvchilar rahnamosi.

Imom A’zam, ya’ni buyuk imom.

Abu Hanifa yoshlik chog‘idayoq Qur’oni karimni yodladi va uning ma’nolarini fahmlashga intildi. Keyinchalik mantiq va kalom ilmi bilan shug‘ullanib, bu borada atrofdagilardan o‘zib ketdi.

Imom A’zam (r.h.) ham aqidaviy ta’limotga ham fiqhiy mazhabga asos soldi. E’tiqod sohasida birinchi bo‘lib "Al-fiqhul-akbar", ya’ni "Katta fiqh" degan kitoblarini yozdi. Bu kitobda islomdagi musaffo e’tiqod ta’limoti o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik Imom A’zamning mazkur asariga ko‘plab sharhlar bitilgan.

Ba’zi manbalarda qayd qilinishicha, Imom A’zamning ushbu "Al-fiqhul-akbar" kitobiga buyuk vatandoshimiz Imom Moturidiy (r.h.) ham sharh yozgan. Bu narsani ba’zi bir tarixchilar inkor etishadi. Lekin, Imom Moturidiy o‘z ta’limotini yaratishda Imom A’zamning e’tiqod borasidagi qarashlariga tayanganlari, Moturidiyning ustozlari Imom A’zam izdoshlari ekani manbalarda o‘zining aniq ifodasini topgan.

Movaunnahrga hanafiy mazhabi Muhammad ibn al-Hasanning buxorolik shogirdi Abu Havf al-Kabir al-Buxoriy olib kelgan. Keyinchalik Abu Sulaymon al-Jo‘zjoni Xurosonda hanafiy mazhabini tarqatgach, uning shogirdi Abu Bakr al-Jo‘zjoni Samarqandga kelib joylashadi va bu yerda “Dor al-Jo‘zjoniya” nomli ilm markazini tashkil etdi. Buxoro olimlari asosiy e’tiborni fiqhga qaratishgan bo’lsa, Samarqand olimlari aqoid va kalom ilmiga moyil bo‘lishi.

Umuman, hanafiy mazhabi mo“tadilligi, ilmiy asoslarining puxtaligi va huquqiy muammolarni osonlik bilan hal etgani kabi xislatlari tufayli islom olaming ko‘plab hududlariga tarqaldi. Natijada, mazhablar ichida katta va keng yoyilgan mazhabga aylandi

Molikiy mazhabi. Molikiy mazhabining asoschisi Imom Molik ibn Anasdир. Abu Abdulloh Molik ibn Anas al-Asbaxiy (r.h.) hijriy 93-179, milodiy 713-795 yillarda hayot kechirgan. Madina shahrida tug‘ilib, shu erda vafot etgan. Hadis ilmi bilan ko‘proq mashg‘ul bo‘lgan. Hadis rivoyat qiluvchi eng siqa (ishonchli) roviylardan hisoblanadi. Imom Molikning ustozi Nofe’dan, Nofe’ning esa Abdulloh ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilgan hadislar silsilasi muhaddislar o‘rtalarida “oltin sanad” deb yuritiladi.

Molik ibn Anas ham muhaddis va ham faqih bo‘lgan. U Hijoz o‘lkasi (Arabiston yarim orolining g‘arbiy sohillari)dagi e’tirof etilgan olim sifatida tanilib, “Imomul-Madina”, “Imomu doril-hijra”, ya’ni Madina shahrining imomi degan unvonga musharraf bo‘lgan. Imom Molik (r.h.) Imom Abu Hanifa va uning shogirdi Abu Yusuf bilan muloqotda bo‘lgan. U Arabiston zaminida zohir bo‘lgan molikiy mazhabining asoschisi bo‘lib tanildi. Zotan, Molik ibn Anas asos solgan bu ta’limot Arabiston yarim oroli va Afrika mintaqasi aholisi uchun muvofiq keldi. Imom Molik umrining 40 yilini sarflab, “Muvatto” nomli ulkan kitobni yozdi. Bu kitobda u

fiqhiy masalalarga doir o‘z echimlarini bayon qilgan va ularning isboti sifatida Payg‘ambar (a.s.)ning juda ko‘plab hadislarini rivoyat qilgan. Bu kitobda nafaqat hadislar balki, o‘sha zamondagi sahobalarning fikrlari va so‘zlari ham rivoyat qilingan.

Molikiy mazhabi ta’limoti.

Imom Molik ikki harami sharif orasida Makkai mukarrama va Madinai munavvarada hayot kechirdi. Imom Molikning asosiy asari bo‘lmish “Muvatto”ga qaraganda molikiy mazhabining asoslari quyidagilardir:

Qur’oni karim
Sunnat nabaviya
Sahobalar so‘zlari
Ijtihod va qiyos
Istehson
Al-maslaха al-mursala
Urf

E’tiborli jihatni, Imom Molik ijmoni asos qilib olishda, asosan, Madina ahlining ijmosini nazarda tutgan. Negaki, Molik ibn Anas ushbu shahar ahlini payg‘ambar va sahobalar yo‘l - yo‘riqlarini bilib olgan va unga asoslanib kelgan deb hisoblardi.

Shofeiy mazhabi. Shofeiy mazhabi asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon Shofeiydur. U 150/767 - 204/ 820 yillar davomida hayot kechirdi.

Shofeiy hadis va fiqh borasida ulkan darajalarga erishdi.

Shofeiy mazhabining manbalari quyidagilardir:

- 1.Qur’oni karim.
- 2.Sunnati mutohhara.
- 3.Sahobalar qavllari.
- 4.Qiyos.
- 5.Ijtihod.

“Islomda huquq” kitobi mualliflari fikricha, uning davrida huquqiy istidlol, ya’ni fatvolarni dalillar bilan asoslash nihoyat darajada rivojlanadi. Payg‘ambar (s.a.v.)dan rivoyat qilingan hadislarga bo‘lgan chuqur ishonch ul zotga boshqa biror hadisni ochiq shaklda rad qilish imkonini bermaydi. Imom Shofeiy faqat rivoyatga qarshi rivoyat topilgandagina bunday imkoniyatga ega bo‘lardi.

Hanbaliy mazhabi.Hanbaliylik asoschisi Imom Ahmad ibn Hanbaldir. U hijriy 164 – 241, milodiy 780- 855 yillarda hayot kechirgan. Ahmad ibn Hanbalning to‘liq ismi - Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal ibn Hilol ibn Asad az-Zuhaliy al-Marvaziy al-Bag‘dodiydir.

Ahmad ibn Hanbalning eng mashhur asari “Musnad” bo‘lib, u o‘z ichiga o‘ttiz mingdan ortiq hadisni jamlagan.

Hanbaliy mazhabi ta’limoti. Ahmad ibn Hanbal hadisshunoslik bo‘yicha katta shuhrat qozondi. Bir guruh mashhur muhaddislar, jumladan, imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, Muslim ibn Hajjoj undan hadis rivoyat qilganlar. U o‘ziga xos fiqxiy qarashlarga ega edi va ular bilan boshqa mazhab tarafdarlaridan ajralib turardi. Gunohi kabiralarga qo‘l urgan kishi haqida mo‘tazilaga qarshi turib, bunday gunoh qilgan kishi mo‘min emas, degan fikrni rad qildi. Ahmad ibn Hanbal (r.h.) o‘z uslubiga tayangan holda hanbaliy mazhabiga asos soldi va uni rivojlantirishda Makkada Ibn Abbos orqali kurtaklari o‘sса boshlagan ilk huquqiy maktabdan foydalandi. U Qur’on, sunnat, sahobalar so‘zlari va ijmoga asosiy e’tiborni qaratib, qat’iy zarurat bo‘lmasa qiyosdan foydalanmagan. Barcha hadislarni hatto xabari vohid va sahobalar qavlini qiyosdan ustun qo‘yardi.

Hanbaliylarga binoan fiqh asoslari beshta:

1.Qur’on va sunna matnlari.

2.Sahobalarning fatvolari.

3.Qur’on va sunnaga muvofiq bo‘lsa, ayrim sahobaning qavllari.

4. Isnodi zaif yoki ohod hadislar.

5. Mutlaqo ilojsiz qolganda, qiyos bo‘yicha hukm chiqarish. Shialik oqimi. Shia so‘zining to‘liq shakli “ash-Shia” (tarafdarlar, guruh, partiya) yoki, Ali tarafdarlari bo‘lib, bu nom Aliga ergashganlar va ularning avlodlariga

nisbatan berilgan. Shialik quyidagi mazhablarga bo‘lingan. Imomiylar, zaydiylar, jaffariya, ismoiliya.

3.Qur’on - islom dinning muqaddas kitobi. Hadislar qur’ondan keyingi mo‘tabar manba.

Qur’oni Karim Alloh taolo tarafidan 23 yil mobaynida Muhammad payg‘ambarlarga oyat —sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir.

Qur’on — arabcha so‘zdan olingen bo‘lib, “o‘qimoq” — “qiroat” degan ma’nolarni bildiradi.

Qur’on “Kalomulloh” (Allohnинг kalomi so‘zi) “Furqon” (haq bilan botilni ayiruvchi) “Zikr” (eslatma), Tanzil (nozil kilingan kabi nomlar bilan atalib, “Nur” (Yorug‘lik) “Xudo” (Hidoyat), Muborak (Barakatli), “Mubin” (ochiq ravshan) “Bushro” (Xushxabar), Aziz (e’zozlanuvchi) “Majid” (Ulug‘) “Bashir” (Bashorat beruvchi Nazir (ogohlantiruvchi) kabi so‘zlar bilan sifatlangan.

Qur’on Alloh taollo tomonidan o‘z payg‘ambari Muhammad alayhissalomga tushirilgan vahiyidir, ya’ni Ollohnинг o‘z payg‘ambariga yuborgan ko‘rsatmalaridir.

1. Muhammad payg‘ambarga birinchi vahiy tush orqali namoyon bo‘lgan.

2. Farishtalar ko‘rinmay turib, Payg‘ambar qalbiga kerakli narsalarni yetkazgan.

3. Vahiy ovozdek jaranglab quloqlariga chalingan

4. Jabroil farishta Payg‘ambarimizga odam shaklida ko‘ringanlar

5. Farishta o‘zining asl qiyofasida ko‘ringan va vahiy yetkazgan

6. Allohnинг o‘zi Payg‘ambarga al Me’roj kechasida namozni farz qilish va shunga o‘xhash ba’zi narsalarni vahiy qilgan.

Dastlabki vahiy Muhammad Xiro g’orida yolg‘iz ibodat qilayotganda yuborilgan.

Goho bir oyat, ayrim hollarda 10 tadan ortiq oyat ketma — ket vahiy orqali nozil qilingan. Qur’on 114 ta sura 6236 oyatdan iborat.

Yaratilgan vaqt va joyiga ko‘ra suralar ikkiga bo‘lingan.

Makka suralariga (610 — 622 yillar 90 ta sura)

Islomshunoslik va Qur'onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini quyidagicha tasavvur kilish mumkin.

Makka davri

1.Makka davri (610 — 615 yillar). Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo'lgan saj' janridagi suralar o'qilgan Yevropa olimlari ularga "Nazmiy suralar" deb nom bergenlar.

2.Makka davri (616 — 619 yillar). Muhammad (s.a.v.) va ularning izdoshlari doimiy ta'qib ostida yashagan va ko'pchilik Xabashistonga ko'chib ketgan muhitda o'qilgan. Bu suralarda Ollohnning "Raxmon" sifatida ko'p tilga olinganligi sababli Yevropa olimlari ularni "Raxmon suralari" deb ataganlar.

3.Makka davri (610 yil boshlaridan 622 yil sentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad (s.a.v.) va uning izdoshlari ta'qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko'pincha shahardan tashqarida ibodatga to'planganlar. Bu davr suralarida islomning aqoid ta'limotiga keng o'rinn berilganligi sababli, Evropalik olimlar bularga «Payg'ambarlik suralari» deb nom bergenlar.

Madina davri

Tarixiy voqealar aniqroq ko'zda tutilgan holda Madinada tushirilgan 24 ta suraning nozil bo'lish davrini besh bosqichga ajratish ma'qulroqdir:

I davr (622 yil martidan 625 yil oktyabrgacha) Muhammad (s.a.v.) Madinaga ko'chib kelganidan Makkaliklar bilan birinchi yirik to'qnashuv - Badr jangigacha o'qilgan 4 sura bu davrga kiradi.

II davr (624 yilmartidan 625 yil martigacha). Badr jangidan keyin Uxud jangigacha o'tgan bir yil ichida o'qilgan 3 surani o'z ichiga oladi.

III davr (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uxud jangidagi mag'lubiyatidan keyin Xandak jangigacha otgan ikki yil ichida 5 ta sura o'qilgan.

IV davr (627 yil apreldidan 630 yil yanvargacha). Xandak jangidan so'ng Makkaning olinishigacha o'tgan salkam uch yil ichida o'qilgan 8 sura shu davrga kiradi.

V davr (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka olinganidan keyin keyin Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarning vafotigacha o‘tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida o‘qilgan 4 ta sura shu davrga kiradi.

Muhammad hayotlik choglarida yana vahiy kelib qolar degan umidda Qur’on jamlanib kitob holiga keltirilmagan edi.

Muhammad alayhissalom Qur’on oyatlarini farishtalardan eshitib, yodlab olar edilar. Keyin boshqa musulmonlar u kishidan eshitib yodlab olar edilar.

Payg‘ambar vafotidan so‘ng musulmonlarga Abu Bakr boshliq etib saylandi. Uning davrida mo‘minlar va mushriklar o‘rtasida keskin janglar bo‘lib utadi. Bu janglarda Qur’onni yod bilgan ko‘plab qorilar shahid bo‘ladi. Shunda Umar Ibn al Xattob Abu Bakrga uni jamlab kitob holiga keltirishni aytadi. Abu Bakr bu ishni Zayd Ibn-Sobitga topshiradi. Chunki Zayd ibn Sobit Muhammad payg‘ambar bilan doimo birga bo‘lib Qur’on suralarni yodlagan, U barcha manbaalardan yig‘ilgan suralarning to‘plamini tuzdi. Suralarni to‘plam “Suxuf” (Saxifalar) deb aytildi.

Bu nusxa Abu Bakr vafotigacha unga saqlangan biroq xalifa Usmon davrida Qur’onning yangi nusxasini tuzib chiqish zaruriyati paydo bo‘lgan. Chunki bu davrda arab xalifaligi juda keng mintaqalarni egallagan edi. Imperiya kengaygan sari odamlar orasida aloqa vositalari zaifligi uchun sahabalar tomonidan targ‘ibot ishlarini olib borish qiyinlashdi. Natijada Qur’oni Karim oyatlari turli joylarda turlicha o‘qila boshladi. Bu ixtilof o‘z navbatida islom jamiyati bo‘linib ketishiga olib kelishi mumkin edi. Buni ziyraklik bilan hisobga olgan xalifa Usmon ibn Affon Qur’oni Karimning kitob holidagi nusxasini yaratishda amr etdi.

Bu ish yana Zayd ibn Sobitga topshirildi. Usmon davrida Qur’onning yangi nusxasi yaratildi. Qur’onning yangi nusxasi 651 yilda taqdim etildi. Yangi nusxa «Musxaf» deb ataldi. Ko‘pincha “Usmon to‘plami” deb ataladi.

Usmon Qur’oni keyik terisida bitildi yangi tuplamning asl nusxasi Madinada qoldirilib 3 nusxa ko‘chirildi. Kufa, Basra, Damashqga yuborilgan. Usmon to‘plami katta Jom’e masjitarida saqlanardi. Hatto biror shakl qo‘sish, biror qog‘ozdan yoki bargdan xat cho‘p solish ham mumkin emas edi. Bu hol 50 yil davom etdi. Ko‘chirilgan nusxalar “Musxafi” Usmon deb ataldi.

Arab tarixchilarning xabar berishlaricha, xalifa Usmon Qur’onni mutoala qilib o’tirganlarida o’ldirilgan. U kishining qoni Qur’onga to’kilgan. Qur’on nusxasi Markaziy Osiyoga qanday olib kelginganligi haqida turli fikrlar mavjud.

Usmon Qur’oni ruslar O’rta Osiyoni bosib olguncha Samarqandda, Xo’ja Ahror madrasasida saqlanar edi. Bu haqda turli rivoyatlar mavjud. Ulardan biri maqaddas kitobni Abu Bakr al -Raffal -ash -Shomiy Bog‘doddan olib kelgan deb hikoya qilinadi.

Ayrim manbalarda misr podshosi Baybars mo‘g‘ullardan birinchi bo‘lib islomni qabul qilgan, keyinchalik do‘stona aloqa o‘rnatgan Samarqand hukmdori Barokotxonga sovg‘a sifatida yuborilgan deyiladi.

Boshqa manbaalarda Qur’on sohibqiron Amir Temur (1370-1405) tomonidan Basradan ko‘plab qo‘lyozma kitoblar va boshqa o‘ljalar bilan birga Samarqandga keltirilgan va Temurning mashhur kutubxonasiga saqlangan.

Sankt — Peterburglik sharqshunos olim A.V.Shebunin fikricha, Basradan Samarqandga keltirilgan fikr haqiqatga yaqin. Bu kitob 400 yil davomida Samarkandda saqlangan. 1868 ruslar Samarqandga bostirib kirishi bilan moddiy boyliklar talon — taroj kilinadi. Jumladan bu muqaddas kitob Peterburgga alohida soqchilar bilan 1869 yilda yuborildi.

1869 yillarda beri Peterburgda -Imperator kutubxonasiga saqlangan. 1923 yilda musulmonlarning talabi bilan Qur’oni Karim O’rta Osiyoga qaytarildi.

1923 yil 18 avgustda Sirdaryo diniy idorasiga qarashli Xo’ja Axror machitiga topshiriladi.

1926 yil eski shahar muzeyiga keltiriladi. Qur’onda Sharqning juda ko‘p olimlari tomonidan sharxlar yozilgan. Qur’on XII asrda Yevropada lotin tiliga tarjima qilindi. XVIII asrda Evropa xalklari tillaridan, XIX asrda arabcha asl nusxasidan rus tiliga tarjima qilindi.

Olim G.Sablukovning arabchadan dastlabki tarjimasi Qozonda 3 marta nashr qilingan. Akademik Krachovskiyning ilmiy izohlari bilan rus tilidagi tarjimasi mashhurdir. Bu tarjimalar 1986 yilda nashr etildi.

O‘zbekistan mustakillikka erishgandan keyin Qur’onni o‘zbek tiliga tarjima qilishga kirishildi.

1992 yil avgustda Qur’oni Karim ma’nolarining birinchi o‘zbek tilidagi tarjiması Alouddin Mansur tomonidan tayyorlandi va «Cho‘lpon» nashriyotida 100 ming nusxada chop etildi. 2001 yil 2 mayda «Qur’oni Karim» ma’nolarning tarjiması Abdulaziz Mansur tomonidan tayyorlandi.

Qur’oni karim — to‘g‘ri yo’lni ko‘rsatuvchi, musulmonlar uchun qonunnomा, xalq uchun o‘git nasihat, hamma narsaning izohi, chin so‘z deb atalgan. Qur’oni kirimning axloqiy masalalarga doir ba’zi sura va oyatlardan namunalar keltiramiz. Qur’oni kirimda axlok odob bobida quyidagi oyatlar keltirilgan

«Haqni nohaq bilan qorishtirmangiz, bila turib, haqiqatni yashirmangiz». (Baqara surasi, 42 oyat)

«Imon keltirib solih amallarni qilganlar esa aynan aqllidir va ular u yerda abadiy qoluvchilardir» (Baqara surasi 82 oyat)

«Imon keltirib, solih amallarni qilganlarga esa (Alloh) mukofotini mukammal berur. Allox zolimlarni yoqtirmas». (Oli imron surasi 57 oyat)

«Qachon sizlarga salomlashish uchun salom bersa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olingiz yoki o‘scha iborani qaytaringiz, albatta Allox har bir narsani hisobga oluvchi zotdir». (Niso surasi 86 oyat)

«Ey odam avlod! Har bir mavjud (namoz) odildan ziynatlaringiz (pok kiyimlaringizni kiyib olingiz.) shuningdek yeb — ichingiz, lekin isrof qilmangiz, zero u isrof qiluvchilarni sevmagay». (A’rof surasi 3 oyat).

“Illox, sabrli bo‘lgan va ezgu ishlarni qilganlarga, aynan o’shalarga ma’rifat va katta mukofot bordir”. (Xud surasi 11 oyat)

“Ey qavmim”! O‘lchov va vaznni adolat bilan to‘la beringiz. Odamlarning narsalarini urib qolmangiz va yerda fasot bilan buzg‘unchilik qilmangiz (Xud surasi 85 oyat)

«Yer yuzida kibrilanib yurma. Chunki sen oyoqlaring bilan zinxor yerni tesha olmaysan va uzunlikda tog‘larga yeta olmaysan». (Isro surasi 37 oyat)


«Odamlarga kibrlnib yuzingni burishtirmagin va yerga kerilib yurmagin chunki Allox barcha kibrli maqtanchoq kimsalarni suymas». (Luqmon surasi 14 oyat).

Qur’oni karimda xayr —ehson qilish isrofgarchilikka yo’l qo‘ymaslik alohida ta’kidlab o‘tiladi. Jumladan:

«Qarindoshga, miskin va yo‘lovchiga xayr ehson qilish bilan haqlarini ado eting va isrofgarchilikka mutlaqo yo’l qo‘ymang, chunki isrofgarchilik shaytonning birodarlaridir». (Isro surasi 26 oyat).

«Baxillik qilib qo‘lingizni, bo‘yninggizga boplab ham olmang isrofgarchilik qilish bilan uni butunlay yoyib ham yubormang aks holda malomatda mahrumlikka o‘tirib qolursiz» (Isro surasi 29 oyat)

Qur’oni karimda ota —onani rozi qilishlik alohida ta’kidlanadi.



Toshkent. Hazrati Imom majmuasi. Muqaddas Usmon Qur’oni

Ko‘krakdan ajratish muddati ikki yilda bitar. (Biz insonga buyurdikki,) «sen, menga va ota —oningga shukr qilgin. Qaytishlik mening xuzurimgadir». (Luqmon surasi 14 oyat).

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan Qur’on oyatlari insonlarni ezgu amallarni bajarish, haqqoniy odil bo‘lishga, ota —onani hurmat qilishga va yer yuzida tinchlik osudalik bo‘lishiga undaydi. Xulosa qilib aytsak, Qur’oni Karim Islom diniga e’tiqod qiluvchi xalqlar hayoti va tarixida asosiy o‘rin egallaydi.

Hadisi Sharif - Qur'onidan keyingi ikkinchi manbadir.

Hadis — arabchadan olingan bo'lib, (xikoya, xabar) Muhammad alayhissalomning aytgan so'zлari qilgan ishlari ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlardir. Qur'ondek muqaddas kalom turganda hadis yaratilishining sabablari nima edi?

Xalifalik kengayib borgan sari jamiyatda siyosiy, ijodiy, madaniy hayotda ziddiyatlar kuchaydi. Qur'on mukammal manba bo'lmasin u baribir musulmon hayotining barcha huquqiy axloqiy masalalariga javob bera olmasdi.

Natijada saxobalar tomonidan yod olingan Muhammadning so'zлari qog'ozga tushirila boshlandi. Qur'onda barcha huquqiy va axloqiy masalalarga aniqlik kiritish uchun Muhammad alayhissalom o'z hadislarini aytganlar. Saxobalar uni yod olganlar.

VII —VIII asrlardan boshlab hadis yoza boshlandi. Muhaddislar hadis yozish bilan shug'ullangan. Hadis 2 turga bo'linadi.

1. Hadisi qudsiy (ma'no Alloxdan so'z payg'ambardan)

2. Hadisi nabaviy (ma'no ham, so'z ham, payg'ambardan) Bu xayrli ishga birinchilardan bo'lib ummaviylarning sakkizinchи xalifasi Umar —Ibn Marvon qo'l urdi. Muhammad payg'ambar vafotidan 80 yil o'tgach to'plana boshlandi. Lekin hadis to'plaganlari tartibga solinmagan edi. Islom dini VIII asrda Markaziy Osiyoda kirgandan keyin Buxoro Samarqand, Shosh, Marv Xorazm, Nasaf shaharlarida Qur'oni Karim va payg'ambar hadislari o'qitilib, targ'ib qilindi. Bu sohada yurtdoshlarimizdan

1)Xaysam Ibn Shoshiy

2)Ibroxim ibn Nasafiy

3) Hafiz al Xorazmiy

4)Abu Muhammad al —Dorimiy

5) As — Samarqandiy faoliyat ko'rsatdilar.

Hijriy uchinchi (milodiy) to'qqizinchи asr hadis ilmi taraqqiyotida alohida o'rin egalladi.

Aynan shu davrda faqat sahihlari ajratilib, mustaqil asarlar yaratilgan. Xuroson va Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan

- 1)Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil — al Buxoriy (810 – 870)
- 2)Muslim —ibn al Xajjoj an — Naysorubiy (819 — 874)
- 3)Dovud Sulaymon Ibn —al — At’as —as Sijistoniy (817-880)
- 4)Iso-at-Termiziy (824-892)
- 5)Axmad ibn Nasoiy (830-915)
- 6)Abdullox ibn Moja (822-886) Olti sahih to‘plamini yaratdilar.

Ular orasida buyuk alloma imom al —Buxoriy hazratlari alohida ajralib turadi.

Islom olamida eng obro‘li hadis to‘plamlari

- 1.Al — Jomi’ —as —sahih (Sahihi Buxoriy)
- 2.Sahihi Muslim
- 3.Sunati Termiziy
- 4.Sunati Abu Dovud

Imom al-Buxoriy-Sharqning buyuk muhaddisi

Imom al —Buxoriy 810 yilning 20 iyulida Buxoro shahrida dunyoga kelgan. Otasi shayx Ismoil ibn Ibrohim o‘z davrining ilmli odamlaridan edi. Biroq, unga o‘g‘lining qanday inson bo‘lib etishishini ko‘rish nasib etmaydi. Imom al —Buxoriy go‘dakligidayok otadan etish qolib, onasi qo’lida katta bo‘ladi. Aql — idrokli, o‘tkir zehnli bo‘lgan Imom al —Buxoriy 10 yoshidanoq arab tili va hadis kitoblarini astoydil o‘qish va ularni yodlashga qunt bilan kirishadi.

825 yilda Imom al —Buxoriy onasi va akasi bilan haj safariga yo’l oladi. Hajdan keyin onasi va akasi qaytib ketgach, 6 yil Hijozda yashab hadis ilmidan astoydil saboq oladi. Shundan so‘ng o‘z bilimini yana oshirish maqsadida o’sha paytda ilm — fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qoxira, Basra, Kufa, Bag‘dod kabi shaharlarda yashab mashxur olimlardan hadis, fiqh ilmidan tahsil ko‘radi. Ilmiy bahslar va munozaralarda qatnashadi, toliblarga dars beradi.

863 — 868 yillarda Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars beradi. O’sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biri

bo‘lib, bu yerda mashxur olimlar to‘plangan edi. Al — Buxoriyning at —Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, ikki mashhur muxaddis o‘rtasida qizg‘in ilmiy bahslar, ko‘pdan —ko‘p ijodiy va do‘stona muloqotlar bo‘lib o‘tadi. At —Termiziyning yozishicha, u o‘z asarlari uchun ko‘plab ma’lumotlarni al — Buxoriy bilan o‘tkazgan maroqli suhbatlardan olgan. O‘z navbatida al — Buxoriy ham shogirdi va safdoshi at — Termiziy saloxiyatini yuqori baholab: «Sen mendan baxra topganingdan ko‘ra, men sendan ko‘prok bahra topdim», — deydi. Bu so‘zlar al — Buxoriyning at —Termiziya bo‘lgan cheksiz hurmatining belgisi edi.

Imom al —Buxoriy zehni o‘tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan g‘oyatda keng shuxrat qozongan inson edi. Manbalarda al —Buxoriyning 300 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al Buxoriy xorijdan qaytgach o‘z vatani Buxoroda ham ko‘plab shogirdlar va ulamolarga xadis ilmidan saboq berdi. Birok, Buxoriy bilan Buxoro amiri o‘rtasida kelib chiqqan ixtilof tufayli uning o‘z vatanidagi hayoti og‘ir kechdi. Buxoro amiri Xolid ibn Axmad az —Zuxaliy al —Buxoriy xuzuriga odam yuborib «At —Terix al —kabir» (katta tarix) kitoblarini saroya qilib bolalariga o‘qib berib turishni tayinlaydi. Lekin, al — Buxoriy “men ilmni xor qilib, uni xokimlar eshigiga olib bormayman” deydi. Natijada al —Buxoriyni ko‘rolmagan ba’zi hasadgo‘y, fitnachi, bo‘htonkor kimsalarning gapiga kirgan Buxoro amiri unga Buxoroni tark etishni amr etadi. Imom al —Buxoriy Samarqandga ko‘chishiga majbur bo‘lib va Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘ida yashaydi. Bu orada kasalga chalingan al — Buxoriy 870 yili 62 yoshda vafot etadi va shu erda dafn qilinadi. Hozir uning qabri musulmonlarning tabarruk ziyyaratgoxiga aylangan.

Imom —al—Buxoriy o‘z ijodiy faoliyati davomida yigirmadan ortiq asar yaratdi ulardan bizgacha yetib kelgan Alloma ijodida al —Jome’ —as —Sahih (ishonarli to’plam) sahih — al — Buxoriy nomi bilan mashxurdir). Bu qimmatbaho asar Makkai mukarrama, Madinai Munavvara va Buxoroi Sharifda o‘n olti yil davomida yozilgan bo‘lib, o‘n sakkiz mingga yaqin sahih hadislarni to‘qson yetti kitob, 3450 bobdan iborat. Asosan 4 jidda joylashgan. «Sahih —al—Buxoriy» ning ko‘plab qo‘l yozmalari dunyoning turli yirik shaharlarida qimmatbaxo manba

sifatida saqlanadi. U bir necha xorijiy, jumladan ingliz, fransuz, fors, turli tillarga tarjima qilindi. Mustaqillik tufayli tarjima qilinib, Toshkentda nashr etildi.

Imom —al —Buxoriy jami 600 ming hadis to‘plab, shulardan 100 ming «Sahix» 200 ming «g‘ayrisahihlarni» yod olgan. Uning 4 jilddan iborat hadis tuplami kitobida 7275 ta eng «sahih» mavjud.

Imom —al —Buxoriyning hadislari beqiyos tarbiyaviy axloqiy ahamiyatga ega.

1998 yilda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi munosabati bilan ulug‘ alloma xotirasiga Samarqand viloyatining Chelak tumanidagi Xartang qishlog‘ida Ulkan yodgorlik obidasi bunyod etilgan.

Necha umrlarga tatigulik ilm zaxmati evaziga allomani musulmon olamida «Amirul —mo‘min — fil — hadis» ya’ni «hadis ilmida imomlarning sultonı», «Imomul —dunyo» ya’ni «dunyodagi barcha imomlarning ulug‘i» deb ulug‘lanib uning kitobiga ikkinchi manba deb karab kelganlar.

Abu Iso Muhammad Ibn Iso at-Termiziy

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, at-Termiziy 824 yilda Termizda tug‘ilgan. Yoshlik chog‘laridan boshlab ilmgaga katta qiziqish va ishtiyoq ko‘rsatgan. Hijoz, Xuroson va boshqa joylarda mashxur muhaddislar, ulamolar bilap muloqotda bo‘lgan, ulardan saboq olgan. Imom al Buxoriyni o‘z ustozi deb bilgan. Imom al-Buxoriy at Termiziyning hadislarni sinchiklab o‘rganishdagi nodir qobiliyati, taqvodagi ustunligini tan olgan.

Hofiz Umar ibn Alak bunday degan: «Imom al-Buxoriy vafot etib, butun Xurosonda ilmda taqvoda va zuxdda Abu Iso Termiziyga teng keladigan ulug‘ pirni o‘zidan keyin qoldirmadi».

Imom at-Termiziyning mashhur asari ham «Al-Jome’ as-sahih» deb ataladi. Shuningdek, «Shamoili Nabaviya» (Payg‘ambar alahissalomning shakl va sifatlari), «Kitob uz-zuxd» (Zoxidlik kitobi), «As-mo‘ us-saxoba» (Saxobalarning ismlari), «Al-Asmo‘ val kuna» (Ismlar va kunyalar), «Kitobul-ilal» (Illatlar kitobi) kabi asarlar ham bitgan.

Imom at-Termiziy hadislarni 3 guruhga ajratgan. Ular — sahih, xasan, zaif deb atalgan. Bu bilan Imom at-Termiziy hadisning sahihligini (ishonarliligin) aniqlashda yana bir bosqichga ko‘tarildi.

Har bir hadisga «sahih», «xasan» yoki «zaif» belgilarini qo‘yan edi.

Imom at-Termiziy har doim ilm-fanni targ‘ib etgan, ayniqsa yoshlarni ilm olishga da’vat qilgan. Ayni paytda, muloyimlik va xushfe’llik ul kishining go‘zal fazilati edi.

Umr bo‘yi qilingan mashaqqatli mehnat, xayotiy uqubatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmas edi. Hayotining so‘nggi yillarida Imom at-Termiziyning ko‘zlari ojiz bo‘lib qoladi. Ul zot 892 yili 70 yoshida vafot etadi.

1993 yil avgustda «Buyuk yurtdoshimiz, mashxur muhaddis Abu Iso —at —Termiziyning» «Sahihi Termiziy» (Tanlangan Hadislar) asarlari ilk bor Abdulg‘ani Abdullox tomonidan o‘zbek tilida o‘girildi va 50 ming nusxaga chop etildi.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asarlarida quyidagilarni ta’kidladilar. «Yana bir ulug‘ vatandoshimiz —Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziyning ma’naviy merosi, jumladan (Sunani Termiziy) asari ham musulmon olamida ana shunday yuksak qadrlanadi». Allomaning asrlar davomida olimu fuzalolarga dastur bo‘lib kelgan insof vaadolat, insonparvarlikni targ‘ib etuvchi g‘oyalari hozirgi murakkab davrimizning ko‘plab axloqiy ma’naviy masalalarini hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etishi bilan e’tiborga molikdir».

Xulosa qilib aytganda, islom dining muqaddas manbalari bo‘lgan Qur’oni karim va Hadisi Sharif xalqimiz ma’naviy merosining asosida tashkil qiladi. Hozirgi kunda muqaddas islom dinimizni rivojida beqiyos hissa qo‘shgan buyuk allomalarimizni ma’naviy merosni yanada chuqurroq o‘rganishimiz uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil Oliy majlisga murojaatnomasida bu borada quyidagilarni ta’kidlab o‘tdilar. “Mamlakatimizda “ jaholatga- qarshi ma’rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishni kun tartibimizdagi doimiy masalalaridan biri bo‘lib qoladi.

Joriy yilda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, kalom ilmi asosichisi Abu Mansur Moturidiy va uning davomchisi Abu Muin Nasafiyning hayoti, ilmiy merosiga bag‘ishlangan hamda diniy bag‘rikenglik mavzularida xalqaro ilmiy amaliy konferensiyalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi”.

Biz yoshlarga berilgan ana shunday imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanib, ajdodlarimiz ma’naviy merosini o‘rganish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu buyuk allomalarining yurtdoshlari bo‘lganligimiz bilan xaqli ravishda faxrlanmogimiz lozim.

4. Tasavvuf (sufizm) va hozirgi zamон

VIII–IX asrlarga kelib Islom dini doirasida aqidaviy ixtiloflar ham yuzaga keldi. Islom dinida Alloh taolo, uning sifatlari, insonlarning taqdiri, qiyomat, jannat va do‘zax, gunoh va savob kabi mavzular aqidaviy masalalar sirasiga kiradi. Zikr etilgan unsurlarni o‘rganuvchi fan yana kalom ilmi deb ham ataladi. Qur’onda ham hadislarda ham bu borada tortishish, o‘zicha hukm chiqarish qoralangandir. Shu sababli ham avval boshida ulamolar kalom ilmi bilan shug‘ullanishni qattiq qoralaganlar.

“Mo‘‘tazila”, “jabariyya”, “qadariyya”, “mushabbiha” kabi bir qator adashgan oqimlar yuzaga kelgach oddiy musulmonlarga sof aqidani tushuntirib berish ehtiyoji tug‘igan edi. Shundan so‘ng kalom ilmi bilan shug‘ullanishga ruxsat beriladi.

Kalom borasida bahs yuritgan ilk oqim “mo‘tazila” hisoblanadi. Ushbu ta’limot islom tarixidagi adashgan firqalardan bo‘lib, Hasan al-Basriyning (v. 728 y.) sobiq shogirdlari bo‘lgan Vosil ibn Ato (v. 748 y.) va Amr ibn Ubaydga (v. 761 y.) borib taqaladi. Umaviy xalifa Hishom ibn Abdilmalik davrida ushbu ikki shogird Hasan al-Basriy davrasidan o‘zlarining “manzila baynal manzilatayn” (arosat) mavzuidagi aqidalari bilan ajralib chiqada va «mo‘tazila» (ajralganlar) nomini oladi. Mo‘‘taziliylar abbosiylar xalifaligi davrida muhim o‘rin tutgan.

Mo‘taziliylar abbosiylar xalifa Xorun ar-Rashid davrida ta’qib ostiga olingan bo‘lsa, Ma’mun, al-Mo‘tasim va al-Vosiq davrlarida (813–847) suyukli peshvolarga aylanadi va yirik davlat mansablariga ham sazovor bo‘ladi. Ma’mun

davrda mo‘taziliylar “mihna” degan jamoa tuzib, o‘zlarining aqidaviy qarashlarini mahalliy ulamolarga majburlab sindirishga harakat qilgan.

Mo‘taziliylar ta’limoti “al-adl” (Allohningadolati), “tavhid” (Allohning yagonaligi), “al–va’d val va’iyd” (va’da va jazolash), “manzila baynal manzilatayn” (Oraliq holatda qolish), “al–amr bil ma’ruf van nahiyanil munkar” (Yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish) deb nomlanuvchi besh tamoyilga tayanadi. Xalifa Mutavakkil davriga kelib mo‘“taziliylar yana siquvga olindi va bora–bora butunlay yo‘q bo‘lib ketdi.

Mo‘taziliylar bilan deyarli bir davrda yuzaga kelgan aqidaviy oqimlardan biri “qadariya”dir. Qadariylar iroda erkinligini mutlaqlashtirib, inson barcha amallarini o‘z ixtiyori bilan qiladi, avvaldan taqdir belgilab qo‘yilmaydi, degan aqidani ilgari surdilar. Mo‘taziliylar mazkur fikrni qo‘llab quvvatlagani bois, ular ham taqdir masalasida qadariylar deya ataldi. Ularga nisbatan ulamolar tomonidan: «Qadariylar ushbu ummatning majusiylaridir», degan hadis keltiriladi. Zero, taqdirga ishonish imonning yettita shartidan biri hisoblanadi.

Keyinroq shakllangan jabariylar esa insonning barcha qiladigan ishlari Allah tomonidan avvaldan belgilab qo‘yiladi degan aqidani mutlaqlashtirdilar. Bu insoniyatni taraqqiyotga intilishdan to‘xtatib qo‘yadigan aqida bo‘lgani sababli ulamolar bu fikrni qo‘llab–quvvatlamadilar.

Allohning zoti va sifatlari masalasida esa “mushabbiha” (o‘xhatuvchilar) yoxud “ahlu–t–tashbih” (o‘xhatish ahli) yuzaga keldi. Ular Allohning Qur’oni karimda kelgan sifatlarini to‘g‘ridan–to‘g‘ri o‘z aqlvari bilan talqin qila boshladilar. «Allohning «qo‘li» ularning qo‘llari uzradir» (Fath surasi, 10), «Uning Kursiysi osmonlar va yerni (ham) o‘z ichiga sig‘dira olur» (Baqara surasi, 255) kabi oyatlardagi «qo‘li», «kursiysi» so‘zlaridan Allohning ham inson kabi badan va a’zolari bor ekan, u ham inson kabi o‘tirish uchun kursiyiga muhtoj ekan, deya xulosa chiqardilar.

Ismlari zikr etilgan oqimlarning buzg‘unchi g‘oyalariga bir qator ahli sunna ulamolari raddiyalar bergenlar. Natijada, moturidiya va ash’ariya ta’limotlari yuzaga

keldi. Mazkur ikki yo‘nalish ham sunniylik doirasida to‘g‘ri hisoblanib, ular o‘rtasidagi farqliliklar lafziy xarakter kasb etadi xolos.

Moturidiya ta’limotiga movarounnahrlik olim Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan. Aksariyat manbalarda Moturidiy 870 yili Samarqandning “Moturid” qishlog‘ida tug‘ilgani va Samarqandda 944 yili vafot etgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Ba’zi manbalarda uning 100 yilga yaqin umr ko‘rgani haqida ham ma’lumotlar bor.

Manbalarda Imom Moturidiyning o‘ndan ortiq asarlari bo‘lgani haqida ma’lumotlar keltiriladi. “Kitob at-tavhid”, “Kitob al-maqolot”, “Kitob radd avoil al-adilla lil-Ka’biy”, “Kitob bayon vahm al-mo‘tazila”, “Kitob radd tazhibi al-jadal lil-Ka’biy”, “Radd kitob al-Ka’biy fi vaiyd al-fussoq”, “Radd usul al-xamsa li-Abi Umar al-Boxiliy”, “Radd kitob al-imoma li ba’zi ar-ravofiz”, “Kitob radd ala al-qaromita” hamda usul al-fiqhga oid “Ma’had ash-sharoi”, “al-Jadal” kabi asarlar shular jumlasidandir.

Moturidiyning aqidaviy qarashlari va kalom ilmidagi o‘ziga xos uslubi XI asrga kelib Movarounnahrda alohida maktab sifatida tan olingan va “moturidiya” deb atalgan.

Mazkur maktab o‘zining yarim-ratsionalistik qarashlari bilan boshqa aqidaviy ta’limotlardan ajralib turadi. Unda, masalalarning yechimini topishda faqat Qur’on va sunnatga tayanibgina qolmasdan, mantiqiy tafakkur orqali ham yondoshilgan. Moturidiya ta’limotida asosan mo‘taziliya, shia, xorijiya, jabariya, qadariya kabi ta’limotlarga raddiyalar berilgan.

Moturidiya ta’limoti XI–XII asrlarda keng miqyosda rivojlangan. Ushbu davrlarda endi ta’limot nafaqat Movarounnahrda, barki Xuroson, Iroq. Misr va Shom o‘lkalariga ham tarqala boshlangan. Bunda moturidiya ta’limoti vakillaridan Abul Mu’in an-Nasafiy, Abu Hafs an-Nasafiy, Alouddin as-Samarqandiy, Nuriddin as-Sobuniy, Ibrohim as-Saffor, Alouddin al-Asmandiy kabi movarounnahrlik olimlarning katta bo‘lgan.

Ko‘pincha, tasavvuf yoki tariqat deganda mashaqqatli hayot yo‘li, tarkidunyochilik qilish, zamonaviy fan yutuqlaridan voz kechish, mehnat qilmasdan

faqat ibodat bilan shug‘ullanish, o‘zini-o‘zi qiyash ko‘z oldimizga keladi. Aslida ham shundaymi? Aslini olganda tasavvufning chin mohiyati nafshi poklash, axloqni sayqallash, ma’naviy kamolotga erishishdan iborat. Mazkur maqsadlarga erishish uchun olimlar tomonidan maxsus maktablar — tariqatlar tuzilgan. «Tariqat» arab tilidagi so‘z bo‘lib, «yo‘l» ma’nosini anglatadi. Tasavvufda esa bu muayyan yo‘lboshlovchi (murshid, pir) tomonidan Qur’on va hadislar, sahobalarning yo‘l-yo‘riqlari asosida ishlab chiqilgan ruhiy poklanish yo‘li, metodi jamlanmasi hisoblanadi. Bugungi kunda tariqatlar soni ko‘p bo‘lib, ularning eng yiriklari Yassaviya, Kubraviya va Naqshbandiyadir. E’tiborlisi, ularning barchasi ona yurtimizda yuzaga kelgan. Tasavvuf — islom axloqi bilan bezanish uchun kerakli bo‘lgan ilmlarni o‘rgatadigan soha sanaladi. So‘fiy esa tasavvuf bilan shug‘ullanuvchi kishiga nisbatan ishlatiladigan atamadir. Ayni ma’noda yana «solik» so‘zi ham ishlatiladi. Movarounnahrda tasavvuf yo‘nalishining vujudga kelishi shayx Abu Ya’qub Yusuf Hamadoniy (vaf. 1140–41-y.) shaxsi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir. Yassaviya. Xoja Ahmad Yassaviy bugungi Qozog‘istonning janubidagi Chimkent viloyati Sayram qishlog‘ida dunyoga kelgan. Ba’zi manbalarga qaraganda, u Yassida (hozirgi Turkiston) tavallud topgan. Ahmad Yassaviy o‘zining «Devoni Hikmat» asarida ma’naviy poklanish, axloq, halollik, bag‘rikenglik g‘oyalarini she’riy uslubda bayon qilgan. Yassaviylikning o‘ziga xos jihat oshkora uslubda zikr va duolar o‘qish, dunyo lazzatlaridan qisman voz kechishda aks etgan. Yassaviylikka xos xususiyatlar keyinchalik yuzaga kelgan ko‘plab tariqatlarda aks etgan. Kubraviya — Yassaviylik bilan bir asrda yuzaga kelgan tariqatlardan biri. Bu tariqatning asoschisi — Shayx Najmuddin Kubro Xivaqiy (1145–1221). U Xorazmdagi Xiva shahrida dunyoga kelgan. Shayx Najmuddin Kubro kubraviya yoki «zahabiya» deb ataluvchi tariqatga asos solgan. Mazkur tariqatchilar orasida «xufiya» zikr qilish keng qo‘llangan. Uning eng mashhur asari «Usuli ashara» bo‘lib, u barcha tariqatlarga Tasavvuf — xuddi tibbiyot ilmi badan sog‘lig‘iga oid ma’lumotlarni o‘rgatganidek, tasavvuf ham qalbning, ruhning yomon axloqlardan xalos bo‘lishi yo‘llarini o‘rgatadi. Yassaviya

tariqatida Allohni tanish (ma'rifatulloh), mutlaq javonmardlik, rostgo'ylik, o'zini Allohga topshirish (tavakkul) va teran tafakkur muhim o'rin tutadi. Amir Temur qurdirgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi o'z ta'sirini ko'rsatgan. Najmuddin Kubroning asarlari Eron, Kichik Osiyo va Hindistondagi tariqat muhitlariga kuchli ta'sir qilgan. Kubraviya ta'limoti mo'g'ullar istilosiga bardosh bergan ta'limotlardan biridir. Bu ta'limot mo'g'ul qabilalari va hukmdorlarining islom dinini qabul qilishida katta ta'sir ko'rsatgan. 1221-yilning iyulida Chingizzonning lashkarboshilaridan biri Xulaguxonga qarshi 76 yoshli Shayx Najmuddin Kubro xalq orasidan lashkar to'playdi va Urganch qal'asini «Yo Vatan, yo shrofatli o'lim» shiori ostida bir necha kun dushmanidan saqlab turadi. Mazkur jang paytida shayx Najmuddin Kubro mo'g'ul bosqinchilari tomonidan vahshiyona o'ldiriladi. Naqshbandiylik XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lган tasavvufiy tariqatdir. Bahouddin Naqshband (1318–1389) — islom olamining eng mashhur avliyolaridan biri, Buxoro viloyatida tug'ilgan. Bahouddin Naqshbandning asl ismi — Muhammad, Otasining ismi ham Muhammad bo'lган. Yoshligida otasi bilan birga kimxobga naqsh solish hunari bilan shug'ullangani uchun Naqshband laqabi bilan mashhur bo'lган. «Bahouddin» so'zi «dinning nuri» degan ma'noni anglatadi. Naqshbandiylik ta'limoti asosida «Qalbing Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin», degan shior yotadi. Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lган qattiq talablarni bir qadar yumshatdi va kundalik turmushga mosladi. «Qalbing Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin». Shayx Najmuddin Kubro maqbarasi Bahouddin Naqshband vafotidan bir asrcha vaqt o'tganidan keyin Abdurahmon Jomiy (1414–1492) birinchi marta bu tariqatni «naqshbandiya» deb atay boshladi. Naqshbandiyada zohir (tashqi ko'rinish) va botin (ichki olam) o'zaro ajratilgan. Bu so'fiylikni xalq orasida oshkor etmaslik, boshqalardan ajralib turmaslik, xilvatga chekinmaslik, mehnat qilib kun ko'rishdan voz kechmaslik, oila, bola-chaqa boqish mas'uliyatini zimmaga olish, boshqalar (qul va cho'rilar) mehnatidan foydalanmaslik kabi ezgu tartib-qoidalarga qat'iy amal qilishni talab qiladi. Naqshbandiya tariqatining asosiy tarbiya usuli suhbatdir.

Naqshbandiyalar suhbatning foydasi ko‘p, suhbat orqali inson qalbiga kirib borish mumkin, deb hisoblaganlar. Bu tariqat quyidagi to‘rt tamoyil asosiga qurilgan:

- 1) shariat bilan xulq-atvorni poklash;
- 2) tariqat bilan qalbni poklash;
- 3) haqiqat bilan Allohga yetishmoq;
- 4) ma’rifat bilan Allohga erishmoq.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tasavvuf ilmi sohiblarining nomlari abadiylashtirilib, ehtirom ko‘rsatildi. Hozirgi paytda dunyoning ko‘p mamlakatlarida, Amerika Qo‘shma Shtatlaridan to Avstraliya arxipelagigacha bo‘lgan hududda Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqati ma’lum va hurmatli maqomga ega. Chunki Bahouddin Naqshband, avvalo, islom dini shariati mezonlarini mahkam ushlagan va ularning buzilishiga yo‘l qo‘ymagan. Ikkinchidan, u chin insoniy g‘oyalar va fazilatlarni ilgari surgan, jamiyatning turli vakillari o‘rtasida futuvvat — javonmardlik rishtalari paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan. Mustaqillik yillarida diniy qadriyatlarni qayta tiklash jarayonida masjidlar, madrasalar va boshqa diniy tashkilotlar bilan bir qatorda tariqat vakillarining faoliyatiga ham alohida e’tibor qaratildi.

MAVZU BO‘YICHA SAVOLLAR

1. Islomning vujudga kelishi sabablarini aniqlang.
2. Arabiston yarim orolining aholisi islomgacha qaysi dinga e’tiqod qilgan?
3. Muhammad payg‘ambarning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot bering.
4. Islom ta’limoti nimalardan iborat?
5. Islom yo‘nalishi va mazhablari qaysilar?
6. Qur’oni Karim qachon nozil bo‘la boshladi?
7. Qur’on nozil bo‘lish davriga ko‘ra qanday qismlarga bo‘linadi?
8. Qur’on qachon yaxlit kitob shakliga keltirildi?
9. Qur’on qanday qism va bo‘limlardan iborat?
10. Qur’onning jamlanishi kimlar tomonidan amalga oshirildi?
11. Toshkentdagи «Usmon Mushafi» haqida nima bilasiz?

12. Hadis, xabar, sunna deganda nimani tushunasiz?

13. Hadislar qachondan boshlab yozila boshlandi?

14. Eng mashhur muhaddislar kimlar?

15. Qanday hadis to‘plamlarini bilasiz?

16. Qanday hadis turlarini bilasiz?

Maruza mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**T - chizma**” interfaol usulidan foydalaniladi.

+	-
+	-
+	-
+	-
+	-
+	-
+	-

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

1. Islom va Johiliya: +ijobiy, -salbiy

2. Islom va Al-vassanniya +ijobiy, -salbiy

3. Islom va mazhablar: +ijobiy, -salbiy

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli

ko‘rsatma va tavsiyalar:

“**T – sxema**” o‘tkazish bosqichlarini qo‘yidagicha olib boriladi:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “**T – sxema**” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “**T – sxema**” interfaol usuli masala mohiyatini to‘liq tushunib olishga asoslangan bo‘lib, bunda mavzu oid bo‘lgan tushuncha, ma’lumot, tarixiy shaxslar faoliyati kabilarning ijobiy+, salbiy – xususiyatlari ochib beriladi

Maruza mashg‘ulotda yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “**Insert**” interfaol usulidan foydalaniladi.

INSERT JADVALI

A	M	-	?

“**Insert**” metodini o‘tkazish bosqichlarini quyidagicha olib boriladi:

Ularga mavzuni qisqacha bayoni tushirilgan tarqatma materiallarni beradi:

Topshiriqlar:

1. Islom so‘zning lug‘aviy ma’nosi bu
- 2.Islomdagи manbalar kimlar izohlang
- 3.Islom ta’limoti tushuntiring
4. Islom va hozirgi zamon jihatlari izohlang.

TESTLAR

1. Arabiston yarim orolining islam dinidan avvalgi davrini nima deb ataganlar?

- A. Johiliya
- B. Nodonlik
- C. Butparastlik
- D. Ma’rifatsizlik

2.Islomdagи shariat qonunlari tizimi va yo‘nalishi qanday nomlanadi?

- A. Fiqh
- B. Hadis
- C. Mazhab
- D. Tasavvuf

3. VII-asrda paydo bulgan musulmon davlati nima deb ataladi?

- A. Musulmonlar davlati
- B. Islom imperiyasi
- C. Arab imperiyasi
- D. Arab xalifaligi

4. Islomda iymondan keyingi o‘rinda turadigan farz?

- A. Namoz
- B. Ro‘za
- C. Zakot
- D. Haj

5. Islom dini qachon paydo bo‘ldi?

- A. Eramizgacha V-asrda
- B. Eramizning VII-asrida
- C. Eramizning VIII-asrida
- D. Eramizning VI-asrida

6. Islomning qanday asosiy yo‘nalishlari bor?

- A. Modernizm va fundamentalizm
- B. Ismoiliylik va vaxxobiylik
- C. Sunniylik va shialik
- D. Bahoiylik va bobiylit

7. Islom dinining nazariy va g‘oyaviy manbalari nima?

- A. Shariat qonun-qoidalari
- B. Muhaddislar yozgan hadisi shariflar
- C. Qur’oni Karim, hadisi sharif
- D. Tasavvuf qonunlari.

8. Shariat nima?

- A. Tasavvuf qoidalari o‘rgatuvchi ta’limot
- B. Barcha musulmonlar uchun bajarishi majbur bo‘lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko‘rsatmalar tizimi
- C. Hadislar asosida tuzilgan to‘plam

D. Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun

9. Hadislar nima?

- A. Jahon musulmon ulamolari uyushmasi chiqargan qonun-qoidalar
- B. Qur'oni Karimga yozilgan sharhlar
- C. Muhammad payg'ambarning hayoti, faoliyati, diniy va axloqiy ko'rsatmalarini mujassamlashtirganta'limot
- D. Shariat qonunlari va oliy ulamolar fatvolari jamlangan diniy kitob.

10. Islomda kimlar to'g'ri xalifalar deb hisoblanadi?

- A. Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali
- B. Muxammad, Ali, Xasan, Xusan
- C. Abu Xurayra, Ibn Xanbal, Ibn Xoshim
- D. Ibroxim, Muso, Iso, Dovud

14-MAVZU. ISLOM QADRIYATLARI

Reja:

1. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g‘oyalari.
2. Islom dinida vatanparvarlik g‘oyalaring targ‘iboti.
3. Islomda ota-onalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas’uliyat..
4. Islomda fan va ta’lim

1. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g‘oyalari.

Islomni eng go‘zal din qilib, unda inson manfaatlarini oliy darajaga qo‘yan Alloh taologa hamd va sanolar bo‘lsin. Insoniyatni go‘zal xulq va odobga chaqirgan hamda o‘zi xulq va odobni o‘z hayotida namuna qilib ko‘rsatgan Payg‘ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallamga beedad salavot va salomlar bo‘lsin. Inson eng afzal va eng sharaflı maxluqdir. Alloh taolo borliqdagi turli-tuman mavjudodlarni bir-birlaridan afzallikdan qilib yaratgan zotdir. Avvalo, odamning shakli barcha a’zolarining tuzilishi afzallikdan, azizu mukarramlikdan dalolat berib turadi. Boshqa maxluqotlarda bu shakl, bu mutanosiblik va bu kabi a’zolar yo‘q. So‘ngra Alloh taolo odamni o‘z qo‘li bilan yaratib mukarram qildi. O‘z ruhidan jon puflab urug‘ladi. Bunday sharafga hech bir maxluqot tuyassar bo‘lgan emas. Shu boisdan ham, inson azizu mukarramdir. Alloh insonga aql berdi. U, Alloh bergen aql ila turli tadbirlar qiladi, narsalar ishlab chiqaradi. Boshqa maxluqotlarni o‘z foydasiga ishlatadi. Bularning hammasi Insonni Alloh azizu mukarram qilib qo‘yanining namunalaridir. Alloh insonga vaxshiylar tushirdi. Odamlar ichidan Payg‘ambarlar tanlab oldi. Payg‘ambarlarga ilohiy kitoblar nozil etdi. Shariat hukmlarini yubordi. Bularning barchasi Alloh insonni azizu mukarram qilganigadur. Alloh odamni o‘zining er yuzidagi xalifasi qilishi ham shunga dalolatdir.

Islomda inson huquqlari

Islomda inson huquqlari haqida gap ketar ekan, inson sifati har bir shaxs u huquqlaridan foydalanishi zarurligi ta'kidlanadi. Chunki, bu ilohiy ne'matdir, undan har bir banda foydalanishi kerak. Inson huquqlari haqida gap ketar ekan, u huquqlarni belgilashda insonning o'ziga nisbatan bo'lgan munosabat ham muhim urin tutadi. Biz huquqlari haqida gapirayotgan insonning asli qandoq uning bu dunyoda tutgan urni qandoq, kabi savollarga beriladigan javoblar, inson haqlarining asosini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Albatta, «Inson mehnat tufayli rivojlanib qolgan maymundir» deganlar insonga o'ziga yarasha huquq berishiga urinadilar. Islomda esa, insonga, «Sen maymundan tarqagansan» deyishning o'zi insonlik huquqini poyimol qilishning oliy nuqtasi, deb qaraladi. Shuningdek, inson gunoh qilib qo'yib, Allohning g'azabiga uchragan maxluq, u bu dunyoda faqat gunohini yuvish uchungina yuribdi, U o'zini qancha ko'proq qiynasa, tarki dunyo qilsa, shunchalik o'ziga yaxshi bo'ladi deganlar ham huquqlariga nisbatan uzlariga yarasha munosabatda bo'ladilar. Islomda esa Odam Ato gunoh qilgan paytlaridayoq tavba qilganlar, Alloh o'sha zahoti ularni kechirgan, hozirda esa har bir inson begunoh tug'iladi. Inson Allohning er yuzidagi xalifasidir. U, Allohning amriga muvofiq yashab, bu dunyoni qanchalik obod qilsa shunchalik savob oladi, ikki dunyosi obod buladi, deb e'tiqod qilinadi. Islomda inson Alloh o'z quli bilan yaratgan o'z ruhidan jon puflagan, yer yuzida U zotning o'rribbosari qilib qo'ygan oliyjanob bir zotdir. Islom ta'limotlarining barchasi, shariat ahkomlarining hammasi inson huquqlari masalasiga bog'liq qilingan, desak zarracha ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bu haqiqatni tushunib olishimiz uchun «SHariat bu to'g'risida nimalar degan?» degan savolga javob berishning o'zi kifoya. Bu savolga Islom ummati o'n to'rt asrdan buyon bir ovozdan: Islom shariati: dinni, jonne, aqlni, naslni va molni asrashdan iborat, deb javob berib kelmoqda. Bugungi kunda ko'tarilayotgan inson huquqlari masalalari shu besh muhim narsa: din, jon, aql, nasl va molni asrash, muhofaza qilish haqida ketmayaptimi? Albatta, shu haqda ketmoqda. Bugungi kunda masala qilib ko'tarilayotgan inson huquqlari ham xuddi shu besh asosiy narsa atrofida aylanadi. Islom kishilarni biror ishga buyurgan bo'lsa,

ushbu besh narsani asrash uchun buyurgandir. Islom kishilarni biror narsadan qaytargan bo‘lsa, ushbu besh narsani muhofaza qilish uchun qaytargandir. Maqsadi shundoq oliy darajada bo‘lgan tuzumgina inson huquqlarini etarli darajada ta’minlay olishi mumkin. Islom ana shu oliy maqsadda amalga oshirgan, yo‘lga qo‘ygan va ular bilan insonlarni manfaatlantirgan. Bu ulkan haqiqatga tarix shohid, ko‘hna insoniyat shohid. Faqat islomdagina.

Inson qadr qiymati

Mulkchilik haqqi

Ta’lim olish haqqi

Fikr va so‘z erkinligi haqqi

E’tiqod erkinligi haqqi

Hayot haqqi

Hurriyat haqqi va boshqa haqlar, umuman, insoniylik manfaatlari to‘la va adolatli ravishda ta’minlangan.

Islomda ayollarning huquqi

Turli sabablarga ko‘ra, ayollar masalasi Islomga qarshi ta’na toshi otishning asosiy nishonlaridan biriga aylanib qolgan. Hatto ba’zi musulmon ulamolar «ayollar masalasi islam ummati ko‘ksiga sanchilgan zaharli xanjar», deb aytishga majbur bo‘ldilar. Bu masala bo‘yicha ko‘plab kitoblar, maqolalar yozilgan, xutbalar, mav’izalar qilingan. Albatta, bizning bu masalaga ortiqcha to‘xtashga imkonimiz yo‘q. Ikkinchidan, Islom, o‘z ta’limotlariga xilof qilish oqibatida kelib chiqqan noto‘g‘ri holatga javob berishga majbur ham emas. Eng muhimi islam hech kimning himoyasiga muhtoj ham emas. Faqat, tushuna olmay turgan kishilarga tushunganlar yordam berishi qabilida ish tutish mumkin xolos. Islomdan oldin ayol kishi nafaqat huquqlari poyimol qilinishiga, balki insonlik darajasidan mahrum qilinishiga maxkum qilingan edi. Misol uchun, Islom dastlab paydo bo‘lgan yurt va zamonda qiz bola tug‘ilgan oila motam tutar qiyinchilik, or nomus va iqtisodiy qiyinchilikka sabab bo‘lmisin deb, qizni tiriklayin ko‘mib yuborilar edi. Qur’oni Karim bu odatlarni qattiq qoraladi va man’ qildi. Musulmon oilalarda qiz tug‘ilsa, o‘g‘il tug‘ilgandan ko‘ra ko‘proq xursand bo‘lish joriy qilindi. Qizlarni yaxshilab tarbiya

qilganlarga o‘g‘il bolani tarbiya qilganlarga nisbatan ko‘p va’dalar qilindi. Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda quydagilar aytiladi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kimni uchta qizi yoki singlisi bo‘lsa-yu, u ularning xarxashalariga og‘irliklariyu qiyinliklariga sabr qilsa, Alloh uni ularga ko‘rsatgan rahmati tufayli jannatga kiritur» dedilar.

Bir kishi:

- Ikkita bo‘lsa-chi? Ey, Allohning Rasuli?-deb so‘radi.
- Ikkita bo‘lsa ham, dedilar.

Bir kishi:

- Bitta bo‘lsa-chi? Ey, Allohning Rasuli? - deb so‘radi.
- Bitta bo‘lsa ham, dedilar.

Qizlarning tarbiyasi, ta’limi va madaniyati hamda, yashab, o‘sishi uchun zarur har bir narsa otaning zimmasidagi farzdir. Ota bu farzdan faqat qiz turmushga chiqqandan keyingina ozod bo‘ladi. Chunki endi bu farz arning zimmasiga o‘tgan bo‘ladi. Otasi yoki eri yo‘q ayolning nafaqasi aka yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa shaxslarga vojib bo‘ladi. Umuman, Islomda ayol kishi nafaqasiz qolishi mumkin emas. Qizning nafaqasi otaga, xotinniki erga, singilniki aka-ukaga, onaniki o‘g‘ilga vojib bo‘ladi. Islom ayol kishiga ta’lim olish va madaniy saviyasini oshirish haqini berdi va erkaklarni bu ishga mas’ul qildi. Ilm talabi er-ayolga barobar farzligi, qizlari va singillariga ta’lim va odob bergen kishi jannatga haqli bo‘lishini yaxshi bilamiz. Ammo hammamiz ham ushbu ish cho‘ri ayollarga ham tegishli ekanini bilmasak kerak. Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisi sharifda Payg‘ambarimiz(s.a.v): «Qay bir kishining huzurida joriya bo‘lsayu, u unga yaxshilab ta’lim bersa, yaxshilab odob bersa va so‘ngra ozod qilib, unga o‘zi uylansa, unga ikki hissa ajr bo‘lur», deganlar. Imom Buxoriy rivoyat qilgan. Demak, cho‘ri qizga yaxshilab ilm va madaniyat o‘rgatishning ajri uni cho‘rilikdan ozod qilish ajriga teng ekan. Avvalgi avlod musulmon ayollarini erlaridan, boshqa ustozlaridan, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning ommaviy dars va xutbalaridan olayotgan ilm-ma’rifatga qanoat xosil qilmay Payg‘ambarimiz alayhissalomdan ayollar uchun alohida ilm-ma’rifat majlislari qilishni talab

qilganlar va ularning bu talablari Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam tomonlaridan darhol qondirilgan. Ayol kishi faqat ta’lim olish, dars, xutba, va’z eshitishgagina haqli emas, balki ta’lim berish, dars aytish va boshqa ilmiy ishlar bilan mashg‘ul bo‘lish haqiga ham egadir. Muslima ayollar ilm, fan va madaniyat sohalarida ulkan yutuqlarga erishganliklari hammaga ma’lum. Gapimiz quruq bo‘lmasligi uchun misol ham keltiraylik. Shifo binti Abdulloh al-Adaviyya roziyallohu anhodan qilingan rivoyatda bu kishi quyidagilarni aytdilar: «Hafsaning oldida o‘tirgan edim, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam kirib qolib menga: «Sen bunga huddi yozishni o‘rgatganingdek, namila damini ham o‘rgatmaysanmi?»-dedilar». Abu Dovud rivoyat qilgan. Olima ayollar vakilasi Oysha onamiz hadis rivoyat qilish bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadilar. Ulkan sahobiylar o‘zлari bilmagan narsani, hal qila olmay qolgan masalalarini Oysha onamizdan so‘rar edilar. O‘sha vaqtning sharoitida bu narsalar dunyo miqyosida katta o‘zgarishlar edi. Muslima ayolning jamiyat, siyosat va shariat maydonlarida ham keragicha o‘z ulushi bo‘lgan. Muslima ayolning to‘g‘ri fikrini, haq ovozini zabardast xalifa ham, Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam ham, Alloh taolonning O‘zi ham eshitgan va qabul qilgan. Dunyoga Umari Odil nomi bilan mashhur bo‘lgan zabardast xalifa Umar ibn Xattob o‘z davrlarida mahr miqdori ortib ketganini mulohaza qildilar. Bu ishni muolaja qilish uchun ko‘pchilik ichida xutba qilib, mahrni cheklash maqsadida: «Ogoh bo‘linglar, ayollarning mahrida haddan oshmanglar. Agar u bu dunyoda ikrom, Allohning huzurida taqvo bo‘ladigan bo‘lsa, unga sizning eng haqligingiz Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdir. Rasululloh (s.a.v) o‘z ayollaridan birortasiga o‘n ikki uvg‘iyadan ortiq mahr bermaganlar U zotning qizlarining birortasiga ham bundan ortiq mahr berilmagan», dedilar. Shunda bir ayol o‘rnidan turib «Ey Umar! Alloh taolo: «Va u(ayol) lardan biriga qintor cheksiz mahr bersangiz ham, deydi- Yu, sen bizga buni chegaralaysanmi?!» dedi. Xutbasi bu shaklda kesilgan xalifa: «Ayol to‘g‘ri aytdi, Umar xato qildi», deb o‘z xatosini hammaning oldida tan oldilar. O‘sha jasur ayolning sharofati ila hozirgi kunimizgacha birov ayollarning mahrini chegaralashga jur’at qila olgani yo‘q. Bundoq ish ayol kishi mo‘tabar bo‘lgan jamiyatdagina bo‘lishi mumkin.

Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam 6 hijriy yilda 1400 sahoba bilan Madinadan Baytullohning ziyorati uchun borganlarida mushriklar Hudaybiya nomli joyda yo‘lni to‘sdir. O‘sha erda sulk tuzilib, musulmonlar Ka‘bani ziyorat qilmay qaytib ketadigan bo‘ldilar. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam sahobalariga bu gapni e’lon qilib bo‘lib, turinglar, shu erda qurbanliklaringizni so‘yib, sochlaringizni oldiringlar. dedilar. Sahobalar norozi bo‘lib, birortalari ham qimirlamadilar.

3. Islomda ota-onalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas’uliyat.

Ota-onsa haqida so‘z yuritar ekanmiz, ularning qanchalik ulug‘, martabalari oliv ekanini ta’kidlash o‘rinlidir. Ularga yaxshilik qilish tawhid bilan barobardir, ularga shukr aytish Alloh azza va jallaga shukr aytishga tengdir, ularga ehson qilish eng yaxshi amallardan, eng yaxshi amallarni qiluvchilar esa, Allohnинг suyukli bandalaridandir. Alloh taologa suyukli bo‘lish barcha mo‘min musulmon va jannatni umid qilgan insonning orzusidir. Bunday maqomga erishish ota-onsa rizoligini olish barchalarimizga nasib etgan bo‘lsin. Oila – ota-onsa, er-xotin va farzandlar to‘g‘risidagi munosabatlar asosida quriladi. Ayniqsa ota-onsa va farzandlar o‘rtasidagi aloqalar juda muhim bo‘lib, o‘g‘il-qizlarning o‘z ota-onalari zimmasida muayyan haqlari bo‘lgani kabi ota-onaning ham farzandlari zimmasida bir muncha haqlari bordir. Bizning tug‘ilib, es-hushimizni tanishimizda, voyaga etib, bilim va kasb egallashimizda, insoniy fazilatlar va yaxshi xulq sohibi bo‘lib yetishishimizda, xullas qisqa qilib aytganda jamiyatning komil insonlaridan biri bo‘lishimizga sababchi ota-onaning buyuk hissasi borligini hech kim inkor qilolmasa kerak. Alloh taolo muqaddas kalomi bo‘lmish Qur’oni qarimda shunday buyuradi: "Parvardigoringiz, yolg‘iz Uning o‘ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) biri yoki har ikkisi sening xuzuringda keksalik yoshiga etsalar, ularga qarab "uf" tortma va ularning (so‘zlarini) qaytarma! Ularga (doimo) yaxshi so‘z ayt! Ular uchun mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut - xokisor bo‘l va: "Parvardigorm, meni (ular) go‘daklik chog‘imdan tarbiyalab o‘stirganlaridek, sen ham ularga rahm-shafqat qilgin", deb (haqqlariga duo qil!)". ("Isro" surasi, 23-24 oyatlar). Darhaqiqat, otamiz bizning dunyoga kelishimizga sababchi bo‘ladi, voyaga etishimizda o‘zining

sa'yi-harakatlari, ibrati, ro'zg'or yuritishi bilan faol ishtirok etadi. Bizning kamolga erishuvimizdagi onaning beqiyos xizmatlarini ta'riflashga esa til ojiz, qalam noqis, so'z tanqis. Rasuli akram (s.a.v) "Jannat onalarning oyoqlari ostidadir" deganlar va ummatlaridan bu dunyoda jannat izlaganlarni onani rozi qilishga, uning duosini olishga targ'ib qilganlar. Agar mana shu birgina hadisning o'zidan onaning naqadar muqaddas va mukarram zot ekanligini his etsa bo'ladi. Bir a'robiy Payg'ambar (s.a.v)dan: "Menda otamning haqqi ko'pmi yoki onamning?" deb so'raganida U zot uch martagacha "Onangning haqqi" deb javob qaytarganlar va to'rtinchi marta so'ralganda "otangning" deganlar. Bir yigit saxobalardan: "Onamni el kamga ko'tarib Makkaga olib borib, etti marta Ka'bani tavof qildirdim, endi uning haqqini ado qiloldimmi?" deb so'raganida ular: "Yo'q, bu xizmating bilan u seni emizish uchun bir marta uyqusini buzganini ham rozi qilolmading" deyishgan ekan. Darhaqiqat ota-onamizga qanchalar behisob xizmat qilgan taqdirimizda ham ularning biz uchun uyqusiz kechalarini baxsh etganlarini haqqini ado eta olmas ekanmiz. Shuning o'zi ham ularning ulug'ligi va Jannatning – onalar oyog'i ostida ekaniga dalildir.

OTA-ONANING HAQLARI.

Oila har tomonlama mustahkam bo'lishi uchun ota-onani o'rni beqiyos ahamiyatga egadir. Farzand tarbiyasiga jamiyatdagi ko'p omillar ta'sir etadi. Bu masalada eng birinchi mas'ul shaxs ota hisoblanadi. Ota o'z farzandining to'g'ri tarbiya topishi uchun qayg'urishi, uni yomonlikka boshlaydigan ishlardan qaytarishi lozim. Agar fikr qiladigan bo'lsak, farzand asosan bo'sh vaqtini uyda o'tkazadi. Mana shu vaqtarda uning tarbiyasi, yurish turishi bilan ona shug'llanadi. Onaning bu vazifasi ham farzandning kelajagiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki farzand ota-onadan olgan tarbiyasi bilan ham komillikka erishadi. Shunday ota-onalar borki, farzandini qayerga borib, qaerdan kelayotganini surishtirmaydilar. Mana shunday holatlarning oxiri farzandning loqayd bo'lib ulg'ayishiga sabab bo'lib qoladi. Suyukli payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) o'zlarining

muborak hadisi shariflarida: “Kishining o‘z qaramog‘idagi kimsalarga beparvo bo‘lishi gunohkor ekanligiga kifoyadir”. deydilar.

(Abdulloh ibn Amr Os rivoyati).

Uch toifa odam jannatga kirmaydi:

1.Ota-onani ranjitgan.

2. Aroqxo‘r.

3. Berganini minnat qiluvchi kishi.

Jannatga kirmagay bu uch toifa,

Ota-onasini ranjitgan nodon.

Ichkilik ketidan quvgan nokasu,

Berganini minnat qiluvchi inson.

Uch toifa kishining duosi qabuldir:

1. Ota-onaning bolaga qilgan duoi badi.

2. Musofir duosi.

3. Mazlum duosi.

Uch duo qabuldir hamisha, bilgil:

Haqiqat ko‘rmagan mazlum duosi,

Ota-yu onaning duo-badi-yu,

Ojiz musofirning dil iltijosi.

FARZANDNING HAQLARI.

Islomda farzandlarning huquqlari rioya qilingan bo‘lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklatilgan. Bu haqlarni ado etish vojib bo‘lib, unga amal qilmoqlik majburiydir. Farzandlarning qanday huquqlari bor? Ulamolarimiz bu savolga javob tarzida quyidagilarni zikr qiladilar:

1. Nasab.

2. Bo‘lajak farzandga munosib ona va ota tanlash.

3. Emizish.

4. Bolaning ota-onadagi haqqlaridan biri unga munosib ism

tanlashlaridir.

5. Aqiyqa ham bolaning ota-onadagi haqqalaridandir.
6. Yangi tug‘ilgan bolaning qulog‘iga azon va takbir aytish.
7. Yangi tug‘ilgan bolaning tanglayini ko‘tarish.
8. Homiylik.
9. Valiylik.
10. Nafaqa.
11. Bolaga mehribonlik ko‘rsatish ota-onaning vazifasidir.
12. Bolalari orasidaadolat qilish ham ota-onaning vazifasidir.
13. Balog‘atga etgandan so‘ng uylantirib, oilalik qilib qo‘yish.
14. Tarbiya haqqi ham farzandlik haqlaridandir.

Allohdan qo‘rninglar, bolalaringizga nisbatan adolatli bo‘linglar. (hadisdan).

Farzandlarning bari azizu shirin,

Biri birisidan emasdир afzal.

Bolalaringizga adolat qiling,

Barchasiga bir xil qarang har mahal.

Kishi bolasiga odobdan afzalroq

narsa ado eta olmaydi. (hadisdan).

Odobdan afzalroq fazilat bo‘lmash,

Odobu nazokat mo“ minlarga hos.

Hech qaysi musulmon o‘z farzandiga,

Odobdan yaxshiroq berolmas meros.

YAXSHILIKKA BOSHLAYDIGAN AMALLAR.

Ota-onaga yaxshilik qilish Alloh azza va jallaning ne’matidir. Bu ne’matni O‘zi xohlagan bandalariga ravo ko‘radi. Quyida, agar uni qattiq tutsak va amal qilsak, ota-onamizga yaxshilik qilishga boshlaydigan amallarni sanab o‘tamiz.

1. Allohdan yordam so‘rash. Ya’ni, ibodat, duo qilish, buyurganini bajarish kabi go‘zal amallar orqali. Balki shunda Alloh qo‘llab, bizni ota-onamizga yaxshilik qilishga boshlar.

2.Yaxshilik qilishning fazilatlari va oq bo‘lishning oqibatlarini tasavvur qila bilish. Zero, bu ikki narsa orasidagi farqni anglab yetish yaxshilik qilishga va faqat shu yo‘ldan yurishga chorlaydi. **3.Ota-onaning biz uchun qilgan xizmatlarini tasavvur qilish.** Ota-onalarimiz bizning dunyoga kelishimizga sabab bo‘lishdi, bizga bor kuch va mehrlarini berib, katta bo‘lgunimizcha tarbiya qilishdi. Farzand ota-onasiga qancha yaxshilik qilsa ham, baribir ularning haqqini ado qila olmaydi. Mana shularni yodda to‘tish insonni yaxshilikka boshlaydi.

4. Islomda fan va ta’lim

«Ilm» so‘zi lug‘atda bir narsani voqe’likdagidek idrok etishni bildiradi.

Shar’iy istilohda esa, ma’naviy ishlarda narsalarni teskarisi yo‘q darajada aniq bilish sifatiga «ilm» deyiladi.

Har bir shaxsga ilm talab etishni farz qilish faqat Islomda bor, xolos. Qur’oni Karimda ilm va ulamolar eng oliy maqomga qo‘yilgan. Hadisi sharifda ham ilm, uni talab qilish, ulamolar haqida ko‘plab ma’lumotlar kelgan. Bularning hammasini jamlab, Islomning ilmga bo‘lgan munosabati haqida tasavvur va shunga yarasha ahkomlar chiqarilgan.

Musulmonlar o‘z hayotlarida Qur’on va Sunnat ta’limotlariga amal qilib yashagan paytlarida ilm nurini butun olamga tarqatganlar. Yosh-u qari, erkagu ayol beshikdan to qabrgacha ilm talab qilish o‘zi uchun farz ekanini to‘la his qilgan holda umr bo‘yi o‘zini tolibi ilm hisoblab yashagan. Ana o‘sha davrni yaxshilab o‘rgangan g‘arblik insofli sharqshunoslardan biri Islom ummatini butunicha madrasaga qatnaydigan ummat, deb vasf qilgan.

Bu juda ham to‘g‘ri vasfdir. O‘sha hamma butunicha islom shariati bo‘yicha hayot kechirgan vaqtida Islom nuridan bahramand bo‘lgan har bir o‘lkada ilm-fan, ma’rifat va madaniyat gullab-yashnagan. Ilmning har bir sohasida olamshumul kashfiyotlar qilingan, ulkan ulamolar yetishib chiqqan.

Ayrim din dushmanlari ayyuhannos solayotganidek, Islom hech qachon ilmga qarshi bo‘limgan, balki jaholatga qarshi bo‘lgan. Agar ba’zi bir tabiiy ilm ulamolari tazyiqqa uchragan, azoblangan va o‘ldirilgan bo‘lsa, boshqa din vakillari tomonidan qilingan. Islomning bunga hech qanday aloqasi yo‘q.

Kim Islomning ilmga munosabatini bilmoqchi bo‘lsa, tarixga nazar solsin, Islomga amal qilingan paytda har bir musulmon yurtidan ko‘plab allomalar chiqqaniga guvoh bo‘lsin, ilm-fan, madaniyat mislsiz rivojlanganini bilib olsin!

Hamma o‘z dinidan uzoqlashgan hozirgi paytda musulmonlarning taraqqiyotdan orqada qolgani va boshqalarning ilg‘or bo‘lib ketgani hech kimga sir emas. Insof bilan aytganda, din mahkam tutilganda musulmonlar ilg‘or, boshqalar qoloq bo‘lgan edi, dindan uzokdashganda musulmonlar qoloq, boshqalar ilg‘or bo‘ldi.

Demak, Islomning ilmga munosabati, ilmning fazli haqida baralla gapiradigan vaqt yetdi.

ILM VA ULAMOLARNING FAZILATI

Alloh taolo insonlarga behisob ne’matlarni bergen, ularning hammasi ham bir-biridan qadrli va fazilatlidir. Son-sanoqsiz ne’matlar ichida insoniyatning boshqa maxluqotlardan ajralib, yuqori martabalarda turishiga sabab bo‘ladigan xususiyatlardan biri, shubhasiz, uning ilm sohibi bo‘lishidir. Chunki ilm rag‘bat qilingan narsalarning eng sharaflisi, orzu etilishidan tashqari, qo‘lga kiritilishi uchun jiddu jahd qilishga undalgan narsalarning eng ustuni va erishilgan narsalarning eng foydasi ko‘prog‘idir.

Ilm yoshlikda sohibiga istiqomat yo‘lini ko‘rsatadi. Ulg‘ayganda esa uni xalqning peshvosiga aylantiradi. Yana ilm botil va fosid amallarni mag‘lub etadi, orzu – maqsadlarni ro‘yogha chiqaradi.

Ilmning fazilati va sharoitini bayon etuvchi oyatlar, hadisi shariflar juda ham ko‘p. Quyida shulardan bir qanchasini keltiramiz.

Avvalo shariatimiz manbasi bo‘lgan Qur’oni karimga murojaat qilamiz:

“Alloh, farishtalar va ilm ahllari yolg‘iz Allohdan o‘zga hech qanday tangri yo‘q, faqat Uning O‘zi borligiga guvohlik berdilar”. (Oli Imron, 18).

Demak, Alloh taolo o‘zidan boshqa ibodatga sazovor iloh yo‘qligiga avvalo O‘zi, so‘ngra muqarrab bandalari bo‘lgan farishtalar, so‘ngra bevosita ilm egalari

bo‘lgan olimlarni guvohlik beryapti. Ilm egalarining Alloh huzuridagi fazilatlarini tomosha qiling!

“Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo‘lurmi?!” (Zumar, 9).

“Albatta, Allohdan bandalari orasidagi olim-bilimdonlargina qo‘rqar” (Fotir, 28).

“(Ey Muhammad) ayting: “Parvardigorim, ilmimni yanada ziyoda qil!” (Toha, 114).

Ilmning fazilatining nechog‘lik yuksakligini oyati karimalar orqali bilib oldik. Shunday bo‘lsada, Rasululloh (s.a.v.)ning bu to‘g‘ridagi hadisi shariflari bilan ham tanishib chiqish biz uchun ulkan sharafdir.

Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar:

“Ulamolar payg‘ambarlarning merosxo‘rlaridir”. (Abu Dovud, Termiziy, Ibn Moja rivoyatlari).

Ma’lumki, payg‘ambarlikdan ulug‘roq martaba yo‘q, shuning uchun ulamolarga payg‘ambarlarga merosxo‘r bo‘lish sharafdir.

Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar:

“Olim uchun yerusmondagagi barcha jonzotlar, hatto dengizdagagi baliqlar ham istig‘for aytadi”. (Abu Dovud rivoyati).

Abu Umoma rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Olimning obiddan ustunligi mening sizlarning eng past darajangizdagidan ustunligim kabitdir”. (*Termiziy rivoyati*)

Usmon ibn Affon (r.a.) rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Uch toifa qiyomat kuni shafoat qiladi: payg‘ambarlar, ulamolar, shahidlar”.

(*Ibn Mojja rivoyati*)

Mana hadisi shariflar bilan ham tanishib chiqdik. Albatta, bu borada yana hadisalar juda ko‘p. Lekin ixlos bilan ilm hosil qiluvchi tolibi ilm uchun mazkur oyat va hadisi shariflar kifoya qiladi.

Qalbning ozuqli ilm va hikmatlardir, qalb shu ikkalasi bilan tirikdir, xuddi jasadning ozuqasi taom bo‘lganidek.

Ilmning nihoyasi yo‘q. Shuningdek, barcha ilmlar fazilatli, qimmatli, sharaflı bo‘lib, har ilmning o‘ziga xos bir fazilati bor. Bir shaxsning barcha ilmlarni o‘zida mujassam eta olishi imkon doirasidan tashqaridadir.

Olimning siyohi g‘oziyning qonidan afzal.

Imom G‘azzaliy (r.a.) deydilar: “Ilm fikrning xos mevasidir. Agar qalbda ilm hosil bo‘lsa, uning holati o‘zgaradi. Bas, amal holatga, holat ilmga, ilm fikrga tobe’dir”.

Inson bir narsani talab qilar ekan, albatta, uning fazilatini bilmog‘i shart, aks holda undan ko‘zlangan maqsad ro‘yobga chiqmaydi. Yuqoridagi ilmning fazilatlari, ilm ahlining sharafi haqida keltirilgan so‘zlar ham Alloh insonga bergen bu ne’mat naqadar ulug‘ ekanligini ko‘rsatib turibdi.

ISLOMDA ILM RIVOJI

Alloh taolo bu dunyoni Islom nuri ila munavvar etishni iroda qilgan paytda dunyo ilmsizlik zulmatida yotar edi. Ilm-ma’rifat u yoqda tursin, oddiy savodxonlik ham yo‘qolib bitgan edi. Juda oz sonli kishilargina ba’zi bir sodda jumlalarni yozishni bilar edilar. Bu gaplarga ishongisi kelmaganlar bo‘lsa, yettinchi milodiy asr tarixini o‘rganib chiqsin. Agar biror yerda bir oz bo‘lsa ham ilm borligi daragini topsa, dunyoga jar solsin.

Ayniqsa, Islom ta’limotlarini dastlab qabul qilib olishi lozim bo‘lgan jamiyat ilm borasida juda ham nochor, o‘qish-yozishni biladigan odamlar barmoq bilan sanagulik edi.

Ana shundoq bir paytda Alloh taolo o‘zining oxirgi va mukammal dini bo‘lgan Islomning «O‘qi!» degan ilohiy xitobi ila boshlagan va shu ma’noni anglatadigan muqaddas kitobi – Qur’onning dastlabki oyatlarini nozil qildi. Ana o‘sha lahzadan boshlab, Qur’on ummati – o‘qish ummati, ilm-ma’rifat ummati o‘laroq shakllana boshladi. Ana o‘sha lahzadan boshlab, ilm talab qilish har bir erkak va ayolga farz bo‘lgan ummat faoliyat ko‘rsata boshladi. Ozgina muddat ichida bu ummat yer yuzini ilm-ma’rifatga ko‘mib tashladi. Musulmon ummatining yaxshi niyat, iyomon, ixlos ila qilgan ulkan va olamshumul harakati samarasi o‘laroq hozirgi kundagi ilm qasrining poydevori qurildi. So‘ngra esa, binosi qad ko‘tara boshladi.

Musulmonlarning ilm borasidagi ulkan va beqiyos xizmatlarini boshqa barcha xalqlarning insofli vakillari tan oladilar. Ulardan biri qadimda musulmonlarning ilm yo‘lidagi urinishlarini o‘rganib chiqib, ularni har qanday ummat uchun sharaф bo‘la oladigan quyidagi nom bilan atagan edi.

“MADRASAGA QATNAYDIGAN XALQ”

Bu yerda «madrasa» so‘zi hozirgi «maktab» ma’nosidadir. Bizda tarixiy xato tufayli bu ikki nom noto‘g‘ri tushuniladigan bo‘lib qolgan. Ba’zilar madrasa diniy o‘quv yurti, bu nomni ishlatib bo‘lmaydi, degan da’vo ila dars olinadigan joyni “maktab” deb atashgan. Aslida esa madrasa dars oladigan joy, maktab esa yozadigan joy ma’nosini anglatadi.

Ha, musulmonlar beshikdan to qabrgacha har bir erkagu ayolga ilm talab qilish farzligi uchun o‘z ixtiyorlari bilan iymon va ixlos ila, misli ko‘rilmagan shavqu zavq ila ilm talab qila boshladilar. Dastlab masjidlar, ustozlarning uylari darsxonalar vazifasini o‘tab turdi. Keyinroq esa, madrasalar ta’lim maskanlari sifatida musulmon o‘lkalarni bezab turadigan oshyonlarga aylandi. Islom davlati hamma xalq ta’lim olishini ta’minalashga harakat qilar edi. Shuning uchun ba’zi joylarda hatto moddiy jihatdan qiynalib qolganlarga alohida madrasalar ochish yo‘lga qo‘yilar edi. 965-melodiy sanagacha Qurdoba shahrida (hozirgi Ispaniyaning Kordova shahri) kambag‘allarning bolalari uchun sakkizta madrasa bor ekan. O‘sha yili u yerning hokimi Hakam II yana yigirma yettita yangi madrasa ochgan.

Qohira shahrining hokimi Mansur Qalovun bo‘lsa, yetim bolalar uchun alohida madrasa ochib, ularni yotoqxona, taom va kiyim-kechak bilan taminlagan.

Musulmon yurtlarining barchasida o‘quv yurtlari tolibi ilmlarini tekin taom, kitob, kiyim-kechak va yotoqxona bilan ta’minalash oddiy hol hisoblangan. Ularni mablag‘ bilan ta’minalashni hukumatlar, yakka shaxslar va vaqflar o‘z zimmalariga olganlar. Shu bois ham, mazkur o‘quv yurtlaridagi tolibi ilmlar turli ilmlarni qunt bilan o‘rganganlar.

Madrasalardagi darslardan qoniqmagan o'tkir zehnli talabalarning otonalari o'z farzandlari uchun qo'shimcha darslar ham tashkil ettirishgan. Tarixchilar bunga buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoni misol qilib keltiradilar. Ibn Sino yoshi o'nga yetmay turib, Qur'oni karimni va boshqa birqancha diniy kitoblarni yod olib bo'ladi. So'ngra madrasadagi darslar ozlik qila boshlab, qonun bo'yicha xususiy ustozdan dars oladi. Hisob ilmini esa, bir ko'mirfurushdan o'rganadi. So'ngra otasi unga ta'lim berish uchun Abu Abdulloh ismli ustozni keltiribdi. U falsafani bilar ekan. Ibn Sino undan bir oz dars olgandan keyin ustozidan o'zib ketibdi. Keyin mantiq ilmini o'rganishga kirishibdi. Jug'rofiyaga o'tganda esa, ustozি endi o'zing kitobni o'qiyver, xatoing bo'lsa, men to'g'rilab qo'yaman, debdi. Abu Abdulloh Buxoroni tark etgandan keyin Ibn Sino Iyso ibn Yahyo degan ustozdan tabiiy ilmlarni va tibni o'rgana boshlabdi. Tib sohasidagi eng qiyin kitoblarni mutolaa qilganiga qaramay, tib oson ekan, qisqa muddatda o'rganib oldim, degan ekan. O'sha vaqtida u o'n olti yoshda ekan. So'ng bir yarim yil davomida safarlarda yurib, mantiq va falsafaning turli qismlarini o'rganadi. Orada Buxoro hokimini davolab, uning qasridagi kutubxona va shifoxonalarida o'qib, ta'limini oxiriga yetkazadi. O'shanda uning yoshi o'n sakkizda ekan.

Bu ma'lumotlardan musulmon olamining ajralmas qismi bo'lgan bizning yurtimizda ham bundan ming yil avval Islom dini fazli ila ilmning turli sohalarida etuk mutaxassislar va ustozlar bo'lgani ochiq-oydin ko'rindi.

Musulmonlarning ilm istab qilgan sa'yi harakatlari tufayli dunyoda birinchi to'laqonli dorulfununlarga asos solindi. Mag'ribning Fas shahridagi «Qaraviyyun», Tunisdagi «Zaytuna» va Qohiradagi «al-Azhar» dorulfununlarining ming yillik bayramlari o'tkazilganini eslang. Agar ovrupoliklar o'zlarining eng qadimgi dorulfununlarining ming yilligini o'tkazmoqchi bo'lishsa, yana uch yuz yil kutishlari kerak.

Islom olami bilan Ovrupo orasidagi ilm borasidagi farqni tushunib etish uchun g'arblik ilm sohiblaridan birining e'tirofini eslash kifoya. U musulmon

olamida o'sha ilm-fan gullab-yashnagan paytda Ovruponing holini quyidagicha tasvirlaydi:

“To‘qqizinchi, o‘ninchি, o‘n birinchi va o‘n ikkinchi asrlarda g‘arbning foiz aholisi o‘qish-yozishni mutlaqo bilmas edi. Ovruponing podshoxlari, amirlari ham o‘qish-yozishni bilmas edilar. Mashhur podshoh Buyuk Sharl qarilik chog‘ida o‘qish-yozishni bir oz o‘rgangani hammaga ma’lum. Monastirlardagi rohiblar va diniy xodimlar qo‘llariga qalam tutishni ham bilmas edilar”.

KITOBLAR VA KUTUBXONALAR

Ilm bor yerda kitob ko‘payadi. Kitob bor yerda ilm rivojlanadi. Hozirgacha har bir jamiyatdagi kitoblar va ularga bo‘lgan munosabat o‘sha jamiyat a’zolarining ilmgaga bo‘lgan munosabatining o‘lchovi bo‘lib kelgan. Xuddi shu holat muslimonlar hayotida o‘z aksini topgan. Milodiy to‘qqizinchi asrdan boshlab, muslimonlarda haqiqiy boylik deganda kitob tushunilgan. Birovga eng qimmatbaho hadya qilishni xohlagan odam kitob olib borgan.

Bag‘dod xalifasi xalqqa arzigulik biror hadya qilish haqida o‘z vazirlariga maslahat solganida hammalari bir ovozdan yaxshi bir kutubxona hadya qilishga ishora etganlar. Bu kutubxona muslimonlar ommasiga hadya etilgach, «Dorulhikma» nomini olgan va keyinchalik dunyodagi birinchi fanlar akademiyasiga aylangan.

Musulmon olamining choratrofdagi shahar-qishloqlarida ham kutubxonalar keng tarqalgan. Bag‘dod shahrining o‘zida yuzdan ortiq kutubxonalar bo‘lib, ularda kitobxonlar uchun zarur barcha sharoitlar muhayyo qilingan.

Tarixchilarning ta’kidlashlaricha, Najaf shahrining kutubxonasi o‘sha paytda kichkina kutubxonalaridan xisoblangan. O‘sha kichkina kutubxonada qirq ming nusxa kitob bor ekan. Ray shahrining kutubxonasidagi kitoblar ro‘yxatining o‘zi o‘n jildli kitob bo‘lgan ekan.

Buning ustiga masjid va shifoxonaga o‘xshash har bitta muassasalarining o‘z kutubxonalari bo‘lgan. Nasiriddin Tusiy o‘z rasadxonasiga to‘rt yuz ming

nusxa kitob yiqqan ekan. Adolat yuzasidan u vaqtarda bosmaxonalar bo‘lamanini, barcha kitoblar qo‘lda ko‘chirilganini aytib o‘tmog‘imiz lozim. Faqat xalifalarga emas, balki amirlar va vazirlar ham kutubxonalarga katta e’tibor bergenlar. Ibn Sinodan muolaja olgan Buxoro amiri Muhammad Mansur qasrining ko‘p qismi kitoblarga ajratilgan bo‘lib, u Ibn Sinoga xohlagan kitobini olishga ijozat bergen. Bu kutubxona bilan yaqindan tanishgan Ibn Sino keyinchalik bu yerda odamlarning ko‘plari nomini ham eshitmagan kitoblarni ko‘rdim, deb yozgan.

963-milodiy sanada vafot etgan Muhallabiy ismli vazir bir yuz o‘n sakkiz ming jild kitobni meros qoldirgan ekan.

O‘sha vaqtning boshqa bir vaziri Muhallabiyning yosh do‘sti Ibn Abbodning kutubxonasida ikki yuz olti ming dona kitob bor edi, deb xabar beradi. Uning qozilaridan biri esa, bir milyon ellik ming dona kitobga ega ekan.

Buxoroning amiri bir tabibni o‘z huzuriga chorlaganda, yangi maskanga ko‘chayotgan edim, kitoblarimni to‘rt yuz tuyaga ortib qo‘yuvdim, deb uzr so‘ragan ekan.

Kitobga bunchalik qiziqish faqat hukmdorlar va ulamolarga xos emas, oddiy musulmonlar ham kitobni jon-dildan sevganlar. Umrini ot chopish va urushlarda o‘tkazgan chavandozlardan biri – Usoma ibn Munqiz salbchilarning vahshiyliklarini vasflab, quyidagilarni aytgan ekan: «Bolalarim, do‘stlarimning bolalari va ayollarimizning salomat qolgani bor budimni shilib ketishgani alamini yengillashtiradi. Lekin kitoblarimning hasrati menga katta musibat bo‘ldi. To‘rt ming jildgina kitobim bor edi. Ammo eng yaxshi kitoblar edi. Ularni yo‘qotishim men uchun umrim bo‘yi mahzunlik keltirdi».

Albatta, ovrupolik salbchilar kitobning qadrini qayerdan bilsinlar. Axir ularning o‘zlarining tarixchilari e’tirof qilishicha, musulmon olamida kitob borasida yuqorida zikr qilingan ishlar bo‘lib turganda butun boshli Ovruponing barcha monastirlarida hammasi bo‘lib o‘n ikki dona kitob bor ekan. Ularni yo‘q qilib yuborishmasin degan maqsadda zanjirlar ila bog‘lab qo‘yilgan ekan. Ana shundoq joydan kelgan bosqinchilar kitobning qadrini bilar edilarmi?!

Musulmonlarning ilmga bo‘lgan rag‘batlari, kitobga bo‘lgan qiziqishlari iymon va ixlos asosida bo‘lgani uchun u tezda o‘z samarasini berdi. Ular butun insoniyatga turli ilmlarni tartibga solib taqdim etdilar.

ILM IYMONGA DA’VAT ETADI

Ba’zi bir chalasavod kishilar «Ilmli odam dinsiz bo‘ladi, kishining ilmi qancha ko‘paysa, uning dinsizligi ham shuncha ortadi», deb o‘ylaydilar. Haqiqatda esa, hech bir zamonda ilm o‘z egasini xudosizlikka olib bormagan. Haqiqiy olim to‘g‘ri ilmiy ishlar olib borgani sayin o‘zi cheksiz bir olamda yashayotganini biladi. Bu olamda ajoyib tartibli intizom hukm surayotganini, hech bir narsa tartibsiz yoki behuda emasligini to‘la tushunadi. Bularni to‘g‘ri idrok etish Allohga ishonishga olib keladi. Olmoniyalik olim Dinard oxirgi to‘rt asrda yashab, insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo‘shtigan 290 nafar olimning fikrini o‘rganib chiqib, quyidagi natijalar to‘plagan: 290 kishidan 20 kishi hech bir aniq e’tiqodga erishmagan, 242 kishi Allohga ishonuvchi, faqat 20 kishigina din bilan qiziqmaganliklarini aytganlar.

Agar din bilan qiziqmagan kishilarni (olimlarni) “ateist” deb atasak, dunyo miqyosidagi ushbu 290 nafar ulkan olimdan 92 foizi dindor bo‘lib chiqadi. Shundan ko‘rinib turibdiki, ilmli kishi dindor bo‘lishi ajablanarli hol emas, qolaversa, ilm bilan din bir-biriga zid hodisa emas ekan. O‘tgan asrning mashhur olimlaridan biri Pastor shunday deb yozadi: “Iyomon hech qanday taraqqiyotga to‘sinqilik qilmaydi. Chunki, har bir taraqqiyot xudoning yaratgan narsalaridagi ajoyibotlarni ochib beradi. Agar men bugun kechagidan ko‘ra ilmliroq bo‘lsam, Allohga bo‘lgan ishonchim ham kechagidan mustahkamroq bo‘ladi”.

Kimyogar olim, Parijdagi tibbiyot kulliyasining dekani Vitos shunday deydi: “Agar men iymonim bir oz bo‘lsa-da sustlashganini sezib qolsam, uni quvvatlash uchun Fanlar akademiyasiga shoshilaman”.

Fay ismli mashhur akademik o‘zining «Olamlarning asli» nomli kitobida: “Ilm o‘z egasini Alloho ni tan olmaslikka olib boradi” degan fikr mutlaqo noto‘g‘ridir”, deydi.

Mashhur geolog, Sarbon dorulfununining olimi Edmon Gerbert: «Ilm dinsizlikka yoki ikkilanishga olib borishi mumkin emas», deb aytadi.

Mashhur tarixchi olim Faber: «Har bir davrning o‘ziga xos telbaligi bo‘ladi. Xudoga ishonmaslik davrimizning telbaligidir. Mendan Alloha bo‘lgan ishonchimni tortib olganlaridan ko‘ra, terimni shilib olsalar, shunga rozi bo‘laman», degan edi.

Bu, tabiiy ilmlarning ulkan olimlari aytgan fikrlardir. Mashhur doktor Andrey Kunavindan bir kishi: «Eshitishimcha, ko‘pgina olimlar dinsiz bo‘lar emish, shu to‘g‘rimi?» — deb so‘rabdi.

Doktor: «Menimcha, bu fikr to‘g‘ri emas. Aksincha, men ilmiy ishlarim jarayonida, bahslarda shuni tushunib yetdimki, ilm maydonida shuhrat qozongan ulkan olimlardan hech biri dinsiz bo‘lmagan. Lekin odamlar ularning gaplarini noto‘g‘ri tushunganlar.

Xudosizlik, boshqacha qilib aytganda, moddiy xudosizlik ilm kishisining fikriga, ishiga va hayotiga teskari narsadir. Olimlarning fikricha, har bir narsaning yaratguvchisi bor. U bir narsaning haqiqatini bilish uchun aqlni ishga soladi. Ishxonasiga umid bilan, qalbi to‘la ishonch bilan kiradi. Haqiqiy olimlarning ko‘philigi o‘z ishlarini ma’rifatga, insonlarga va Alloha bo‘lgan muhabbatlari tufayli o‘rnida bajo qiladilar», deydi.

Doktor Albert Makob shunday degan edi: «Ilmiy ishlar bilan shug‘ullanishim Alloha bo‘lgan ishonchimni mustahkamladi. Hattoki, avvalgidan ko‘ra mustahkamroq, asosliroq bo‘lishga olib keldi. Hech shubha yo‘qki, ilm, albatta, insonda Allohning qudratini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Inson o‘z ilmiy ishlarida yangilik kashf qilgan sari Alloha bo‘lgan Iymoni ham kuchayib boraveradi».

Lord Kallifan shunday deydi:

«Agar chuqurroq o‘ylab ko‘rsak, ilm, albatta seni Allohnning borligiga ishonishga majbur qiladi».

Mashhur Eynshteyn shunday degan: «Allohga bo‘lgan Iymon ilmiy izlanishlarning eng ulkan samarasidir».

Mashhur ingliz faylasufi Fransis Bekon aytadiki: «Inson falsafadan ozgina xabardor bo‘lsa, dinsizlikka yaqinlashadi. Ammo falsafani chuqr o‘rgangan kishi, albatta, dinga qaytib keladi».

Shu e’tiroflardan ko‘rinib turibdiki, ilm, faqat haqiqiy ilmgina ulkan olimlarning xudoga ishonishiga sabab bo‘lgan. Qur’on bu haqiqatni 15 asr avval aytib o‘tgan.

Har bir shaxsga ilm talab etishni farz qilish faqat Islomda bor, xolos.

Qur’oni Karimda ilm va ulamolar eng oliv maqomga qo‘yilgan.

Hadisi sharifda ham ilm, uni talab qilish, ulamolar haqida ko‘plab ma’lumotlar kelgan.

Alloh taolo:

«Albatta, Allohdan bandalari ichidan faqat olimlarigina qo‘rqarlar», degan. («Fotir» surasi, 28-oyat).

Alloh taoloning qudratini his etib, uning yaratganlaridan ibrat olib, ularning yaratuvchisi borligini anglab yetib, akdi bilan Allohn topgan va undan qo‘rqan odamgina olim hisoblanadi. Ammo mazkur maxluqotlarning tarixi, tuzilishi, tarkibidagi moddalari, xususiyatlari va boshqa turli ma’lumotlarni to‘liq o‘rganib ham ularni yaratgan zot-Allohn tanimagan va undan qo‘rmagan odam o‘ta johil hisoblanadi.

Yana U zot:

«Biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo‘ladilarimi?»-degan. («Zumar» surasi, 9-oyat).

Albatta, teng bo‘lmaydilar. Biladiganlar iymon keltirib, ibodat qiladilar. Bilmaydiganlar kufr keltirib, isyon etadilar.

U zot yana:

«Bu misollarni odamlarga keltiramiz, ularga faqat olimlarninggina aqli yetar», degan.

(«*Ankabut*» surasi, 43-oyat).

Mana shu uch oyatda ilm va ulamolar fazli haqida so‘z ketmoqda.

Birinchi oyatda Alloxdan qo‘rqib, Uni ulug‘lash faqat ilmli kishilar tomonidangana sodir bo‘lishi ta’kidlanmokda. Demak, ilmsiz kishi Allohdan qo‘rqmaydi ham, uni ulug‘lamaydi ham. Tajriba ushbu Qur’oniy haqiqatni tasdiqladi. Turli ilmlar bo‘yicha mutaxassis olimlar Allohnini tanishlarini e’lon qilib, iymon-e’tiqodsiz yashash mumkin emas, degan fikrga kelganlarini aytdilar va aytmoqdalar.

Ikkinci oyatda biladiganlar bilan bilmaydiganlar, ya’ni ilmlilar bilan ilmsizlar teng bo‘la olmasliklari haqida so‘z ketmoqda. Ilmli doimo ustun turishi va fazilatli hisoblanishi, ilmsizda esa bu narsalar bo‘lmashligiga ishora qilinmoqda.

Uchinchi oyatda esa, keltiriladigan masalalarni anglab, ulardan o‘rnak olish uchun ham ilm zarurligi ta’kidlanmoqda. Bu ham ilmni va olimni ulug‘lashdir.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

«Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam: «Kim ilm talab qilish yo‘liga tushsa, Alloh unga jannatning yo‘lini yengillashtiradi», dedilar.

(Muslim, Abu Dovud va Termiziy rivoyat qilishgan).

Ilmgaga da’vat qilish uchun bundan ortiq targ‘ib bo‘lmasa kerak. Har bir insonning oliy maqsadi jannat. Jannatga erishish uchun u har narsa, har qanday qiyinchiliklarga tayyor. Ilm talab qilish esa, hadisda aytishicha, jannatning yo‘liga tushishdir. Ilm yo‘li bilan borgan odam oxiri jannatning eshigi oldidan chiqadi.

Kezi kelganda, muhim bir masalani eslab qo‘yish zarur. Oyati karima va hadislarda zikri kelgan ilm haqida kishilar ichida tushunmovchiliklar mayjud. Ba’zilar: «Oyat va hadislarda zikr etilgan ilmdan murod, diniy ilmlar», deydilar. Bu noto‘g‘ri fikr! Oyat va hadislarda zikri kelgan ilm hamma foydali ilmlarni o‘z ichiga oladi. Diniy ilmlar, albatta, birinchi o‘rinda turadi. Ammo, boshqa ilmlar ko‘zda tutilmagan, deyishlik mutlaqo noto‘g‘ridir. Agar oyat va hadislarda faqat

diniy ilmlar ko‘zda tutilsa, bu narsa alohida qayd qilinadi. Misol uchun, Alloh kimga yaxshilikni ravo ko‘rsa, dinda faqih qilib qo‘yadi, deyilgan hadis. Shunga o‘xhash boshqa islomiy ilmlar haqida gap ketganda ularning nomi va sifati ham zikr qilinadi.

Shuning uchun, oyati karima va hadisi shariflarda zikri kelgan ilmdan murod, barcha foydali ilmlar bo‘lib, bunday ilm egalariga qilingan va’dalarga iymon va ixlos bilan uringan mo‘min-musulmonlar erishadi, deyishimiz to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu qoidani ushbu hadisi sharifga ishlata digan bo‘lsak, mo‘min-musulmon kishi o‘zi uchun, jamiyati uchun, insonlar uchun foydali ilmgaga «Bu — menga Allohnинг amri, Islomning talabi», deya urinsa, u jannatning yo‘liga tushgan bo‘ladi. Alloh taolo unga jannatning yo‘lini yengillashtiradi.

Islomda ilm talab qilish har bir musulmon uchun beshikdan to qabrgacha farz qilingan. Bu ma’noni kengroq tushunishga harakat qilaylik. Farz Allohnинг qat’iy amri bo‘lib, uni bajarish har bir mo‘min uchun majburiydir. Farz amalni bajarmagan odam katta gunoh ish qilgan bo‘ladi, oxiratda iqobga uchraydi.

Farz ikki qismiga bo‘linadi.

Birinchisi — farzi ayn.

Ikkinchisi — farzi kifoya.

Farzi ayn har bir musulmon shaxsan bajarishi lozim bo‘lgan ishdir. Uni birov uchun boshqasi ado etgani bilan bo‘lmaydi. Bunga namozni misol qilish mumkin. Balog‘atga yetgan har bir mo‘min inson besh vaqt namozni o‘qishi farzi ayn. O‘qimagan odam gunoh, kori azim bo‘ladi.

Farzi kifoya esa, ba’zi bir musulmonlar ado etsa, boshqalar uchun ham kifoya qiladigan ishdir. Bunga misol janoza namozidir. Bir musulmon vafot etsa, uni yuvib-tarab, janozasini o‘qib ko‘mish hamma musulmonlar uchun farz bo‘ladi. Ammo, farzi kifoya bo‘lgani uchun, ba’zi musulmonlar janozasini o‘qisa, kifoya qiladi. Boshqalardan farz soqit bo‘ladi.

Ilm talab qilish borasida farzning ikkala qismi ham ishga tushadi.

Har bir musulmon uchun o‘ziga kerak narsani, hayoti uchun zarur ilmni, dinu diyonatni, halol-haromni bilib olishda zarur bo‘lgan har bir narsani o‘rganish farzi ayndir. Har bir musulmon bu ishni qilishi shartdir. Qilmagan odam gunohkori azim bo‘ladi.

Musulmonlar jamoasi uchun kerakli bo‘lgan hunar va ilmlarni talab qilish esa, farzi kifoyadir. Hayotning har bir sohasida yetarli mutaxassislarni tayyorlab olish Islom jamiyatining barcha a’zolariga farz bo‘ladi. Ehtiyojni qondiradigan darajada va adadda mutaxassis tayyorlagan jamiyat a’zolari bo‘ynidan mazkur umumiy mas’uliyat soqit bo‘ladi.

Bu farz endi o‘scha mutaxassislar zimmasiga o‘tadi. Agar jamiyatda ularning sohasi bo‘yicha kamchilik yuzaga kelsa, gunohi o‘scha mutaxassislarga bo‘ladi.

ISLOM QANDAY ILMGA CHAQIRADI

Islom chaqirayotgan ilm qanday ilm o‘zi? Faqat diniy ilmmi? Yo‘q, bu ilm bilimsizlikni yo‘qotadigan barcha ilmlardir. Diniy ilmlar bo‘lsa ham, dunyoviy ilmlar bo‘lsa ham (tabiat ilmlari, psixologiya, tarix, jug‘rofiya, sosiologiya va boshqa ilmlar) Alloh musulmonlarni mana shu barcha ilmlarni o‘rganishga qiziqtiradi. Shoyadki, shu ilmlar orqali Allohnинг qudrati, ulug‘ligini chuqur tushunsalar. Bundan tashqari, o‘z hayotlarida shu ilmlardan manfaatdor bo‘ladilar.

KIMYO ILCMI

G‘arblik olimlar kimyo ilmi musulmonlar tomonidan to‘laqonli ilm holatiga keltirilganini bir ovozdan ta’kidlaydilar. Avvallari kimyoga oid narsalarni xuddi sehrgarlikka o‘xshatib, sirli ravishda olib borilar ekan. Musulmonlar uni ilmiy tajribaga bo‘ysunadigan ilm ekanini isbot qildilar.

Hijriy 369 (976 m.s.) yilda vafot etgan Muhammad ibn Ahmad al-Xorazmiy o‘zining «Mafotiyhul ulum» nomli kitobida kimyoviy tajribalarda ishlatalidigan moddalarning ko‘plarini aytib o‘tadi.

Jobir ibn Hayyon esa, musulmonlarning kimyo ilmini ro‘yobga chiqarishdagи to‘ng‘ich ulamolaridan hisoblanadi.

Angliyaning Kalfton kolleji kimyo ustozи o‘zining 1923 yilda nashr etgan kitobida Jobir ibn Hayyonni kimyo ilmini to‘g‘ri ilmiy asosda birinchi bo‘lib yo‘lga qo‘ygan olim sifatida tilga oladi.

Jobir ibn Hayyonning risolalarini nashr etgan olim Pol Kravas esa, uni tajribiy ilmlarning eng ko‘zga ko‘ringan asoschisi, deb ataydi. U kishining sha’niga aytilgan maqtov so‘zlarini keltiraversak gap ko‘payib ketadi. Jobir ibn Hayyon rahmatullohi alayhi ilm bobida o‘ziga xos maktab yaratdi. Uning kitoblari Ovrupo tillariga tarjima qilinib, bir necha asrlar davomida g‘arb o‘quv yurtlarida qo‘llanma bo‘lib keldi.

Kimyo ilmining ulug‘ asoschilaridan yana biri Abu Bakr ar-Roziydir. Uning «Sirrul asror» kitobi bu ilmni dunyoga tushuntirishda bosh o‘rinni egallagan asardir. Bu ulug‘ olim o‘z ilmiy markazida kimyoviy tajribalar o‘tkazib, turli birikmalar yaratdi va ularni turli maqsadlarda, jumladan, tibbiyotda ishlatishni yo‘lga qo‘ydi. Jorj Sarton o‘zining «Ilm tarixiga muqaddima» nomli asarida Abu Bakr ar-Roziyni o‘zi yashab o‘tgan asrning ilm bayrog‘i deb ataydi.

Musulmonlarning mashhur kimyo olimlaridan yana biri Iziddin ibn Oydemir ibn Ali al-Jaldagiy hisoblanadi. Ilmlar tarixi bo‘yicha mutaxassis Izzat Miriydanning ta’kidlashicha, Iziddin ibn Oydemir ibn Ali al-Jaldagiy atom va raketalar bo‘yicha nazariyani birinchi kashf etgan olimdir. U o‘z kitobida atom va kimyoviy unsurlarni shunday ta’riflaganki, u hozirgi olimlar shu haqda aytayotgan gaplardan aslo farq qilmaydi.

Qisqasi, ilmlar tarixining ko‘zga ko‘ringan arbobi Dyurant aytgandek: «Kimyo ilmini tajribiy ilmga aylantirish fazli musulmonlarga tegishlidir».

FIZIKA

Musulmonlarning eng ko‘zga ko‘ringan fizik olimlaridan biri 1029 yilda vafot topgan Hasan ibn Haysam yorug‘lik ilmini kashf qilgan olim hisoblanadi. U o‘zining ilmiy tajribalari orqali ko‘zning vazifasini, ko‘rish jarayoni qanday kechishini va shu masalaga tegashli boshqa ma’lumotlarni kashf qilgan.

Hasan ibn Haysamning «Al-Manozir» kitobini Fridrik Risner lotin tiliga tarjima qilib, 1572 yili Shvetsariyaning Bazel shahrida nashr ettirdi. Ovruponing ko‘zga ko‘ringan olimlaridan Vaytelo, Leonardo da Vinchi, Rojer Pikon va Kellerlar Hasan ibn Haysamning ilmiy kashfiyotlaridan ta’sirlangan kishilar xisoblanadilar.

Musulmonlarning eng mashhur fizik olimlaridan yana biri Abu Rayhon Beruniy o‘zining aniq ilmiy qarashlari orqali turli narsalarning og‘irligini takdirlash, yerning hajmini o‘lchash, shafaqning xususiyatlarini, quyosh tutilishi va boshqa tabiiy hodisalarni o‘rganishga muyassar bo‘ldi. Beruniyning ilmiy kashfiyotlari oldida g‘arbliklar ham hayron qolishdi. Hatto sharqshunoslardan Edvard Saxu Beruniy zakovati haqida hayratlanib: «U tarixdagi eng ulkan aql egasidir», deb yozadi. Beruniy narsalarning zichligini o‘rganish bo‘yicha yasagan uskuna bu sohadagi eng birinchi asbob hisoblanadi.

Mashhur olim va yozuvchi Abbas Mahmud Aqqodning ta’kidlashicha, Beruniy va Ibn Sinoning yerning jismlarni tortishi haqidagi va boshqa fikrlari Nyutonga tortish kuchi haqidagi qonunini kashf qilishda yordam bergen.

O‘n ikkinchi asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan Hozin ham musulmonlarning mashhur fizik olimlaridan hisoblanadi. U tarozularni ilmiy ravishda o‘rgangan, suvda tortishni joriy qilgan va vaznga oid ko‘pgina ilmiy tajribalar o‘tkazib, ajoyib natijalarga erishgan.

Hozin yorug‘likning xususiyatlarini ham o‘rgangan. U birinchi bo‘lib, jismlar suvga ko‘milganda singanga o‘xshab ko‘rinishini ilmiy ravishda tushuntirib bergen. Hozinning kitoblari lotin va italyan tillariga tarjima qilingan. Uning ilmiy fikr va tajribalaridan ovrupolik olimlar, xususan, Robert Grostest va Rojer Pekonlar keng foydalanganlar.

FALAKIYOT

Bu ilm ajnabiylarda «astronomiya» deyiladi. Dunyo xalqlarining ko‘plari osmon jismlariga «Xudo yoki unga tegishli askarlar», degan nazar bilan qarab

turgan bir paytda musulmonlar Qur’oni karim oyatlaridan ruhlanib, falakiyot ilmiga asos soldilar.

Boshqa barcha ilmlar qatori falakiyot ilmidagi kashfiyotlarga ham musulmonlarni Islom ta’limotlari chorlagan. Bir guruh falakiyot ilmi mutaxassislari o‘z kasblariga oid bir kitobni muzokara qilib o‘tirishganda diniy ulamolardan ba’zilari o‘tib qolib: «Nima qilyapsizlar?» deb so‘rabdilar. Shunda falakiyotchilar: «Alloh taoloning «Nazar solmaydilarmi?! Tuyaning qandoq xalq qilinganiga?! Osmonni qandoq ko‘tarilganiga?!» degan oyatining sharhini o‘rganmoqdamiz», deb javob bergan ekanlar. Falak ilmi haqidagi kitoblarning avvalida bu ilm osmondagi narsalarni o‘rganish orqali Allohning Biru Borligi, qudrati cheksizligining aqliy isbotiga olib boruvchi ilm ekani ta’kidlanadi.

Shuning uchun ham musulmonlar bu ilmga katta e’tibor bergenlar. Uni o‘rganishga talab kuchli bo‘lganidan musulmon olamining Samarqand, Bag‘dod, Damashq, Qohira, Fas, Tulaytila, Qurtuba va boshqa ko‘pgina shaharlarda shu ilmga xos o‘quv yurtlari ishlab turgan.

Shu bilan birga, ko‘plab rasadxonalar barpo etilgan va muvaffaqiyat ila ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur rasadxonalardan ba’zilarini eslab o‘tishimiz ham mumkin. Xalifa Ma’munning Bag‘dodda bitta, Damashqda bitta rasadxonasi bo‘lgan. Ikki xalifa Aziz Biamrillah va Hokim Biamrillaxdar Qohirada bittadan ikkita rasadxona qurbanlar. Buyuk vatandoshimiz Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagи rasadxonasi, Xulaguxonning Murg‘onadagi rasadxonasi va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘sha paytlarda musulmonlar ichidan butun dunyoga dong taratgan buyuk falakiyot olimlari yetishib chiqdi. Ana o‘sha ulug‘ musulmon olimlar ichida bizning vatandoshlarimiz ham borligi, ularning yetakchi o‘rnlarni egallaganliklari bizning faxrimiz.

Dunyoda eng ko‘p dong taratgan musulmon olimlaridan Mirzo Ulug‘bek asos solgan rasadxona oddiy rasadxona emas, balki buyuk fransuz tarixchisi Volter ta’riflanganidek, falakiyotshunoslik akademiyasi edi. U yerda bu ilmga

tegishli turli ma'lumotlar yig'ilib, olimlar keng miqyosda ilmiy bahslar olib bordilar. Rasadxonada ishlatiladigan asboblar yaratildi.

Ulugbekning «Ziji Ko'ragoniy»si falakiyot ilmidagi nodir asardir. Uning bu sohada erishgan natijalariga hozirgi eng taraqqiy etgan asboblar bilan qurollangan falakiyot olimlari ham ko'p narsa qo'sha olganlari yo'q.

Ikkinchi bir vatandoshimiz Ahmad Farg'oniy rahmatullohi alayhi ham falakiyot bo'yicha olamshumul kashfiyotlar qildi. U yerning dumaloq shaklda ekanini kashf qilgani, quyosh utilishini birinchi marta oldindan hisoblab chiqib aytgani butun dunyoda ma'lum. Ahmad Farg'oniy quyoshning va yulduzlarning harakat yo'nalishini eng aniq belgilab, yerning mustaqim chizig'i uzunligini birinchi bo'lib aniqlagan olimdir. U yulduzlarning oralaridagi masofani va ularning hajmini aniqlab tuzgan jadvaldan barcha falakiyotshunoslar, jumladan, ovrupoliklar ilmi falak «asoschisi» deb yuradigan Kopernik ham foydalangan.

Ahmad Farg'oniyning ko'plab ilmiy asarlaridan biri bo'lgan «Javome'u ilmin nujum» kitobi lotin tiliga bir necha bor tarjima qilingan. U kishini g'arbliklar «al-Fraganus» deb ataydilar.

Dunyoga mashhur yana bir alloma Abu Rayhon Beruniy turli aniq tajribaviy ilmlar bo'yicha yozgan kitoblaridan qirq beshtasi falakiyot ilmiga bag'ishlanganini aytmoq kerak.

Amerika qit'asi borligiga ilmiy-nazariy ishora qilgan olim ham Abu Rayhon Beruniy bo'lib, Kopernikdan qariyib besh yil ilgari olamning markazi yer emas, quyoshdir, degan ilmiy xulosani aytgan. Shuningdek, yer quyosh atrofida aylanishini birinchi bor tasdiqlagan olim ham Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Bu ilmiy haqiqatlarni, Abu Rayhon Beruniydan besh yil yil keyin tug'ilganlarga nisbat berish haqiqatning qaysi ko'chasiga to'g'ri kelishini bir o'ylab qo'yish kerak.

Musulmonlar ichidan chiqqan falakiyot ilmi olimlari va ularning kashfiyotlari haqida qanchadan-qancha kitoblar yozilgan va yozilmoqda. Gapning qisqasi, Muso ibn Shokir, uning uch o'g'li, Abu Mash'ar al-Balxiy, Sobit ibn Qurra, Nasiriddin Tusiy va boshqa ko'plab olimlarimiz boshqa ilmlar

qatori falakiyot ilmini ham boshqa xalqlarga, jumladan, g‘arb xalqlariga o‘rgatganlar. Lekin tarixni yaxshi bilmaydigan kimsalar falakiyot ilmini Kopernikka nisbat berib yuribdilar, xolos.

ILMI HISOB (MATEMATIKA)

Ushbu ajnabiy istilohni «hisob ilmi» desak ham bo‘ladi. Chunki bu boradagi barcha ilmlarda nomi turlicha bo‘lsa ham ularda hisoblash bor. Hisoblash uchun raqamlar kerak. Hozirgi kunda hisoblashda dunyo qandoq raqamni ishlatadi? Albatta, arab raqamlarini. Chunki hisobni bilgan odam biror narsani hisobini yozmoqchi bo‘lsa, albatta, o‘sha arab raqamlariga murojaat etadi. Lekin menga qolsa mazkur raqamlarni arab raqamlari emas, balki Islom raqamlari deb atagan bo‘lar edim. Chunki Islomdan oldin arab raqami deb atalayotgan narsa bo‘lgan emas. Hatto Islom olamida ham avval yunon raqamlari ishlatilar edi. Islom fazli ila ilm rivojlandi. Asli arab millatidan bo‘lmagan, movarounnahrlik musulmon olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy hindiy raqamlar asosida hamma uchun qulay bo‘lgan hozirgi raqamlarni ishlatishni yo‘lga qo‘ydi. U kishi bir kitob yozib, unda avval hindiy hisob nizomini bayon qildi. Keyin esa uni amalga tatbiq qilish bo‘yicha o‘z uslublarini misollar bilan ko‘rsatdi. Hammaga hisob-kitob yuritishni ta’lim berdi. Ayniqsa, meros bo‘lishni juda ham aniq qilib ko‘rsatdi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yozgan kitoblar ichida eng mashhurlaridan biri «Al-Jabr va al-muqobala» bo‘lib, bu kitob ilmi hisobdagi ovrupoliklar hozirda algebra nomi bilan ataydigan fanga asos bo‘ldi. Zotan, algebra arabcha al-jabrning ovrupochalashhtirilgan talaffuzidir. Bu kitob o‘rtta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, butun Ovrupoda darslik vazifasini o‘tadi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy hisob usullarini, jamlash, taqsimlash, ko‘paytirish, bo‘lish va kasr chiqarish kabi ilmi hisobni bayon qiluvchi boshqa bir kitobi o‘n ikkinchi asrda ispan va lotin tillariga tarjima qilindi. Bu kitob 1143 yilda olmon tiliga tarjima qilindi. Ana o‘sha vaqtidan boshlab, olmonlar u kishini Algoritmus nomi ila atay boshladilar va lotin tilida u zotning sha’niga va

nazariyalariga atab she’rlar bitildi. U kishining boshqa kitoblari ham lotin va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Olmoniyalik olima Zigred Xunke xonim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiya bag‘ishlangan satrlarida jumladan, quyidagilarni yozadi:

«Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy g‘arbga faqat adadlarni va hisobnigina o‘rgatib qolmadi, balki, turli matematik masalalarni yechishni ham o‘rgatdi. Hozirgacha algoritm hisob qoidasi uning nomi bilan ataladi. Uning Ispaniya, Olmoniya va Angliyadagi hisob uslubini tarqatish uchun kurash olib borgan tarafdorlari xorazmiylar (al-gorizimiker) nomi bilan ataladilar».

Keyin Xunke xonim: «Lekin tarixning zehni past bo‘lar ekan, o‘n uchinchi asrga kelib odamlar algoritm so‘zining aslini unutib qo‘ydilar», deb shu so‘zning asli haqida Ovrupoda bo‘lib o‘tgan uzundan-uzoq tortishuvlar haqida so‘z yuritadi. Oxiri kelib, 1845 yili fransalik Reno ismli kishi bu so‘zning aslini topganini aytadi.

Boshqa bir xorazmlik olim Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy ham ilmi hisob bo‘yicha ulug‘ kashfiyotlar qilgan. Bizning bu borada batafsil so‘z yuritishga imkonimiz yo‘kdigi tufayli u kishining faqat bitta kashfiyotlari haqida qisqacha aytib o‘tamiz.

Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy 976 yilda o‘zining «Mafotiyhul ulum» nomli kitobida hisob amaliyotlarida o‘nliklarda bo‘sh joy qolsa, kichkina doira shaklidagi alomat qo‘yishni taklif etadi. U kishi o‘sha doirani «sifr», ya’ni, «hech narsa» deb nomlaydi. Xuddi mana shu «sifr» nazariyasi insoniyatning ilmlar bo‘yicha eng buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Bu narsani bizda o‘rislarga ergashib, «nol» deyiladi. Bu ham «hech narsa» ma’nosini beradi. Ovrupo xalqlari ham Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy rahmatullohi alayhining «sifr»ini tarjima qilib, «zero» deydilar.

Ovropoliq tarixchilardan janob Eyr «sifr» nazariyasi haqida quyidagilarni yozadi: «Albatta, «sifr» nazariyasi musulmonlar ovrupoliklarga taqdim qilgan eng ulkan ilmiy hadyalardan biri hisoblanadi. «Sifr» alomati hisobni to‘g‘rilash borasidagi eng ulug‘ qadamdir».

Xaqiqatda «nol» bo‘lmasa, hisob-kitob qilish mumkin emas holga kelib qoladi. Bu kashfiyotning qadri elektron hisoblash mashinalari-kompyuterlar chiqqanda yana ham ortdi. Hozir ulardagি hamma narsa aynan «nol» asosida amalga oshiriladi. Hamma raqamlarning asosida «nol» bo‘ladi. Uning ba’zi qismini ishlatib, ba’zisini ishlatmaslik yo‘li bilan qolgan raqamlar barpo qilinadi.

Musulmonlar ichida Nasiriddin Tusiy, Sobit ibn Qurra kabi mashhur ilmi hisob allomlari ko‘p bo‘lgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Islomda inson huquqlari himoyasi, ijtimoiy tenglik, adolat va tolerantlik g‘oyalarini izohlang
2. Islom ta’limotida oila va nikoh masalasi.
3. Islomda ayolning o‘rni.
4. Hozirgi o‘zbek jamiyatida islomning o‘rni.
5. Islom dinida vatanparvarlik g‘oyalarining ahmiyati
6. Islomda ota-onalarga munosabat va farzand tarbiyasidagi mas’uliyat..
7. Islomda fan va ta’lim

Ma’ruza mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “*Aqliy hujum*” interfaol usulidan foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulot uchun topshiriqlar:

- 1.Islomda inson huquqlari masalasi?
- 2.Islomiy oila deganda nimani tushunasiz? ...
3. Islomda tenglik g‘oyasi ?
- 4.Islomda adolat va tolerantlik ?
5. Islomda fan va ta’limning o‘rni ?

Mavzu mashg‘uloti topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- “Aqliy hujum” metodining asosiy qoidalaridan muhimi-tezlik bilan masala mohiyatini ochib berishdan iborat.

- Berilgan topshiriqlarni aynan manba bilan mosligi inobatga olinishi lozim.


- Har bir topshiriqni bajarish uchun kam vaqt va sifatli natija muhim hisoblanadi

-Xulosa chiqarish uchun yig‘ilgan ma’lumotlar umumlashtiriladi va tizimga solinadi.

Ma’ruza mashg‘ulotida yangi pedagogik texnologiyalardan biri -“*Klaster*” interfaol usulidan foydalilaniladi. Bunda asosan tayanch tushunchalarga e’tibor qaratiladi.

Mavzu mashg‘ulot uchun topshiriqlar (tayanch tushunchalar):

- 1.Islom
- 2.Islomda ayol o‘rnu
3. Islomda ijtimoiy tenglik
4. Islomda oila va nikoh
5. Islomda vatanparvarlik
6. Islomda ota-onaga munosabat.



TESTLAR

1. Islomdagi shariat qonunlari tizimi va yo‘nalishi qanday nomlanadi?

- A. Fiqh
- B. Hadis
- C. Mazhab
- D. Tasavvuf

2. Islom dinining nazariy va g‘oyaviy manbalari nima?

- A. Shariat qonun-qoidalari
- B. Muxaddislar yozgan hadisi shariflar
- C. Qur’oni Karim, hadisi sharif
- D. Tasavvuf qonunlari.

3. Shariat nima?

- A. Tasavvuf qoidalarini o‘rgatuvchi ta’limot
- B. Barcha musulmonlar uchun bajarishi majbur bo‘lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko‘rsatmalar tizimi
- C. Hadislar asosida tuzilgan to‘plam
- D. Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun

4. Hadislar nima?

- A. Jahon musulmon ulamolari uyushmasi chiqargan qonun-qoidalari
- B. Qur’oni Karimga yozilgan sharhlar
- C. Muhammad payg‘ambarning hayoti, faoliyati, diniy va axloqiy ko‘rsatmalarini mujassamlashtirganta’limot
- D. Shariat qonunlari va oliy ulamolar fatvolari jamlangan diniy kitob.

5.«Islom dini ota-bobolarimiz dini, biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig‘indisi emas. Ana shu ma’rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o‘gitlariga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo‘lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar», degan fikrga kimga tegishli.

- A. Alisher Navoiy

- B. Jaloliddin Rumiy
- C. Amir Temur
- D. I. Karimov

6..Hadisda beshikdan qabrgacha nimani izlash kerakligi uqtirilgan.

- A. boylik
- B. yer
- C. pul
- D. ilm

7. Imam Al-Buxoriy qancha hadis to‘plagan

- A. 200 000
- B. 500 000
- C. 600 000
- D. 400 000

8. «Al-Jome’ as-sahih» (ishonchli hadislar) asari kimga tegishli.

- A. Alisher Navoiy
- B. Bobur
- C. Abu Muslim
- D. Al-Buxoriy

9. Naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyasi?

- A. Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal
- B. Kuch – adolatda
- C. Dil ba Yoru dast ba kor
- D. Kuch – birlikda

10. Komil inson – bu

- A. ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, bu xalqning ideallari uchun kurashuvchi inson, o‘z Vataniga halolmehnat qiluvchi kishilardir.
- B. erkin fikr etuvchi,
- C. bu xalqning ideallari uchun kurashuvchi inson,
- D. o‘z Vataniga halol mehnat qiluvchi kishilardir.

15-MAVZU. DINIY MUTAASSIBLIK VA DINDORLIK

Reja:

1. Diniy mutaassiblik (fanatizm)ning paydo bo‘lishi
2. Diniy ekstremizmning tarixiy ildizlari va oqimlari.
3. Diniy fundamentalizmning yunalishlari.
4. Terrorizm va diniy terrorizm tushunchasi, shakllari, sabablari va ularga qarshi kurash mexanizmlari. Kibermakon, kiberterrorizm

Tayanch tushunchalar: Mutaassiblik, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmun-mohiyati. Diniy ekstremizm: tarix vavoqelik. Terrorizmning davlatlar taraqqiyotiga tahdidi, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi. Dunyo bo‘yicha amalga oshirilgan yirik terrorchilik amaliyotlari. Diniy ekstremizm va terrorizmning moliyaviy manbalari. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy asoslari. “Jaholatga qarshi ma’rifat” kontseptsiyasи.

DINIY EKSTREMIZM (ekstremizm – “o‘ta” degani) – xavfsizligimizga tahdid soluvchi tashqi omillardan biri bo‘lib, u barcha diniy tashkilotlarda faqat o‘zi sig‘inadigan dinni to‘g‘ri deb, boshqa har qanday dunyoqarashning to‘g‘riligini inkor etuvchi (keskin choralar va harakatlar tarafдорлари bo‘lgan), o‘ta fanatik (mutaassib) dindor yoki dindorlarning faoliyati tushuniladi.

TERRORIZM (*lot, terror – “qo‘rquv”, “dahshat”*) — yuksak ma’naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo‘lida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, o‘ldirish, ijtimoiy obyektlarni portlatish, xalqni qo‘rquv va vahimaga solishga asoslangan zo‘ravonlik usulini anglatuvchi tushuncha. Qo‘rqtish va dahshatga solish orqali o‘z hukmini o‘tkazishga urinish *terrorizmga* xosdir. U siyosiy, iqtisodiy, diniy, g‘oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ta’qib, zo‘ravonlik, qo‘poruvchilik va qotillik *terrorizmning* har qanday ko‘rinishi uchun umumiy xususiyat bo‘lib, bularning barchasi insonparvarlik g‘oyalari, demokratiya,adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun *terrorizm* qanday niqob

ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan, insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. *Terrorizm*ga hozirgi kunda aniq, hamma uchun tushunarli va mukammal ta'sirif berish oson emas. Chunki u o'ta murakkab fenomendir. Bundan tashqari, terrorchi kuchlarga bo'lgan turlichay munosabat unga aniq ta'sirif berishni ham qiyinlashtirmoqda. Terror usullaridan konservativ, inqilobiy, diniy, millatchi ruhdagi kuchlar ham foydalanishi mumkin, lekin ularning asosiy mohiyati va maqsad-muddaolari siyosiy tusga egadir.

*Terrorizm*ning umumiy jihatlari va asosiy ko'rinishlarini o'rganishda, avvalambor, uning ta'sirifini nisbiy bo'lsa ham, aniqlashtirib olish kerak. *Terrorizm* muayyan guruhning ruxsat etilmagan holatda ongli ravishda kuch ishlatishidir. Bunda terrorchilar aniq, maqsadni ko'zlaydi va o'zini to'la xaq deb biladi. Bundan shu narsa aniq bo'ladiki, terrorchilardagi mavjud kuch maqsadni amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bevosita aloqadorlikda bo'ladi. Shuning uchun biron-bir sababga asoslangan yovuz maqsad *terrorizm*ga olib boradi. *Terrorizm* ko'p holatlarda keng miqyosdagi harbiy kuchlar bilan aloqador bo'ladi va bunday misollar tarixda bir necha bor kuzatilgan. Bundan tashqari, u ba'zi davlatlarning o'zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda ikki xil shaklda kuch ishlataladi: jazo berish organlari yoki harbiy kuchlar tomonidan. Bunda terror siyosiy maqsadlarni amalga oshirish yoki aniq bir rejimni joriy qilish uchun amalga oshiriladi.

«**Terrorizm**» tushunchasi hamisha terroristik harakatning tez sur'atda amalga oshirilishini bildiradi. Bunday hodisa siyosiy, etnik, diniy va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. **G'oyaviy terrorizm** siyosiy yetakchilar tomonidan yaratiladi. Bunga rasmiy tor doiradagi istisno qilingan ichki sabablar ko'rsatiladi. **Etnik terrorizm** subyekti g'oyaviy bo'lmasdan, jamiyatning milliy va etnik jihatlari bilan uzviy bog'liqdir. **Diniy terrorizm** muayyan bir diniy sekta yoki guruh ta'limotining jamiyatda mutlaqlashtirilishi oqibatida paydo bo'ladi. Bunda ushbu g'oya tarafдорлари boshqalar fikri va g'oyalarini keskin tanqid ostiga olib, rad etadi va g'oyaviy mafkuraviy parokandalikni keltirib chiqaradi. **Diniy terrorizm**ning xatarli jihat u qo'llaydigan amaliy chorallarda ko'rindi. Chunki **diniy terrorizm** tarafдорлари

aksariyat hollarda qo‘lida kurol va ba’zan harbiy guruhlarga tayanib harakat qiladi. Bugungi kunda yadroviy, biologik, bakteriologik qurollarning terrorchilar qo‘liga tushib qolishi ehtimoli eng katta xavfdir.

Hozirgi tahlikali zamonda kishilar boshiga mislsiz kulfat solayotgan va ularning hayoti, farzandlari, mol-mulkiga tahdid qilayotgan *jinoiy terrorizm* kundan-kunga kuchayib bormoqda va jahon hamjamiyatida jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Iqtisodiy manfaatlarni ko‘zlaydigan va moddiy boyliklarni o‘zlashtirishni maqsad qilib olgan bu *terrorizm* korrupsiya kabi katta jinoiy tizim bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Unda raqiblari yoki ularning yaqinlarini o‘ldirish, o‘g‘irlab ketish, zo‘ravonlik, tajovuz bilan qo‘rqitib, o‘z hukmini o‘tkazishga urinish, mol-mulkini o‘zlashtirib olish yo‘llaridan foydalaniadi. Buning yana bir tomoni - ba’zan bu terror siyosiy, etnik, ba’zan esa diniy xarakter kasb etmoqda. Mana shunday vaziyatda terrorchilarining maqsadi hokimiyatni egallahga ham qaratilib, piramidasimon xarakterga ega bo‘lib bormoqda. *Individual terrorizmnинг* sub’ekti, boshqa *terrorizm* harakatlaridan farqli o‘laroq, jamoa emas, yagona shaxsdir. Individual terror ham o‘ta xavfli kuch xisoblanadi, negaki u jamiyatning boshqa a’zolariga ta’sir qilishi va buning oqibatida terrorning ommaviy turlarini keltirib chiqarishi mumkin. U o‘z g‘oyalarini singdirish orqali boshqalarni ham jamiyatga qarshi qo‘yishi mumkin.

Keyingi yillarda hatto ommaviy axborot sohasida ham *terrorizm* elementlaridan foydalanimoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlar tarqatayotgan axborotlardagi yovuz va zararli g‘oyalar oqimi, tele ekranlar orqali uzlusiz namoyish etilayotgan jangari filmlar, bolalarga mo‘ljallangan, buzg‘unchi g‘oyalar asosida yaratilgan o‘yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan viruslar tarqatish shular jumlasidandir. O‘zining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo‘lga kiritishni ko‘zlaydigan kuchlarning zo‘ravonligi va qo‘poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo‘ladi. *Siyosiy terrorizm* nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba’zi tajovuzkor ruhdagi rasmiy reaksiyon siyosiy doiralar va kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo‘llanishi ham mumkin. Chorizm imperiyasining kolonial va shovinistik siyosati, sovet imperiyasining g‘oyaviy qatag‘onlari xalqimizga qarshi o‘zigaxos terror edi.

Bugungi kunda ham mustaqil rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizga nisbatang‘araz niyat bilan qarovchi yovuz kuchlar *terrorizm* yo‘li bilan taraqqiyot yo‘limizdan chalg‘itishga, bizni yana qaramlik va asoratga solishga urinmokda. Ular vatanfurush xoinlardan ham, *terrorizmni* kasb qilib olgan, buyurtma bo‘yicha qo‘poruvchilik va bosqinchilik bilan shug‘ullanadigan yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmoqda. Bugun jahon hamjamiyati bu balo qazolarning echimini topish ustida bosh qotirmoqda. *Terrorizmga* qarshi kurash hozirgi davrda muhim vazifa, tinchlik va barqarorlikni saqlash omiliga aylandi.

MUTAASSIBLIK – o‘z g`oyasini «to‘g`ri» deb, boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg`unchilikda ayplash.

AQIDAPARASTLIK (arab. – “ishonch” so‘zidan olingan) – biron g‘oya yoki tamoyilni mutlaqlashtirib konkret obyektiv sharoitni hisobga olmagan holda ko‘r-ko‘rona qo‘llash buni ijtimoiy hayotning istagan sohasidan topish mumkin. Keyingi davrlarda diniy aqidaparastlik faollahib ketdi. Barcha dinlarda shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan e’tiqod qilish lozim bo‘lgan fikrlar – aqidalarni mutlaqlashtirib ularni saqlab qolishga, tiklashga urinishlar kuchaydi.

EKSTREMIZM (*lot, extremus* – “ashaddiy”) — siyosatda ashaddiy qarash va choralarga moyillik. *Ekstremizmni* vujudga keltiradigan omillar ko‘p va xilmoxil. Ular orasida bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o‘tish davrida yuz beradigan ijtimoiy tuzilmalarning buzilishi, aholi katta guruhlarining qashshoqlashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy tanglik kabi omillarni ko‘rsatish mumkin. Bu omillar aholi turmush sharoitlarining yomonlashuviga olib keladi. Davlat hokimiyatining zaiflashuvi, davlat organlarining obro‘sizlanishi, ijro intizomining pasayib ketishi, qadriyatlar tizimining emirilishi, aksil ijtimoiy kayfiyat va harakatlarning kuchayib borishi ham *ekstremizmni* vujudga keltiradigan sabablardan hisoblanadi. *Ekstremizm* aholining siyosiy va ijtimoiy kayfiyatidan mavjud ijtimoiy tuzilmalarni vayron qilish maqsadida foydalanadi. Ekstremistik tashkilotlar Konstitutsiya va boshqa qonuniy hujjalarga zid tarzda faoliyat yuritadi. Shu ma’noda, *ekstremizm* — huquqiy nigelizmning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

XX asming 80-90 - yillarda siyosiy *ekstremizmning* namoyon bo‘lish ko‘lami

kengaydi. Bu davrda odamlarni garovga olish, siyosiy qotilliklar, siyosiy partiyalar a'zolariga qurolli hujumlar uyuştirish, anarxistik, shovinistik va neofashist guruhlarning faollashuvi kuzatildi. *Ekstremizm* siyosiy, psixologik, maishiy va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. *Siyosiy ekstremizmning* ashaddiy ko'rinishi — terrorizmdir. Ekstremistlar odamlarga qiyinchiliklarni tezda bartaraf qilish, tartibni kafolatlash, ijtimoiy ta'minotni yaxshilash singari va'dalar beradi. *Siyosiy ekstremizm* "so'l" va "o'ng" ko'rinishlarga ega. So'l ekstremistlar marksizm, leninizm, sul radikalizm, anarxizm va shu kabilar, mafkuralar bayrog'i ostida harakat qiladi. So'l *ekstremizmga* misol tariqasida Italiyadagi "Qizil brigadalar", Kampuchiyadagi polpotchilar, Rossiya Federatsiyasidagi E. Limonov boshchilik qilayotgan natsional bolsheviklar, singari oqimlarni keltirish mumkin. O'ng ekstremistlar aksilkommunizm, avtoritarizm, millatchilik va shovinizm ruhida harakat qiladi. O'ng ekstremistlar qator xalqaro tashkilotlar — Evropa ishchi partiyasi, Evropa o'ng kuchlari, Qora Internatsional, Frantsiyadagi "Milliy front" kabilarga birlashgan. O'ng va so'l ekstremistlar olib borayogan faoliyat vakillik demokratiyasi manfaatlariga ziddir. Shuning uchun ham G'arb siyosatshunosligida "Yagona Ekstremizm", "Ikki Ekstremizm" va "Uch Ekstremizm" konceptsiyalari mavjud. "Yagona Ekstremizm" kontseptsiyasi kommunistik va fashistik diktaturalarning mavjudligidan kelib chiqadi. "Uch Ekstremizm" kontseptsiyasiga ko'ra, fashizm — tsengristlar ekstremizmi, kommunizm — sullar ekstremizm, gollizm esa o'nglar ekstremizmidir. Portugaliyadagi Salazar rejimi o'nglar rejimi hisoblanadi. Diniy asoslarda vujudga kelgan ekstremistik guruh va oqimlar G'arbda ham, Sharqda ham mavjud. O'rta Osiyo mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda "Hizb ut-tahrir", «Akromiya», «Nurchilar» singari diniy ekstremistik oqimlar vakillari qonunga zid holda faoliyat olib borishga urinmoqda.

DINIY FUNDAMENTALIZM (lotincha — “asos” degani) — barcha dinlarda o'z ilohiy yozuvlarini ishonch uchun asos sifatida “so'zsiz” qabul qilib, ushbu dinlar paydo bo'la boshlagan dastlabki fundamental g'oyalarga qaytish, me'yorlar va tamoyillarga asoslangan davlat barpo qilish, diniy aqidalarni har qanday yo'llar bilan joriy qilishga urinishdir.

ISLOM FUNDAMENTALIZMI – Qur'on va hadislarga so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim. Islom fundamentalizmi vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da'vat etadi. Keyingi paytlarda mutaassib musulmonlar "fundamentalistlar" deb atalmoqda.

Diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlarning vujudga kelishi va ularning ayanchli oqibatlari. Jahondagi ko'pgina davlat va jamoat arbabloari, yirik olimlar, mutaxassislar, ayniqsa, yoshlar dunyoni tinchlik hukmron bo'lishi, har qanday xavfning oldi olinishidan manfaatdor ekanliklarini sezmoqdalar va buning uchun barcha kuch, imkoniyatlarni safarbar etmoqdalar. Taasuflar bo'lsinki, o'tgan og`ir jinoyat butun dunyoga insonlar boshiga katta xavf-xatar solmoqda, zaminimiz tinchini buzmoqda.

Terrorchilik o'ta murakkab jinoiy hodisadir. Bugungi kunda "Terror", "Terrorizm" "Terrorchilik harakati", "Davlat terrorizm", "Xalqaro terrorizm" kabi huquqiy atamalarining har birini tahlil qilishga ehtiyoj sezilmoqda.

Terrorizm mavjud tuzumga qarshi siyosiy kurash olib borish, odam o'dirish to'sqinlik qilayotgan guruh (jamiyat) rahbari joniga suiqasd qilish bilan xarakterlanadi. Uning tarixi uzoq o'tmishtga borib taqaladi. Xalifa Abu Bakr Siddiq (632-634) vafotlaridan so'ng xalifalik qilgan Hazrat Umarning o'limi (634-644) va hazrat Usmonning (644-656) o'ldirilishi bunga misol bo'ladi. Hazrati Aliga qarshi chiqqan diniy ekstremistlar, ya'ni 12000 kishilik horijiyalar "Bizning yo'limizdan bormaganlar kofirdirlar"-dedilar. Ular hazrati Alini (656-661) namoz o'qigani kelayotganida orqasidan xanjar urib o'ldirdilar.

Ba`zilar terrorizmni bundan 150 yil burun bo'lgan, deb hisoblaydilar va uni Yevropadagi anarchistlarning buzgunchilik ishlariga bog`laydilar. Narkoterrorizm, bioterrorizm, ijtimoiyterrorizm, kompyuter tizimi yordamida terrorchilik harakatini sodir-etish kiberterrorizm kabi turli terroristik usullar mavjud. Masalan, Rossiyada narodniklar va keyinroq eserlarning siyosiy terroristik harakati (Stalinning-SSSR dagi va Gitlerning Germaniyadagi siyosati), o'rta asrlarda diniy terrorizm (salb

yurishlari)ham bo‘lgan. Shuningdek bolshevizmda ham terrorizmdan foydalanganligini e`tirof etiladi.

1928 yilda Misrda hasan-al Banno “Ixvon ul-muslimin” (“Muslimin birodarlar”) jamiyatini tuzadi ham “Fan ul-mavt” (O‘lim fani) kitobini yozadi. 1980-1990yillarda 30 ga yaqin mamlakatlarda ixvonlar ish ko‘ra boshladilar. “Jamoati al-muslimin” guruhi esa o‘zining terrorchilik ish usulibilan ajralib turardi. Misr harbiy tribunali bu guruhni g`ayriqonuniy deb jazoga tortganidan so‘ng ham guruh tarqalib ketmay, “At-takfir val hijro” nomi bilan faoliyt olib bordi 1981 yilda suiqasd uyuşhtirilib prezident Anvar Sadat o‘ldirilgandan so‘ng ,”Musulmon birodarlar” diniy ekstremistik tahskiloti rahbari qamoqqa olindi.

Islom ekstremistlarning yana bir guruhio paydo bo‘ldi va u “Al jihad al-islomiy” nomi bilan bugungi kunda ham terrorchilik harakatlarini sodir etmoqda.

1994 yilda Afg`onistonda yuzaga kelgan “Tolibiy” diniy-siyosiy kuchning oyog`i qayerga yetsa, o‘scha yerda inson haq-huquqi toptaladi. Qishloqlar vayron qilindi. Qashshoqlar talandi.

Xalqaro terrorizm- biron bir davlatdagi terrorchilarning o‘z harakatlarini u yoki bu davlathududidan tahsqrariga chiqib, davom ettirishdir.

Terrorchilarning biron bir xorijiy davlatga joylashgan xalqaro terrorizmning o‘ziga xosxususiyatlarini ko‘rsatib turadi.

Masalan, terrorchilar ham jinoyat qurbanlari ham bir davlatga mansub yoki bir necha davlatga tegishli bo‘lishi mumkin. Ammo jinoyat shu davlatdan tashqarida sodir etilgan bo‘ladi.

Terrorchilik harakati xalqaro himoya ostidagi shaxslarga qaratilgan bo‘ladi.

Terrorchilik harakatlariga tayyorgarlik bir davlatda amalga oshirilib, jinoyatning o‘zi esa ikkinchi davlat hududida sodir etiladi.

Terrorchilar bir davlat hududida terrorchilik harakatini sodir etib, ikkinchi davlat hududiga o‘tib yashirinishi mumkin. Pokistonda 37 ta, Afg`onistonda 22 ta alohida lagerlarda terrorchi jinoyatchilar tayyorlanadi. 1990-1999 yillar davomida 29 mingdan ortiq Xindiston fuqarolari terrorchi guruhlar tomonidan o‘ldirilgan. Bir

yilda dunyo bo'yicha 320 tadan 660 tagacha terrorchilik harakatlari sodir etilib, minglab begunoh aholi qurban bo'ldi.

Terrorchilik tahskilotlarining aksariyati yashirin faoliyat ko'rsatadi. Ularning tasodifiy harakatlari keltiradi, begunoh insonlar hayotiga chang soladi, qalbini jarohatlaydi. Shu bois ularning qora niyatlariga chek qo'yish, buzg`unchiliklarining oldini olish, millatlar osoyishtaligini ta`minalsh maqsadida terrorizmga qarshi kurash boshlab yuborildi.

Hozirgi kunda dunyoga xavf solib turgan quyidagi terrorchilik tashkilotlari mavjud:

- ❖ “Abu Nidol” tashkiloti (rahbari vafotidan so‘ng bu tashkiloti faoliyat ko‘rsatmagan)
 - ❖ “Abu sayyof” guruhi (yaqin Sharq)
 - ❖ “Qurollangan Islom” guruhi (Jazoir)
 - ❖ “Al Qoida” (asos baza), (Afg`oniston)
 - ❖ “Al jihad” (Misr)
 - ❖ “Jamoat al islomiy” (Misr)
 - ❖ “Harakat al mujohid” (Kashmir)
 - ❖ “Xamas” (Yaqin Sharq)
 - ❖ “Xizbulloh” (Yaqin Sharq)
 - ❖ “Turkiston islom partiyasi” (Markaziy Osiyo)
 - ❖ “Falastin islom jihodi”
 - ❖ “Falastin ozodligi fronti”
 - ❖ “Falastin ozodligi xalq fronti”
 - ❖ “Falastin ozodligi xalq fronti-umumiyy qo‘mondonlik”
 - ❖ “AUM Sinrikyo” (yaponiya, uning rahbari hibsga olingach, tashkilotning faolligi pasaydi)
 - ❖ “Bask ozodlik harakati” “Eta” (Ispaniya)
 - ❖ “Kahane Xay” (Xitoy)
 - ❖ “Qurdiston ishchilar partiyasi” (Turkiya)
 - ❖ “Inqilobiy xalq kurashi” (Turkiya)

- ❖ “Inqilobiy halahsi”-ELA (Gretsiya)
- ❖ “17 noyabr inqilobiy tashkiloti” (Gretsiya)
- ❖ “Tamil Ilamani ozod qiluvchi yo‘lbarslar”(Shri-Lanka)
- ❖ “Mujohiddini Xald” (Eron)
- ❖ “Milliy ozodlik armiyasi” (Venesuella)
- ❖ “Kolubmiya inqilobiy qurolli kuchlari” “FARC” (Kolumbiya)
- ❖ “Kolumbiya o‘zining o‘zi mudofa qilish Birlashgan Kuchlari” -“AUG”

(Kolumbiya) Bugungi kunda dunyoda yuzlab kuchli jihozlangan “Abu Nidol” tashkiloti, “Abu sayyof” guruhi (Yaqin Sharq), “Qurollangan Islom” guruhi (Jazoir), “Al Qoida” (asos baza), (Afg`oniston), “Al jihad” (Misr), “Jamoat al islomiy” (Misr), “Harakat al mujohid” (Kashmir), “Xamas” (Yaqin Sharq), “Xizbulloh” (Yaqin Sharq), “Turkiston islom partiyasi” (Markazi Osiyo), “Falastin islom jihodi”, “falastin ozodligi fronti”, “Falastin ozodligi xalq fronti”, “falastin ozodligi xalq fronti-umumiyo qo‘mondonlik”

“AUM Sinrikyo” (yaponiya, uning rahbari hibsga olingach, tahskilotning faolligi pasaydi), “Bask ozodlik harakati” “Eta” (Ispaniya), “Kahane Xay” (Xitoy), “Qurdiston ishchilar partiyasi” (Turkiya), “Inqilobiy xalq kurashi” (Turkiya), “inqilobiy halahsi”-ELA (Gretsiya), “17 noyabr inqilobiy tashkiloti” (Gretsiya), “Tamil Ilamani ozod qiluvchi yo‘lbarslar”(Shri- Lanka), “Mujohiddini Xald” (Eron), “Milliy ozodlik armiyasi” (Venesuella), “Kolubmiya inqilobiy qurolli kuchlari” “FARC” (Kolumbiya), “Kolumbiya o‘zining o‘zi mudofa qilish Birlashgan Kuchlari” -“AUG” (Kolumbiya), “Oydin yo‘l”-“Sendero” (Peru) kabi terrorsistik guruhlar mavjud.

Afg`onistonda Tohir Yo‘ldoshev rahbarlik qilayotgan “O‘zbekiston islom harakati” 2003 yilda Turkiston islom Harakati deb nomlangan diniy ekstremistik tashkiloti terroristik tashkilot sifatida ro‘yxatga olindi.

“O‘zbekistonga xavf solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar”:

1. “Islom uyg`onish partiyasi” (1989-1991)

2. “Adolat”, “islom lashkarlari” (1990-1992)
3. “Tavba”, “Hizbulloh” (1991-1995) Muxolif kuchlar tomonidan ta`minlanib faoliyat ko‘rsatgan.
4. “Akromiylar” (1997-1999) Andijonlik Akrom Yo‘ldoshev (1960 yilda tug`ilgan)“Imonga yo‘l” (1992) nomli dastur tuzgan.
5. “Vahhobiylik” (1990-1992) Diniy ekstremistik oqimning tashkiliy tizimi bo‘limish “O‘zbekiston Islom harakati”(1996-yil) jahoning yetakchi xalqaro terroristik tashkilotlari-“Tolibon harakati” Usoma bin Ladenning “Al-Qoida” tahskiloti. “harakat ul Ansor”, “Al-Jihod” kabilar bilan til biriktirib, ularning bevosita rahnamoligida tashkil etilgan.
6. “Hizbut tahrir al-islomiy” diniy ekstremistik partiyasi sunniylik doirasidagi siyosiy partiya bol`ib, 1953 yilda Quddus shahrida falastinlik Taqiyuddin Nahaboniy tomonidan tashkil etilgan.

1999 yil 16 fevralda Toshkentda sodir etilgan terrorchilik jinoyatlari natijasida 16 nafar shaxs halok bo‘ldi. 130 nafar shaxsga turli darajadagi tan jarohati hamda davlatga 700 million so‘mdan ortiq zarar yetkazildi.

2001 yil 11 sentyabrda AQShning Nyu-York shahrida ro‘y bergan terrorchilik harakatlarida 2000 dan ortiq kishi halok bo‘ldi. Undan keyin Moskvadagi “Nord-Ost” kinokonsert zalidagi terrorchilik 200 dan ziyod begunohlar o‘limiga sabab bo‘lgan. Madriddagi yo‘lovchi poyezd portlatilishi bularning hammasi qo‘poruvchilik harakatlaridir.

Keyingi yillarda Turkiya, Falastin, Isroil, Rossiya, Afg`oniston, Pokiston, Ispaniya va boshqa davlatlarda bir necha marotaba terrorchilik harakatlari sodir etilib, minglab kishilar nobud bo‘ldi. 2003-2005 yillar davomida Iroqda sodir etilgan yuzlab portlashlar natijasida begunoh insonlar qurban bo‘lgan.

Ayniqsa, 2004 yil 1 sentyabr kuni Shimoliy Osetiyaning Beslan shahrida 30 nafar terrorchi 330 nafar o‘quvchini va ularning ota-onalarini nobud qilgani butun dunyo jamoatchilagini larzaga soldi.

2005 yilning 12-13 may kunlari Andijonda “Akromiylar” deb atalgan terrorchi guruhlar tashkiloti ko‘pgina begunoh odamlar umriga zomin bo‘li.

Ma`muriy binolar vayron qilindi. Davlat mulki va shaxsiy buyumlar talon-taroj qilindi. Ko‘pgina terrorchilar qo‘lga olindi.

Terroristik tashkilotlarga umumiylashtirish

1.Siyosiy maqsadlari:

- imperalizm va kapitalizmga qarshi;
- globallashuv va transmilliy kompaniyalarga qarshi;
- biror diniy konfessiya yoki etnik guruhga qarshi;
- o‘z hukumatiga qarshi;
- millat yoki din sogligi uchun kurashish
- ayirmachilik maqsadida va o‘z davlatini tuzish uchun kurashish;
- biror dunyoqarashga qarshi (Ekologiyaning buzilishiga qarshi va hokazo).

2.Diniy yo‘nalish aslida o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida dindan niqob sifatida foydalananadilar:

- soxta islom;
- soxta xristianlik;
- soxta iudaizm;
- yangi din o‘ylab topish;
- dinlarni inkor etish kabilardir.

3.Kelib chiqish sabablari:

- ✓ muxolifatni siqib qo‘yish
- ✓ davlatlararo ziddiyatlar
- ✓ ayirmachilik va mustaqillik uchun kurashish
- ✓ qashshoqlik va ishsizlik
- ✓ mafkuraviy bo‘shliq
- ✓ tahsqi davlatlarning qo‘llashi;
- ✓ globallashuvga qarshilik
- ✓ amerikacha siyosat, iqtisodiy va madaniy gegemoniyaga qarshilik;

4.Ijtimoiy tarkibi:

- asosan qishloq aholisi (kam uchraydi);

- ziyyolilar va ishchilar (kam uchraydi);
- ziyyolilar va talabalar (ko‘p uchraydi);
- aralash tarkib (Kop` uchraydi);

5.Etnik tarkibi:

- turli millat vakillari (ko‘p uchraydi);
- asosan bir etnik guruh vakillari

6.Terrorchilik guruhidagi a`zolari soni:

- ❖ 10 kishigacha kam uchraydi
- ❖ 10-50 kishi ko‘p uchraydi;
- ❖ 50-100 kishi ko‘p uchraydi
- ❖ 100 kishidan ortiq kam uchraydi

7.Tashkiliy tuzilishi:

- qat`iy iyerarxiya kam uchraydi;
- tashkilot bir-biridan mustaqil 5-7 kishidan iborat jangovor shaxobchalardan iborat bo‘ladi.

8.Faoliyat yuritish makoni:

- ✓ bir davlat hududida biror mintaqada hatto global doirada ham faoliyat ko‘rsataveradi;
- ✓ asosan shaxar sharoitida ish olib boradi;

9.Ish usullari

- jamoatchilik joylarida portlashlar sodir etish;
- mahalliy aholi vakillarini yoki xorijiy fuqarolarni garovga olish;
- ekstremistik mazmundagi varaqalar tarqatish;
- siyosiy qotilliklarni amalga oshirish;
- tartibsizliklar keltirib chiqarish;
- kimyoviy va bakterologik quollardan foydalanish;

“Yangi diniy harakatlar” tushunchasining mazmun-mohiyati va ular ilgari surayotgan g‘oyalar. *Yangi diniy-siyosiy harakatlar va mafkuralar* turli diniy aqidalarga tayanadi. Ularning bosh maqsadi nafaqat hokimiyatga ta’sir ko‘rsatish, balki o‘zlarining hokimiyatini o‘rnatishdan iboratdir. Buni ayrim

mamlakatlarda, xususan Yaqin Sharq va Osiyoda: (Eron, Pokiston, Afg'oniston, Saudiya Arybistoni) va boshqa mamlakatlar misolida ko'rish mumkin.

E'tirof etilmagan harakatlar va mazhablar quyidagilar:

Murjiylar - alohida bir yo'nalish bo'lib emas, balki mazhablar ichida tarkib topganlar. Ular asosida yana bir qancha kichik-kichik oqimlar, ya'ni firqalar vujudga keldi. Ular bu dunyodagi inson holatini muhokama qilishni "orqaga surib" (irja'), ya'ni insonning hatti-harakatini, uning imonini yolg'iz Allohning O'zagina biladi va faqat Uning O'zi inson ustidan hukm qilishi xos deb hisoblaydilar. An-Naubaxtiy murjiylarni 4 xil toifaga bo'ladi:

- 1) jahmiylar yoki xurosonliklar;
- 2) g'aylaniylar yoki suriyaliklar;
- 3) masiriylar yoki iroqliklar (Abu Hanifa ham);
- 4) shukkak (shubhalanuvchilar), bug'riylar, an'anaviy xashviylar. .

Bunday jug'rofiy bo'linish oqibatida (ya'ni Xuroson, Iroq, Suriya) oliv hukmronlik masalasida ham asta-sekin fikrlarning tafriqlanishi boshlanadi. Shunday qilib, VIII asrning 1- yarmida u yoki bu g'oya tarafdarlari o'z yo'nalishlarini yanada aniqroq belgilab, xorijiylar, jabariylar, qadariylar qatoriga qo'shiladilar. Bu toifadagilar iymon masalasida bir to'xtamga kelmaganlar. Al-Ash'ariy fikriga ko'ra, bu haqda 12 xil toifa bo'lganligi qayd qilinadi.

Mo'taziliylar - Kalomda birinchi yirik yo'nalish vakillari hisoblanib, Damashq va Bag'dod xalifaligi hayotida, VII-IX asrlarda muhim o'rin tutganlar. Al-Hasan al-Basriy (vafoti 728 yil) davrasidan shogirdlari Vosil ibn Ato (vafoti 728 yil) va Amr ibn Ubayd (vafoti 761 yil)larning ajralib, alohida bo'lib chiqishlaridan bu nom qolgan. Ularning boshqa: al-adliyyun, al-adliyia, ahl al-adl, ahd ad-adl vattavhid kabi nomlari mo'taziliylarning manbalariga binoan besh asosning birinchi ikkitasi tufaylidir. Bu besh asos Abul Xuzayl al-Allaf (vafoti 841 yoki 849 yil) tomonidan quyida so'nggi holiga keltiriladi:

1. Al-adl (adolat) — ilohiy adolat insonning irodasini aniqlaydi va Allohning faqat yaxshilik (al-aslah) qilish qobiliyati va asrlar davomida tarkib

topgan narsalar tartibining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik sifati.

2. At-tavhid- qat‘iy Allohning yagonaligiga sig‘inish, politeizm va atropoforfizmni inkor etadi.

3. Al-va’d val-vaid — xorijiylar bilan ajratilgan xususiyatlari, ya’ni Xudo mo‘minlarga jannat, kofirlarga do‘zax va’da qilgan bo‘lsa, o‘z va’dasida turishi lozim, ya’ni Payg‘ambar (S.A.V.) shafoatlari-yu, Allohning Rahmon, Rahim sifatlari ham yordam bermasligi kerak. Chunki inson hatti-harakati uchun to‘liq javob berishi lozim.

4. Al-manzila baynal-manzilatayn (Oraliq holat) — gunohi kabira qilgan musulmon mo‘minlar qatoridan chiqariladi (murjiiyalar fikriga qarshi), kofir bo‘lib qolmaydi (xorijiylar fikriga ko‘ra), balki oraliq hayotda bo‘ladi. Shu fikrda bo‘lganliklari uchun birinchi mo‘taziliylar Xasan al-Basriy davrasidan chiqadilar, chunki ularni munofiq, deb hisoblaydilar.

5. Al-amr bil-ma'ruf van-nahiy anil-munkar («Yaxshilikka da'vat, yomonlikdan qaytarish») -barcha usulda, hatto qilich bilan bu hukmning bajarilishi lozim.

Jabariylar - Arabcha «*jabr*»dan olingan bo‘lib, bu fikr tarafdarlari VII asr oxiri VIII asr boshida Islom ilohiyotida paydo bo‘lgan ilk oqimlardan hisoblanadi. Jabariylar inson taqdirini Xudo mutlaq oldindan belgilab qo‘ygan, hech qanday iroda va faoliyat erkinligi yo‘q, bular faqat Xudoda mavjud, inson esa ana shu faoliyatni o‘zlashtirib olish imkoniyatigagina ega, degan ta’limotni ilgari surgan. Iroda erkinligi tarafdarlari bo‘lgan qadariylarga qarshi kurash olib borgan. Muhammad (S.A.V.)ning payg‘ambarliklari, xalifalarni ilohiy va qonuniy deb asoslashda, jihoddagi o‘limning taqdir bilan bog‘lanishida bu ta’limot katta o‘rin tutadi. Shuning uchun hokimiyatni boshqargan umaviylar jabariylarni qo‘llab-quvvatlaganlar, ularga qarshilarni ta‘qib ostiga olganlar.

Jahmiylar - Abu Muxriz Jahm ibn Safvonning izdoshlari. O‘rta asr ilohiyoti olimlari ularni murjiiyalarga, ba’zan jabariylarga mansub qiladilar. Bu ta’limot Jahm ibn Safvon olamdan o‘tgandan so‘ng uning nomi bilan ataluvchi tarixga kirdi. Jahm ibn Safvon Abu Muxriz - mashhur ilohiyot olimi Xuroson murjiyy - jaxmiylarining

sardori Al-Xoris ibn Surayjshshg kotibi, Xurosondagi Umaviy hokimi Nasr ibn Sayyarga qarshi qo‘zg‘olonda qatnashib asir tushadi va qatl (745 yil) qilinadi. U Al-Ja'd ibn Dirhamning shogirdi bo‘lgan.

Qadariylar - Taqdir so‘zining inson o‘z hatti-harakati, taqdirining hukmdori deb talqin qilishlik. Bu ilk ilohiyot oqimlaridan biridir. Bu yo‘nalish taqdir va iroda erkinligi masalasida o‘ziga xos ta’limotni ilgari suradi, ya’ni jabariylar ta’limotiga qarshi ravishda, inson o‘z xatti- harakatining yaratuvchisi (xoliqi), deb tushuntiradi. Ular odillik Xudoning asosiy sifatlaridan biri, degan fikrga borib, gunohni u oldindan belgilab qo‘ygan bo‘lishi mumkin emas, Xudodan faqat adolatli ishni kutish mumkin, gunoh ishlar esa inson faoliyati bilan bog‘liq, demak, inson iroda va faoliyat erkinligiga ega, shuning uchun u gunoh qiladi, degan xulosaga keladilar.

Mushabbihalar yoki ahli at-tashbih - Arabcha "*o‘xshatuvchilar, o‘xshatish tarafdorlari*" yoki antropomorfistlar. Turli xil aqidaviy ta’limotlarning hosila nomi bo‘lib, bu yo‘nalish vakillari Alloho ni inson qiyofasi shaklida tasavvur qiladilar.

As-sifatiya - Sifat (arabcha - belgisi, xususiyati, tabiat) atamasi, Alloho ning xususiyatlarini ifoda etishning biri bo‘lib, mo‘taziliylar tomonidan qo‘llangan. Kalom ilmi rivojlanishining ilk bosqichida "Sifat" bilan bir qatorda "maani" (ma’nosи, mazmuni, g‘oyasi) atamasi ham qo‘llanilgan. Ba’zi mutakallimlar (mo‘taziliy Abu Shaxsim al-Jubboiya, Ash’ariy al-Boqilloniy, Al- Juvayniy va Faxriddin Roziy) "Sifat" o‘rnida "ahvol" atamasini ishlatganlar. Allohdagi insonlar nazdida ijobiy hisoblangan sifatlarni tan olish "isbat", degan nom oldi va bu g‘oya tarafdorlari "sifatiya", deb ataldi.

Islom dini doirasida yuzaga kelgan yangi diniy harakat va oqimlar.
Diniy-siyosiy partiya va oqimlar quyidagilardan iborat:

Salafiya - XX asr boshida Jamol ad-Din al-Afg‘oniy va Muhammad Abdu asos solgan ilohiy harakat Salafiya diniy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy mohiyatlarga ega. U musulmonlar hayotini yangilashga qaratilgan bo‘lib, Islom dunyosi uzra ko‘plab musulmon mutafakkirlari va harakatlariga shakllovchi ta’sir o‘tkazgan.

"*Salafiya*" termini ko‘pincha isloh, (reforma) va tajaddud (yangilanish) bilan sinonim sifatida ishlatalib, Islom dunyoqarashining asosiy fundamental

konsepsiyalari tushunchalaridan birini tashkil etadi. Biroq Qur'on va sunnatga urg'u berishi va o'tmishni qo'msashi tufayli ayrimlar nazdida reaksiya va fundamentalizm sifatida quriladi.

Vahobiylik - diniy-siyosiy oqim bo'lib, XVIII asrda Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Vahobiylar bevosita din nomidan ish ko'rghan va uni "tozalash", go'yoki Payg'ambar davridagi asl holatiga qaytarish, barcha arablarni yashil bayroq ostida birlashtirish kabi g'oyalarni ilgari surgan. Ingliz mustamlakachiligi bu vaziyatdan o'z maqsadida foydalangan: g'oya tarafdarlarini qurollantirib, Usmonli turklarga qarshi jangga tashlagan. Shuning uchun ham ular Usmonlilar mansub bo'lmish hanafiy mazhabini kofir mazhabi, deb e'lon qilishgan. Qandaydir doiralar manfaati yo'lida Islomdagি o'z birodarlarini kofirga chiqarishgacha borib yetishgan.

Ahmadiya harakati - harakati IX asrning oxirida Panjob (Pokiston)da xristian-protestant diniy oqimining Islomga qarshi faoliyatining faollashuvi hamda ahli hadis maktabi bilan hanafiya vakillarining Qur'on va sunnatning asosiy masalalari haqidagi munoqashalari natijasida vujudga keldi. Ahmadiya harakatining paydo bo'lishi barcha Islomga oid oqimlarni birlashtirish va ularning asosiy platformasini tashkil qilish bilan bog'liqdir. Shuningdek, boshqa din vakillarining tinch-totuv yashashlari ham bu harakatning paydo bo'lishiga turki bo'ldi. Ahmadiya harakatining fikricha, jamoaning asoschisi xudo tomonidan insoniyatga yuborilgan so'nggi ilohiyotlarni ochuvchi oxirgi payg'ambar bo'lib, unda musulmonlarning maxdiysi, xristianlarning ta'limoti va induslarning Krishnasi mujassamlashgan bo'ladi.

"Hizbut-tahrir al-islomiy" diniy tashkiloti - "Hizbut-tahrir al-islomiy" norasmiy siyosiylashgan diniy partiya 1953 yilda Isroilda paydo bo'ldi. Partiya piramida shaklida, tarkibiy tuzilma ko'rinishida tashkil toptan.

"Hizbut-tahrir al-islomiy" diniy tashkilotining kurash bosqichlari:

1. Tasqif - tushuntirish ishlari. Ongi to'liq shakllanmagan yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirish. Fikri zaif, ta'sirga beriluvchan huquq-tartibot organlari, hokimiyatlardagi mas'ul shaxslarni o'z tarafiga og'dirish;

2. Tafoul - birgalikda harakat qilish, fikriy kurash orqali "Ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi va kelajak masalalarini idrok qilishga erishishi" yo‘lida fikriy inqilobga yetishish;

3. Inqilob - to‘ntarish, hukumatni yaratilgan ummat orqali qo‘lga kiritish.

"TABLIG‘CHI"lar jamoasi - "Tablig'" arabcha yetkazish ma'nosida, tom ma'noda Allohning kalomini odamlarga yetkazishni anglatadi. Bu oqimga XX asrning 20-yillarida Hindistonda Muhammad Ilyos tomonidan asos solingan. Oqimning maqsadi kishilarni ommaviy Islomga chorlash, musulmonlarga Islom arkonlariga to‘liq amal qilishlari lozim ekanligini yetkazish va ularning Alloh oldidagi mas’uliyatini oshirish. Har o‘n "tablig"chi uchun bir amir saylanadi, amirga bo‘ysunishlik vojib hisoblanadi.

Akromiylar - Taxminan 1997-1999 yilda Fargona vodiysida vujudga kelgan ushbu diniy- siyosiy harakat vakillari yolgiz Allohga e’tiqod qilib, Payg‘ambarga imon keltirmaydilar. "Akromiylar" bugungi mavjud barcha tuzumlarni tan olmaydi, davlatga, qonun-qoidalarga ham, ota-onaga ham emas, faqat oqim sardorlariga bo‘ysunish lozim, deb hisoblaydilar. Uning asoschisi 1960 yilda Andijon shahrida tug‘ilgan Yo‘ldoshev Akrom Sotvoldiyevich hanbaliy mazhabi vahhobiylit oqimi ta’limotiga tayanib, 1992 yilda 12 darsdan iborat "Imonga yo‘l", deb nomlangan dasturni ishlab chiqqan. Ushbu dasturda oqimning pirovard maqsadi Islom davlatini barpo etishdan iborat ekani ta’kidlangan. O‘z harakatlariga nomzodlarni tanlab olish va ularni tayyorlashni besh bosqichdagi maqsadli dastur orqali amalga oshiradilar.

"NUR"chilar jamoasi - Asoschisi turkiyalik Sayd Nursiy bo‘lib, asl maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o‘ta diniy - mutaassib kishilarni tarbiyalash. "Nur" jamoasi Allohing kitobi va Rasulullohning (S.A.V.) sunnatlarini hidoyatga boshlovchi dasturulamal qilib olgan. Bu harakat o‘ziga ergashgan kishilar qalbida islomiy aqidani uyg‘otib, bu bilan Islomga e’tiqod qilish qonun tarafidan jazolanadigan tartibga qarshi kurashishni da‘vat etadi. Harakatning asoschisi Badiuzzamon taqvodor, shubhali narsalardan saqlanuvchi shaxs bo‘lib, "Seni shubhalantiruvchi narsalarni tark et, shubhasiz narsaga qo‘l ur!" degan aqidaga amal

qilgan. Mazkur harakat faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan yana biri ma’rifat tarqtuvchi — maktab, litsey va kollejlar tizimini faqat Turkiyada emas, xorijiy davlatlarda ham rivojlantirishdir.

“Tavba” - Ekstremistik ruhdagi harakat bo‘lib, uning maqsadi "vahhobiychilik"ni qo‘llab-quvvatlash, aholi orasida mavjud konstitutsion tuzumga qarshi targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, jangarilarni o‘qitish, ularni moddiy rag‘batlantirib turish, respublikada Islom davlatinitiklash shiori ostida hokimiyatni hatto terror yo‘li bilan egallashdan iborat. Harakatni xorijdagi katta terroristik guruhlar mablag‘ bilan ta‘minlashi tabiiy, ammo bundan tashqari ular turli talon-taroj va terror yo‘li bilan topilgan mablag‘lar bilan ham o‘zlarining moddiy ehtiyojlarini qondiradilar.

Islom uyg‘onish partiyasi - 1989-1991 yillari Tojikistondagi tartibsizliklar aynan shu partiya tomonidan vujudga keltirildi. Bu partiyani tuzish diniy mutaassib jamoalar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Ularning asosiy shiori esa — dunyoviy hokimiyat barcha ishlarini dindorlar bilan muvofiqlashtirishi va qilgan ishlariga hisobot berishi, qilajak ishlaridan xabardor etib, ruxsat olishi kerak. Ya’ni, Islom davlati barpo etish bosh maqsad hisoblanadi.

“Islom Lashkarlari”, “Adolat” - 1990-1992 yillari Namangan shahridagi "Otavalixon" jome masjidida 100-200 kishidan iborat 60 dan ziyod guruhalr tashkil etilgan edi. O‘sha payt "Adolat" harakati faollari drujinalar tuzib, kechki payt o‘z mahallasidan tashqarida yurgan erkak- ayollarni to‘xtatdi, ichkilikka qarshi kurash uchun aybdorlarni masjid oldida ustunlarga bog‘lab qo‘yishdi. 1992 yil 17 martdan aprel oyi oxirlarigacha ularning faoliyati tugatildi.

Fiqhiy mazhablar - Payg‘ambarimizning (s.a.v.) muborak hayotlarining ohiriga kelib, Qur’oni Karim oyatlari tushushi ohiriga yetib qoldi. Keyingi bosqichdagi oyatlarning aksariyati hukmlarga tegishli edi. Turli qabila va yurt odamlari Islomni qabul qilishdi. Yangi musulmonlar qarshisida deyarli yigirma uch yil davomida tushib to‘plangan oyatlarni o‘qib-o‘rganish, ularga amal qilish, shariat ahkomlarini o‘z hayotlarida tadbiq qilish vazifasi turar edi. Tabiiyki, yosh sahobalar o‘zlaridan kattalardan, yangi musulmonlar eskilaridan sha’riy masalalarini so‘ray

boshlashdi. Bu ishlarda ba'zi sahabalar o'z ilmlari, topqirliklari bilan boshqalardan ajralib chiqdilar. Ulamolarimiz fiqh bilan mashhur bo'lgan to'rt xalifani, Abdulloh ibn Ma'sud, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Amr ibn Oss, Zayd ibn Sobit va Oisha onamizni (r.a.) misol qilib keltiradilar.

Shuningdek payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) aholisi musulmon bo'lgan uzoqroq yurtlarga o'z vakillarini, o'sha yerdagilarga shariat ahkomlarini o'rgatish, ularning hayotida oriz bo'ladigan masalalarni hal etish uchun yubora boshladilar.

Jumladan, Yamanga Muoz ibn Jabalni (r.a.) yuborishni iroda qildilar. Muoz ibn Jabal (r.a.) o'z ish joylariga jo'nab ketayotganlarida payg'ambar (s.a.v.) u kishini to'xtatib, " U yerda senga bar masala oriz bo'lsa, qanday qilib hukm chiqarasan? " deb so'radilar. Muoz ibn Jabal (r.a.) " Allohning kitobi ila ", deb javob berdilar. Rasuli Akram (s.a.v.): " Allohning kitobidan topa olmasangchi? " deb so'radilar. Muoz ibn Jabal (r.a.) " Allohning payg'ambari sunnati ila ", deb javob berdilar. Payg'ambar (s.a.v.): " Allohning payg'ambari sunnatidan ham topa olmasangchi? " deb so'radilar. Shunda Muoz ibn Jabal (r.a.) qarab turmosdan, " fikrim ila ijтиҳод qilaman ", dedilar. Payg'ambar (s.a.v.) bu javoblardan g'oyat mamnun bo'ldilar va: "Alloh rasulining vakilini, Allohnini va rasulini rozi qiladigan narsaga muvaffaq qilgan Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin ", dedilar.

Barcha hadis kitoblarida keltirilgan ushbu mashhur voqeа asrlar davomida faqihlarimizni yangidan-yangi ilmiy cho'qqilarga, izlanishlarga chorlashi bilan birga, Qur'oni Karim oyatlari, boshqa hadislar bilan bir qatorda fiqh ilmiga hujjat va dalil bo'lib kelmoqda.

Birinchi hijri asrning ikkinchi yarmi va ikkinchi hijriy asrda Islom dini dunyo bo'ylab keng tarqaldi. Turli arab bo'limgan halqlar ham musulmon bo'ldilar. Tabiiyki, ular o'zlariga Qur'oni Karim va payg'ambarimizning (s.a.v.) sunnatlaridan shariat ahkomlarini chiqarib, tartibga solish imkoniga ega emaslar. Bir tarafdan til bilmaydilar, qolaversa, ilmlari yo'q. Nima qilish kerak? Bilganlardan so'rash kerak. Shunday qilib, asta-sekin kishilarga diniy hukmlarni o'rgatadigan, ularning savollariga javob beradigan kishilar ajralib chiqa boshladi. Keyinchalik sharoit butun boshli kitoblar ta'lif qilish, masalalarni jamlab bayon qilishni ham taqozo qilib

goldi. O'sha davrda hatto davlat boshlig'i ham kishilarga fiqhiy ko'rsatmalar majmuasi lozimligini anglab yetgan. Shuning uchun ham Islom olamining turli joylarida fiqh ulamolari yetishib chiqa boshladilar. Mazkur ulamolar o'z ilmiy ishlarida fiqhiy ijтиҳодларига то'ртta narsani asosiy manba qilib olganlar.

Birinchisi: Qur'oni Karim, faqih Islomda biror narsaning hukmi qanday ekanligini bilmoqchi bo'lsa, avvalo Qur'onga murojaat qiladi. Unda nima hukm bo'lsa, hech qanday ikkilanishsiz qabul qiladi. Ikkinchisi: Payg'ambarimizning (s.a.v.) sunnatlari. Agar faqih o'sha masalaga javobni Qur'onidan topa olmasa, sunnatga murjaat qiladi. Uni topib hukmini bayon ham qiladi.

Uchinchisi: Ijmo-bir davirning ijdihod ahli bo'lган ulamolarning bir ovozdan biror masalani qabul qilishlaridi.

To'rtinchi: Qiyo. Ya'ni, avvalgi manbalarda hukmi kelmagan masalani, shunga o'xhash manbalarda hukmi bor narsaga qiyoslab hukm chiqarish.

O'sha davrda ko'plab faqihlar yetishib chiqqanlar. Ularning ko'pchiligi o'zları dunyodan o'tishlari bilan fiqhiy ishlari ham qolib ketgan. Ammo musulmonlar ommasiga keng tarqalgan, shogirdlari va orqasidan ergashuvchilari ko'p bo'lган ulamolar fiqhiy mazhab sohiblari, deb tan olingan. Shulardan to'rttalari butun dunyoga mashhur bo'lганlar va ularning mazhablari musulmonlar jumhuri tomonidan rasmiy fiqhiy mazhablar, deb tan olingan. Bular quyidagi mazhablar:

1. Hanafiy mazhabi - Shom, Turkiya, Turkiston, Pokiston, Hindiston, Bangladesh va boshqayurtlarda keng tarqalgan.
2. Shofe'iy mazhabi - Misr, Suriya, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Tayland va ba'zi Afrika davlatlarida tarqalgan.
3. Molikiy mazhabi - Libiya, Tunis, Jazoir, Mag'rib, Mavritaniya, Nigeriya va boshqa Afrika davlatlarida tarqalgan.
4. Hanbaliy mazhabi - Arabiston yarim orolida tarqalgan.

O'zbekiston Respublikada faoliyati aniqlangan norasmiy diniy jamoalar:

«Ma’rifatchilar», «Shohidiylar» va «Baxshillochilar». O’zbekistonda milliy-diniy bag‘rikenglik va dunyoviylik. Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo‘lib, ular aslida bir-birlariga zid emas. Aslida diniy bag‘rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonma-yon yashab kelganligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonmayon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etilgan. O’sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar hayot saboqlarini bir-biridan o‘rganganlar, ustoz-shogird bo‘lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

Hozirgi vaqtda O’zbekistondagi turli konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar o‘z faoliyatini o‘zaro teng huquqlilik, hamdo‘stlik va hamkorlik asosida amalga oshirmoqda. Diniy bag‘rikenglik turli dinlarning, turli dinlarga mansub kishilarning hamdo‘stlik munosabatlarinigina nazarda tutmaydi, balki e’tiqodidan qat’iy nazar barcha kishilarning tengligi, umumiyoq ezgu maqsad yo‘lidahamkorlikni ham qamrab oladi. Diniy qarashga ko‘ra ham, madaniy, jumladan, ilmiy qarashga ko‘ra ham inson eng oliy mavjudotdir.

Diniylik dunyoviylikka xizmat qilishi mumkin deganda, dunyoqa-rashning ezgulik, yaxshilik, halollik, tinchlik, do‘stlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashni nazarda tutamiz. Haqiqatan ham diniy ta’limot-lar, u dunyo hayotini tasvirlash vositasida bu dunyoda yuksak fazilatlarga ega bo‘lishga undaydi.

Diniy bag‘rikenglikning qaror topishi, mustahkamlanishi, rivojla-nishi barcha kishilarni e’tiqodidan qat’iy nazar milliy g‘oya va mafkurani amalga oshirish yo‘lida birlashtiradi. U mafkurani milliy g‘oya va kishilar ongi hamda qalbiga joylashishiga yordam beradi.

O’zbekistonda yangi demokratik, fuqarolik jamiyatni asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o‘tish davrida diniy bag‘rikenglik qanchalik muhim bo‘lsa, diniy bag‘rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g‘oyalari, o‘z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag‘rikenglik g‘oyasini to‘g‘ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e’tiqodidan qat’iy nazar birlashtiradi.

Milliy istiqlol mafkurasi kishilar ongi va qalbiga singganda diniy mutaassiblikka, ayirmachilikka hech qanday o‘rin qolmaydi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, G’arb sivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e’tiqod, an’ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat ma’naviy mezonlarni o‘zida aks ettiradi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz bo‘yicha jami 2328 ta diniy tashkilot, shu jumladan, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O‘rta Osiyo eparxiyasi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari Ittifoqi, Rim katolik cherkovi, To‘liq injil xristianlar markazi, O‘zbekiston bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiylar jamoasi, 7 ta bahoiylar jamoasi, 2 ta Krishnanani anglash jamiyati va 13 ta diniy o‘quv yurti (1 ta Islom masjidi, 10 madrasa va 1 ta pravoslav va 1 ta to‘liq injil xristianlari seminariyasi) davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

O‘zbekistonda dunyoviylik bilan diniylik o‘rtasida andoza sifatida qo‘llash mumkin bo‘lganyangi nisbatning shakllanishi natijasida dinlararo bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikning ta’minlangani, qolaversa, tabarruk zaminimizning azaldan umumjahon tamadduni markazlaridan biri bo‘lgani barchaga ayon.

Dunyodagi musulmon mamlakatlarini 3 guruhgaga bo‘lish mumkin:

1. Islom mamlakatlari.
2. Islom davlat dini mamlakatlari.
3. Huquqiy demokratik musulmon (Din davlatdan ajratilgan) davlatlari.

O‘zbekiston ana shu 3-turdagi huquqiy demokratik musulmon davlatlari qatoridan joy olgan. Davlatimiz diniy tashkilotlar bilan quyidagi tamoyillar asosida ish olib bormoqda:

-Dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish.

-Diniy e’tiqodlarini fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.

-Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarningham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni taqib qilishga yo‘l qo‘ymaslik.

-Ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlardan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati.

-Dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish kabilardir.

Bugun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik (tolerantlik) va dinlararo murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo‘lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSH senatori Xillari Clinton xonim, AQSHning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolli shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta’kidlab o‘tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bu xislat o‘zining uzoq tarixiga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, milliy bag‘rikenglik - turli millatga mansub kishilarining bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an’analarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha’ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o‘ziga xos ma’naviy kenglikni (bag‘rikenglikni) anglatadi. Milliy bag‘rikenglik bunga zid bo‘lgan, milliy manfaatga ziyon etkazish hisobiga ta’minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg‘un ko‘rish va ta’minalash asosida mustahkamlanib boradi.

Diniy bag‘rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo‘nalishlar va mazhablarning ezgu g‘oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g‘oya amal qiladigan ustuvor g‘oyalar sifatida milliy bag‘rikenglik va dinlararo bag‘rikenglikka asoslanish turli xalqlar va millatlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, totuvolikni ta’minalash orqali erkin va farovon hayot qurish yo‘lida, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Demak, millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi,

shu joydagi tinchlik va barqarorlikning, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlashning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi - bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Jaholatga qarshi ma'rifat tamoyili. O'zbekistonliklar jahonda shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida *terrrorchilik* bilan bog'liq qaynoq nuqtalar borligini juda yaxshi biladilar. O'zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh Afg'oniston va bir mintaqada joylashgan Pokiston kabi davlatlar hududida jinoyatchi-terrorchilar harbiy tayyorgarlikdan o'tib, O'zbekistonga kirishga harakat qilayotganliklari hech kimga sir emas. Ularning maqsadi kimyoviy, biologik qurollardan, kompyuter tarmoqlaridan foydalanib harbiy harakatlarini boshlashdir.

O'zbekiston hududida sodir etilgan bir necha terrorchilik harakatlari bunday umumiylar xavfga qarshi kurash markazlari ishlab turibdi. Shuningdek, ko'pgina davlat idoralari, ayniqsa, mudofaa, favqulodda vaziyatlar va ichki ishlar vazirligi, milliy xavfsizlik xizmati, chegara, bojhona va prokuratura idoralarining terrorchilikka qarshi kurashdagi faoliyati jadallahdi, bu boradagi imkoniyatlardan samaraliroq foydalanilayapti. Aholi o'rtasida hushyorlik ogohlilik mazmunida tushuntirish ishlari, ommaviy tadbirlar o'tkazilayapti, ommaviy axborot vositalari orqali targ`ibot ishlari olib borilmoqda, ta`lim muassasalarida mashg`ulotlar olib borilyapti.

O'zbekiston respublikasi *terrrorchilikni* bartaraf qilish bilan bog'liq ishlarga dunyo jamoatchilagini jalb etmoqda.

Afg'oniston va boshqa musulmon davlatlari hududidagi harbiy lagerlarda terrorchi uyushmalar bemalol tayyorgarlik ko'rayotganligidan tashvishlangan O'zbekiston davlatining rahbari xalqaro terrorizmga qarshi kurash Markazini tuzish zarurligi to'g'risidagi taklifini Yevropaxavfsizlik harakati tahskilotiga a'zo

davlat va hukumatlarga MDH davlatlariga, Markaziy Osiyoda, Qirg`iziston, Tojikiston davlati rahbarlariga yetkazadi. Bu taklif Rossiya, AQSh, Xitoy kabi yirik davlatlar tomonidan xam e`tirof etildi. Terrorchilikning har qanday ko‘inishlariga zarba berish, terrorchilikni qo‘llab quvvatlayotganb davlatlarga qarshi kurash olib borish jahon hamjamiyati bilan birgalikda davom ettirilmoqda.

O‘zbekistonda 2000 yil 15 dekabrda “*Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida*”gi qonun bilan qabul qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki havfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ularni har tomonlama rag‘batlantirish va qo‘llab quvvatlashga intiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi 1990 yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996 yillarda Tojikistondagi fuqarolik urushi va mojarolar davomida, 1999 yilda Toshkent shahrida, 1999 yil 16-fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillari Qirg`izistonning Bodken, Ozbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatida, 2004 yil mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida amalga oshirgan terrorchilik xarakatlari timsolida o‘zini ko‘rsatdi.

2001 yil 28-sentyabrda BMT ning Havfsizlik Kengashi 1373-sonli rezolyutsiyasini qabul qilib, terrorizmga qarshi kurash komitetini tuzdi.

BMT ning terrorizm va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta xujjati (11 ta konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. O‘zbekiston 12 ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qildi. Ular qatorida:

1971 yildagi fuqaro aviatsiyasining xavfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshikurash:

1973 yildagi xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, shu jumladan diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlar uchun jazolash va ularni bartaraf etish:

1979 yildagi garovga olish xarakatlariga qarshi kurash:

1980 yildagi yadroviy materiallarning himoyasi:

1988 yildagi dengiz kemalari xarakati xavfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash:

1997 yildagi bombaviy terrorizmga qarshi kurash:

1999 yildagi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash xalqaro konvensiyalari borligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terorizmga qarshi 7 ta xalqaro shartnomani imzolagan.

Jamiyatning barqaror rivojlanishida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tadrijiy va tizimli ravishda amalga oshiriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tub, sifatiy o‘zgarishlarning asosini tashkil etadi.

Huquqiy davlat qurish borasida respublikamizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilib, bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishildi. Xalqaro andozalarga javob beradigan va milliy o‘zligimzini aks ettiradigan Konstitutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston inson huquqlarini ta`minlashga qaratilgan, jahon miqyosida e`tirof etilgan ko‘plab halqaro dekloratsiya, konvensiya va hujjalarga qo‘sildi va shundan kelib chiqadigan siyosiy va huquqiy qoidalar respublikamizning siyosiy taraqqiyotida va huquqiy me`yoriy tizimni rivojlantiish jarayonida inobatga olinmoqda. Lekin bu borada hali muayyan muammolar mavjud. Chunki qisqa vaqt mobaynida bunday har tomonlama va chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish uda qiyin. Ayni paytda, inson huquqlari va erkinliklarining qamrov doirasi kengayib, rivojlanib borayotganini va har bir mamlakatda o‘zoga xos tarzda namoyon bo‘layotganini ta`kidlash lozim. Tolerantlik (bag`rikenglik) munosabati barcha ijtimoiy guruhlar va shaxslar orasida amalga oshirilgan taqdirdagina dunyoviy davlat va jamiyat barpo etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga binoan milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jaomat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlangan. Juhon huquqshunoslik fani tajribasi asosida qabui qilingan bu qoida davlatimizda milliy va diniy asosda nizo paydo bo‘lishining oldini olish uchun xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy kafolatdir.

Jamiyat barqarorligiga to'siq bo'luvchi illatlarning yana biri terrorizmdir. Nega inson uni dunyoga keltirgan Ona Yurti, Vatani, millatiga qarshi chiqadi? Nega g`ayriinsoniy faoliyat yuritib, o'z yurtdoshlarini o'ldiradi, butun xalq mehnati bilan yaratilgan binolarni, inshootlarni vayron qiladi? Bunday vahshiyona faoliyat ko'pincha siyosiy maqsadlarda –hokimiyatni egallash uchun amalga oshiriladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bozor iqtisodiyotini shakllantirishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, dunyoviy demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishga qaratilgan siyosiy-huquqiy hamda vatanparvarlik, milliy istiqlol g`oyasi va komil insonni shakllantirishga yo'naltirilgan ma`naviy-ma'rifiy islohotlar-yuqoridaagi kabi holatlarning oldiniolish, barqaror riovojlanishining asosiy omillari hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri. Axborot(informatsion) urushi (*ingl, information war; information – “axborot”, war – “urush”*) – o'zga davlat tinch aholisi va (yoki) harbiylariga muayyan axborot (informatsiya) tarqatish yo'li bilan ta'sir o'tkazish. “Axborot-ruhiy urushi” atamasi AQSh harbiy doiralari lug'atidan qabul qilingan. Ushbu atama ingliz tilida shu bilan birga “Axborotlar qarama-qarshiligi” tushunchasini ham anglatib keladi.

Axborot (arab, axbor — xabarlar, ma'lumotlar) — muayyan voqeа-hodisalar to'g'risidagi xabar yoki ma'lumot, ularni tushuntirish, tushunish va idrok etishda qadim zamonlardan buyon qo'llanib kelinayotgan, kibernetika va informatikaning taraqqiyoti tufayli keyingi vaqtida yangi, keng ma'no kasb etayotgan tushuncha. OAV orqali e'lon qilinadigan ko'rsatuv va eshittirishlarning nomi, jurnalistika sohasidagi maxsus janr ham shunday ataladi. Biron voqeа haqidagi batafsil ma'lumot, davlatlar o'rtasidagi muzokaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnomalar to'g'risidagi rasmiy xabar ham axborot deyiladi. Xalqaro huquqda ikki va undan ortiq davlat o'rtasida olib boriladigan diplomatik muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar yoki qabul qilingan boshqa qarorlarhaqidagi xabar ikki yoki undan ortiq davlatlar tomonidan e'lon qilinadi. Ikki davlat o'rtasida olib boriladigan muzokaralar haqidagi axborot odatda qo'shma axborot deb ataladi.

Kundalik hayotda biror narsa (jarayon, ish, hodisa) to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun kerak bo‘ladigan ma’lumot yoki yangiliklar ham axborotdir.

Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda *internet*dan foydalanish ko‘nikmalari fakultativ dars sifatida maktab dasturiga kiritila boshladi. Buni ham grifingga qarshi kurashishning o‘ziga xos usuli sifatida ko‘rsatish mumkin. Negaki, fakultativ darslar orqali bolalar internetdan olinadigan ma’lumotlarning qanchalik haqqoniy va to‘g‘ri ekanini tekshirishga o‘rgatiladi. Bunday darslar, ayniqsa, o‘smirlar uchun zarur. *Internet*da grifingdan tashqari o‘smir yoshlar uchun yana bir qanchaxavflar ham bor. Ya’ni bolalar va internet muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, ekstremistik xarakterdagi sekta va uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo‘l qo‘yilganini ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bolalarning qiziquvchan tabiatи ularni yuqorida tilga olingan turdagи saytlarga etaklashi, bu veb sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog‘ligiga xavf soluvchi ma’lumotlarni ko‘rishiga olib kelishi tabiiy.

Informatsion tahdidlar. Bu turdagи tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto‘g‘ri shakllantirish va shu tariqa o‘zligiga ega bo‘lмаган olomonni tarkib toptirishni ko‘zlaydi. Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan Internet vositasida chetdan turib uyushtirilmoqda va uning asosiy ko‘rinishlari quyidagilardir: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish, soxta xabarlar tarqatish, kichik muammoni katta (yirik) muammo sifatida tasvirlash, muxoliflarni gij- gijlash, rahbarlarni zolim qilib ko‘rsatish, milliy qadriyatlarni noto‘g‘ri talqin qilish, yoshlarni chalg‘itish. Informatsion tahdidlar – ba’zida *axborot xuruji* deb ataladi – shaxsni ikkilantiradi, uni muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi.⁷ Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta’sir o‘tkazib, bolalarni *internet* doirasida va undan tashqarida ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolakaylar onlayn savdolarda qatnashishimkonи bilan birga kichik o‘yinchoqdan tortib to eng so‘nggi rusumdagи mashina sotib olish huquqiga ham ega bo‘ladi. Bu esa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi. Shu sabab, global tarmoqdan

foydanuvchilar ko‘p bo‘lgan Belorusda bu kabi muammolar qator yangi kasblarning vujudga kelishiga ham turtki bo‘lgan. Yangi turdagি mazkur mutaxassislarning vazifasi oilada internetdan foydalanish madaniyatii joriy etadigan hamda bolalarga psixologik, ma’naviy hamda jismoniy zarar etkazmaydigan ochiq va xavfsiz axborot makonini yaratishdan iborat.

Shuningdek, ko‘plab jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar o‘z faoliyatini *internetning* bolalarga ta’siri va undan bo‘ladigan zararning oldini olish usullarini o‘rganishga qaratgan. Jumladan, *internet* mazmunini baholash assotsiatsiyasi (ICRA) mustaqil xalqaro tashkilot bo‘lib, asosiy vazifasi ota-onalarni ularning farzandlarini tarmoqda kutayotgan ko‘ngilsizlik va xavfli munosabatlar haqida ogohlantirish, kibermakonda bolalarni noto‘g‘ri axborotlardan himoyalash va so‘z erkinligini ta’minlashdan iborat. Ota-onalarga mavjud muammolar yuzasidan maslahat, ko‘mak beradigan kiberfarishtalar (Cyberangels) - *internetda* bolalar huquqini himoya qilishga yo‘naltirilgan Evropadagi ilk tashkilotga 1995 yili asos solindi va ayni paytda unga AQSh va Kanada kabi davlatlar ham a’zodir. Muammolar chuqurlashgani sayin bu kabi tashkilotlar ham keng ko‘lamda tadqiqotlar o‘tkazish va mavjud xavf-xatarlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishni kuchaytirmokda. Xusan, Bolalarni asraylik (Save the Children) xalqaro huquqiy tashkiloti o‘tkazgan so‘rovnomalar natijasida ma’lum bo‘ldiki, AQShdagi 15-17 yashar o‘smirlarning 85 foizi, Kanada yoshlarining 93 foizi muntazam ravishda internetdan foydalanadi. Kommunikatsiya vositalari tadqiqoti assotsiatsiyasi (Association for the Research of Communication Media) olgan natijalarga ko‘ra esa, o‘smirlar katta yoshlilarni 2004 yildayoq *internetdan* foydalanish bo‘yicha ortda qoldirgan.

Virtual ta’qib. - Muloqotning bu kabi shakllari yaxshi, albatta. *Biroq masalaning ikkinchi tomoni ham borki, unga chuqurroq nazar tashlash lozim.* Alovida e’tibor talab etadigan jihat - *internet* orqali ta’qib deb nomlanadi. Bugungi kunda virtual ta’qib nihoyatda ommalashib bormoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, hozirda mакtab yoshidagi bolalar *internetdan* tobora erta foydalanishga kirishmoqda. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bemalol

maktab yon-atrofidagi kafe yoki klubga kirib, *internet*dan foydalanishi mumkin. Shu bois ular uyda ham *internet*ga ulanish imkonи bo‘lishini xohlashi tabiiy. Lekin, mutaxassislarining fikricha, yoshi o‘nga etmagan bola odatda mustaqil ravishda *internet*dan foydalanish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy fikrlash va shu asosda ma’lumotlarni farqlash, ularni ajrata bilish, boshqacha aytganda, «filtrash» qobiliyatiga ega emas. Shu sababli *internet*dan yolg‘iz qolganda ham foydalanish ehtimoli bo‘lgan bolani qattiq nazorat ostiga olish kerak, unga o‘zi haqidagi shaxsiy ma’lumotlarni *internet* orqali tanishgan odamlarga aytmaslikni o‘rgatish zarur.

“Kibernetik do‘st”. - Zamonaviy texnologiyalarning tez sur’atlarda o‘sishiga qaramay, ba’zan odamlar ulardan qanday oqilona foydalanish kerakligini to‘liq anglab etmaydi. Kompyuter va *internet*gacha bo‘lgan davrda o‘sib ulg‘aygan aksariyat ota-onalar va muallimlar agar bola *internet*dan foydalana boshlasa, albatta, foydasidan zarari ko‘proq, deb o‘ylaydi. Bolani kompyuter yoki *internet*dan chalg‘itish harakati zamirida aslida boshqa bir muammo, ya’ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o‘zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, uni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo‘ldi. Negaki, savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo‘yish to‘g‘ri emas. Buning ustiga yana bir jihat e’tiborga loyiq: bolalarda **kibernetik do‘stga** nisbatan munosabat aynan kattalarning tutgan yo‘lidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Shubhasiz, *internet* bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo‘lmaydi. Foydalanuvchilar ma’lumotlarning to‘g‘riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etilardi. Buning uchun bolalarga *internet*da xohlagan odam o‘z sahifasini ochishi, unga har qanday ma’lumotni joylashtirishi, bu borada unga hech kim to‘sinqinlik qila olmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarni keng doiradagi manbalardan foydalanishga yo‘naltirish jarayonida faktlarni fikrlardan farqlashga, to‘g‘riliги tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanishga ularni o‘rgatish ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

O‘tgan asrning oxiri va hozirgi asr boshida axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asrning "Axborot asri" deb atalishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari, Axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda axborot asosida ta’lim-tarbiya jarayoni olib borilmoqda, ijtimoiy hayot samarali boshqarilmoqda. Hozirgi kunda hayotning biror-bir sohasini axborotsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Axborotlar banki (AB), Axborot texnologiyalari kishilik faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Axborotlarni aniq maqsadda yig‘ish, saqlash, tizimlarga ajratish va ulardan ommaviy tarzda foydalanishda texnik, dasturiy, algoritmik ishlar va ularning tashkiliy vositalari beqiyos ahamiyatga ega. Axborotlashtirilgan jamiyatning har bir bo‘g‘inida ABga murojaat qilinadi va shu asosda zamonaviy ta’lim texnologiyalari yaratiladi va ta’lim-tarbiya jarayonlarini optimal boshqarish imkoniyati vujudga keladi. Axborotli modul — ta’lim maqsadini belgilashga qaratilgan, rejalashtirilgan natijalar bilan chegaralangan, fanlararo va fan ichidagi bog‘liklikni hisobga olib tuzilgan hamda yakuniy nazorat tizimini qamrab oladigan o‘quv fani mazmunining muntazam va tugallangan qismidir. Axborot resurslari ma’lumotlar bazalari va banklari, turli xil arxivlar, kutubxonalar, muzeylar fondini o‘z ichiga oladi. Resurs — biror narsa yoki hodisaning zahirasini belgilaydi, ayni vaqtda u axborot tizimidagi alohida hujjatlar va ularning butun bir majmuidir. axborot resurs markazi (ARM) — ixtisoslashgan muassasada to‘plangan hamda markazlashtirilgan bosma va audio-vizual materiallar majmuasidir. ARM kompyuter va aloqa vositalari yordamida qo‘srimcha aloqa manbalari va materiallariga kirish imkonini beradi. ARMning asosiy dasturi ta’lim beruvchi va oluvchilar tomonidan o‘quv dasturiga muvofiq to‘plangan audiovizual materiallarni o‘z ichiga oladi. ARM dasturidagi individual va texnologik manbalar ta’lim beruvchilar, mediateka mutaxassislari hamda ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muntazam aloqani ta’minlaydi. ARM ta’lim muassasasidagi yangiliklarni siyosiyishda o‘quv muassasasi bilan jamiyat o‘rtasidagi asosiy aloqa tarmog‘i bo‘lib hisoblanadi va shu orqali u ta’limoluvchilarni zarur axborotlar bilan ta’minlaydi. Ta’lim muassasasining ARMi uchun kitoblar, davriy nashrlar, mikrofilmlar,

slaydlar, gramplastinkalar, kompyuterli tizimlar, audio va video yozuvlar asosiy manbadir. Axborot tarmog‘i (AT) — aloqa tizimlarida kompyuterlar yordamida axborotlashishga xizmat qiluvchi qurilmalarning bir-biri bilan bog‘langan holati.

Axborotni faksimil uzatish (AFU) odamlar o‘rtasidagi axborot almashinushi bo‘lib, uning yordamida matn, gazeta, oddiy qulyozma, grafika, fotografiya kabi hujjatlarni bir obyektdan ikkinchi obyektga asl nusxasidek aniq yetkazib berish jarayonidir.

Axborot olish kafolatlari va erkinligi har bir shaxsning o‘zi istagan axborotni izlash, olish vatarqatishga haqli ekanini bildiradi. Mustaqillik yillarida yurtimizda bu borada mustahkam huquqiy poydevor yaratildi. O‘zR Konstitutsiyasining 30-moddasida barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo‘lgan hujjat, qaror va boshqa xil axborotlar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozimligi belgilab qo‘yilgan. 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi qonunga ko‘ra, mamlakatimizdagi har bir fuqaro o‘z manfaatlariga daxldor axborotlarni olish imkoniyatiga ega. Hozirgi globallashuv jarayonida axborot g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish vositasiga aylanib bormoqda. Ayrim mafkura poligonlari o‘zlarining g‘arazli maqsadlariga erishishda axborot xurujlaridan foydalanmoqda.

Axborot urushida oddiy urushda qo‘llanadigan qirg‘in vositalari ishlatilmaydi.

Uning obyekti omma yoki alohida shaxslar ongidir. Qarama-qarshi taraflarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladigan shaxslar (prezident, bosh vazir va h.k.) alohida ta’sir ostiga olinishi mumkin.

Axborot urushi vositalari vazifasini ommaviy axborot vositalari, pochta, hatto g‘iybat tarzida tarqatilgan gap-so‘zlar ham bajarishi mumkin. *Axborot urushida* faktlar buzib ko‘rsatiladi yoki ularning ta’sir ko‘rsatayotgan tarafga foydali tomonlari bo‘rttiriladi.

Axborot urushining tarkibiy qismlari

1) **psixologik operatsiyalar** – dushman askarlari ishonchiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida axborotni qo‘llash;

- 2) **elektron urush** – dushmanga aniq axborot, ma'lumotga ega bo'lish imkonini bermaydi;
- 3) **dezinformatsiya** – dushmanni o'zining kuchi va niyatlari to'g'risida soxta ma'lumot bilan ta'minlaydi;
- 4) **jismoniy vayron qilish** – axborot tizimlarining elementlariga ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'lganida axborot urushining bir qismi bo'lib kelishi mumkin;
- 5) **xavfsizlik choralar** – dushman shu taraf imkoniyat va niyatlaridan xabardor bo'lishining oldini olish;
- 6) **to'g'ridan-to'g'ri axborot hujumlari** – axborot mohiyatini saqlagan holda uning ko'rinishini o'zgartirib yuborish.

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillar targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari doimo demokratiya va so'z erkinligining o'ziga xos o'lchovi, ko'rsatkichi bo'lib kelgan. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni rag'batlantiradi va mustahkamlaydi.

G'arbda *ommaviy axborot vositalariga* qo'pol bo'lsa ham *jamiyat manfaatlarini "qo'riqlovchi ko'prik"*, deb nisbat beradilar. Yetuk demokratik davlatlarda ular jamiyatning "ko'zlari", "quloqlari" vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil kutarib chiqib, ularning turli echimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan. Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining pluralizm tamoyili asosiga qurilishi demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qarama-qarshi nuqtai nazarlardan iborat bo'lgan dasturlarni yaratish, muqobil fikrlar to'qnashuviga erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rag'batlantirishga qodir bo'ladi.

Biz demokratiyani qanday tushunsak, ommaviy axborot vositalariga ham shunday vazifalarni yuklaymiz. Biz demokratiyani mustaqilliq erkinlik va mas'uliyat deb tushunar ekanmiz, ommaviy axborot vositalaridan ham mustaqillik, erkinlik va mas'uliyatni kutamiz. Demak, jurnalistlar bu tushunchalarini anglashi, ularga ehtiyoj sezishi, ularni qadrlashi, ulardan foydalana bilishi va ular uchun kurashishi zarur.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihat mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq *Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini kursatadigan shunday bir gap bor "har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa - "haqiqat" tayyor bo'ldi, odamlar unga chippa-chin ishonadilar"*.

Oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning uzgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. ***Bu qurol - axborotdir***. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda insonning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasa-da, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zARBALAR kishini adashtiradi, uni uz manfaatlariiga zid harakat qilishga undaydi va demak insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida, axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion xurujlar uyushtirish uchun u qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadar ko'p harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy ekspansiya otishmalar va qon to'kishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy o'zlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi.

Bunday informatsion quporuvchilikdan maqsad - mamlakatimiz aholisiga axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida

O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilishdan iborat. "Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasidagi ba'zi fikrlar ham bugungi xurujlarning maqsadini oydinlashtiradi. Ushbu risolada aytishicha, geopolitik maqsadlar - davlatning o'zga hududlarda o'z mavqeyi va ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosatdir. Ochig'i, bu ta'siri ayrim ommaviy axborot vositalarining faoliyati nimaga yo'naltirilganligini fosh etib qo'ymoqda.

Yirik siyosatchilardan biri Buyuk Britaniya sobiq Bosh vaziri **Margaret Tetcher** "*Ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun kislorod vazifasini o'taydi*", degan. Bu gapning mag'zini chaqqan odam "ommaviy axborot vositalari terrorchilar uchun havodek zarur ekan", degan xulosaga keladi. Bir qarashda bu fikr mantiqsizday tuyuladi. Chuqurroq o'ylab ko'rsak-chi? Aslida, terrorchilar bir qancha insonlarni shafqatsizlik bilan o'ldirish orqali millionlarda qo'rquv va dahshat uyg'otishga intiladilar. Demak ularning maqsadlari – o'ldirish emas, jamoatchilikka kuchli ta'sir qilishdir. Taassufki, ba'zi ommaviy axborot vositalari o'zlari bilmagan holda terrorizmning buzg'unchilik qo'poruvchilik ta'sirini yanada oshirishga "xizmat" qilib qo'yadilar. Ularning terror oqibatlari haqidagi vahimali axborotlari insonlardagi qo'rquvni, dahshatni, himoyasizlik hissini yanada kuchaytirib yuboradi. Bu kabi axborotlarga qarshi aksil targ'ibotni kuchaytirish zarurati tug'iladi.

Global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlar va barkamol avlodni mafkuraviy xurujlardan himoya qilishda milliy g'oyaning o'rni. Har bir davlat o'z aholisini, ayniqsa bilim va yangilikka chanqoq yoshlarini ilmiy bilimlar, ma'rifiy-ma'naviy ozuq bo'ladigan axborotlar bilan ta'minlanishidan manfaatdordir. O'zbekistonda ham o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo'naltirilgan, prinsipial "axborot siyosati" shakllantirildi va hayotga joriy etilmoqda.

Zamonaviy informatsion vaziyat talablarini hisobga olgan holda aholini yanada kengroq va tizimli axborot bilan ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2006 yili maxsus qaror qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy

maqsad yangi axborot markazlarini barpo etish, mamlakatdagi kutubxonalar tarmog‘ini tubdan takomillashtirish edi.

Mazkur qarorda oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari hamda ko‘p sonli umumta’lim maktablari huzurida axborot-resurs markazlari tuzish ko‘zda tutildi.

Axborot-resurs markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- ta’lim muassasalari o‘quvchilari hamda aholining zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam ta’lim olishi va mustaqil ravishda talim olishiga ko‘maklashish;
- milliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ko‘lamda targ‘ib qilish, xalqning madaniy- tarixiy merosidan bahramand bo‘lishini ta’minlash, ma’naviy boy va uyg‘un kamol topgan shaxsning ijodiy o‘sishi uchun imkoniyat yaratib berish;
- yangi axborot texnologiyalari (ma’lumotlar elektron bazalari, internet resurslari) asosida aholiga axborot xizmati ko‘rsatish;
- madaniy, ta’lim, axborot hamda boshqa dastur va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta’lim muassasalari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, milliy madaniyat markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish va hokazolar.

Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xuddi mana shu maqsadga yo‘naltirilgan. Zero, ushbu masala g‘oyaviy nuqtai nazardan **«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun** printsiplariga to‘la muvofiq keladi.

Ta’lim-tarbiyaga oid milliy merosimizni o‘rganishning dolzarbliji nazariy jihatdan asoslidir. Xususan, kadrlar tayyorlash milliy dasturida zikr etilgan uzluksiz ta’limning milliy modeli tamoyillari mohiyatan ta’limning milliy-ma’rifiy, milliy tarix, xalq an’analari, milliy merosimiz bilan uyg‘unlikda olib borilishini anglatadi. Shuning uchun «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning 4- bobida, ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlarni takomillashtirish, uning zamonaviy tarbiyaviy shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq etish, milliy tarixiy an’analari va umumbashariy qadriyatlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etilgan. Umuman ta’lim-tarbiyaning milliy modeliga ko‘ra, ta’lim tizimini yangilash

– tabiiy ravishda milliy merosimizni o‘rganish va uni pedagogik tafakkur iste’moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining birinchi komponenti shaxsdir. Chin ma’nodagi shaxs o‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash salohiyatiga ega bo‘ladi. O‘zi va millat uchun befoyda, zararli odatlaridan voz kechadi. Millat manfaatlarini o‘z manfaati, o‘z manfaatini esa millat manfaatiga erishish sharti deb tushunadi. O‘z vazifasini millatning kuniga yarash, og‘irini engil qilishda ko‘radi. Shu sababli u o‘z shaxsiy qobig‘idan chiqib ko‘tariladi va millat manfaati uchun, millat farovonligi orqali o‘zini kamolotga erishtirish uchun boshqalardan ko‘proq, samaraliroq mehnat qiladi. Umummilliy g‘oya, maqsadga ishonadi, uni himoya qiladi. Talabada bu fazilatlar birdaniga paydo bo‘lib qolmaydi. U, avvalo, oilada ota-onas, oiladan tashqarida qarindosh-urug‘, qo‘shti- mahalladoshlar orasidagi tarbiyaviy muhitni rag‘batlantirib borish, so‘ngra oliv o‘quv yurtida - mafkuraviy bilimlarni egallash orqali tarbiyalanadi. Shu sababli bu jarayonga ijtimoiy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarash lozim.

Bu bejiz emas, albatta. Chunki, milliy merosimizning g‘oyaviy negizi – shaxs tarbiyasi, uning ma’naviy ehtiyojlariga da’vogar bo‘lgan omillarni o‘rganishdan iborat bo‘lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim jarayoni dunyo bo‘yicha turli mamlakatlarning yaqinlashuvi, tom ma’noda global, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Bu omillar orasida yuzaga kelgan umumiy va milliy o‘ziga xosliklar alohida ahamiyatga ega.

Ta’limning noyob imkoniyatlari hozir nafaqat inson aqlini yangi tezkor imkoniyatlar bilan qurollantirish, balki uning ongini qayta qurish bilan bog‘liq. Insoniyat sivilizatsiyasi rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, shaxsiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o‘zgartiradi. O‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ta’lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablar qo‘yadi.

hayotining boshqa sohalari bilan birga ta’lim tarbiya tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishga yo‘naltirilganishlarning samaradorligi bilan belgilanadi.

Ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish o‘z navbatida bu sohada yangi, zamonaviy, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ta’lim samaradorligi o‘quvchi bu jarayonda qay darajada faol qatnashayotganligi bilan belgilanishini hisobga olgan xolda yangi o‘qitish uslublari, shakllari ta’lim oluvchilarga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish uchun imkoniyat yaratadi.

Navqiron avlod davr ruhida ma’naviy kamol topib, buyuk ajdodlarimiz barhayot mevasidan oziqlanib, zamonaviy bilimlarni egallab, ularni ongi, shuuriga singdirib bormas ekan, bizning o‘z oldimizga qo‘ygan ulug‘vor maqsadlarimizga erishishimiz, nurli istiqbolimizni bunyod etishimiz ham qiyin. Mana shu bois ham yoshlar tarbiyasi, ularni barkamol insonlar etib shakllantirish, voyaga yetkazish masalasi har doim davlatimiz oldidagi birinchi darajali vazifalardan biridir.

O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar:

- 1.** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy e’tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?
- 2.** Diniy e’tiqod erkinligi haqida Konstitutsianing qaysi moddasida so‘z yuritiladi?
- 3.** “Diniy tashkilotlar” deganda nimalar nazarda tutiladi?
- 4.** Diniy tashkilotlarga kimlar a’zo bo‘la oladi?
- 5.** Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo‘llaydi?
- 6.** Missionerlarning faoliyat uslublari haqida nimalarни bilasiz?
- 7.** Diniy bag‘rikenglik deganda nimani tushunasiz?
- 8.** Fundamentalizm ilk bor qaysi din doirasida paydo bo‘ldi?
- 9.** Diniy ekstremizm deganda nimani tushunasiz?
- 10.** Islomda qanday radikal oqim va guruhlar mavjud?

Mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

Muammoning mazmuni	Sabab va omillari	Muammoning yechimi	Xulosa
<p>1.Ekstremistik guruhlarning maqsadlari nimalardan iborat?</p> <p>2. Markaziy Osiyoda qaysi ekstremistik guruhlar o‘z noqonuniy faoliyatini olib boradilar?</p> <p>3. Diniy mutaasiblik deganda nimani tushunasiz?</p> <p>4.O‘zbekistonda diniy ekstremizmni oldini olishning huquqiy asoslari nimalardan iborat?</p>			


- “Konseptual jadval” orqali muammoli vaziyat yaratildi
- muammoning mazmunining tushunish muhim bosqich hisoblanadi (1-ustun)
- Voqeliklarning sabab va omillari bilan (2-ustun) to‘ldiriladi
 - Muammoning yechimi to‘liq izohlanishi kerak (3-ustun).
 - Tegishli yakuniy xulosalar esa muhim bosqich hisoblanadi (4-ustun)

Mavzuni yangi pedagogik texnologiyalardan biri - “Venn diagrammasi” interfaol usuli orqali tushuntirish.

Mavzu mashg‘uloti uchun topshiriqlar:

1. Diniy e’tiqod erkinligi huquqi
2. O‘zbekistonda din erkinligining kafolatlanishi “Venn diagrammasi” orqali boshqaruvning totalitar va yangi usullarining umumiyligi belgilari qiyosiy tahlil qilinadi. Masalaning o‘zaro bog‘liqligini xulosalash uchun quyidagi tushunchalar tanlandi:

1)* vijdon erkinligi 2)* diniy tashkilotlar 3)* diniy konfessiyalar



Ma’ruza mashg‘ulot uchun topshiriqlarini bajarish uchun tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar:

- Yangi pedagogik texnologiyalardan biri “Venn diagrammasi” interfaol usuli haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim
- Mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar yaxshi o‘zlashtirilishi kerak
- “Venn diagrammasi” interfaol usuli qiyosiy tahlilga asoslangan bo‘lib, masala mohiyati unga yaqin bo‘lgan tushuncha va ma’lumotlar orqali o‘zlashtiriladi.
- 1-, 2-, 3- tushunchalar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berilganidan so‘ng, ularni bog‘lovchi xususiyatlarni A)* va B)* qatorga to‘ldiriladi hamda tegishli xulosaga kelinadi.

MAVZU OID TESTLAR

1. VII-asrda paydo bulgan musulmon davlati nima deb ataladi?

- A. Musulmonlar davlati
- B. Islom imperiyasi
- C. Arab imperiyasi
- D. Arab xalifaligi

2.“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”. Ushbu fikrlar Konstituttsiyamizning qaysi moddasida ko‘rsatib o‘tilgan

- A. 41 modda
- B. 8 modda.

C. 31 modda

D. 128 modda

3.O‘zbekistonda nechta diniy konfetsiyalar mavjud?.

A. 31 ta konfetsiya faoliyat yuritadi.

B. 25 ta konfetsiya faoliyat yuritadi.

C. 16 ta konfetsiya faoliyat yuritadi.

D. 26 ta konfetsiya faoliyat yuritadi.

4.Frantsuz tilidagi “qo‘rqtish” so‘zidan olingan, o‘z fikrini zo‘ravonlik yo‘li bilan boshqalarga o‘tkazadigan, bu yo‘lda suiqasd, qo‘porovchilik usullaridan foydalananadigan ta’limotning nomi nima?

A. Ekstremizm

B. Fundamentalizm

C. Traditsionalizm

D. Terrorizm

5.Ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan g‘oyani qaysi ta’limot ilgari suradi?

A. Ekstremizm

B. Fundamentalizm

C. Traditsionalizm

D. Evolyutsionalizm

6.O‘z g‘oyasini “to‘g‘ri” deb boshqacha fikr egalarini tan olmaslik va ularni buzg‘unchilikda ayblash qanday nomlanadi?

A. Mutaassiblik

B. Mujtahid

C. Muhaddis

D. Murshid

7.Vahhobiylilik qachon va qaerda paydo bo‘lgan?

A. XVIII asrda Arabistonda

B. XVIII asrda Iroqda

C. XIX asrda Eronda

D. XX asrda Afg'onistonda

8.XIX asrni oxirlarida O'rtal Sharqda vujudga kelgan islom mamlakatlarini yagona bayroq ostida birlashtirish g'oyasini qaysi siyosiy oqim ko'tarib chiqqan?

- A. Panteizm
- B. Panislomizm
- C. Paniranizm
- D. Ekstremizm

9.“Hizbut tahrir al-islomiya” tashkiloti qachon tashkil topgan?

- A. 1953-yilda
- B. 1946 yilda
- C. 1950 yilda
- D. 1954 yilda

10.Diniy ekstremizm nima?

- A. Ma'lum siyosiy maqsadlar yo'lida va din niqobi ostida mutaassiblar yoki ularning irodasiga ko'ra ish ko'ruchchi guruhlar tomonidan olib boriladigan o'ta ashaddiy harakatlar
- B. O'zi e'tiqod qiladigan diniy dunyoqarashni mutloq haqiqat deb tushunish
- C. Milliy o'zlikni anglash faqat diniy dunyoqarash orqaligina ro'y beradi deb tushunish
- D. Dinga ochiqchasiga xiyonat qilib, boshqa oqimlarga aralashish

GLOSSARIY (falsafa fanidan qisqacha izoh)

Agnostitsizm – inson obyektiv borliqni to‘liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Antissientizm – fanning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Antropogen – inson faoliyati bilan bog‘liq.

Antropotsentrizm – dunyoni bilishda insonni ustun qo‘yuvchi falsafiy yondashuv.

Aprior – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko‘rilgunga qadar, tajribadan qat’iy nazar paydo bo‘lgan obraz, g‘oya, tushuncha.

Ateizm – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Atribut – xossa.

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Garmoniya – bir butun narsa qismlarining o‘zaro muvofiqligi.

Germenevtika – falsafada – tarix, madaniyatni, o‘zga individuallikni tushunish san’ati.

Gipotetik – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)ga asoslangan.

Globallashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika – globallashuv va uning oqibatlari mohiyatini anglab etishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Gnoseologiya – bilish nazariyasi.

Deduksiya – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo‘lib, bunda ayrim qoidalar umumiy xulosalar, aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo‘l bilan keltirib chiqariladi.

Dezinintegratsiya – butunning ayrim qismlarga parchalanishi.

Deizm – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishiga aralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Determinizm – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog‘langanligi haqidagi falsafiy ta’limot.

Dialektika – harakat, rivojlanish, o‘zgarish haqidagi falsafiy ta’limot.

Diskret – uzlukli.

Differensiatsiya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo‘linishi, parchalanishi, ajralishi.

Ideal – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

Ierarxiya – bir narsaning funksional ahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko‘ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo‘ysunishi.

Izotrop – barcha yo‘nalishlarda bir xil.

Indeterminizm – determinizmga qarama-qarshi ta’limot.

Integratsiya – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

Introvertiv – o‘ziga, o‘z ichki dunyosiga qarab mo‘ljal oluvchi.

Imitatsiya – taqlid qilish, soxtalashtirish.

Axborot inqilobi – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo‘lib, bunda axborot o‘ta muhim resursga aylanadi.

Irratsionalizm – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

Kauzallik – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniy aloqasi.

Kommunikatsiya (keng ma’noda) – muloqot. Ekzistensializmda – muloqot turi bo‘lib, uning yordamida «Men» o‘zini boshqa odamda topadi.

Konstitutsiyalash – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

Konsyumerizm – iste’mol qilishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj.

Koevolyusiya – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

Kreatsionizm – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta’limot.

Materializm – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat’iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo‘nalish.

Metafizika – Gegeldan oldingi va hozirgi G‘arb falsafasida borliqning o‘ta hissiy tamoyillari va asoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlataladigan atama.

Metodologiya – metod haqidagi ta’limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

Mistika – sirli, g‘ayritabiyy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

Moddiylashtirish – ma’no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

Modus – predmetning unga ayrim holatlardagina xos bo‘lgan muvaqqat xossasi.

Monizm – plyuralizmga zid o‘laroq, muayyan bir asosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

Negativ – salbiy, biror narsaga zid.

Noumen – mushohada yo‘li bilan anglash mumkin bo‘lgan mohiyat.

Noosfera – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiliga aylanadi.

Obraz – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

Okkultizm – maxsus ruhiy mashqlar, alohida marosimlar orqali ayrim insonlarga bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e’tirof etuvchi ta’limot.

Oppozitsiya - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko‘rsatish.

Panteizm – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta’limot.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo‘nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

Passionar – ichki energiyaga egalik yoki o‘ta g‘ayratlilik.

Permanent – doimiy, uzluksiz.

Persepsiya – idrok etish.

Ratsionalizm – aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e’tirof etadigan falsafiy yo‘nalish.

Reduksionizm – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog‘lash.

Relyativizm – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Refleksiya – o‘z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Sakral – muqaddas.

Sensualizm – hissiy bilishning rolini oqilona bilishning ahamiyatidan ustunroq qo‘yuvchi falsafiy yo‘nalish.

Simvol – biron-bir g‘oyani ifodalovchi belgi, obraz.

Sinkretizm - qismlarga ajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarning aralashuvi.

Skeptitsizm – inson bilimining ishonchliliga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e’lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.

Stereotip – ko‘pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

Substansiya – birinchi asos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

Ssientizm – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

Tabu – biron-bir narsa, harakat, so‘zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

Teologiya – diniy ta’limotlar tizimi.

Teotsentrizm – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo‘yuvchi falsafiy yondashuv.

Texnogen – texnika bilan bog‘liq, uning ta’siri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi o‘ringa qo‘yuvchi.

Texnooptimizm – turli muammolarni echishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko‘rsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e’lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Transsidental – o‘ta umumiy

Universum – yagona Olam, yaxlit dunyo.

Fauna – barcha turdag'i hayvonlar majmui.

Fenomen – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

Fenomenologiya – bevosita kuzatish mumkin bo‘lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta’limot.

Flora – o‘simliklar dunyosi.

Fluktuatsiya – o‘zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og‘ish.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Evolusion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o‘rganuvchi fan.

Evristik – ijodiy, noma'lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashni amalga oshiruvchi.

Egalitarizm – umumiy tenglikni targ‘ib qiluvchi g‘oyaviy-siyosiy oqim.

Ekzistensializm – diqqat markazida hayotning ma’nosи, inson erkinligi va mas’uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo‘nalish.

Ekologiya – jonli mavjudotlarning o‘zini qurshagan muhit bilan o‘zaro munosabatlari haqidagi fan.

Ekologik muammo – jonli organizmlarning atrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

Ekologik tanglik – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo‘lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Eksplikatsiya – u yoki bu predmet (yoki madaniyat obyekti)ning mohiyatini aniqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

Ekstravertiv – sirtga qaratilgan.

Empirizm – hissiy idrok etish va tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot.

Empirik – tajribada ko‘rilgan.

Etimologiya – u yoki bu so‘z yoki iboraning kelib chiqishi.

Epistemologiya – bilish haqidagi falsafiy ta’limot.

Etnogenet – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

O‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish – o‘zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individ axloqiy faoliyatining maqsadi.

Falsafa - "filosofiya" so‘zidan olingan bo‘lib, "donishmandlikni sevaman" degan ma’noni anglatadi ("filo" - sevaman, "sofiya" - donolik).

Faylasuf - qadimgi Sharq va Yunonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, inson ma’naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. 53b
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017 484 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. 28 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma’naviyat, 2015, 176 b.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-24 jiddlar.- T.: O‘zbekiston, 1996-2016.

Asosiy:

6. Falsafa. Mamashokirov S tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
7. Falsafa. Axmedova M. tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
8. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
9. Shermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
10. Shermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013 720 b
11. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
12. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi.T.: Noshir, 2017
13. Izzetova E., Pulatova D. Filosofiya. -T.: Sharqshunoslik, 2012. 340-6
14. Sharipov M. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.

Qo‘srimcha:

15. Gunnar Skirbekk, Nils Gilge. A history of Western Thought. Scandinavian University Press. 11 New Fetter Lane, London, EC4P 4EE. 2001. P-1-4
16. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P - 341.

17. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P - 77. (P - 19)
18. Fitrat A. Tanlangan asarlar -T.: Ma'naviyat, 2010-301 b.
19. Abu nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Abdulla Qodirid nomidagi nashriyot, 1997.
20. J. Rumi. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.- 272 b.
21. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon»-2015.-155 b.
22. Aristotel. Sochineniya V 4-x tomax. -M.: 1975. ch.1.
23. Asmus V. Antichnaya filosofiya. -M.: 1999.
24. Abu Ali ibn Sino tug'ilgan kunining 1000 yilligiga bag`ishlangan maqolalar to‘plami. -T.: Fan nashriyoti, 1980.198 b.
25. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi - T.: Universitet, 2011.
26. Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jihatlari. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Universitet, 2010.
27. Axborotlashuv va jamiyat ma'naviyati. Ilmiy maqolalar to‘plami - T.: “Iqtisodiyot” - 2013 136 6.
28. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti -T.: Yangi asr avlodi, 2004.-23 b.
29. Bozorov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010
30. Yoqubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Universitet, 2007.
31. Yoqubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidagi o‘rnii T.: "Star - Poligraf", 2010.-180 b.
32. Jo‘raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. - T.: Ma'naviyat, 2008. -560 b.
33. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. -T.: Falsafa va huquq, 2007.
34. Mamashokirov S., Usmanov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari. -T.: Fan, 2009.

35. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy huquqiy asoslari. -T.: O‘zbekiston. 2007.
36. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - T.: Yangi asr avlodi. 2008.
37. Ochil迪yev A. Milliy goya va millatlararo munosabatlar. - T.: O‘zbekiston. 2004.
38. Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik. -T.: Istiqlol, 2009.
39. Plutarx. Saylanma. Z.A’lam va Urfon Otajon tarjimasi. - T.: Yangi asr avlodi, 2006.
40. Saifnazarov I. Kurs leksiy po filosofii. - T.: TDIU, 2004.
41. Sirojiddinov I. Mirzo Ulugbek dunyosi.-T.: “Sharq”-2015.108 b.
42. Qahhorova Sh. Global ma’naviyat-globallashuvning g`oyaviy asosi.-T.:Tafakkur, 2009. -670 b.
43. Qurbonova L. Borliq falsafasi. -Andijon: ADU, 2009
44. Qurbonova L. Inson falsafasi. -Andijon: ADU, 2009
45. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
46. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: O ’FMJ, 2006.
47. O‘zbekiston : dinlararo hamjihatlik - tinchlik garovi.-T.:2005.
48. Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi - T.: Axborot texnologiyaiari, 2008.
49. Shermuxamedova N.A. Fan falsafasi. -T.: Noshir, 2017. -3606
50. Shermuxamedova N.A. Texnika falsafasi. -T.: Universitet, 2017. -420 b
51. To‘raev B.O. Hozirgi zamon tabiatshunosligi konsepsiyalari.-Toshkent, Tafakkur, 2009.
52. To‘raev B.O, Borliq: mohiyati, shakllari va turlari.-T.: Falsafa va huquq instituti.2011.
53. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom sxema.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
54. Sharipov M. Fayzicho‘jaeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.

55. Shermuxamedova N.A. Siyosiy mentalitet va davr ruhining dialektikasi.-T.: Noshir, 2017, 220 b.

56. A.Sher. Axloqshunoslik (Darslik). –T.: O‘FMJN, 2010. A.Sher estetika (Darslik). – T.: O‘FMJN, 2014.

57. Internet saytlari:

58. www.Ziyonet.uz

59. www.favlasuf.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1-MAVZU FALSAFANING FAN VA DUNYOQARASHGA DOIR MOHIYATI.....	5
2-MAVZU: BORLIQ FALSAFASI (ONTOLOGIYA)	23
3-MAVZU. RIVOJLANISH FALSAFASI.....	42
4-MAVZU: BILISH NAZARIYASI	69
5-MAVZU. MANTIQ BILISH NAZARIYASINING TADQIQOT OBYEKTI	80
6-MAVZU. JAMIYAT VA INSON FALSAFASI	104
7-MAVZU. AXLOQIY QADRIYATLAR (ETIKA)	121
8-MAVZU. ESTETIKA NAZARIYASI	137
9-MAVZU. GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT	171
10-MAVZU. GLOBAL KORRUPSIYA IJTIMOIY-MADANIY INQIROZ OQIBATI	190
11-MAVZU: DIN MADANIYAT FENOMENI	207
12-MAVZU. BUDDAVIYLIK VA XRISTIAN DINI TARIXI VA FALSAFASI	226
13-MAVZU. ISLOM DINI TARIXI VA FALSAFASI	260
14-MAVZU. ISLOM QADRIYATLARI	295
15-MAVZU. DINIY MUTAASSIBLIK VA DINDORLIK	328
GLOSSARIY (falsaфа fanidan qisqacha izoh)	370
ASOSIY ADABIYOTLAR.....	376

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

Lazizbek Xaitov

Falsafa

Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Muharrir:

H. Qahhorov

Texnik muharrir:

M.Ismoilov

Musahhih:

S.Abdurahmonova

Sahifalovchi:

X.Axrarov

Nashriyot litsenziyasi №040075. 23.09.2022. Original maketidan bosishga ruxsat etildi: 08.04.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog‘izi. Bosma tobog‘i 24. Adadi 100. Buyurtma № 33



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti. Buxoro shahri
Hofiz Tanish Buxoriy ko‘chasi, 190-B uy. Tel: (97) 736-20-11
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUKHARA HAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 344-uy